



IJTIMOIY FALSAFA

NODIR Kuziyev

Nodir Kuziyev



IJTIMOIY FALSAFA

O'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Nodir Kuziyev

IJTIMOIIY FALSAFA

O'QUV QO'LLANMA

*60220500-Falsafa (yo'nalishlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim
yo'nalishlarida taxsil olayotgan talabalar uchun*

BUXORO – 2023
«DURDONA» nashriyoti

87.6ya73

101.1:316(075.8)

K 88

Nodir Kuziyev

Ijtimoiy falsafa [Matn] : o'quv qo'llanma / Nodir Kuziyev – Buxoro:
«Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2023. – 412 b.

UO'K 101.1:316(075.8)

KBK 87.6ya73

TAQRIZCHILAR:

Sharipov A.Z.

– Buxoro davlat pedagogika instituti Falsafa fanlari doktori (DSc) professor

Choriyev S.A.

– Qarshi davlat universiteti Falsafa fanlari doktori, professor

Ushbu o'quv qo'llanmada jamiyat, uning falsafiy tahlili, tamoyillari, jamiyat hayotining asosiy sohalari, unda kechayotgan harakat, o'zgarish, taraqqiyot jarayonlarining mohiyati, o'ziga hos jihatlari, jamiyatda amal qilinadigan umumiy qonunlar, jamiyatni ilmiy anglash yo'llari va usullari, umuminsoniy muammolarga doir masalalar o'z ifodasini topgan. Mazkur o'quv qo'llanma bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari va falsafa faniga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6 noyabrdagi №-491 sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-04-161-7

© Nodir Kuziyev

Annotatsiya: Ushbu o' quv qo' llanmada jamiyat, uning falsafiy tahlili, tamoyillari, jamiyat hayotining asosiy sohalari, unda kechayotgan harakat, o' zgarish, taraqqiyot jarayonlarining mohiyati, o' ziga hos jihatlari, jamiyatda amal qilinadigan umumiy qonunlar, jamiyatni ilmiy anglash yo' llari va usullari, umuminsoniy muammolarga doir masalalar o' z ifodasini topgan. Mazkur o'quv qo'llanma bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari va falsafa faniga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Аннотация: В этом учебнике рассмотрено общество, его философский анализ, принципы, основные сферы жизни общества, происходящее в нем движение выражены характер процессов изменения и развития, их специфические аспекты, общие закономерности, применяемые в обществе, пути и методы научного познания общества, вопросы, связанные с общечеловеческими проблемами. Это учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата и тех, кто интересуется философией.

Resume: This textbook examines society, its philosophical analysis, principles, main spheres of social life, and the movement taking place in it the nature of the processes of change and development, their specific aspects, general patterns applied in society, ways and methods of scientific knowledge of society, issues related to universal human problems are expressed. This This study guide is intended for undergraduate students and those interested in philosophy.

KIRISH

Ijtimoiy falsafa fani — barcha boshqa fanlar singari ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida o'zining o'rnini va mavqeiga ega bo'lib, uni o'rganish jarayonida ma'lum ijtimoiy — siyosiy, falsafiy g'oyalar xamda iisonparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi qarashlar shakllanmoqda. U falsafa singari eng qadimiy fanlardan xisoblanadi, O'zbekiston istiqloлга erishgandan so'ng xalqlarning o'tmish an'analari, milliy qadriyatlari, madaniy xususiyatlari yangicha tamoyillar asosida, demokratik jarayonlar bilan bog'liq xolda o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy falsafa fani jamiyatda ro'y berayotgan ana shu o'zgarishlarni atroflicha o'rganadi, ularni xalqimiz ongiga singdirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy falsafa — insonni, uning jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyat a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini, ongli ijtimoiy faoliyatini juda chukur ilmiy taxlil qiladi. Ijtimoiy falsafa insonni, jamiyatni doimiy rivojlanib turuvchi jonli ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Ijtimoiy falsafiy yondashuvning eng muhim jixati jamiyat xayotida inson shaxsining o'rnini anglashdan iboratdir. Insonni barcha davrlarda nafaqat uni o'rab turgan jamiyatning jumboqlari va xodisalari, balki odamlar xayoti bilan bog'langan muammolar xam qiziqtirib kelgan. Mamlakatimizda ijtimoiy falsafaning rivojlanib va takomillashib borishi insonni, jamiyatni chuqur o'rganish va anglashga, insoniyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini hal etishga imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishiga jaxon xalqlari, jumladan O'rta Osiyo mutafakkirlari xam o'z hissalarini qo'shgan va hozirgi kungacha ham qo'shib kelmoqdalar. Bu fan kishilarni dunyoqarashi, tafakkuri hamda madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Mazkur fan jamiyat

a' zolarining dunyoqarashini ijtimoiy – siyosiy qarashlarini shakllantiribgina qolmay, shaxsda ijtimoiy ma' suliyat hissini oshiradi, ma' naviy, axloqiy jihatdan komil insonni tarbiyalashda katta rol o' ynaydi.

Ijtimoiy falsafaning mazkur xususiyati hozirgi kunning dolzarb masalalari: yer yuzida tinchlik va osoyishtalikni mustaxkamlash, urush va terrorizm xavfini oldini olish, turli xil irsiy kasalliklar, ekologik muammolar, giyohvand moddalar iste' mol qilish va ular savdosi bilan shug' ullanish kabi umumbashariy muammolarni insoniyat manfaatlari nuqtai – nazaridan hal etishdagi o' rnini ilmiy asoslab beradi, hamda milliy qadriyatlarni avloddan – avlodga yetkazishda muhim rol o' ynaydi. O' zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga muroja atnomasida “Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg' unchi yot g' oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma' rifat o' rnini jaholat egallashiga yo' l qo' ymaymiz”. Buning uchun nafaqat mas' ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo' yicha oila, mahalla va ta' lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur. Ta' lim sifatini oshirish - Yangi O' zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to' g' ri yo' lidir.

Sharq donishmandlari, “Zakovat bor joyda ulug' lik bo' ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo' ladi”. deb ta' kidlagan edilar. Bu fikrlar zamirida chuqur falsafiy

g'oyalarni mujassam bo'lganligini anglashimiz lozim. Zero, mamlakat taraqqiyoti ko'p jihatdan ilmiy, keng falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarimizni tarbiyasiga Buning uchun esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: **“yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” bog'liq¹, tarixiy zaruriyat hisoblanadi.**

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda «Ijtimoiy falsafa»dan tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma talabalarda, jamiyatning ma'naviy sohasida faoliyat ko'rsatadigan kadrlarda, shuningdek, falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot muammolarini to'g'ri tushunish, jamiyat hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar mohiyatini ilmiy anglash va xolisona idrok qilishga yordam beradi. Bu o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'llanmadan o'rin olgan ijtimoiy falsafaning nazariy masalalari, ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyoti, jamiyat, uning mohiyati, asosiy sohalari, taraqqiyoti, qonunlari, ijtimoiy voqelikni anglash tamoyillari hamda usullari, insonning mohiyati va jamiyat bilan munosabati, shuningdek, madaniyat, sivilizatsiya, halqaro munosabatlar va global muammollar kabi masalalar tahlili talabalarda ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatni qaror toptirishda ko'mak beradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.// <https://president.uz. /uz/lists/view/4057>.

1-MAVZU: IJTIMOIIY FALSAFA, UNING PREDMETI. JAMIYATNI O'RGANISHDA TIZIMLI TAHLIL.

REJA:

1. Falsafa va ijtimoiy falsafa, ular o'rtasidagi umumiylik va aloqadorlik.

2. Ijtimoiy falsafaning baxs mavzusi, maqsad va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: falsafa, ijtimoiy falsafa, antropologiya, gnoseologiya, metodologiya, ontologiya, dialektika, metafizika, sinergetika.

Hozirgi davr insoniyat tarixining burilish davrlaridan biridir. Buni shu kunlarda jaxonda xususan mamlakatimiz hayotida ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Xozirgi davrda butun jaxonda va mamlakatimiz xayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisa va jarayonlarini to'g'ri tushunib olish, ularga to'g'ri munosabatni shakllantirish, ularni hozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib to'g'ri baxolash, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va pirovard natijada ijtimoiy voqeyelikni bilish xar bir kishidan falsafa fanining soxalaridan biri bo'lgan ijtimoiy falsafa haqida chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Ma'lumki ijtimoiy borliq haqida xaqqoniy bilimga ega bo'lish uchun avvalo "ijtimoiy falsafa" tushunchasining mohiyati va mazmuniga to'xtalishga to'g'ri keladi. Bu tushuncha ba'zan "jamiyat falsafasi" "sotsial falsafa" "inson falsafasi" shaklida xam qo'llaniladi. Ijtimoiy falsafa tushunchasi ijtimoiylik, ijtimoiy xodisa ijtimoiy jarayon tushunchalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning tarkibi va mazmunida muxim o'rin tutadi.

Bu tushunchalar jamiyatda ro' y beradigan voqeya va xodisalar jarayonlarni ifodalaydi. Insonning biosotsial mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy borliq ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari ijtimoiy falsafaning fan sifatida baxs mavzusini tashkil etadi. Jamiyat bir butun yaxlit tizim sifatida rivojlanadimi? Uning xarakatlantiruvchi kuchlari nimada?

Inson "me' yori" ning namoyon bo'lishining ibtidosi bo'lgan ijtimoiy borliq nima? Uning murakkab xilma-xil qirralari nimalardan ibodat? Inson qanday paydo bo'lgan, uning sir-asrorlari nimada? Shaxsning jamiyat taraqqiyotida roli qanday tushunmoq kerak? Inson ijtimoiy borliq mohiyatini uning istiqbolini oldindan bilishga qodirmi? Umumbashariy muammolar, va ularni hal qilish yo'llari qanday? Terrorizm xavfi, uni oldini olish bartaraf etish mumkinmi? Yuqorida qayd qilingan savollarga javob berish va kishilarda ilmiy falsafiy dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy falsafani muxim vazifasidir. Ijtimoiy falsafiy bilimlar qadim-qadimdan mavjud bo'lgan. Dastlabki ilmiy, insoniy ijtimoiy falsafiy bilimlar Sharq mamlakatlarida vujudga kelganligi jaxon olimlari tomonidan e'tirof etilgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Xindiston, Xiton, Misr, Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Shosh, Afrosiyob) inson, jamiyat, adolat va adolatsizlik hayot va o'lim falsafasiga oid bilimlarning noizchil bo'lsada vujudga kelishi kundalik xayotiy ehtiyoj, dehqonchilik va chorvachilik rivoji, inson, jamoani muxofaza qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Markaziy Osiyodan inson va tabiatga oid ijtimoiy falsafiy qarashlar "Avesto" da xikmat maqol va

rivoyatlarda o'z ifodasini topgan. Qadimgi yunonlarning Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ilmiy-madaniy sohalardagi aloqalari uchun keng yo'l ochib bergan edi. Ayni paytda bu aloqalar qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi uchun ham qulayliklar yaratgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Evilet, Suqrot, Aflotun, Protogar, Geraklit, Arastuning inson davlat, jamiyat, xaqidagi bilimlarning rivojiga oid ta'limotlarini alohida ta'kidlash lozim. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik xurfikrlik, ko'plab ijtimoiy falsafiy oqimlarning, to'garak va maktablarning shakllanishiga olib kelgan. Antik dunyo yaratgan inson va jamiyat falsafasi Osiyo mutafakkirlarining ijodiy faoliyatida rivojlantirildi, ularning ilmiy qarashlari jamiyat inson xaqidagi fanining taraqqiyotida muxim rol o'ynagan. Rim imperiyasining qulashi faqat siyosiy soxadagi emas, balki ilmiy-madaniy soxalarda xam tanazzulini kuchaytirgan edi. Biroq, inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq ta'limotlar, izlanishlar butunlay to'xtab qolmagan. Bu davrda yaratilgan ilg'or ijtimoiy falsafiy an'analar Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi va bu sohada yangi kashfiyotlar qilindi. IX-XP asrlarda arab xalifalari Xorun ar-Rashid, uning o'g'li Ma'mun va xorazmshoh Ma'munning xomiyligida o'sha davrning o'ziga xos fanlar akademiyalari vujudga kelgan. Xususan, IX asr o'rtalarida Bag'dodda «Bayt al-hikma» (Donishmandlar uyi), Xorazmda «Ma'mun akademiyasi» vujudga keldi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso al Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg'iloniy va boshqalar matematika, astronomiya, meditsina, jamiyatshunoslik, fikh va siyosatga oid fanlarni rivojlantirdilar.

Sharqda ilmiy ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan edi. Sharq olimlari qadimgi yunon mutafakkirlarining ilg'or an'alarini davom ettirganlar, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etganlar. Sharq falsafiy tafakkuri barkamol inson shaxsini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga, tabiat va jamiyat, inson sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg'or ilmiy qarashlari va asarlari yevropada ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. yevropaliklar Albaron (Al-Beruniy), Avitsenna (Ibn Sino), Al-Ferganus (AlFarg' oniy), Ulug' bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o'rgandilar, ularning an'alarini davom ettirdilar. Buyuk italyan mutafakkiri Dante Alegeri o'zining «Ilohiy komediya» (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari qatoriga qo'ydi va ulug' ladi.

Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalarini matematika, algebra, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, geografiya, meditsina, tarix, tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muso al Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo'lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asari bilan meditsinani ilmiy asosga qo'ydi va uning asarlari yevropada ko'p asrlar davomida muhim qo'llanma bo'lib keldi. Mirzo Ulug' bekning astronomiyaga

oid «Ziji jadidi Ko' ragoniy» asari fanga qo' shilgan muhim hissa bo' ldi. U hozir ham o' z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu tadqiqotlarning barchasining zaminida inson aqli zakovati, jamiyat va davlat taxlili masalasi yotgan. Mavjud adabiyotlarda ta' kidlanishicha, yevropada fanning alohida faoliyati shakli sifatida rivojlanishi XVI- XVII asrlarga to' g' ri keladi. Bu davrda Iogann Kepler, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak Nyuton asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri Frensis Bekon, fransuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish metodlarini ishlab chiqdilar. Fanning tabiatni o' zlashtirish va jamiyatni takomillashtirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berdilar, «Bilim- kuchdir» shiorini ilgari surdilar. Bu davrda fan va falsafa, jamiyat falsafasi bir-biridan keskin ajralmagan edi. Ular o' z asarlarini «pozitiv eksperimental falsafa» deb atar edilar. yevropada ilm-fanning ayniqsa sotsium falsafasi rivojlanishi kishilarning olam haqidagi qarashlarini tubdan o' zgartirdi. Jamiyatga dunyoviy fanlar nuqtai nazaridan qarash imkoniyati vujudga keldi, ya' ni ijtimoiy voqeylikka bir yoqlama diniy qarashdan keskin farq qiladigan ilmiy qarash shakllandi.

Jahon ijtimoiy-falsafiy ta' limotining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq va G' arb olimlari munosib hissa qo' shganlar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma' lum bir davrlarida Sharq mamlakatlari yetakchi mavqeyini egallaganlar. Osiyo va yevropa mamlakatlari xalqlarining jahon falsafa fani rivojidlagi rolini biryoqlama bo' rttirish yoki kamsitish nazariy jihatdan xatodir. Har qanday fan o' z mohiyatiga qo' ra umumbashariydir. yer

yuzidagi har bir xalq kattakichikligidan qat'iy nazar, uning rivojiga o'z hissasini qo'shib keldi.

XIX asrning o'rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyusion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o'zgarishiga, jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyotida yangi davr boshlanganligidan dalolat berdi. Fizika sohasida: optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o'rganilishi, ximiya sohasida kimyoviy birikmalar xossalari o'rganilishi, D. I. Mendeleevning elementlar davriy sistemasining yaratilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabilarda yaqqol ko'rindi. Bu davrda sotsiologiya mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarni oqilona hal etish va jamiyat istiqbollari belgilash imkonini berdi. Yevropa olimlari tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsafiy tahlimotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Xususan, I. N' yuton tomonidan fizika sohasida qilingan kashfiyotlar tabiat va jamiyatning ilmiy manzarasini yaratishga, Charlz Darvinning ilmiy kashfiyotlari esa, butun olam evolyusiyasi to'g'risidagi falsafiy qarashning shakllanishiga, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining mashhur vakillari : Ismoilbek Gaspirali, Abdulla

Avloniy, Behbudiy, Ahmad Donish, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar O'zbekistonda fan va ma'rifatni keng rivojlantirishga o'oyasini ilgari surdilar. O'zbekistonning o'rta asrchilik bid'atlariga qarshi mavjud siyosiy tuzumni isloh qilish zarurligini anglab yetdilar. Jahonning ilg'or fan va texnika yutuqlaridan o'zbek aholisini bahramand etishga harakat qildilar. Biroq Rossiya barcha Turkiston tomonidan Turkistonning mustamlakaga aylantirilishi oqibatida jadidchilarning mahrifatparvarlik harakatlari rivojlana olmadi. Mustabid tuzum Turkiston xalqlarining ilm-fan va zamonaviy texnika sirlarini egallashi uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratgan bo'lsa ham uning boy ma'naviy merosidan bahramand bo'lishi, ajdodlarning ilg'or ilmiy-madaniy an'alarini rivojlantirishga imkon bermadi. Milliy mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy-intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-fan va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, jahonning mashhur ilm dargohlarida o'qisho'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol inson shaxsini shakllantirishda ilm-fan xulosalariga tayanish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Holbuki, antropologiya insonni ayni bir vaqtda ham biologik, ham psixologik mavjudot sifatida o'rganadi. ijtimoiy falsafa uchun insonning asosiy ijtimoiy mavjudot sifatlari, uning tarixdagi roli va shu orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, sivilizatsiyali taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash muhimroqdir.

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro' y beradigan hodisa va jarayonlarni tahlil qilishda quyidagi prinsiplarga tayanadi:

Jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida yondashish. Bunda tizim elementlariga bir-biri bilan uzviy bog' liq deb qaraladi; ular o' rtasidagi sabab-oqibat aloqalari va ichki qonuniyatlarni o' rganishga alohida e' tibor beriladi.

Tarixiy yondashuv. Bunday yondashuvda jamiyat hayotida ro' y beradigan hodisa va jarayonlar o' zgarish va rivojlanishda olinadi. Ijtimoiy tizim tarkibiga kiruvchi har bir element boshqa elementlar bilan uzviy aloqadorlikda o' rganiladi; ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda ularni tarixiy kontekstdan sun' iy ravishda ajratib olish yaramaydi.

Ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish manbaini tashkil etuvchi ziddiyatlarni aniqlash va tahlil qilish;

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tarixiy vorislik nuqtai nazaridan o' rganish: taraqqiyotga halaqit berayotgan konservativ, reaksion hodisa va jarayonlarni aniqlash;

Jamiyat rivojlanishini tahlil qilishda mavjudlikka, konkretlikka va konkretlikdan mavhumlikka qarab borish;

Ijtimoiy bilish o' z mohiyati va mazmuniga ko' ra tabiiy-ilmiy bilishdan farqlanadi. Ijtimoiy bilishda muqarrar ravishda siyosiy mafkura, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy ideallar o' z ta' sirini ko' rsatadi. Shu boisdan ham ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilishni bir-biri bilan tenglashtirish yaramaydi. (Ijtimoiy bilimning o' ziga xos xususiyatlari quyida alohida ko' rib chiqiladi).

Ijtimoiy falsafa konkret jamiyatda ro' y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni miridan sirigacha ularning juz' iy tomonlarini batafsil o'rganishni o'z olidga maqsad qilib qo'ymaydi. (Bu-sotsiologiya fanining vazifasidir).

Biron bir ijtimoiy fan jamiyat hayotida ro' y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni to'raligicha qamrab ololmaydi. Ijtimoiy falsafa esa jamiyatni bilishda faqat fan xulosalarigagina emas, balki badiiy adabiyot, san'at, din, siyosat, mafkura sohasida erishilgan yutuqlarga ham tayanadi. Hozirgi paytda ijtimoiy falsafada xilma xil oqimlar va maktablar vujudga kelganligining boisi ana shundadir.

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro' y berayotgan jarayon va hodisalarning tub mohiyatini to'laroq aks ettirsagina, ijtimoiy amaliyotdan uzilib qolmasagina qadr-qimmatga, ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy falsafaning buyuk insonparvarlik, taraqqiyparvarlik mohiyati shundaki, u jamiyatni aniq bir maqsadga muvofiq ravishda oqilona boshqarishga yordam beradi. Biroq boshqa sistemalarda bo'lgani singari jamiyatda ham onglilik ongsizlik bilan, tartibsizlik tartiblik bilan ba'zan almashinib turadi. Jamiyat a'zolarining intellektual salohiyati ortib borishi bilan jamiyatni ongli ravishda boshqarish, uni aniq bir maqsadga yo'naltirish imkoniyati ortib boradi.

Ijtimoiy falsafaning dunyoqarash va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan qoidalari barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning rivojlanishiga jamiyatni ongli boshqarishga yaqindan yordam beradi.

Ijtimoiy falsafa qator funksiyalarni bajaradi. U avvalo kishilarda ijtimoiy voq' eilik to' g' risidagi qarashlarni shakllantiradi, kishilarning ijtimoiy borlig' i bilan ularning ongi o' rtasidagi munosabat muammosini hal etishga yordam beradi. Insonning jamiyatdagi o' rni, roli, inson hayotining ma' nosi singari masalalari haqida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi ijtimoiy fanlarning rivojlanishi, xodisa va jarayonlarni tadqiq etishning umumiy yo' naliqlarining belgilashda, uning qoidalaridan dasturul amal sifatida foydalanishda yaqqol ko' zga tashlanadi.

Ijtimoiy falsafaning prognostik funksiyasi shunda namaoyon bo' ladi, uning qoidalari jamiyatning rivojlanish istiqbollari oldindan ko' rishga, kishilar faoliyatini bilishga yordam beradi; kishilar faoliyati esa jamiyat taraqqiyotining mazmunini belgilaydi.

Kishilar falsafiy bilim, dunyoqarash va metodologiyani chuqurroq egallab borgani sayin ijtimoiy falsafaning yuqorida ko' rib chiqilgan funksiyalari to' laroq namoyon bo' ladi.

Falsafiy tafakkur madaniyatiga ega bo' lgan kishilarda izchil va sistemali fikrlash, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni dialektik bog' liqlikda o' rganish qobiliyati shakllanadi. Jamiyatning har bir ongli a' zosi o' z kasb-kori va ixtisosidan qat' i nazar jamiyat to' g' risidagi falsafiy bilim va ta' limotlarni chuqur egallash orqaligina tevarak-atrofdan ro' y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqishi sabablari va oqibatlarini bilish, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo' ladi; bunyodkor,

yaratuvchan kuchga aylanadi, ijtimoiy falsafaning inson hayotidagi ahamiyati ham ana shundadir.

Jamiyatni falsafiy bilish - jamiyat to'g'risida eng umumiy bilimga ega bo'lish, jamiyatni bir butun holda idrok etish demakdir. Bunday bilimga ega bo'lish orqaligina jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida o'rganishga, uni tashkil etuvchi elementlar faoliyatini muvofiqlashtirishga erishishi, jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlash mumkin. Jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilimgina barcha ijtimoiy hodisalarning umumiy asosini aniqlashga, ya'ni ijtimoiy hayot barqarorligining fundamental asoslarini belgilashga, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolishga imkon beradi.

Ijtimoiy falsafaning falsafiy bilimlar va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni, roli va bahs mavzui singari masalalarga aniqlik kiritish muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Ayniqsa, ijtimoiy falsafa va sotsiologiya, tarix falsafasi va ijtimoiy falsafaning o'zaro munosabatini aniqlash hayotiy zaruriyatga aylandi. Gap shundaki, uzoq yillar davomida sobiq sovet jamiyatida o'qitib kelingan tarixiy materializmga ayni bir vaqtda ham ijtimoiy falsafa, ham sotsiologiya sifatida qarab kelindi. Holbuki, ijtimoiy falsafa sotsiologiyadan o'z predmeti, tushunchalari, bilish usullariga ko'ra tubdan farq qiladi: ijtimoiy falsafa umumbashariy falsafaning tarkibiy qismi, yaxlit jamiyat to'g'risidagi ta'limotdir;u empirik tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanib konkret jamiyat to'g'risida aniq tushunchalar, beradi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya fanining hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning xulosalari, yutuqlariga tayanib,

jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning o' ziga xos taraqqiyot qonunlari to' g' risida eng umumiy tasavvurlar hosil qilishga imkon beradi. Ijtimoiy falsafa umuman kishilik jamiyatining paydo bo' lishi, jamiyatning mohiyati, insonning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi o' rni va roli to' g' risida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni tadqiq etish bilan emas, balki jamiyat to' g' risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e' tibor beradi. Ijtimoiy falsafaning bilish tushunchalari (jamiyat, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat , xalq, millat, shaxs va h.o.) hayotda ko' p qo' llaniladigan tushunchalardir.

Ijtimoiy falsafa tushunchalar umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan ajralib turadi.

Sotsiologik tushunchalar esa konkret va ilmiyligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, sotsiologik tushunchalar (sotsial struktura, sotsial strafikatsiya, ijtimoiy harakat, ijtimoiy rol, ijtimoiy makon, mobillik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy birlik, ijtimoiy institut va h.o.) alohida olingan konkret jamiyat (ijtimoiy tizim) ning turli tomonlari to' g' risida ilmiy bilimlar beradi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy falsafa jamiyatning eng umumiy tomonlarini yaxlit holda bilishga imkon bersa, sotsiologiya konkret jamiyatning dolzarb muammolarini hal etishga, uning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko' rishga, sotsial kataklizmlar (buxronlar) ni oqilona

hal etishga imkon beradi. Agar sotsiologiya fan sifatida amaliy vazifalarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yssa, ijtimoiy falsafa dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal etishni, «umuman jamiyat nima?», «jamiyat taraqqiyotining asosini nima tashkil etadi?» singari savollarga javob berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaning o'zaro munosabati umumiylik va alohidalikning o'zaro munosabati singaridir.

Har bir alohidalikda umumiylik va o'ziga xoslik bor. Ijtimoiy falsafa o'zining butun e'tiborini alohidalikdagi umumiylikka qaratadi. Har bir xalq, mamlakat yoki konkret jamiyat taraqqiyoti qanchalar noyob, o'ziga xos va betakror bo'lishiga qaramay o'zida umumbashariylik, umumiylikning muhim belgilarini mujassamlashtiradi. Ana shu umumiy jihatlar qanchalik to'laroq, yaqqolroq namoyon bo'lishi bilan yaxlit jahon hamjamiyatining shakllanishi, umumiy tinchlik va totuvlikning qaror topishi uchun qulay imkoniyatlar vujudga kela boshlaydi.

Ijtimoiy falsafa barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarga, xususan, sotsiologiyaga yo'nalish beradigan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy fan vakillarining e'tiborini ijtimoiy organizmning normal faoliyat ko'rsatishida har bir a'zo (element) ning qanday rol o'ynashiga, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga qaratadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat hayotining moddiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, madaniy, badiiy–estetik, ekologik, etnik, milliy, demografik jihatlariga alohida e'tibor beradi. Agar jamiyat moddiy ne'matlar ishlab chiqarmasa, muqarrar ravishda o'zini o'zi halokatga mahkum etgan bo'lardi. Biroq moddiy

ne' matlar ishlab chiqarish jamiyat hayotining bosh maksadiga aylanmasligi kerak, chunki inson hayotining ma' nosi, maqsadi qorin to' ydirish, tanani semirtirish, maishatbozlik emas, balki ma' naviy kamolotga erishish, ilohiy ruh, mutlaq ruh bilan uyg' unlashish bo' lgani singari jamiyat hayotining bosh maqsadi ma' naviy kamolotga erishish, istiqbolda erkin grajdanlik jamiyatini yaratishdir. Moddiy ne' matlar ishlab chiqarish esa ana shu kamolotga erishish vositasi bo' lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy falsafa va sotsiologiyani bir-biridan farqlash muhim nazariy va metodologik ahamiyatga egadir. Bunda quyidagi holatlarni inobatga olish zarur:

1) sotsiologiya aniq fan sifatida konkret sotsiologik tadqiqot natijalarini umumlashtirish, tahlil qilish orqali konkret jamiyatning ilmiy nazariyasini ishlab chiqadi; mavjud ijtimoiy tuammolarni oqilona hal etishga yordam beradi;

2) Ijtimoiy falsafa tadqiq etish bilan shug' ullanmaydi, balki fan, ijtimoiy amaliyot, san' at, siyosat va h.o. xulosalariga tayanib, jamiyat to' g' risida yaxlit ta' limot yaratadi; ijtimoiy muammolarning mohiyati to' g' risida eng umumiy tasavvur va qarashlar sistemasini yaratadi;

3) sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlar singari o' ziga xos ilmiy tushunchalar va kategoriyalar bilan ish kuradi; ilmiy faktlar to' plashning o' ziga xos usullaridan foydalanadi;

4) Ijtimoiy falsafaga oid tushunchalar mavxumligi, obrazliligi va ayni aqtda oldoabopligi bilan ajralib turadi;

5) Ijtimoiy falsafa o' z mazmuniga ko' ra ilmiy, diniy, siyosiy, badiiy bo' lishi mumkin;

6) sotsiologiya o' zining ilmiyligi bilan ajralib turadi. Noilmiy sotsiologiya (masalan, tarixiy materializm) o' z qimmatini yo' qotadi;

7) sotsiologiyaning ilmiy bilish metodlari tabiiyotshunoslikning ilmiy bilish metodlariga ancha yaqindir;

8) Ijtimoiy falsafa ijtimoiy borliqni bilishda umumfalsafiy metodlar: induksiya va deduksiya, mavxumlashtirish, analiz va sintez, modellashdan foydalanadi. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy fanlarga bo' lgan munosabatini belgilashda quydagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni yaxlit holda tasvirlabgina qolmay, balki ijtimoiy institutlarni jamiyat hayotidagi o' rni va rolini belgilaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyatning o' zaro munosabati masalasi muhim o' rin tutadi. Uchinchidan, ijtimoiy falsafa jamiyatning asoslarini, ya' ni mavjudlik shart-sharoitlarini aniqlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta' minlash muammolari ustida bosh qotiradi. Nihoyat, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni ilmiy bilishning metodologik masalalarini hal etadi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Ijtimoiy falsafa fani nimani o'rgatadi?
2. Ijtimoiy falsafani vujudga kelishidagi g'oyaviy nazariy manbalarni so'zlab bering?
3. Ijtimoiy falsafa rivojlanishining asosiy yo'nalishlari qaysilar?
4. Ijtimoiy falsafa fanining taraqqiyot bosqichlari haqida so'zlang.
5. Jamiyat tarixiy taraqqiyotini o'rganish jarayonida vujudga kelgan turli xil oqimlar qaysilar?
6. Ijtimoiy falsafa fanining asosiy funksiyalarini sanab bering.

7. Ijtimoiy falsafani o'qitishning ahamiyati nimadan iborat?

Mavzu bo'yicha taqdimotlar

1-Vizual material

Ijtimoiy falsafaning umumnazariy va metodologik vazifalari:

Jamiyat mohiyati

Ijtimoiy hayotning tub mohiyatini bilishda

Jamiyatning yaxlit ijtimoiy sistema sifatida tadqiq etishda

Ijtimoiy hayotning asosiy sohalarini, jamiyatni moddiy va ma'naviy asoslarini o'rganishda

Tarixning mohiyati va ma'nosini

Insonning falsafiy muammolarini tadqiq

S. L. Frankning fikricha, ijtimoiy falsafaning vazifasi «jamiyat o'zi nima, uning inson hayoti uchun qanday ahamiyati bor, uning haqiqiy borlig'i nimada va u bizdan nimani talab etadi» singari savollarga javob berishdir.

3-Vizual material

Ijtimoiy falsafaning bilish obyekti ijtimoiy hayot va ijtimoiy jarayonlardir.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni bilishda unga xos bo'lgan tabiiy tomonlarga, individual, shaxsiy jihatlarga emas, balki ijtimoiy hayotni tadqiq etishga ko'proq e'tibor beradi. Ijtimoiy hayot iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarni o'z ichiga oladi.

4-Vizual material

Ijtimoiy harakat va ijtimoiy munosabatlarning **asosiy subyektlari: ijtimoiy guruhlar yoki yaxlit jamiyatdir.** Ijtimoiy falsafa - sosial hodisalarning o'zaro aloqalari umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari to'g'risidagi **falsafiy qarashlar sistemasidir.**

5-Vizual material

Ijtimoiy falsafa quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Gnoseologik
funksiya: yaxlit

Metodologik funksiya:
ijtimoiy hodisalarni

Ilmiy bashorat
funksiyasi.

Dunyoqarash funksiyasi.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy falsafaning predmetiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiy falsafaning falsafa fani bilan aloqasi.
3. Ijtimoiy falsafaning funksiyalarinitasvirlab bering.
4. Ijtimoiy falsafaning dunyoqarashlik funksiyasining mohiyatini tushuntirib bering.

Ma'ruza mashg'ulotida foydalaniladigan yangi interfaol usullar.

Aqliy Hujum metodi

Aqliy Hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni Hal etish uchun. Masalan

“Ijtimoiy falsafa fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi qanday”. Asosiy qoidalar quyidagilar:

1. Aytilayotgan barcha g‘oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g‘oyalarga nisbatan tanqidning mavjud emasligi.
3. G‘oyani taqdim etayotgan paytda so‘zlovchining gapini bo‘lmaslik.
4. So‘zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

Metodni ishlatish texnologiyasi.

1-metod. Guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo‘yiladi.

1. O‘qituvchi dars jarayonida tashabbusni o‘z qo‘liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi. "Sotsiologiya fanlarining «Ijtimoiy falsafa» fani bilan aloqadorligi" barcha talabalar o‘z fikrlarini mustaqil erkin aytishlari so‘raladi.

2. Barcha, hatto, axmoqona g‘oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o‘qituvchi o‘z daftariga yo doskaga yozib boradi yoki multimedia orqali ekranda ko‘rsatadi. Ixtiyoriy ikki va undan ortiq talabani ushbu jarayonga jalb qilish Ham mumkin.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g‘oyalar to‘planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo‘linishi mumkin.

Muhim g‘oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo‘lishi va munozaralarda muhokama etilgan bo‘lishi kerak.

Ko‘pincha muhim g‘oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog‘ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez-tez yuzaga kelib turadi. Ya‘ni yuqoridagi ixtiyoriy ishchi guruHdan foydalanish mumkin. Yakuniy xulosaga kelish, ayniqsa, qiyin. Bu tabiiy, chunki xar bir ishtirok etuvchida «o‘zimning g‘oyam eng yaxshi» degan xususiyat xosdir. Umumiy pozisiya, xar qalay, tezda topiladi. Bunda auditoriyada o‘tirgan barcha talabar nomlari doskaga yoziladi bildirilgan fikrlar bo‘yicha xar bita talabaga xama birgalikda

ishtirokchining o'zi bundan mustasno ovoz beriladi, shuni unitmaslik kerakki yakuniy xulosani albatta o'qituvchining o'zi beradi. Ko'pchilik tomonidan eng ko'p ovoz to'plagan talabaning g'oyasi g'olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi boTishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

2-mavzu. Ijtimoiy falsafaning nazariy metodologik asoslari.

REJA:

1. Ijtimoiy falsafaning gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Ijtimoiy falsafaning tushunchalari va asosiy tamoyillari.
3. Ijtimoiy falsafaning funksiyalari.

Tayanch tushunchalar: falsafa, ijtimoiy falsafa, antropologiya, gnoseologiya, metodologiya, ontologiya, dialektika, metafizika, sinergetika.

Falsafiy bilimlarning asrlar osha taraqqiy etib borishi natijasida ulaming zahirida bir qator falsafiy fanlar yuzaga keldi. Falsafaning strukturasi bosqichma-bosqich shakllanib uning tarkibida avval ontologiya, o'zaro aloqadorlik va taraqqiyot konsepsiyasi, gnoseologiya, formal mantiq kabi tarmoqlar, so'ng beshinchi tarkibiy element sifatida ijtimoiy falsafa falsafiy fanlar tizimidan o'rin oldi. Demak, ijtimoiy falsafa fan, ilmiy bilimlar taraqqiyotida amaliy qiladigan differentsiatsiya jarayonining natijasi hisoblanadi. Ilmiy bilimlar taraqqiyotida differentsiya ikki xil tarzda kechgan. Dastlabki davrlarda odamlarning bilimlari falsafa fani doirasida jamlangan, keyinchalik uning asosida boshqa fanlar shakllangan.

Ikkinchi yo'nalish muayyan fan doirasida bilimlarning chuqurlashuvi shu fanning tarmoqlarini keltirib chiqargan. Fan doirasida yangi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan fanning yangi sohalari paydo bo'lgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, falsafaning har bir tarkibiy elementining yuzaga kelishi ijtimoiy-tarixiy zarurat taqozosidir. Ijtimoiy falsafaning yuzaga kelishi ham ayni insoniyatning o'z ijtimoiy mohiyatini, birgalikda hayot kechirish sabablari, yashab turgan ijtimoiy borliqning mavjudlik va taraqqiyot qonunlarini, bu obyektiv qonunlar mohiyatini tushunib olishi hamda shu orqali ulardan o'z ideallari, maqsad va mo'ljallarini ro'yobga chiqarish yo'llari va vositalarini aniqlab olishda foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarining hosilasidir. Bu kabi ehtiyojlar inson va jamiyat hayotining u yoki bu jihatlarini o'rganuvchi barcha fanlar, xususan ijtimoiy fanlarning yuzaga kelishi va ularning bir butun tizim sifatidagi integratsiyasini qaror toptirdi. Shu sababli ham ijtimoiy falsafa o'z tadqiqot yo'nalishida mutlaq mustaqil holatda faoliyat yuritmay, balki falsafaning qator tarmoqlari hamda konkret amaliy metodlar bilan qurollangan mustaqil fanlar: ontologiya, gnoseologiya, mantiq, falsafiy antropologiya, axloqshunoslik, nafosatshunoslik, tarix falsafasi, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisod nazariyasi va h.k.lar bilan ilmiy-nazariy hamkorlikda faoliyat yuritadi. Ijtimoiy falsafa boshqa fanlar ilmiy-nazariy integratsiyaga kirishsa-da, obyekt, predmet, bahs mavzusi, funksiyalari va tamoyillari jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shu sababli ham Ijtimoiy falsafaning falsafiy bilimlar va ijtimoiy fanlar tizimidagi o' rni, roli, yondashuvi hamda bahs mavzusidagi o' ziga xosligi singari masalalarga aniqlik kiritish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, falsafa va ijtimoiy falsafa, ijtimoiy falsafa va sotsiologiya, tarix falsafasi va ijtimoiy falsafaning o' zaro munosabatini aniqlash hayotiy zaruriyatga aylandi. Gap shundaki, uzoq yillar davomida sobiq sovet jamiyatida o' qitib kelingan tarixiy materializmga ayni bir vaqtda ham ijtimoiy falsafa, ham sotsiologiya sifatida qarab kelindi. Vaholanki, tarixiy materializm o' z predmeti, tushunchalari, yondashuvi va tamoyillari bilan cheklangan falsafiy ta' limotlardan biri edi, xolos. Shuningdek, ijtimoiy falsafa sotsiologiya fanidan ham o' z predmeti, tushunchalari, bilish usullariga ko' ra tubdan farq qiladi. Ijtimoiy falsafa umumbashariy falsafaning tarkibiy qismi, yaxlit jamiyat to' g' risidagi ta' limotdir, sotsiologiya esa empirik tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanib konkret jamiyat to' g' risida aniq bilimlar beradi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya fanining hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning xulosalari, yutuqlariga tayanib, jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning o' ziga xos taraqqiyot qonunlari to' g' risida eng umumiy tasav urlar hosil qilishga imkon beradi. Ijtimoiy falsafa umuman kishilik jamiyatining paydo bo' lishi, jamiyatning mohiyati, insonning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi o' m i va roli to' g' risida bahs yuritadi.

Shuningdek, ijtimoiy falsafa falsafa fani bilan uzviy bog' liq. Ijtimoiy falsafa jam iyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi

sifatida falsafa fanidan kelib chiqqan. Agar falsafa olam va odam munosabatlari tahlili bilan shug' ullansa, ijtimoiy falsafa jamiyat va inson munosabatlarini tadqiq etadi. Agar falsafa olam, uning mohiyati, qonuniyatlari to'g' risidagi fan bo'lsa, ijtimoiy falsafa olamning tarkibiy qismi bo'lgan jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa falsafa fani bag' ridan o' sib chiqqan. Uni falsafiy ta' limotlarning o' ziga xos ko' rinishi sifatida tahlil qilmoq lozim. Ijtimoiy falsafa ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, antropologiya ta' limotlari bilan bevosita bog' liq, u shu ta' limotlarning jamiyatga izchil tatbiq etilishining natijasi va mahsuli hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa borliq falsafasi, ontologiya ta' limoti bilan bevosita bog' liq ravishda shakllangan. Falsafa borliqni bir butun yaxlit olam sifatida olib o' rganadi. Ijtimoiy falsafa borliqning o' ziga xos ko' rinishi, ijtimoiy borliq, uning mohiyati, qonuniyatlarini aks ettirish bilan shug' ullanadi.

S.E. Krapivenskiy ijtimoiy falsafaning yaxlit borliqning ijtimoiy shaklini o' rganishi uni "sotsial ontologiya" ² deb atash zarurligini ta' kidlaganda, borliqning ijtimoiy ahamiyatga ega bo' lgan barcha jarayonlari, ijtimoiy borliqning yashash va taraqqiy etish qonuniyatlari ijtimoiy falsafaning tadqiqot obyekti bo' lishi mumkinligini nazarda tutadi.

Ijtimoiy falsafa gnoseologiya (bilish) bilan bevosita bog' liq. Falsafa olamni bilishga dahldor muammolar bilan

² С.Э.Крапивенский. Социальная философия: Учебник для гуманитар.-соц. Специальностей высших учебных заведений. 3-е изд., исправленное и дополненное. – Волгоград: Коситет печати, 1996.С.10

shug' ullansa, ijtimoiy falsafa inson o' z ongi bilan jamiyatni bilishga qodirmi, degan savolga javob izlaydi. Falsafiy bilimlar obyektiv olamning inson ongida aks etish masalalari bilan shug' ullansa, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotning inson ongida aks etish muammolarini o' rganadi va inson ongi jamiyatga qanday munosabatda? degan savolga javob izlaydi. Falsafada olamni bilish usullari metodologiya ta' limotida o' z ifodasini topgan. Ijtimoiy falsafa esa inson va jamiyatni o' rganish metodologiyasi haqida bahs yuritadi. Ko' rinib turibdiki, falsafa va ijtimoiy falsafa uzviy birlikda dialektik aloqadorlikda hisoblanadi.

Umuman olganda falsafa va ijtimoiy falsafaning o' zaro aloqadorligini quyidagi kategoriyalar nisbatidan ham aniqlab olish mumkin:

Falsafa	Ijtimoiy falsafa
“borliq”	“ijtimoiy borliq”
“taraqqiyot”	“ijtimoiy taraqqiyot”
“bilish”	“ijtimoiy bilish”
“ong”	“ijtimoiy ong”
“evolyutsiya”	“ijtimoiy evolyutsiya”
“revolyutsiya”	“ijtimoiy inqilob”

Ko' rinib turibdiki, falsafiy tushunchalar ijtimoiy-falsafiy tushunchalarga nisbatan universaldir. Shuningdek, bunday nisbatni har ikki fan tomonidan asoslangan qonunlardan ham bilish mumkin:

Umumfalsafiy qonunlar	Ijtimoiy falsafa qonunlari
------------------------------	-----------------------------------

O'zaro aloqadorlik qonuni	Ijtimoiy ong va ijtimoiy borliqning o' zaro ta' siri qonuni
Inkorni inkor qonuni	Ijtimoiy evolyutsiya va vorislik qonuni
Miqdor va sifat o'zgarishlarining aimashinuvi qonuni	Ijtimoiy struktura miqdoriy o' zgarishlarining ijtimoiy tuzum o' zgarishlariga olib kelishi qonuni

Demak, falsafa tomonidan asoslangan umumfalsafiy qonunlarga tayanib, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy jarayonlarga aloqador qonunlarni tadqiq etadi. Shuningdek, umumfalsafiy qonunlarning ijtimoiy hayotda qanday namoyon bo'lishini asoslaydi.

Ijtimoiy falsafaning yana bir xususiyati shuki, u jamiyatni tadqiq etish bilan birga, jamiyat to'g'risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy falsafaning bilishga doir tushunchalari (jamiyat, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy taraqqiyot, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, xalq, millat, shaxs va h.k.) hayotda ko'p qo'llaniladigan tushunchalardir. Har bir ijtimoiy fan albatta bu tushunchalardan o'zining o'rganish predmetini tavsiflashda foydalanadi.

Ijtimoiy falsafa tushunchalari umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy falsafa barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarga, xususan, sotsiologiyaga yo'nalish beradigan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy fan vakillarining e'tiborini ijtimoiy organizmning normal faoliyat ko'rsatishida har bir a'zo (element) ning qanday

rol o'ynashiga, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga qaratadi.

Sotsiologik tushunchalar esa konkret va ilmiyligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, sotsiologik tushunchalar (sotsial struktura, sotsial stratifikatsiya, ijtimoiy harakat, ijtimoiy rol, ijtimoiy makon, mobillik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy birlik, ijtimoiy institut va h.o.) alohida olingan konkret jamiyatning turli tomonlari to'g'risida ilmiy bilimlar beradi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy falsafa jamiyatning eng umumiy tomonlarini yaxlit holda bilishga imkon bersa, sotsiologiya konkret jamiyatning doizarb muammolarini hal etishga, uning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko'rishga, sotsial muammolarni oqilona hal etishga imkon beradi. Agar sotsiologiya fan sifatida amaliy vazifalarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, ijtimoiy falsafa dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal etishni, "umuman jamiyat nima?", "jamiyat taraqqiyotining asosini nima tashkil etadi?" singari savollarga javob berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaning o'zaro munosabati umumiylik va alohidalikning o'zaro munosabati singaridir.

Rus faylasufi S.V.Sokolov ijtimoiy falsafa va sotsiologiya o'rtasidagi farqni quyidagicha ifodalaydi: "sotsiologiya ijtimoiy institutlarni o'rganisa, ijtimoiy falsafa esa bazis va ustqurmani tadqiq etadi"³. Masalan, umumiy sotsiologiya jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida o'rganadi, uningcha undan umumiyroq bo'lgan qandaydir tizim mavjud emas. Lekin bu tizim turli-tuman

³ С.В.Соколов. Социальная философия: Учеб.пособие для вузов.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.-С-83

kichik tizimlardan: ijtimoiy guruhlar, birlashmalar, korporatsiyalar, hududiy birlashmalar, institutlar va boshqalardan tashkil topgan. Sotsiologiya asosiy e'tibormi ijtimoiy tizimning ana shu elementlariga qaratadi. Ularning jamiyatdagi konkret o'rnini tahlil qiladi. Ijtimoiy falsafa uchun boshqacha xususiyat xos. Ya'ni u xususiy elementlardan umumiy tizimga xos bo'lgan jihatlarni, qonuniyatlarni aniqlash pozitsiyasida turadi.

Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya o'rtasidagi muayyan farqlarni quyidagi jadval asosida ifodalash mumkin:

Ijtimoiy falsafa	Sotsiologiya
inson tabiati	ijtimoiy fe'l-atvor
inson omili	ijtimoiy mavqe, ijtimoiy rol
ijtimoiy ong	ijtimoiy fikr
ijtimoiy beqarorlik	deviant xulq-atvor

Yuqorida keltirilgan har ikki fan tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar nisbiy taalluqlilikka ega. Sotsiologiya fani ijtimoiy falsafa kategoriyalaridan o'z o'rganayotgan ijtimoiy obyektni keng miqyosda, to'liq tavsiflashda foydalanadi. O'z navbatida ijtimoiy falsafa ham o'rganilayotgan masalaning muayyan detallarini aniqlashda, yoki konkret hodisalarda yashiringan umumiylikka aloqador qonuniyatlarni aniqlashda sotsiologiyaning kategoriyalariga murojaat qilishi mumkin. Sotsiologiya fani o'rganadigan masala hamma vaqt ijtimoiy falsafa predmetidan ko'ra makon va zamonda

ko' proq chegaralanganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, faylasuf ijtimoiy o' zgarishlar sababini ijtimoiy ongdan qidirsam, sotsiolog esa muayyan guruhning yoki jamoatchilikning fikriga o' z e' tiborini qaratadi. Yoki ijtimoiy muhitning insonga ta 'siri masalasida faylasuf asosiy e' tibomi muayyan sivilizatsiya, formatsiya yoki ijtimoiy-siyosiy tuzumga qaratsa, sotsiolog asosan aniq bir jamiyatning holati, jamoadagi ijtimoiy ahvolga, uning shaxs fe' l-atvoriga ta' siridan qidiradi.

Har bir alohidalikda umumiylik va o' ziga xoslik bor. Ijtimoiy falsafa o' zining butun e' tiborini alohidalikdagi umumiylikka qaratadi. Har bir xalq, mamlakat yoki konkret jamiyat taraqqiyoti qanchalar noyob, o' ziga xos va betakror bo' lishiga qaramay o' zida umumbashariylik, umumiylikning muhim belgilarini mujassamlashtiradi. Ana shu umumiy jihatlar qanchalik to' laroq, yaqqolroq namoyon bo' lishi bilan yaxlit jahon hamjamiyatining shakllanishi, umumiy tinchlik va totuvlikning qaror topishi uchun qulay imkoniyatlar vujudga kela boshlaydi.

Shuningdek, ijtimoiy falsafa tarix fani bilan ham uzviy aloqadorlikka ega. Tarix fani jam iyat "avtobiografiyasini", uning o' tmishini, konkret tarixiy jarayonlarni tadqiq etadi. Ammo tarixiy jarayonlar silsilasidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlashni o' z oldiga maqsad qilmaydi. Ijtimoiy falsafa tarix fani to' plagan m a' lumotlarni analiz, sintez, umumlashtirish, mavhumlashtirish yo' li bilan jam iyat taraqqiyotining sabab-oqibat ko' rinishidagi qonuniyatlarini, ijtimoiy taraqqiyotning umumiy yo' nalishini aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy falsafaning siyosatshunoslik fani bilan aloqadorligi shunda

ko'rinadiki, siyosatshunoslik uchun siyosat, siyosiy hokimiyat va uning amal qilishi, davlat, siyosiy tizim kabi tushunchalar asosida siyosiy boshqaruv masalalarini tadqiq qiladi, ijtimoiy falsafa bu masalalarga ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy strukturaning bir qismi sifatida yondashadi. Siyosatshunoslik fani aniqlab bergan siyosiy jarayonlarda amal qiladigan qonuniyatlarning umumijtimoiy qonuniyatlar bilan aloqadorligini aniqlash ijtimoiy falsafa uchun muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, barcha ijtimoiy masalalarni tadqiq qiluvchi fanlar ma'lum nia' noda ijtimoiy-falsafiylashgandir. Ular o'rganilayotgan har bir jarayonni va aloqador umumijtimoiy o'rni va ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi. Buni ijtimoiy falsafaning har bir alohida ijtimoiy fanga ma'lum ma'nodagi metodologik ta'siri deyish mumkin.

Ijtimoiy falsafaning tushunchalari va asosiy tamoyillari. Ijtimoiy-falsafa jamiyatni tadqiq etishda ma'lum tushunchalar tizimiga tayanadi. Ijtimoiy falsafa tarixida ishlab chiqilgan ko'pgina yalpi tushunchalarda ijtimoiy hayotning eng umumiy aloqadorliklari va xususiyatlari ifodalangan. Bular ijtimoiy voqelikning inson ongida aks etganligi natijasi va fikrlash faoliyati vositalaridir.

Ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari tasnifi zaminiga jamiyatni falsafiy tushunishning asosiy tamoyillari qo'yilmog'i lozim. "Jamiyat", "ijtimoiy munosabat", "ijtimoiy aloqa", "ijtimoiy ong", "ijtimoiy ishlab chiqarish", "ijtimoiy jarayon", "obyektiv ijtimoiy shart-sharoit", "ijtimoiy taraqqiyot", "subyektiv omil", "tarixiy qonuniyat",

“sivilizatsiya”, “madaniyat”, “qadriyat”, “ehtiyoj”, “manfaat”, “shaxs”, “oila”, “ijtimoiy turmush”, “ijtimoiy bilish”, “ijtimoiy bashorat” va hokazo tushunchalar jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ifodalaydi.

Faoliyatlilik tamoyiliga ko' ra ishlab chiqilgan tushunchalar jamiyatning iqtisodiyoti, ma' naviy va siyosiy sohalariga tegishli bo' ladi. Xususan, iqtisodiyot sohasi tushunchalariga “iqtisodiy ishlab chiqarish”, “iqtisodiy taqsimot”, “mehnat”, “mehnat taqsimoti”, “mulk”, “iste' mol”, “texnika”, “texnologiya” singari kategoriyalar kirsan, “ijtimoiy ong”, “fan”, “m a' rifat”, “e 'tiqod”, “mafкура” va hokazolar m a' naviy soha tushunchalaridir. Siyosiy soha tushunchalari esa o' zichiga “siyosat”, “hokimiyat”, “siyosiy hokimiyat”, “davlat”, “siyosiy tashkilot”, “boshqaruv”, “demokratiya”, “diktatura” va hokazolami oladi. Ijtimoiy sohaga oid tushunchalar sirasiga “ijtimoiy sinf”, “millat”, “elat”, “ijtimoiy qatlam”, “ijtimoiy guruh” va h.k. lar kiradi.

Ijtimoiy falsafaning muayyan soha bilan chegaralanmagan universal tushunchalari ham mavjud bo' lib, bular: “jamiyat”, “ijtimoiy munosabat”, “inson”, “shaxs”, “ijtimoiy taraqqiyot”, “subyekt”, “harakatlantiruvchi kuch”, “omil” va boshqalardir. Bu tushunchalar jamiyatning barcha sohalaridagi jarayonlarni tadqiq etishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Falsafiy tamoyillar nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan tushunchalarning chegarasi doimiy emas. Tushunchalami har qancha darajada ma' lum tartibotlarga keltirishga urinilmasin, ular o' rtasidagi me' yor hamisha shartlidir. Chunki ularda aks

etadigan ijtimoiy borliq hodisalari, voqealari va jarayonlari doimo o' zaro ta' sirda bo' lib, bu chegarani o' zgartirib turadi.

Ijtimoiy falsafaning markaziy bosh tushunchasi, bu – “jamiyat” va “ijtimoiy munosabat” tushunchalaridir. Boshqa har bir tushuncha mana shu tushunchalar bilan bevosita integrallashadi. “Jamiyat” ko' p qirrali tushunchadir. Zero, jamiyatga sifat muayyanligiga ega bo' lgan yaxlitlik tarzida qarash har qanday talqinning markazida turadi. Yuzaki qaragandagina jamiyat uni tashkil etgan kishilarning oddiy yig' indisiday ko' rinadi. Lekin chuqurroq qaralsa, unda kishilarning bir-biri bilan amalga oshirayotgan ko' pdan ko' p munosabatlari mavjudligi, bu munosabatlar o' zaro taqozalanganligi, o' zaro ta' sirda ekanligi ma' lum bo' ladi. Qat' iy ma' noda kishilarning borlig' ularning munosabatlari orqali ta' minlanadi. Bular jamiyatda sodir bolayotgani tufayli doimo ijtimoiy tabiatga egadir, binobarin, ular ijtimoiy munosabatlardir. Ijtimoiy munosabatlar birlikda olinganida ijtimoiy borliqning aniq tarixiy shaklini ifodalaydi. Ijtimoiy borliqning mazmuni esa kishilar hayoti jarayonlaridan iboratdir. Bu jarayonlarning asosiy tomonini jamiyat moddiy, ma' naviy hayoti tashkil etadi. Ularning boshqa tomoni esa ana shu moddiy va ma' naviy hayotini ta' minlash usulining mavjudligi va harakatini ifodalaydigan ijtimoiy jarayonlardir. Bularning mazmuni jamiyat a' zolarining amaliy munosabatlari yig' indisidan iborat bo' ladi. Shu sababdan ham “jamiyat” va “ijtimoiy munosabatlar” tushunchalari ijtimoiy falsafaning barcha kategoriyalarini koordinatsiya qiluvchi muhim tushunchalar hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy falsafa jamiyatda ro' y

beradigan hodisa va jarayonlarni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga tayanadi:

Obyektivlik tamoyili – ijtimoiy voqelikni mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum mafkurasidan, muayyan sinfga mansublikdan kelib chiqadigan dunyoqarash hamda hayotiy muvojlardan holdi tarzda, ilmiy asosda o'rganish.

Bir butunlik (tizimlilik) tamoyili – jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida yondashish. Ijtimoiy jarayonlar nechog'li xilma-xil ko'rinishga ega bo'lmasin, ularga alohida fragmentar hodisalar emas, balki bir butun bo'lgan jamiyat bag'rida o'zaro bir-biri bilan bog'liq va aloqador bo'lgan jarayonlar yaxlitligi sifatida qarash lozim. Zero, har qanday ijtimoiy hodisa yakka holda vujudga kelmaydi yoki mavjud bo'lmaydi. Xoh u jamiyatning siyosiy hayotiga oid bo'lsin, xoh sotsial yoki manaviy hayotiga xos voqelik bo'ladimi, baribir u ijtimoiy organizmning butun tizimiga daxldordir.

Tarixiylik tamoyili — bunda jamiyat hayotida ro'y beradigan hodisa va jarayonlar doimiy o'zgarish va rivojlanishda deb qaraladi. Har bir ijtimoiy hodisa tarixiy genezisga va evolyutsiyaga ega. Ularning mavjud bo'lishi yoki muayyan mohiyatga ega bo'lishi tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq. Demak, masalan biz o'tmishdagi biror ijtimoiy tuzumga baho bermoqchi bo'lsak, faqat bugungi shart-sharoitlardan emas, balki o'sha davrda mavjud bo'lgan shart-sharoitlarni, mavjud holatni yuzaga keltirgan tarixiy omillarni ham hisobga olishimiz lozim. Shuningdek, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda ularni tarixiy kontekstdan sun'iy ravishda ajratib olish yaramaydi.

Mantiqiylik tamoyili – har bir ijtimoiy jarayon obyektiv mantiq qonunlariga bo'ysunadi. Shuning uchun ijtimoiy ilmiy xulosalar aniqlikka va asoslanganlikka tayanishi zarur. Bu ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish manbaini tashkil etuvchi ziddiyatlarni aniqlash va tahlil qilish uchun ham muhim. Shuningdek, ijtimoiy falsafa xulosalari, nazariyalari yoki konsepsiyalarining qanchalik haqiqatga da'vogar bo'lishi mantiqiy xulosa chiqarish qoidalariga muvofiq bo'lishiga bog'liq.

Vorislilik tamoyili —ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tarixiy vorislilik nuqtai nazaridan o'rganish muhim. Chunki, har qanday ijtimoiy jarayonning yuzaga kelish sabablari hamda oqibatlari mavjud bo'ladi. Har bir ijtimoiy hodisa vorislilik qonuniga binoan keyingi hodisalarga daxldor bo'ladi. Shunga ko'ra bu tamoyil ijtimoiy hayotda qadriyatlarni qayta baholash hamda taraqqiyotga xalaqit berayotgan konservativ, reaksiyon hodisa va jarayonlarni aniqlashda yordam beradi.

Ehtimollik tamoyili – ijtimoiy voqelik to'g'risidagi har qanday falsafiy bilim ma'lum darajada ehtimoliy xususiyatga ega deb qarash lozim. Ijtimoiy falsafa falsafiy fan bo'lganligi va u o'rganayotgan masalalar o'ta umumlashtirilganligi, abstraksiya qilinganligi bois mutlaq haqiqatga da'vo qilmaydi. Har bir chiqarilgan xulosa qat'iy tarzda emas, "boshqacha bo'lishi ham mumkin" degan nuqtai nazarga asoslanadi. Bu nisbiy xarakterga ega bo'lib, bundan ijtimoiy-falsafiy bilimlar ishonchsiz ekan, degan xulosaga kelmaslik lozim. Shu sababli ham ijtimoiy falsafa tadqiq

etadigan masalalar nihoyatda bahsli bo' lib, doim yakdil xulosalar chiqarish imkonini beravermaydi.

Insonparvarlik tamoyili – ilgari surilgan har qanday ijtimoiy-falsafiy nazariya yoki konsepsiya: u jam'iyat istiqboli to'g'risida bo'ladimi, ijtimoiy muammolar yechimi to'g'risida bo'ladimi, albatta insonparvarlikka tamoyiliga asoslanishi lozim. Bu tamoyilni ijtimoiy falsafaning bosh tamoyili deb qabul qilish maqsadga muvofiq. Zero, har qanday bilim avvalo inson manfaatlarini ifoda etmog'i, uning farovonligi hamda baxtu-iqbol uchun xizmat qilmog'i kerak. Ammo ijtimoiy-falsafiy g'oyalar tarixida har doim ham bu tamoyilga to'la amal qilinmagan. Bir muammoning ijtimoiy-falsafiy yechimiga doir bir qancha nazariyalar g'ayriinsoniy ahamiyat kasb etganligiga tarix guvoh. Masalan, hozirda ham aholining haddan tashqari ko'payib borishi bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga doir ko'plab variantli nazariyalar mavjud. Ammo masala uning tez va qisqa fursatlarda yechim topishida emas, balki ana shu yechim inson manfaatlariga nechog'lik mos kelishi bilan hal etilishi ijtimoiy falsafa uchun muhim jihat hisoblanadi. Yuqoridagi tamoyillar ijtimoiy-falsafaning* asosiy tadqiqot tamoyillari hisoblanib, uning boshqa tamoyillari ana shulardan kelib chiqadi. Ayni vaqtda bu tamoyillar o'zaro aloqadorlikda amal qilishi lozim.

Ijtimoiy falsafaning funksiyalari. Ijtimoiy falsafaning asosiy ilmiy-nazariy funksiyalari umumfalsafa funksiyalari bilan aloqador. Ularni quyidagi tartibda keltirish mumkin:

- Dunyoqarashlik;
- Nazariy-metodologik;

- Gnoseologik;
- Insonparvarlik;
- Maʼkuraviy;
- Ijtimoiy-bashorat;
- Kommunikativ;
- Axloqiy-tarbiyaviy.

Dunyoqarashlik funksiyasi. Ijtimoiy falsafa xuddi falsafa kabi inson dunyoqarashini shakllantiradi. Aibatta inson dunyoqarashini shakllantirishda barcha bilim sohalari qatnashadi. Lekin ijtimoiy falsafa jamiyat va inson haqidagi yaxlit taʼlimot sifatida jamiyat va insonning jamiyatdagi oʻmi haqidagi bilimlarining shakllanishiga yordam beradi, jamiyatda roʻy beradigan turli ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazariy-metodologik funksiyasi. Ijtimoiy falsafa jamiyat tizimi va rivojlanishidagi umumiylikni aniqlash, ijtimoiy hayot sohasining oʻrnini koʻrsatib berish, inson borligʻi va mohiyatini yoritish, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berish bilan boshqa xususiy ijtimoiy fanlar uchun oʻziga xos metodologik asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi deganda, ijtimoiy falsafaning jamiyatni toʻgʻri anglash metodlari haqidagi fan ekanligi nazarda tutiladi. Falsafa tarixida olamni, shu jumladan jamiyat va insonni bilishning ikki asosiy metodi shakllangan.

Bular: *dialektika* va *metafizika*. Ijtimoiy hayotni oʻrganishga dialektika va metafizika turlicha yondashadi.

– agar dialektika ijtimoiy hayot hodisalarini o‘rganishda, ular orasidagi eng umumiy universal aloqadorliklarga e‘tibor berishni taqozo etsa, metafizika aloqadorliklarni faqat tasodif sifatida o‘rganadi, har bir ijtimoiy jarayon, o‘zgarish faqat o‘ziga xos, takrorlanmas, deb biladi.

– agar dialektika ijtimoiy hayot va insonni o‘rganishda taraqqiyot tamoyilidan kelib chiqsa, metafizika faqat miqdoriy o‘zgarishlamigina tan oladi.

– agar dialektika olamning barcha ko‘rinishlari kabi jamiyat va inson olamining mohiyatida ziddiyatlar amal qiladi, ziddiyatlarning borligi va mutanosibligi jamiyat va inson mavjudligida namoyon bo‘ladi, ayni vaqtda ziddiyatlar orasidagi munosabat taraqqiyotga olib boradi, deb bilsa, metafizika qarama-qarshiliklar ijtimoiy jarayonlarga xos emas, degan qoidaga asoslanadi.

Gnoseologik funksiya. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy borliqni bilish imkoniyatlari va chegaralarini, ijtimoiy bilishning samarali yo‘llari va usullarini ishlab chiqadi. U ijtimoiy bilish jarayonida subyektning obyektga bo‘lgan munosabatini tahlil qilish orqali ijtimoiy haqiqatni anglab etishning samarali pozitsiyalarini belgilab beradi. Xususan, I.Kant o‘zining “Sof aql tanqidi” asarida falsafiy bilimlarning chegarasini quyidagi savollar bilan aniqlash mumkinligini aytib o‘tadi:

- Men nimani bila olaman? – Men nima qilishim kerak?
- Nimaga umid qilishim, ishonishim kerak?

Kant yuqoridagi uchta savolga javob topilsa, “Inson nima?” degan eng muhim savolga ham o‘z-o‘zidan javob topilishini, hamda

inson muammosi har qanday gnoseologik faoliyatning markaziy muammosi ekanligini nazarda tutgan edi. **Insonparvarlik funksiyasi.** Ijtimoiy falsafa tomonidan ishlab chiqilgan har qanday ijtimoiy taraqqiyot modeli insonparvarlik mezonidan kelib chiqadi. U tarixiy taraqqiyotning qaysi bir bosqichini o'rganmasin, qaysi bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga baho bermasin, avvalo inson manfaatlariga qanchalik mos ekanligi nuqtai nazaridan yondashadi. Zero, ijtimoiy taraqqiyot – ijtimoiy falsafa nazdida, avvalo insonparvarlik muhitining qaror topib borishi bilan belgilanadi. Bu borada ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy nazariyalar va konsepsiyalar jamiyatda insonparvar munosabatlar o'rnatilishiga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson, uning mohiyati, qadr-qimmatini qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining ma'nosini o'ylashdan boshlangan. Ijtimoiy falsafa "Inson va olam", "inson-inson", "inson-jamiyat" muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy prognozlash funksiyasi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ishlab chiqilgan futurologik konsepsiyalar ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga tayanib, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasi va istiqbolini aniqlashda, kelajakni anglash va ilmiy bashorat qilish orqali jamiyatni samarali boshqarish borasida muhim tavsiyalar beradi.

Axloqiy-tarbiyaviy funktsiya. Ijtimoiy falsafa axloqiy-tarbiyaviy funktsiyani ham bajaradi. Uning bu funktsiyasi insonni tarbiyalashga, unda insoniy, axloqiy xislatlarni jonlantirishga

yo' naltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirishni nazarda tutadi.

Kommunikativ funksiya. Ijtimoiy falsafa barcha ijtimoiy fanlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarni integratsiya qilish, bu fanlar o'rtasida doimiy aloqani ta'minlash bilan kommunikativ funksiyani bajaradi.

Mafkuraviy funksiya. Ijtimoiy falsafiy g'oyalar umumbashariy muammolarni hal etish, farovon kelajakni barpo etish yo'lida insoniyatni ezgu maqsadlar sari yetaklovchi, ularni hamjihatlikka, jipslikka chorlovchi, jahonda yalpi tinchlikni, teng va adolatli hamkorlikni qaror toptirishga xizmat qiluvchi mafkura bo'ladi.

Umuman olganda, ijtimoiy falsafaning oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi talaba yoshlarining dunyoqarashi kengayishiga, ijtimoiy. voqea bilan bog'liq munosabatda bo'lishiga, ularning qaysi bir soha' - ning mutaxassisi bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy jarayonlarga keng planda yondashishlariga imkon beradi.

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **"T - chizma"** interfaol usulidan foydalaniladi.

+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Ongga bog'liq bo'lmagan holda mavjudlik: +ijobiy, -salbiy
2. Ongga nisbatan birlamchilik. +ijobiy, -salbiy
3. Borliq va yo'qlik: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

“T – sxema” o'tkazish bosqichlarini qo'yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri **“T – sxema”** interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim

- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak

- **“T – sxema”** interfaol usuli masala mohiyatini to'liq tushunib olishga asoslangan bo'lib, bunda mavzu oid bo'lgan tushuncha, ma'lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi.

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Insert”** interfaol

usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI

A				
	M	–	?	

“Insert” metodini o'tkazish bosqichlarini quyidagicha olib boriladi:

Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushirilgan tarqatma materiallarni beradi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Ijtimoiy falsafaning predmetiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiy falsafaning falsafa fani bilan aloqasini izohlang.
3. Ijtimoiy falsafaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi va farqli tomonlarini tushuntiring.
4. Ijtimoiy falsafaning dunyoqarashlik funksiyasini tushuntirib bering.
5. Ijtimoiy falsafaning insonparvarlik funksiyasining ahamiyatini ko'rsating.
6. Ijtimoiy falsafaning tamoyillari o'rtasidagi aloqadorlikni tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.
11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.
13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009
14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

3-mavzu: Sharq va G'arb sivilizatsiyasida shakllangan ijtimoiy-falsafaiy ta'limotlar

REJA:

- 1. Sivilizatsiyaning Sharq-markaziy Osiyo lokal tipi.**

2. Sivilizatsiya, uning o'ziga xos xususiyatlari. Sivilizatsiya xaqidagi falsafiy qarashlar.

3. Sharq va G'arb sivilizatsiyasi.

4. Hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy taraqqiyot, tarix falsafasi, chiziqli taraqqiyot, tarixning aylanma nazariyasi, progress, regress, evolyusion taraqqiyot, inqilobiy taraqqiyot, jamiyat qonunlari.

Sivilizatsiya umumbashariy falsafiy tushunchalardan chshri bo'lib, «madaniyat», «ijtimoiy - iqtisodiy formasiya», «jamiyat» tushunchalariga yaqin bo'lsa ham aynan bir xil ma'noni ifoda etmaydi. Hozirgi vaqtda insoniyat jamiyat va uning tarixini sivilizatsiyaviy jarayonlar, ularning turli ko' rinishlari va bosqichlari sifatida qarash ilmda yetakchi o' rinni egallaydi. Jumladan:

Birinchidan, uning fan tarixida 250 yildan beri davom etib kelayotgan jiddiy an' analari mavjud.

Ikkinchidan, davrimizning barcha murakkabliklarini asosiy jihatlariga ko' ra sivilizatsiyaviylik yondashuvi bilan xiyla keng tushuntirish mumkin.

Oldinroq aytilganidek, «sharq» tushunchasi yer shari quruqlik qismining Osiyo qit' asi va afrika qit' asining shimolini qamragan ko' p qirrali voqelikni ifodalaydi. bu markaziy Osiyoni ham qamragan katta hududda bir-ikkitalarini hisobga olmaganda insoniyat boshidan kechirgan asosiy sivilizatsiyalar mavjud bo' lgan, hozirgi dunyoviy miqyosda tarqalgan dinlar kelib chiqqan. islom dini va sivilizatsiyasi ta' siri hozirda ham ahamiyatini yo' qotmagan va, hatto, ba' zi g' arblik mutaxassislar fikricha, yangi uyg' onish davriga ham kirgan.

Bu mintaqa hududiy yopiq tizim sifatida tabiiy sharoitlariga ko'ra eng baland tog'lar, ular orasidagi subtropik vodiylar, katta daryolar atrofida ulanib ketgan katta-katta vohalar va sayyora miqyosida ajralib turadigan sahrolardan iborat. Bular, o'z navbatida, tarixiy-etnik, savdo-iqtisodiy va ma'naviy yaxlitlikni ifodalashi tabiiydir. «O'rta Osiyo hududida, - deydi I. Karimov, - aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari - daryo va anhorlar bo'yida yashab keladi. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiati, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqa sharoitining o'zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etgan». Bu yerda qadimdan yashab kelayotgan turkiy xalqlarni sovet davrida bir-biridan ajratishga qanchalik urinilmasin, baribir ularga xos umumiyliklar saqlanib qolavergan. Ana shu mintaqa markazining, uning asosiy madaniy qismini tashkil etgan O'zbekiston uch ming yillik tarixga borib taqaladigan davlatchiligini 140 yilcha davom etgan rus-sovet mustamlakachiligi asoratidan qutulib yangicha asoslarda tikladi. O'zbekiston o'z istiqbolini belgilashda «Qayoqqa?» «Qanday tarzda?» «Qaysi vositalar bilan?» degan savollarga javob topish zarur bo'ldi. Bunda mamlakatning tabiiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsiflaridan kelib chiqib yo'l belgilash juda muhim hisoblandi. Negaki, O'zbekiston geografik, confessional, til va, umuman, ma'naviy jihatlardan sharq sivilizatsiyasi, to'g'rirog'i uning markaziy Osiyo hududiy tarmog'i ichidadir. Putur ketgan mafkuraviy dogmalardan qutulib o'zini jahonga ochgan markaziy Osiyoning

mustaqil, suveren davlatlarning ijtimoiy rivojlanish mo'ljallari, maqsadga erishish yo'llari tanlanganiga ko'ra, garchi turlicha bo'lsa-da, ularning o'tmishi va hozirgi zamon sivilizatsiyaviy birligi bu yerda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga tegishli yo'nalish belgilab bermasligi mumkin emas. bu, dastavval, o'zlashtirilayotgan bozor munosabatlari, xususiy mulk, raqobat, demokratiya, shaxs erkinligi, ijobiy ma'noda tushunilgan individualizm kabi qadriyatlardir.

«Sivilizatsiya» atamasi lotincha «civilis» so'zidan olingan bo'lib, shahar, shahar jamoasi, fuqaro, davlat, fuqaroviylikka, davlatchilikka oid juda ko'p ma'nolarni bildiradigan bu atamani birinchi marta fransuz mutafakkiri mirabo 1757-yilda bosilib chiqqan «*Kishilarning do'sti yoki aholi to'g'risidagi risola*» kitobida qo'llagan. shotlandiyalik a.Fergysonning 1767-yilda nashr qilingan «*Fuqaroviy jamiyat tarixi tajribasi*» asari nomida ham ushbu atama ishlatilgan. Ma'rifatchilik davri (XVIII asr) faylasuflari tomonidan «sivilizatsiya» atamasi yevropaliklar jamiyatining ma'rifatsiz «varvar»-lardan ustunligini ko'rsatadigan, aql-idrok va adolatga asoslangan borliqning muhim tomonlari va holatlarini ifodalash ma'nosida qo'llangan. keyinroq bu so'zni T. Jufrua (Fransiya) har bir xalqning etnografik qiyofasini ifodalaydigan ma'noda ishlatgan. Haqiqatan ham buyuk geografik kashfiyotlar va sayohatlar natijasida to'plangan boy tarixiy-elshunoslik materiallarini izohlash zaruriyati, o'z navbatida, har bir xalqning o'ziga xos sivilizatsiyasi mavjudligi haqidagi qarashlarni maydonga keltiradi. ayni vaqtda, nisbatan tezroq muomalaga singib borayotgan «sivilizatsiya» atamasi turli ma'nolari ichida ko'proq yevropotsentrizmni ifodalashi ko'zga tashlanmoqda. XIX asr boshlaridan yevropa ilmi doirasida sivilizatsiya va *ijtimoiy taraqqiyot*

g'oyalarini kun tartibiga qo'yish orqali insoniyat o'tmishi bosqichlarini ifodalashga harakat qilindi.

Sivilizatsiya tushunchasi amerikalik antropolog *L. G. Morgan* «qadimgi jamiyat» degan asarida sivilizatsiyaning insoniyat o'tmishini xuddi *A.Fergyson* kitoblarida yoritilganidek, yovvoyilik va varvarlik bosqichlaridan keyingi tarixini ifodalash uchun qo'lladi. ayni shu ma'noda sivilizatsiyaning hozirgi amerikalik olim *A. Tofler* va boshqa ko'pgina olimlar ham qo'llamoqda. shuningdek, «sivilizatsiya» atamasini ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida u yoki bu mintaqa yoki etnos rivojlanishi darajasining ifodasi ko'rinishida (ingliz-sakson tafakkuri doirasida *Arnold Toynbi* va boshqalar), hatto madaniyatning yakuni tarzida (*Osvald shpengler*) tushunganlar. Tushunchaviy maqomiga ko'ra sivilizatsiyada, *birinchidan*, jamiyatning taraqqiyotga o'tishi ifodalanadi. ya'ni, insoniyatning qon-qardoshlikka asoslangan jamiyati o'rnini kishilarning hududi etnik tamoyilda tashkil topgan ijtimoiy-madaniy umumiylik egallaydi. bu umumiylikda, faqat o'ziga xos qonuniyatlar belgilovchi o'rin tutadi. ikkinchidan, bu tushunchada kishilik dunyosi harakatining muhim shartlaridan bo'lgan mehnat taqsimotining tobora murakkablashib borishi, uning ketma-ket keladigan bosqichlarida insoniyat moddiy va ma'naviy boyligini tobora ko'paytirish o'z ifodasini topadi.

Uchinchidan, insoniyat ilgari harakatida u erishgan darajani anglatgani bilan sivilizatsiya evristik - bilish ahamiyatiga molikdir. bularga asoslanib sivilizatsiyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: unda keng ma'noda sotsiumning muayyan sifat holati, tor ma'noda esa uning har bir tarixiy bosqichlari

tashkiliy tuzilishi tamoyillaridan tortib asosiy jihatlari namoyon bo'lishining shart-sharoitlari yig'indisigacha barchasi tushuniladi. Hozirgi vaqtda «sivilizatsiya» tushunchasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda markaziy o'rin tutmoqda. uning yordamida insoniyat tarixi jarayonlarining turli-tuman kechishi masalalari to'laroq qamrab olinadi. ma'naviy sohada sivilizatsiyaviy hayotning qaror topishi eng radikal tarzda bo'lib, inson ruhiyatida mantiqiy tafakkurni, unda esa sifat jihatdan yangi dunyoqarashni keltirib chiqaradi. astrologiya, arifmetika, biologiya, tibbiyot, agronomiya kabi fanlarning kurtaklari shakllana boshlandi. unsurlari ko'rinda boshlangan ilk san'at namunalarida - urf-odat musiqalari va raqslarida, asosan, asotiriy (mifiy) personajlar aks etgan. Sakral (lotincha sacrum - muqaddas) sohada sivilizatsiyaviy ruhiyatda ibtidoiylikda bo'lganidek, mistika (yunoncha mistukos - sirli) to'la hukmron edi. Sivilizatsiyaning ilk ko'rinishi bo'lgan *neolit davri* asta-sekin *eneolit bosqichiga*, ya'ni, *mis-tosh*, *bronza davrlariga* o'rnini bo'shatib berdi.

«Sivilizasiya» tushunchasi lotincha «sivilis» - so'zidan olingan bo'lib, «grajdanlikka oid», «davlatga oid» singari ma'nolarni anglatadi. Ko'p yillar davomida ilmiy adabiyotlarda madaniyat va sivilizasiya bir xil ma'noli tushunchalar sifatida talqin etib kelindi. Holbuki buyuk nemis faylasufi I. Kant ular o'rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko'rsatgan edi. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi Osvalg'd' Shpengler «Yevropa quyoshining so'nishi» asarida madaniyat va sivilizasiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, sivilizasiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, undan keyin esa madaniyat

asta-sekin inqirozga yuz o'giradi. Nemis faylasufi sivilizasiya deganda texnik-mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutdi.

“Sivilizatsiya” tushunchasi, madaniyat tushunchasiga o'xshash katta ahamiyatga ega bo'lgan, keng foydalaniladigan ilmiy tushunchadir. U Ma'rifat (XVIII) davrida ilmiy so'z boyligiga kiritilgan. Eng umumiy ma'noda u yovvoyilikka nisbatan inson va jamiyatning holatini anglatadi. Sivilizatsiyalashgan jamiyat nima? bu erkinlik, adolat, aql, qonunga asoslangan jamiyat. Bu yerda moddiy madaniyatning rivojlanishi ham muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib odam ancha tarixiy paytgacha yovvoyilik holatida qolib, ma'lum holatda o'tgandan keyin sivilizatsiya belgilari paydo bo'ldi. Unga nima yorlam qildi? Bunga faylasuflarning fikricha mehnat taqsimoti, sinflar va tovar pul munosabatlarining vujudga kelishi, davlatning paydo bo'lishi, ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, yozuvning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamoada oilaviy munosabatlarning o'zgarishi va boshqalar. Ammo hozirgi dunyoda “sivilizatsiya” tushunchasining boshqa ma'nolari ham bor. Ulardan eng ko'p tarqalganlari quyidagilardan iborat:

≤ “Madaniyat” tushunchasining sinonimi (F.Shelling).

≤ Madaniyatning antipadi (qarama-qarshi) – jamiyatning tirik holatiga, ma'naviy madaniyatiga qarshi, hayot tuzilishining jonsiz, o'lik shakli. (N.Berdyayev, N.Rerix).

≤ Madaniyatning zaiflashi, uning tug'ilish va o'lish bosqichlari. (O.Shpengler).

≤ Jamiyaning konkret tarixiy turi. Masalan, “Misr sivilizatsiyasi”, “ Rim sivilizatsiyasi” va boshqalar. (A.Toynbi).

≤ Sivilizatsiya diniy birlik sifatida masalan, “Xristian sivilizatsiyasi”, “Budda sivilizatsiyasi” va boshqalar.

≤ Sivilizatsiya jamiyatning texnologik rivojlanish tarixi. Masalan, “Agrar sivilizatsiya”, “Industrial sivilizatsiya” va boshqalar.

≤ Sivilizatsiya aqlli jonzoatlarning birlashgan planitar hamjamiyati sifatida. Masalan, “ Yer planetasi sivilizatsiyasi”, “Vinera planetasi sivilizatsiyasi” va boshqalar.

Qadimgi Yaqin Sharq sivilizatsiyasi Yaqin Sharqdagi ilk sivilizatsiyaning yaratuvchilari *shumerliklar* faoliyati natijasi o'laroq barpo etilgan shahar davlatlarida an'anaviy xo'jalik yurgizish bilan birga, ijtimoiy-siyosiy sohada ham muhim o'zgarishlar qilingan. shumerliklar yaratgan *iyeroglifiy alifbo* ma'anaviy rivojlanishga jiddiy turtki berdi. va jarayonlar shumer davlati o'rniga kelgan akkad va boshqa tuzilmalar, ayniqsa, *Bobil* davlati davrida davom etdi. bobil podshosi *Xammurapi* davlatni o'zi tuzgan qonunlar asosida boshqargan. bu yerda o'z davrining ilg'or taqvimi tuzilgan, sanoqning **o'nli tizimi** joriy etilgan. ko'pgina xudolar to'g'risidagi tasavvurlar, ibodatxonalar, qiziqarli afsonalar (masalan, gilgamish haqida), san'atning xilma-xil namunalari, **geografik xaritalarning** birinchi marta yaratilishi, xiyla yetuk **tibbiyot** - bularning barchasi sivilizatsiyaning ilk davrida erishilgan yutuqlardir.

Misr sivilizatsiyasida davlat xo'jaligi jamoachilikka ancha erta barham berdi. mamlakat hayoti hukmdorlar tomonidan to'la nazorat ostiga olingan edi. shunga qaramay, bu mamlakatda paydo bo'lgan **alifbo**, **me'morchilik** (ehromlar qurish san'ati), **fan kurtaklari** (matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolar), **mifologiya** va **din** sohalarida erishilgan yutuqlar insoniyat qadimgi sivilizatsiyasiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi.

Hind va Xitoy sivilizatsiyalari bu sivilizatsiya barcha asosiy jihatlarini bilan noyobdir. uning paydo bo'lish davriga oid ma'lumotlar oz. **Xarappa** va **moxenjedar** **yozuvi** hozirgacha o'qilmagan. bor manbalarda siyosiy-iqtisodiy masalalardan ko'ra

diniy-falsafiy muammolar ko'p o'rin egallagan. Bundan tashqari, Hind madaniyatida shimoldan - markaziy Osiyodan kelgan oriylar hissassi bilan mahalliy qabilalar yaratuvchilik faoliyati nisbati masalasi ham bor. lekin hindistonda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida bu yerdagi daryolar bo'ylarida ko'plab shaharlar vujudga keldi. Xitoy sivilizatsiyasi ko'pgina yozma tarixiy va arxeologik manbalarga ega. muayyan yo'nalishda bo'lishiga qaramay, xitoyda ham sivilizatsiya daryo bo'ylarida kelib chiqqan. donli o'simliklarni madaniylashtirish bilan birga, yovvoyi hayvonlar xonakilashtirilgan. Nafis hunarmandchilik buyumlari yasalgan. Har bir harfi - iyeroglifi bir so'zni anglatadigan alifbo ham shu davrda yaratilgan. mutaxassislar xitoyga chet sivilizatsiyasining, jumladan, yaqin sharq mintaqasining ta'siri borligini ta'kidlaydilar. Dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatining rivojlanishi ilmiy bilimlarga ehtiyojni yuzaga keltirdi. ma'naviy madaniyatning qator tarmoqlari paydo bo'ldi. bular ichida **din** fenomenining o'rni alohidadir. Sharqda ham, keyinroq boshqa mintaqalarda paydo bo'lgan sivilizatsiyalarda ham shaharlar diniy-ilohiy muassasa - ibodatxonalar yonlarida qurilgan. dastlabki ilohlar hayvonlarga (masalan, qadimgi misrda), ba'zan kishilarga (shumerda) o'xshatib yasalgan. xudolar shaharlarda avvalboshda ko'pchilikni tashkil etgan holda, keyinroq ulardan bittasi boshliq holida ajratilib ko'rsatilgan. kohinlar xudolar nomidan ish yurituvchi bo'lib ko'ringan. ular boshqaruvni kasb qilib olgan kishilar sifatida suv va urug'ni taqsimlash, ekin ekish va hosilni yig'ishtirib olish vaqtlarini belgilash, zaxira

mablag' ni sarflash va boshqa juda muhim bo'lgan vazifalarni bajarishgan.

Sharq sivilizatsiyasidagi betakror jihatlar sharq sivilizatsiyasi to'g'risida fanda xilma-xil qarashlar mavjud. bu yerda tipik quldorchilik bo'lmagan, feodalizm deb atash qabul qilingan tartibotlarning tipik ifodasi qariyb o'zgarishsiz holda, qadimda bo'lganidek, o'rta asrlarda ham, birmuncha yangi jihatlar kasb etgan holda yangi zamonda ham davom etib keldi. Ma'lumki, qadimda jamoaga birlashgan kishilarning hayot faoliyati quyidagi jihatlariga asoslangan: *birinchidan*, jamoa a'zolari majburiy ravishda bajariladigan o'zaro almashuv tamoyillari va mexanizmlariga amal qilishi kerak edi: har bir a'zo umumiy qozonga topganining hammasini qo'shgani holda, undan faqat o'ziga tegishli qisminigina olgan. bular o'rtasidagi farq esa jamoa yoki urug' boshlig'iga tegishli bo'lib, uning nufuzini anglatgan;

Ikkinchidan, katta oila boshlig'i, urug' oqsoqoli yoki urug' kengashi a'zosi obro'-e'tibor va hokimiyatga egalik qiluvchi sifatida jamoaning barcha mulkini qayta taqsimlaydi, shu bilan jamoa mulkining ham egasi ekanligini ko'rsatadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish sharoitida boshliq jamoani jins, yosh, avlod, oiladagi mavqega ko'ra boshqargan. Odatda asta-sekin bir nechta qo'shni jamoalarning nufuzlisi atrofida birlashish hodisasi yuz berishi ham mumkin. nufuzli jamoa markazidagi ilk shaharlarda ibodatxona, saroy, xazina, omborlar qurilgan. natijada oqsoqollarning eng kuchlisi yuqoridagi tarzda shakllanayotgan ilk davlatning sardori bo'lgan. Sharqda dastlab ***nomajburiy ijtimoiy hokimiyat, so'ngra majburiylikka asoslangan davlat hokimiyati*** vujudga kelgan. bunda boshqaruvchilarning o'rni va ahamiyati tobora oshib borgan. Buning natijasi o'laroq kim hokimiyatga aloqador bo'lsa, uning boshqa sohalarda ham ahvoli tegishli tarzda belgilangan. hokimiyat egasi qo'lida boylik va mulk bo'lgan. shunga ko'ra kim hokimiyatga ega bo'lsa, barcha narsalarga, jumladan, mulkka ham ega bo'lgan. qadimgi sharq mamlakatlari sivilizatsiyalarida hokimiyat-mulk tamoyili amalda bo'lgan. Oddiyroq qilib aytilsa, bunday tamoyilda hokimiyat

mulkni tug'dirgan, hokimiyatdan mahrum bo'lish esa barcha mulkdan ajralishgacha olib borgan⁴.

Madaniyatning paydo bo'lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog'liq bo'lsa, sivilizasiya - tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizasiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Sivilizasiyalik hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi. Oldin aytib o'tilganidek, sharq va g'arb-yevropa sivilizatsiyalari an'anaviy va texnogen tabiatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Sharq yozma tarixining ikki muhim davrida qadimgi dengiz sivilizatsiyasini ifodalagan yunonistonga, yangi va eng yangi tarixda okeanlarning sivilizatsiyasini yaratgan yevropaga ilg'orlikni berib qo'ygan edi. O'z navbatida, g'arb keyinroq fan va texnika rivojlanishini tezlashtirish orqali yuksak sur'atlarni ta'minlab, tegishli tarzda aholi turmush sharoitlarini ham yaxshilab dunyoning ko'p joylariga, jumladan, sharqqa ham o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Muayyan jihatlardan bu sivilizatsiyalar to'qnashuviga o'xshagan holni yuzaga keltirdi. Buni chuqur mulohazali ziyolilar payqamasligi mumkin emasdi. Chunonchi, ingliz shoiri Redyard Kipling «sharq va g'arb haqida ballada» asarida yozgan edi:

***G'arb – bu G'arbdir, Sharq – esa Sharqdir,
Joyidan qo'zg'almas ular hech qachon.
Toki Yer yuzida qiyomat qo'pib,
Unga qulab tushmaguncha bu osmon.***

⁴ Sh. Azizov. Shaxs va Jamiyat. (Ijtimoiyot asoslari). Darslik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2010. B-102-108

... Lekin Mashriq yo'qdir va Mag'rib ham yo'q,

Urug'-aymoq Vatan va jins misoli.

Kuchli kuchli bilan kelsa yuzma-yuz,

Yerning bir chetida ketadi qolib.

(Faxriyor tarjiması)

Sivilizatsiyalar insoniyatga xos jihatlarning jami sifatida umumiylikka ham egadir. bu shunda ko'rinadiki, ular umuminsoniy tarixiy jarayonning ichidadir, uning turlicha kechishini ifodalaydi. ijtimoiy-madaniy jarayonlarning turlicha holatlarini ifodalashi bilan sivilizatsiyaviylik «olamning birligi uning turli-tumanligidadir», degan tamoyilga juda mos keladi. ya'ni, bir tomondan, sivilizatsiyalarning o'zaro ta'sir ko'rsatishlari, aloqadorlikka moyilliklari ko'zga tashlansa⁵, ikkinchi tomondan, ularning tobora turli xilda namoyon bo'lishlari yuz bermoqda. Bu masalaning nafaqat nazariy, balki siyosiy-amaliy o'tkirligi bilan ham izohlanadiki, mustamlakachilik qaysi bosqichda bo'lsin, u yoki bu sohada amalga oshirgan o'zgarishlar bir tomonlama bo'lganidan, ularning natijalari davlat istiqboliga yetarli asos bo'la olmasligi ravshan edi. boshqa tomondan, g'arb-yevropa texnogen sivilizatsiyasi ham garchi shaxs erkinliklari, yuqori turmush

⁵ Kishilik jamiyatini sanoatlashtirish orqali modernizatsiyalashtirish g'arbda boshlanib, keyinroq asta-sekin turlicha vositalar yordamida sharqqa yoyilishi tufayli Yaponiya, Osiyo-Tinch okeani havzasi, Hindiston va boshqa joylarda chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. natijada bularda g'arbga xos bo'lgan belgilar paydo bo'ldi. masalan, yaponiya 70 yilcha vaqt ichida asosiy jihatlar bo'yicha g'arb standartlarining yuqori nuqtasiga: sanoat kapitalizmi, vakolatli, demokratiya, fan va texnologiya sohalarida ilg'orlikka erishildi. ayni vaqtda, bu mamlakat sharqona ma'naviyatda mustahkam turibdi, deyish mumkin. demak, bu yerda sharq va g'arb sivilizatsiyalari zarur o'rinlarda mohirona qo'shilgan. albatta, g'arb sivilizatsiyasining iqtisodiy-texnologik va pragmatik huquqiy qadriyatlari axloqning elementar talablariga zid kelib qolgan jihatlari ham ko'zga tashlanmoqda, raqobat kurashi har doim ham insonparvarlik tabiatini ifodalamaydi.

darajasini ta' minlagan holda jahoniy ekspansiyachilik, ekologiyaviy inqiroz, resurslarni tasarruf etish va hokazo salbiy oqibatlarni keltirib chiqarganiga ko' ra yagona zamin bo' la olmasligi tushunarlidir. bunday sharoitda bu sivilizatsiyaga muqobil an' anaviylik shaxs erkinligini cheklasa-da, fan-texnika rivojlanishini tezlashtirmasada, jamoaviy hayot maromini ta' minlaydi. ko' rinadiki, har ikki sivilizatsiya mutanosib jihatlarini qabul qilish, ya' ni, qayerda g' arbcha texnologiya bo' lmasa, u yerda xomashyo va, aksincha, sharqiy mintaqalarda xomashyolardan foydalanishi uchun zamonaviy texnologiyani jalb etish zarur bo' ladi. albatta, masalaga bunday yondashish an' anaviy jamiyatlardagi sanoatlashgan va axborotlashgan jamiyatlarga o' tish davriga tegishlidir. Chunki istagan bosqichdagi jamiyat zamonaviy ko' rinish ola olmaydi. bunday bo' lish uchun ijtimoiy munosabatlarning zarur darajasi va madaniy qadriyatlarning muayyan tarzi o' zaro mutanosib bo' lishi kerak. modomiki, bunga sharoit yetarli emas ekan, u holda oraliq, o' tmish davri jamiyati barpo etish vazifasi kun tartibiga qo' yiladi. bunda jamiyat qisman modernizatsiyalashtiriladi, ya' ni, ishlab chiqarish sohasida imkoniyat bo' lgan hollarning barchasida kishilar hayotiga oqilonalik (ratsionallik) berish vazifalari ketma-ket bajariladi. ijtimoiy vazifalarning bajarilishi esa, asosan, an' anaviylik tadrijida mavjud qadriyatlarning, masalan, urf-odatlar va diniy me' yorlarga tayangan holda olib boriladi. bular, o' z navbatida, ma' lum darajada siyosiy soha o' zgarishlariga ham olib keladi.

O' tish davri jamiyatlari yoki o' tish jamiyatlari jarayonlari mantiqi shundayki, bunda oxir-oqibatda mavjud ijtimoiy munosabatlar, ularga muvofiq keladigan madaniylik darajalari yangi sifat holatlariga ega bo' ladilar. lekin bu uzoq vaqt davomida amalga oshadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sivilizasiya atamasining ikkinchi ma'nosi ham yoritilyapti. U lotincha «grajdanlikka oid» tushunchasi bilan bog'likdir. Lotin tilidan kirib kelgan grajdanlik, gorojanin so'zlarining o'zagi bir xildir. Sivilizasiya shu ma'noda shahar madaniyati tushunchasini ham ifodalaydi. Shahar madaniyatini yaratgan va unda yashagan kishilarni sivilizasiyali inson hisoblash rasm bo'lgan. Sivilizasiyani bunday tushunish ayniqsa Yunoniston, Rim va boshqa joylarda keng tarqalagan (Kravchenko A.I. Vvedeniye v sosiologiyu. M.1995)

XX asr fransuz faylasuflari sivilizasiyaga erishgan jamiyat deganda aql va adolatga asoslanuvchi jamiyatni tushundilar.

Sivilizasiya obyektiv ijtimoiy hodisa bo'lib, odatda biron bir xalq, mintaqa, jamiyat, davlat va xatto butun jahonga nisbatan qo'llaniladi:

- sivilizasiyaga erishgan xalq,
- Sharq sivilizasiyasi, g'arb sivilizasiyasi,
- sivilizasiyali jamiyat, sivilizasiyali davlat.

Sivilizasiya butun bir xalq yoki millat, tarixiy davr va mamlakat tomonidan yaratiladi. Madaniyat - sivilizasiyaning muhim bir elementidir. Adabiyotlarda sivilizasiyaga sof moddiy hodisa deb qarash hollari ham uchraydi. Moddiy taraqqiyot o'sa borishi bilan kishilarning faoliyat sohalarida o'ziga xos o'xshashliklar va ma'lum qulayliklar paydo bo'ladi va ular to'planib «sivilizasiya»ni tashkil etadi.

Sivilizasiya tushunchasiga inson tomonidan yaratilgan predmetlar, hodisalar kiritilmoqda:

- moddiy boyliklar, transport vositalari,
- kasb-kor, ilmiy-tadqiqot o'tkazish usullari,
- ichki tartib, qoida, nizomlarni himoyalash usullari,

- insonlarning turmush tarzi,
- oziq-ovqatlarni is'temol qilish sifati, darajalari, me'yorlari
- ehtiyojlarni ta'minlash me'vori va darajalari,
- sanoat, qishloq xo'jaligi, taqsimot, rivojlanish darajalari,
- kiyim-kechak ishlab chiqarish, kiyinish, orastalik, estetik did va boshqalar.

Fan taraqqiyoti, uning amaliyotga tatbiq etilishi, ta'lim-tarbiya tizimi va uni amalga oshirish usullari sivilizasiya yutuqlari hisoblanadi. Xalqlar, davlatlar, mintaqalar rivojlanishidagi o'ziga xos farqlar sivilizasiyalararo tafovutlarni tashkil etadi. (**«Sirli olam» jurn,1994, 4-son**). Demak, sivilizasiya ko'proq moddiy taraqqiyotdagi farqlarga tegishlidir. Madaniyat esa ma'naviy taraqqiyot sohasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Sivilizasiya va madaniyat o'rtasida o'zaro aloqadorlik, shuningdek, ular o'rtasida tafovut va ziddiyatlar bo'lishi ham mumkin. Sivilizasiya va madaniyat ayni bir vaqtda vujudga kelishi mumkin. Biroq ular bir tekis rivojlanmaydi.

Jahon taraqqiyotning hozirgi bosqichida sivilizasiya va madaniyatning o'zaro munosabatiga bo'lgan turlicha qarash va konsepsiyalar mavjddir. Yevropa mamlakatlarida asosan jamiyatning moddiy tomoniga e'tibor kuchaytirilib, madaniyatni sivilizasiyaga bo'ysundirishga harakat qilinyapti. Insoniyatning tafakkur tarixidan yaxshi ma'lumki, taraqqiyotning ayrim davrlarida falsafa, madaniyat, ma'naviyat birlamchi, ustivor o'rinni egallagan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, madaniyat va sivilizasiya tushunchalarining o'zagi bir xil emas: din ruhiyat, ma'naviy kamolot, ilohiyot bilan bog'langan, sivilizasiya esa insoniyatning mehnati, yaratuvchan faoliyati asosida vujudga kelgan ijtimoiy jarayondir. Demak, sivilizasiya va madaniyat turlicha tushunchalar va kategoriyalarga asoslanadi. Insoniyat tafakkurining turli bosqichlarida madaniyat va sivilizasiyani birlashtirish yo'lida ko'p harakatlar bo'lgan.

Sivilizasiya tabiiy va ijtimoiy-madaniy uyushmalarning yaxlitligi, xalq bunyodkorlik faoliyatining mahsuli hisoblanadi. Bunda shu xalqning madaniyati,

an'analari, udumlarining o'ziga xos xususiyatlari, yashash joylarining geografik va iqlim sharoitlari o'z ifodasini topadi.

Sivilizasiya - millatlararo totuvlik, iqtisodiy aloqalar birligi (xo'jalik munosabatlari), tabiiy-geografik sharoitlar, madaniy va antropologik tomonlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bunda milliy til va madaniyat benihoya ahamiyatlidir. Chunki har qanday sivilizasiyaning mohiyati va mazmuni ana shu tushuncha va belgilarga bog'liqsir. Lekin har qanday sivilizasiya o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir asosida shakllanadi. Har qanday sivilizasiya o'zining shakllanishida boshqa sivilizasiyalarning yutuqlari va imkoniyatlaridan iloji boricha keng foydalanadi, ularni o'ziga singdirishga harakat qiladi.

Toynbi, Karl Yaspers va boshqalarning fikricha, Rossiya sivilizasiyasi G'arbiy Yevropa sivilizasiyasi qatorida turadi.

Odatda yirik sivilizasiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi sistemali ravishda o'rganiladi. Ya'ni sivilizasiyani o'rganishga kompleks yondashish, inson va uning madaniyatini atroflicha o'rganish, shu xalqning madaniyati, faoliyat tarzi, xulq-atvori va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Sivilizasiyaga xos xususiyatlar badiiy, madaniy, ma'naviy yodgorliklarda o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston sivilizasiyasi va madaniyati ancha boy va uzoq rivojlanish tarixiga egadir. U islom dini, madaniyati orqali Sharq mamlakatlari uchun xos bo'lgan umumiy madaniyat manbaalari bilan uyg'unlashadi. Bu esa o'zbek sivilizasiyasining sharqona asosini belgiladi. Ammo o'zbek sivilizasiyasi o'ziga xos xususiyatlarining betakrorligi, noyobligi va milliyligini saqlab qoldi. O'zbek sivilizasiyasi qator xususiyatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yaxlit sivilizasiyani yaratish imkoniyatini kuchaytirmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekiston sivilizasiyasining yo'nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarini hisobga olib integrasiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizasiyalararo ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o'rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud

sivilizasiyalar o'rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizasiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

Sivilizasiyaga ideal jamiyat, aql va tafakurga asoslangan jamiyat deb qaralmoqda. «Sivilizasiya» tushunchasiga yondashishda XIX asr boshlarigacha 3 xil qarash mavjud edi:

1. sivilizasiya-insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanish ideali,
2. sivilizasiya - insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanishining bir bosqichi,
3. lokal-tarixiy sivilizasiya yaxlitligi, etnoslarning yoki tarixiy, ijtimoiy uyushmalarining noyob va betakrorligini e'tirof etish.

F.Gizo sivilizasiyaning etnotarixiy konsepsiyasini yaratdi. Uning fikricha, insoniyatning yagona progressiv rivojlanishi turli xalqlarning madaniy-realligi o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyat mavjud. Gizo lokal sivilizasiyalar mavjudligini, shuningdek, yaxlit kishilik jamiyati progressi uchun ham sivilizasiya g'oyasini qo'llash mumkinligini e'tirof etdi.

Yevropa falsafiy-tarixiy tafakkurida progressning to'g'ri chiziqli asosida borishi to'g'risida metodologik ta'limot yaratildi. Bu metodologiya mohiyati shundan iboratki, harakat qiladigan kuchlar ularning xususiy tomonlari, xolos. Jahon tarixi quyi holatdan yuqori rivojlangan va takomillashgan holatga o'tadigan jarayondir. Har bir xalq ana shu to'g'ri chiziqli progress yo'lidan boradi. Keyinchalik shu metodologiya asosida «tarixiy» va «notarixiy» xalqlar konsepsiyasi vujudga keldi:

a) «ma'naviy rivojlanishning uch bosqichi» qonuni (oilalar, fuqarolik jamiyati va davlat) - Hegel ta'limoti,

b) «tafakkur evolyusiyasining uch bosqichi» qonuni (teologiya, metafizika, pozitivizm) - Kont nazariyasi,

N.Danilevskiyning «Rossiya va Yevropa» asari (1869 yil)da Rossiya sivilizasiyasining tug'ilishi va rivojlanishi masalalari tahlil qilindi.

N.Danilevskiy o'z asarida, birinchidan, insoniyatning «yaxlit sivilizasiya sifatida yashashi» to'g'risidagi ta'limotni inkor etdi, ikkinchidan,

tarixiy jarayonlarda faqatgina xalqlar va ularning betakror, o'ziga xos sivilizasiyasi, «madaniy - tarixiy tiplar» mavjud, bo'lib, bu xususiyatlar boshqa xalqlarda shakllanmasligini, ularni o'zlashtirib bo'lmasligini, ular faqat shu xalqdagina mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Madaniy - tarixiy tiplar bir - biri bilan uzluksiz kurashish jarayonida quyidagi davrlarni bosib o'tadi.

- etnik holatdan davlatchilikka,
- davlatchilikdan esa sivilizasiyaga o'tadi,
- madaniy - tarixiy tiplar o'zgaradi.

N.Danilevskiy g'oyalari XX asrning 20-30- iillarida nemis faylasufi O.Shpengler tomonidan yanada rivojlantirildi.

O.Shpengler «Yevropa quyoshning so'nishi» asarida G'arbiy Yevropa tarixiga xos yevroposentrizm, panlogizm, istorizm, to'g'ri chiziqli progressizm prinsiplarini tanqid qildi va madaniy - tarixiy jarayonning aylanma xarakat nazariyasini yaratdi.

Uning fikricha,

- 1 .Jahon madaniyati turli - tuman bo'lib, siklli rivojlanishdan iborat:
- 2.Turli - tuman madaniyatlar yetuklik jihatdan o'zaro teng va baravardir.

Jahon madaniy-rivojlanish jarayoni muqarrar ravishda quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

- 1) yoshlik (mifosimvolik, ilk madaniyat). .
- 2) gullab - yashnash, yuksalish (metafizik - diniy madaniyat):
- 3) tushkunlik (qotib qolgan madaniyat)

O.Shpenglarning fikricha, tushkunlikka yuz o'giran va qotib qolgan madaniyat sivilizasiyaga o'sib o'tadi. Shuning uchun sivilizasiya hamma joyda bir xil sifat, belgi va xususiyatga ega bo'ladi:

- yaxlit madaniy olamning organizm sifatida barham topishi uning o'lganligida ko'rinadi:

- bu ilhomlantiruvchi, rivojlantiruvchi madaniyatning so'ngida o'z ifodasini

topadi:

- madaniyatning yo'klikka qaytishi etnik tartibning buzilishi, ya'ni borliqqa qaytishi demaقدir. O.Shpengler, tarixiy jarayonning aylanma harakati, tarixiy «ritmi» (maromi)g'oyasini olg'a surdi: Bu nazariya sivilizasiyaning siklli rivojlanishi, ya'ni takrorlanib turishi haqidagi konsepsiyaga olib keldi.

A.Toynbi XX asr o'rtalarida yozgan ko'p jildli asarlarida sivilizasiyaga sistema sifatida yondashdi va bu sistemaning elementlari, qismlari va bo'laklariga uzviy aloqadorlikda qaradi.

Toynbining fikricha, sivilizasiyalarning vujudga kelishi, xalqlarga nisbatan tabiat tomonidan («hosilsiz yerlar» va «siquv yo'llar» stimullari) yoki insoniy muhit («zarba» va «siquv») stimullari tomonidan qo'yilgan chaqiriqqa javobi hisoblanadi. Yangi sivilizasiya ikki yo'l asosida paydo bo'lishi mumkin:

1. Jamiyatning oddiy, primitiv strukturasi omma ichidan yetishib chiqqan ijodiy fikrlovchi elita (tabaqa, guruh) tomonidan o'zgartiriladi. Chaqiriqqa, talabga nisbatan yangi metod va mexanizmlar yaratadi va ijtimoiy aktivlik mimesis mexanizmi asosida ro'y beradi. (Mimesis-ijtimoiy taqlid, imitasiya orqali ijtimoiy qadriyatlarga ko'shilish, ishtirok etish, aralashish - birikishga intilish demakdir).

2. Yangi sivilizasiya o'tmishda bo'lgan sivilizasiyaning genetik negizidan kelib chiqishi ham mumkin.

Demak, Toynbi sivilizasiyaga sistema sifatida qaradi, ular o'rtasidagi tafovutlarni esa aloqalar tipi, turi bilan bog'ladi. U jahon sivilizasiyalari tarixi, uning turlari, xususiyatlari, farqlarini o'rganish bilan shug'ullandi va qator asarlar yaratdi. XX asrning I-yarmiga kelib, ijtimoiy - falsafiy ta'limotning maxsus tarmog'i sifatida sivilizasiyani tadqiq etish fani vujudga keldi va tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Xatto qator mamlakatlarning o'quv yurtlarida majburiy predmet sifatida o'quv rejalariga kiritildi.

Sivilizasiya mohiyatini talqin etishga bir qancha yondashuvlar:

Kulturologik, sosiologik, etnopsixologik, geografik yondashuv va boshqalar vujudga keldi. Kulturologik nuqtai nazardan (M.Veber, A.Toynbi)

yondashishga ko'ra sivilizasiya, bu - alohida sosiomadaniy fenomen bo'lib, makon va zamon bilan chegaralangan, Uning asosini din tashkil etadi.

E.Taylor sivilizasiya elementlariga bilim, e'tiqod, san'at, qonun, udumlar, odatlar, va boshqalarni ham qo'shadi, chunki shu jamiyat a'zolari ularni o'zlashtirib oladilar va ularga amal qiladilar.

Sosiologik asosda yondashuv (D.Uilkins)ga ko'ra sivilizasiyani sosium sifatida tushunish mumkin emas, u yagona bir xil madaniyatdan iborat bo'lolmaydi. Gomogen madaniyat sivilizasiyaning belgisi bo'lolmaydi: madaniyat har xil bo'lolmaydi: madaniyat har xil bo'lishi mumkin. D.Uilkinsning fikricha, sivilizasiya-ijtimoiy uyushma bo'lib, u vaqt va makonda aloqalar, konfliktlar asosida mavjud. bo'ladi.

Sivilizasiya munosabatlari xamkorlik, konfliktlar, urush, tengsizlik, barqarorlik va eksplutasiya asosida mavjud bo'ladi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy aloqalar kuchli rivojlangan bo'ladi.

Sivilizasiyaga geografik determinizm asosida yondashish (L.Mechnikov) ham mavjud. Bu oqim tarafdorlari u yoki bu xalq sivilizasiyasini g'yergrafik muhit bilan bog'laydilar, ya'ni kishilarni uyushtirishnish kooiyeasin shakli tabiatning o'zgaruvchan, yaratuvchan faoliyati asosida shakllanadi. Falsafaga oid adabiyotlarda sivilizasiya mohiyatini keng va tor ma'noda tushunish hollari ham ucharaydi.

Sivilizasiya keng ma'noda jamiyat moddiy va ma'naviy yutuqlarining majmui, yig'indisi sifatida talqin qilinmoqda.

Sivilizasiya tor ma'noda jamiyatning faqat moddiy madaniyatini ifoda etadi, deb hisoblamodalar.

XX asrning ikkinchi yarmida Yevropa sivilizasiyasi masalasida bir qancha yo'nalishlar vujudga keldi.

1. Sivilizasiya - lokal tarixiy uyushma. Bunday uyushma u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy mentalitetini ifodalaydi. Bunda sivilizasiyaning sosiomadaniy xususiyati o'z ifodasini topgandir.

2. «Sivilizasiya» tushunchasini madaniy-reduksion asosda talqin etish

yaramaydi. Bu g'oya hozirgi davrdagi globalistika masalasi bilan uzviy bog'likdir. Ya'ni u jahon sivilizasiyasining yaxlitligini e'tirof etadi.

3. Sivilizasiya masalalariga doir yana bir ta'limotga ko'ra sivilizasiya ko'p ma'noli hodisa, turli-tuman sivilizasiyalarning uchrashuvi sifatida vujudga kelgan hodisadir. Unga hozirgi davrning global imperativ (talab) «chaqirig'i» natijasi sifatida qaralmoqda.

Sivilizasiyaning ko'p ma'noli hodisa sifatida talqin etilishi uning mohiyatini germenevtik asosda anglashga olib keldi va atomistik, ya'ni bir tomonlama qarashni istisno etadi. Atomistik nazariya sivilizasiyaga sosiomadaniy birlik, yaxlitlik sifatida qarashni inkor etadi.

Sivilizasiya, bu ko'p sivilizasiyalarning o'zaro aloqasi bo'lib, global masalalar bilan uzviy bog'likdir. Ammo sivilizasiyaga yaxlitlik deb qarash bilan birga har qanday sivilizasiyaning o'ziga xosligi saqlanmoqda (G'arb, Islom, Hindiston, Xitoy, sivilizasiyalari), lekin shunga qaramay, hozirgi davrda sivilizasiyalararo mustahkam aloqa (tendensiya) yo'nalishlari kuchaymoqda. Olamga yaxlit birlik sifatida qaralmoqda.

N.Moiseyevning fikricha, XXI asrda yagona qit'a sivilizasiyasi vujudga keladi, unda umuminsoniy qadriyatlar, kollektiv umum sayyoraviy Aql, axloq va ruhiy olam qaror topadi.

Bunday qarashga zid ravishda E.Batalov tomonidan olg'a surilayotgan nazariyaga ko'ra megasivilizasiya vujudga keladi, lekin milliy, regional, xududiy sivilizasiyalar o'z ahamiyati va noyobligini saqlab qoladi:

1. «madaniy» plyuralizm nazariyasi:
2. «glyubalizm» konsepsiyalari mavjud:

«Madaniy» plyurasizm nazariyasiga ko'ra madaniyat mamlakatlar, regional sivilizasiyalarni bir-biri bilan uzviy bog'lovchi halqadir. Bu olamni garmonik rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. madaniy hamkorlikni vujudga keltiradi. Chunki G'arb sivilizasiyasi faqat yagona sivilizasiya emas, unga zid turgan Sharq sivilizasiyasining o'ziga xos fenomenlari, betakror va noyob tomonlari mavjud. Yevropa yoki G'arb sivilizasiyasi oldida ko'p milliy madaniyatlardan iborat bo'lgan

endogen madaniyat modelini, madaniy plyuralizmni yaratish vazifasi kun tartibiga qo'yiladi:

Yer yuzining globallashuvi jarayonida savdo birlashmalari, har xil mafkuraviy ishlari olib borish asosida yagona olam manzarasini yaratishga harakat qilinadi.

Globalizm bir qancha bosqichlarga bo'linadi:

1. globalizmning «tug'ilishi» (XV-XVIII asrning 1-yarmi)
2. globalizmning «boshlanishi» (XVIII asr 2-yarmidan to 1870 yil).
3. globalizmning «sakarashi» (1870 yildan XX asrning 1- yarmigacha).
4. globalizmning «noaniq holati» XX asr I-yarmiga to'g'ri keladi.

Bu davrlarda milliy birliklar, xalqaro munosabatlar «xalqaro hamjihatlik» kabi jarayonlar sodir bo'ladi. Ayniqsa so'ngi «noaniqlik holatida» ko'p etnik va ko'p madaniyatlilik jahon «grajdanlik jamiyati »va jahon grajdanligi vujudga keladi.

Sivilizasiya masalasiga yondashishda bir - biri bilan bog'langan uch xil yo'nalish vujudga keldi:

1. lokal - tarixiy yondashuv asosida izohlash
2. tarixiy - bosqichli yondashuv.
3. Jahon tarixiy bosqichi asosida yondashuv:

Sivilizasiya lokal-tarixiy asosida yondashishda turli qarashlar mavjud.

1. N.Danilevskiy (xronologik tartibda) quyidagi madaniy-tarixiy tiplarni: Misr, Assiriya, Vavilon, Finikiya, Hindiston, Eron, Yevropa, Yunon, Rim, Arab, Yahudiy, Slavyan sivilizasiyalarini ko'rsatdi.

2. O.Shpengler madaniy - tarixiy olamni: Misr, Hindiston, Vavilon, Yunon, Rim, G'arbiy Yevropa sivilizasiyalariga ajratdi.

3. A.Toynbi lokal sivilizasiyalarni: Misr, Xitoy, Minay, Shumer, Mayya, Suriya, Hindiston, Hyett, Ellin, Pravoslav, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq, (Kareya, Yaponiya) Eron, Arab, Vavilon va boshqalarga ajratdi. Yana u umumlashtirib: A) «G'arbiy Yevropa» B) «Provaslav Xristian» yoki Vizantiya V) «Islom jamiyati» G) «Hindiston jamiyati» D) «Uzoq Sharq jamiyati» kabi sivilizasiyalarni ko'rsatdi.

L.Vasilyev esa;

«G'arbiy Yevropa», «Rossiya», «Islom», «Hind-budda», «Konfusi» sivilizatsiyalarini farqiladi.

II. Sivilizatsiyalarga tarixiy bosqich sifatida yondashuvda u yoki bu aksioma mezonlari asos qilib olinadi va sivilizatsiya bir necha tiplarga ajratiladi:

- «og'zaki, yozma, kitob shakliga keltirilgan, ekranlashtirilgan»
- «kosmogen, texnogen va antropogen»
- «traditsion va hozirgi» sivilizatsiya.
- Hozirgi zamon adabiyotlarida sivilizatsiyaga tarixiy-bosqichli yondashuvda ko'proq texnokrat usulga bo'lgan e'tibor kuchaydi:

- agrar (industrial davrgacha) sivilizatsiya:
- sanoat (industrial) sivilizatsiyasi
- informatsion sivilizatsiya (U.Rostou, D.Bell, O.Toftler).

III. Sivilizatsiyaga jahon tarixi sifatida yondashuviga asos qilib olinadi. Lokal sivilizatsiyaning o'zaro munosabatlari negizidan jahon tarixi kelib chiqadi va ekumen (koinot, jahon) sivilizatsiyasi shakllanadi. Sivilizatsiyani tarixiy jarayon bilan bog'laydilar va turli moddiy, ma'naviy omillarni asos qilib oladilar va o'zgarishlarini ko'rsatadilar.

K.Yaspers jahon tarixiga, insoniyatning qaror topishi va rivojlanishiga ekzistensializm (mavjudlik, ma'naviy ibtido) g'oyasini asos qilib oldi. Uning nazariyasida inson borlig'ining ma'naviy asoslari muhim o'rin egalladi. Uning fikricha, real jahon tarixi:

- inson ruhining maxsus rivojlanish bosqichi:
- turli madaniyatlarning o'zaro aloqalari natijasi:
- madaniy xalqlar o'rtasidagi haqiqiy aloqa vositasi:
- ma'naviyat jahon tarixining muhim omilidir:

K.Yaspers «Tarixning boshlanishi va uning maqsadi» (1949) asarida ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini:

1. «tarixgacha»
2. «qadimgi buyuk madaniyat» (lokal tarix)
3. «o'q davr» jahon tarixining boshlanishi

4. «texnik davr» (yagona jahon tarixi) gacha bo'ladi.

I. Tarixgacha bo'lgan davrda:

- Insoniyatning vujudga kelishi va qaror topishi,
- O't (olov) va mehnat qurollarining yaratilishi davri,
- Nutqning vujudga kelishi,
- Ijtimoiyguruh va hamjihatlikning shakllanishi,
- Hayotning paydo bo'lishini afsonalar, miflar asosida anglash ro'y berdi.

Uning fikricha, bu - tarixgacha bo'lgan davrning muhim, o'ziga xos xususiyatlaridir.

2. «Qadimgi buyuk madaniyatlar» davri: Insoniyat tarixi Yer yuzida bir vaqtda quyidagi joylarda vujudga kelgan:

I. Shumer-Vavilon va Misr madaniyati, shuningdek, egey olami (IV ming yillikdan to bizning milodgacha).

II. Hindiston havzasidagi Dosroniylar mamlakati (III ming yillikdan to bizning milodgacha).

III. Xitoy arxaik dunyosi (11 ming yillikdan to bizning milodgacha). K.Yaspersning fikricha, er. av. 800-200 yillardan bizning eramizgacha bo'lgan «o'q davri»da qadimgi buyuk madaniyatlar ta'sirida butun insoniyatning universal ma'naviy negizi shakllana boshlagan. Bu jarayon bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda Yer yuzining turli joylarida vujudga kela boshlagan.

Hindiston, Xitoy, Eron, Falastin va qadimgi Yunonistonda ma'naviy harakatlar boshlangan va hozirgi qiyofadagi inson tipi shakllangan.

«O'q davri»ning eng muhim xususiyatlaridan yana biri bo'lgan jahon dinlari shu vaqtda vujudga kelgan. Mifologik - afsonaviy ong va dunyokarash o'rniga falsafiy ong va dunyokarash, ma'naviyat, reflekslar, ko'nikmalar vujudga keldi. Ruhning uyg'onishi bu dunyo umumtarixining boshlanishi va lokal madaniyatlar o'zaro aloqasining kuchayishdan dalolat beradi.

K.Yaspers «o'q davri»ga insoniyatning tarixiy makon va zamon sifatida qaraydi. Shuningdek, u «o'q davri»da yaxlit insoniyatning vujudga kelishida ayrim xalqlarning tarixiy rol' o'ynaganligini ko'rsatdi.

K.Yaspers «O'q davri xalqlari» (xitoyliklar, hindistonliklar, eroniylar, yahudiylar, yunonlar) o'z tarixini uzluksiz rivojlantirib, insoniyatning yagona ma'naviy makoni va uning xaqiqiy tarixi boshlanishiga asos soldilar. (K.Yaspers. Smqsl i naznacheniiye istorii. M. 1994.str.32-50). III. «Texnika davri»

Bu davr XVI-XX asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning xususiyati shundan iboratki, insoniyat jahon tarixining ma'naviy yaxlitligi uchun harakat boshladi. Bu harakat g'oya va nazariya sifatida emas, balki reallikka aylandi. Yevropa madaniyati keng tarqaldi, geografik kashfiyotlar sodir bo'ldi. XX asrda fan texnika rivojlandi, lekin Yevropa madaniyatining rivojlanishiga qaramay, xalqlar o'zlarining betakror, noyob madaniyatini saqlab qoldilar, yanada rivojlantirdilar va takomillashtirdilar.

L.Vasilyev jahon tarixiy jarayonlari sivilizatsiyasi konsepsiyasini taklif etdi.

U insoniyat tarixini uch davrga bo'ldi:

1-davr eng qadimgi davrdan to er. av. VII-VI asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr «osiyo» tipidagi lokal jamiyatlar, tradision, avtoritar, despotik, ma'muriy sistemaning asosiy prinsipi «mulk hokimiyati» va markazlashtirilgan redistribusiya («distribusiya» - taqsimlash, «re»-tiklash, taqsimlashga zid bo'lib, markazlashtirilgan» degan ma'noni ifoda etadi)ga asoslangan bo'lib, hokimiyat mulkchiligini keltirib chiqargan. Mulkni qayta taqsimlash davlatning qo'lida bo'lgan. Ijtimoiy strukturaning o'zgarishi siklli asosda qayta ishlab chiqilgan va u markazlashgan davlat orqali amalga oshirilgan. Tradision sosiosentrik jamiyat strukturasida juda sekinlik bilan ayrim o'zgarishlar kiritish, joriy etish hisobiga o'zgargan, xolos.

I-davr er.av. VI-VI asrdan to XIV -XVI asrlarni o'z ichiga oladi.

Bu Yevropa tipidagi jamiyatning tug'ilishi va qaror topish davridir. Shu vaqtda parallel tarzda «Yevropa» va «Osiyo» olami, ya'ni ijtimoiy dixotomiya vaziyati vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda ijtimoiy mutasiya tufayli «aniq

Yevropa» sivilizasiyasi paydo bo'ldi. U xususiy mulkchilikka, grajdanlik tamoyillariga asoslangan edi (genotip sivilizasiya edi.)

Shu davr XIX asrlarda G'arbning bevosita Sharqqa kirib borish davrini o'z ichiga oladi. Tradision va Yevropa madaniyati strukturalari o'rtasida simbioz (bir-biridan foydalanib, birga yashash) jarayoni boshlandi: XX asrga kelib esa simbioz sintezga o'tdi, (ikki sivilizasiya bir-biri bilan bog'lanib, qo'shilib bordi). Sharq sivilizasiyasining g'arbgga ta'siri kuchaydi, jahon tarixi transformasiyalasha boshladi. Bunda Sharq sivilizasiyasining roli, ta'siri kuchaya boshladi. Ammo bir vaqtning o'zida turli xil sivilizasiyalar bir-birlari bilan tinch-totuv yashashlari ham mumkin.

G'arb va Sharq madaniyati sivilizasiyalarining barqaror rivojlanishi va sintezlashuvi hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan prinsipial masala, muhim falsafiy muammodir.

Yer yuzidagi ko'pgina davlatlarning rivojlanish istiqbollari ayni shu modelga asoslanadi. Chunki unda jamiyatning barcha jabhalari o'zia xos tarzda tugallangan va qiyomiga yetkazilgan jarayondir. Shunday xususiyat Sharq sivilizasiyasiga ham xosdir.

O'zbekiston o'zining ulkan tarixiy taraqqiyoti va o'ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan mamlakatdir. U jahon sivilizasiyasiga buyuk hissa qo'shgan, jahon tarixida chuqur iz qoldirgan dalat hisoblanadi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftihori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy jihatidan ilg'or mamlakat hisoblanadi. Shuningdek, u o'z taraqqiyoti istiqbollari, imkoniyatlari jihatidan qulay geografik - strategik

mavqiyega egadir. O'zbekiston mintaqada har tomonlama qulay imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli mamlakatdir.

O'zbekiston hozirgi davrda jahon sivilizasiyasi sari rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanishda o'ziga xos va o'ziga mos an'analar, betakror noyob xususiyatlarini saqlanib qolmoqda.

Ma'lumki, eng yirik sivilizasiyalar. Sharq va G'arb sivilizasiyalari hisoblanadi. Bu sivilizasiyalar o'rtasida umumiylik va o'ziga xoslik mavjud. Qator adabiyotlarda O'zbekiston jamiyati qaysi sivilizasiya asosida taraqqiy etadidegan masala qo'yilyapti.

Agar O'zbekiston G'arb sivilizasiyasi asosida rivojlansa, u holda G'arb taraqqiyotiga xos barcha iqtisodiy, shuningdek, hayotda mavjud bo'lgan ziddiyatlarni ham o'ziga singdiradi va qabul etadi.

O'zbekiston Sharq sivilizasiyasi asosida taraqqiy etsa, u holda Sharqqa xos bo'lgan ijtimoiy xususiyatlarni, davlatning jamiyat barcha jabhalariga rahbarlarigining ustunvorligini, an'ana, rasm-rusm, vaqtni o'zida mujamssamlashtirishi kerak. Bu esa rivojlanish jarayonini cho'zib yuboradi, u yoki bu davlatlarning rivojlanishi namunasini nusxa sifatida tanlashni qiyinlashtiradi.

O'zbekistonning tarixiy qismati Sharq tarixining bir qismi ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, jahon tarixi, insoniyat tarixi yaxlit, bir butun, umumiy birlikdan tashkil topgan, o'zaro aloqada, o'zaro bog'liqdir. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

1. tarixiy o'tish davri muammolarini dalillar asosida aniq idrok etish, uning mohiyatini seza bilish:

2. milliy an'ana, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va takomillashtirish asosida rivojlanish konsepsiyasini yaratish va unga qat'iy amal qilish:

3. jamiyatning barcha jabhalarida: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarni sivilizasiyali yo'nalishga o'tkazish muammolarini hil etish:

4. xalqlar, davlatlar, millatlar rivojlanishidagi o'zaro o'xshashliklar, tafovutlar va ayrim xususiyatlarni qunt bilan o'rganish, ulardan foydalanish, moslashtirish va boshqalar:

5. shuningdek, jamiyat rivojlanishining eng muhim omillari sifatida geografik muhit va ummuman «tabiiy» faktorlar rolini aniqlash:

Davlatning hududiy joylanishi, daryolar, tog', cho'l regionlarning joylanishishi, ularning xo'jalik tarmoqlari, yer usti, tabiiy boyliklar, iqlim, inson salohiyati va boshqalarning o'rni va rolini aniqlash va boshqarish.

O'zbekistonning sivilizatsiyali rivojlanishi jahon hamjamiyati bilan bevosita bog'likdir, ammo bu jarayonda u o'zligi va noyobligini saqlab qolishi kerak.

G'arb sivilizatsiyasi hozirgi davda rivojlanishning eng yuqori bosqichiga yetdi. U jahondagi mavjud sivilizatsiyalar yutuklarini o'ziga singdirdi, mazmunan boyidi. Lekin G'arb sivilizatsiyasi o'z mohiyati, xususiyatlari bilan boshqa sivilizatsiyalardan, xususan, islom, konfusizm, yapon, hind, buddizm va provoslav madaniyatidan farq qiladi. Bu sivilizatsiyalardan G'arb idealiga xos bo'lgan individualizm, liberalizm, konstitusializm, inson huquqi, erkinlik, tenglik, qonun ustuvorligi, demokratiya, erkin bozor, cherkovning davlatdan ajratilishi singari tamoiyillar rivojlanmagan.

Demokratik boshqarish usullari G'arbda shakllandi va rivojlandi. G'arbdan boshqa ayrim mamlakatlarda vujudga kelgan ijtimoiy, demokratik o'zgarishlar G'arbning tazyiqi, zo'rlashi asosida ro'y berdi. Ular bevosita xalqning o'zidan, shu mamlakat sivilizatsiyasidan o'sib chiqmagan, balki tashkaridan kiritilgan edi.

Sivilizatsiya - rivojlanishning muayyan bir bosqichidagi biron-bir xalq va mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifatiy o'ziga xosligidir. Ayrim tadqiqotchilar sivilizatsiya asosini madaniyat, xalq, xudud bilan bog'lasalar, boshqalari dinni asos qilib oladilar. **Ma'lumki, Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida bu sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Qadimdan diyorumizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari yelkadosh, ahil va hamjihat bo'lib, tinch va osoyishta muhitda yashab keladilar**⁶. Har bir xalq o'z milliy psixologiyasi, madaniyati va intellektual salohiyatiga mos ravishda o'z milliy davlatchiligini yaratadi. Siyosiy va huquqiy madaniyat sivilizatsiyaning muhim

⁶ Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: "О'zbekiston" нашриёти, 2021. Б-35

elementi hisoblanadi. Milliy davlatchilik asoslarini yaratmay turib, sivilizasiya yaratib bo'lmaydi. Sivilizasiya madaniy va ma'naviy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga keladi. Sivilizasiyalik taraqqiyot milliy madaniyat ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Milliy madaniyat sivilizasiyaning ruhi, jonidir. Milliy madaniyatdan uzilib qolgan sivilizasiya oxir-oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Masalan, hozir yo'qolib ketgan Amerikadagi Mayya sivilizasiyasi bunga misol bo'ladi. Ulardan bugun yuzdan ortiq shaharlarning xarobalari qolgan. Bunga tarixdan yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Sivilizasiyaning tarixiy shakllari. Sivilizasiyalar o'z shakliga ko'ra Sharq va G'arb sivilizasiyalari, xududiy va jahon sivilizasiyasi kabilardan iborat.

Sharq sivilizasiyasiga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ko'rsatish mumkin :

- 1) Sharqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta'limotlar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, sabr- toqatlilikni targ'ib etgan;
- 2) Odamlar orasida bag'rikenglik, birdamlik, hamjihatlik ruhi kuchli bo'lgan;
- 3) Milliy qadriyat va an'analar e'zozlangan;
- 4) Avlod-ajdodlarga, kattalar, ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Sharq sivilizasiyasi bag'rida rivojlandi. Uning sivilizasiyasiga xos belgilar: kambag'al va ojizlarga g'amxo'rlik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat kabilardir.

O'zbekiston jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga ilm- fan, axloq, din, san'at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shdi. Milliy mustaqillik yillarida o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston o'z milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, G'arb va Sharqning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, jahon sivilizasiyasi yo'lidan bormoqda. Ma'lumki, azaldan Buyuk ipak yo'li, Buyuk Hind savdo yo'llarida joylashgan Markaziy Osiyo geostrategik o'rnaviga ko'ra, ming yillar

davomida jahon miqyosidagi muhim jarayonlar markazida bo'lib kelgan. Bizning mintaqamiz Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan o'ziga xos ko'priklarni bo'lib xizmat qilgan. Ushbu zaminda dunyo sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa ko'shgan buyuk gumanist olimlar, mutafakkir va shoirlar yashab ijod qilgan. Bu yerda ulkan tabiiy zaxiralar, katta insoniy salohiyat mavjud. **Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo dunyoning e'tibor markazida bo'lib, bu hududda raqobatdosh kudratli davlatlarning manfaatlari o'zaro kesishib keladi**⁷. O'zbekistonni, el-yurtimizni yaqindan biladigan kishilar bir haqiqatni yakdillik bilan e'tirof etadilar: **uzbek xalqi buyuk tarix va davlat, boy madaniyat yaratgan xalq. U hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan ko'rqumaydigan, adolatni qadrlaydigan, metin irodali, bag'rikeng xalqdir**⁸. Jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma'naviy meros dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga bebaho hissa bo'lib qo'shilgani ma'lum. Aynan ana shu omil Yangi O'zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma'naviy va madaniy faoliyat, ta'lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo'lmoqda. **So'nggi yillarda milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda**⁹. Bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun qam biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlaridagi shu yo'lda birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislariga har tomonlama yordam berishda davom ettirilib kelinmoqda. Bu sohadagi tajriba biz uchun o'ta muhim:

⁷ Ўша жойда. Б-38

⁸ Ўша жойда. Б-34

⁹ Ўша жойда Б-35

“Bizni madaniyat bog’lab turadi va u insoniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi”, degan fikrga men to’liq qo’shilaman deb ta’kidlagan edi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Biz dunyo ahli mamlakatimizni yaqindan tanishini, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini o’z ko’zi bilan ko’rishini istaymiz. Hozirgi zamon sivilizasiyasi o’ziga xos xususiyatlarga egadir. Eng muhimi, jahon sivilizasiyasini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishdir. Jahon sivilizasiyasini tanazzulga olib keladigan qator tahdidlarni bartaraf etish, insonni oliy qadriyat sifatida e’zozlash, tabiatni avaylab-asrash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ommaviy qirg’in qurollarini yo’q qilish, davlatlar, xalqlar o’rtasidagi nizolarni siyosiy yo’l bilan muzokaralar orqali hal etish, turli jinoiy uyushmalarga barham berish, xalqaro terrorizm va giyoxvandlikka, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, kishilarda yangicha dunyoqarash va siyosiy tafakkurni shakllantirish hozirgi zamon sivilizasiyasining muhim muammolaridir. Bunday muammolarni oqilona hal etish uchun turli mamlakat, mintaqa xalqlari o’rtasida umumiy hamjihatlik va hamkorlikka bo’lgan intilish tobora ortib bormoqda. Turli falsafiy sistemalarda dunyoning ijtimoiy- madaniy taraqqiyoti mezoni turlicha talqin etib kelindi. Xususan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, texnik va texnologik yutuqlar, tabiiy geografik omilga ijtimoiy-madaniy rivojlanish mezoni sifatida qarab kelindi. Hozirgi paytda qator falsafiy adabiyotlarda shaxs ma’naviyati va uning erkinlik darajasi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot mezoni sifatida ko’rsatilyapti. Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga formasiyali yondashishning bir yoqlama, sun’iy ekanligini ko’rsatdi. Hozirgi zamon G’arb falsafasida U. Rostouning iqtisodiy rivojlaniish nazariyasi keng yoyildi. O. Toffler nazariyasiga ko’ra, butun insoniyat tarixi uch katta davrga: agrar jamiyat, industrial jamiyat, posindustrial jamiyat (informasion jamiyat) ga bo’linadi. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizasiyali yondashish har bir xalq, mamlakat, mintaqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formasiyali yondashishga ziddir. Sivilizasiyali yondashish har bir milliy madaniyatning o’ziga xosligini, noyob va betakrorligini saqlagan holda

ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy yo'ldan borishini e'tirof etadi va jahon sivilizasiyasi yutuqlariga tayanadi. Milliy mustaqillik yillarida madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari uchun puxta zamin yaratildi. Bu, avvalo, boy madaniy merosimizni har tomonlama chuqur o'rganish imkoniyatlarining yaratilganligida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilganligi va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganida, milliy madaniyatlarning ravnaq topishi va bir-birini boyitishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishidir. Jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz merosini keng targ'ib etishda mamlakatimiz ilm-fan va texnika salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligida, yurtimiz obodonchiligi yo'lida katta tadbirlarning amalga oshirilayotganligida namoyon bo'lyapti. Madaniyat va sivilizasiyaning asosiy tamoyillari, qonuniyat va xususiyatlarini bilish - ma'naviy kamolot manbaidir. Madaniyat va sivilizasiyaning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur idrok etish barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Yosh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir. Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak madaniyatli insonni tarbiyalash, qonunchilikka amal qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, fuqarolik jamiyati talablariga rioya qiladigan, har qanday kelishmovchilik va ixtiloflarni oqilona hal qila oladigan, jahon standartlari talablariga javob beradigan sivilizasiyali barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. Shunday qilib, madaniyat va sivilizasiya bir-birini taqozo etadigan hodisalardir.

I-davr eng qadimgi davrdan to er. av. VII-VI asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr «osiyo» tipidagi lokal jamiyatlar, tradision, avtoritar, despotik, ma'muriy sistemaning asosiy prinsipi «mulk hokimiyati» va markazlashtirilgan redistribusiya («distribusiya» - taqsimlash, «re»-tiklash, taqsimlashga zid bo'lib, markazlashtirilgan» degan ma'noni ifoda etadi)ga asoslangan bo'lib, hokimiyat mulkchiligini keltirib chiqargan.

II-davr er.av. IV-VI asrdan to XIV -XVI asrlarni o'z ichiga oladi. Bu Yevropa tipidagi jamiyatning tug'ilishi va qaror topish davridir. Shu vaqtda parallel tarzda «Yevropa» va «Osiyo» olami, ya'ni ijtimoiy dixotomiya vaziyati vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda ijtimoiy mutasiya tufayli «aniq Yevropa» sivilizasiyasi paydo bo'ldi. U xususiy mulkchilikka, grajdanlik tamoyillariga asoslangan edi (genotip sivilizasiya edi.)

III-davr XVIII-XIX asrlarda G'arbning bevosita Sharqqa kirib borish davrini o'z ichiga oladi. Tradision va Yevropa madaniyati strukturalari o'rtasida simbioz (bir-biridan foydalanib, birga yashash) jarayoni boshandi: XX asrga kelib esa simbioz sintezga o'tdi, (ikki sivilizasiya bir-biri bilan bog'lanib, qo'shilib bordi). Sharq sivilizasiyasining g'arbga ta'siri kuchaydi, jahon tarixi transformasiyalasha boshladi. Bunda Sharq sivilizasiyasining roli, ta'siri kuchaya boshladi. Ammo bir vaqtning o'zida turli xil sivilizasiyalar bir-birlari bilan tinch-totuv yashashlari ham mumkin.


Nima uchun?» sxemasi

«Nima uchun?» sxemasi


Muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha bir butun qator qarashlar.

Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi

«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalarini tanishadi
Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. «Nima uchun?» so'rog'i bilan strelka chiziladi va ushbu savolga javob yoziladi. Ushbu jarayon muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi o'rnatilmaguncha davom ettiriladi



Mini guruhlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi




Natijalar taqdimoti

«Nima uchun?» texnikasi




Nima uchun?

Nima uchun?



Nima uchun?

Nima uchun?



«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday piktogrammadan: aylana yoki to'g'ri to'rtburchakdan foydalanishingizni o'zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalar sxema zanjiri turini: chiziqli, nochiziqli, spiralsimon (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirib) bo'lishligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Strelka sizning qidiruv yo'nalishingizni belgilaydi: dastlabki holatdan so'ngi natija.

SIVILIZASIYA VA FORMASIYANING FARQINI NIMADA

F (Fikringizni bayon eting)
S Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring)
U (Fikringizni umumlashtiring)

«INSERT» jadvali

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	<i>+</i>	<i>-</i>	<i>?</i>
Sivilizasiya tushunchasi qanday ma'nolarda qo'llaniladi?				
Sivilizasiya tushunchasining mohiyati.				
Sivilizasiya va madaniyatning o'xshash va farqli tomonlarini ixoxlang.				
Sivilizasiyalar turlari.				
G'arb sivilizasiyasining o'ziga xos tomonlari nima?				

V – bilaman.

+ - yangi ma'lumot.

-- bilganlarimga zid.

? – meni o'ylantirmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. «Rivojlanish», «taraqqiyot», «ijtimoiy taraqqiyot» tushunchalarining mohiyatini tushuntiring.
2. Ijtimoiy progress nima?
3. Regress nima?
4. Tarixiy aylanma nazariyasining mohiyati nimadan iborat? Bu nazariyani kim asoslab bergan.
5. Ijtimoiy taraqqiyotga hozirgi zamonda shakllangan yondoshuvlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Ijtimoiy taraqqiyotga formatsiyali yondoshuvning mohiyati va kamchiliklari?
7. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondoshuvning mazmunini izoxlang
8. Qaysi olim madaniyatni ijtimoiy taraqqiyotga qarama-qarshi qo'yadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

4-Mavzu: Jamiyat ijtimoiy kategoriya sifatida

REJA:

1. Jamiyat - odamlar o'rtasida amal qiladigan xilma-xil munosabatlar va ijtimoiy institutlar yig'indisi sifatida.

2. Jamiyat genezisi va demokratik davlat

3. Milliy demokratik institutlarning shakllanishi va funksiyalari.

4. Jamiyat hayotida ijtimoiy institutlarning roli va shakllari.

Tayanch tushunchalar: Jamiyat. Fuqarolik jamiyati. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Jamiyatning siyosiy hayoti. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Axborotlashgan jamiyat.

Jamiyat nima? Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi.

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Moddiy hayot tadqiqiga ko'proq e'tibor berilar. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini

ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila bo'lib, jamoa bo'lib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardanoq ulug' mutafakkirlar e'tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish — uni ilohiy kuch, xudo bilan bog'lab izohlashdir. Dunyoviy qarashlarga ko'ra, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga ko'nikkan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi nazariyalar. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot

sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini ko'rsatdi.

Jamiyat hayoti - bu ijtimoiy sub'yektlar (shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat)ning muayyan tarixiy sharoitda mavjud bo'lgan voqelikni o'zlashtirish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyat tur va shakllaridan tashkil topgan real jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning negizini inson mehnat faoliyatiga asoslangan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bunda moddiy ishlab chiqarish kishilarning moddiy (oziq ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalar), ma'naviy ishlab chiqarish esa ularning ma'naviy (ilm-fan, adabiyot-san'at, kitob, gazeta, axborotlar olish, qadriyatlar va boshqalar) ehtiyojlarini qondiruvchi narsalarni yaratish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda ma'naviy ishlab chiqarish - ijtimoiy ong shakllari, ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar olamidan tashkil topadi va uni takror ishlab chiqarishga, ya'ni ko'paytirishga, xususan avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorisiylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy ong ma'naviy ishlab chiqarishning o'zagi, kvintessensiyasi hisoblanadi. Jamiyat hayotining yadrosini tashkil qiluvchi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining gohida uyg'un, gohida ziddiyatli kechishi, ularning ijtimoiy ong

shakllari sifatida aks etib, mafkura tarzida o' zligini namoyon qilishi shaxs, ijtimoiy guruh, elat, millat, sinf va jamiyat hayotida mafkuraviy sohaning mavjudligidan darak beradi.

Jamiyat xayoti va tarakkiyoti bilan tabiat orasidagi alokadorlik ijtimoiy falsafaning muxim muammolari doirasiga kiradi. Avvalo, jamiyat tabiat ezolyusiyasining maxsuli va kurinishi, ob' yektiv borlikning shakli bulib xisoblanadi. Jamiyat tabiatdan ajralib chikkan. Jamiyat tabiat bilan alokadorliksiz mavjud bula olmaydi va yashay olmaydi. Jamiyat bilan tabiat orasidagi alokadorlik tabiiy omillarning jamiyatga ta' siri tarzida namoyon buladi. Jamiyatga ta' sir etuvchi tabiiy omillar deganda; a) geografik muxit; b) axoli zichligi va ularning jamiyatga ta' siri nazarda tutiladi. Jamiyat va tabiat dialektik birlikda, uzaro bir-biri bilan chambarchas boglik. biri ikkinchisiz mavjud bulishi mumkin emas. Bu bogliklik jamiyatning genezisida uz ifodasini topadi. Aynan ana shu tufayli jamiyat va tabiatning birlygi narsalarning moxiyati, tuzilishidagi umumiylikda namoyon buladi. Jamiyatga ta' sir etadigan tabiiy omil – geografik muxit xisoblanadi. Tabiatning jamiyatga ta' sirining muxim tomonini geografik muxit tashkil etadi. Geografik muxit muayyan tarixiy davrda inson va jamiyat xayoti kechadigan makon. «Geografik muxit» tushunchasi fanga olimlar E.Reklyu va L.M. Mechnikov tomonidan kiritilgan.

Jamiyat tabiatdan ozik-ovkat maxsulotlarini, ishlab chikarish vositalari uchun xomashyolarni va energiya manbalarini oladi. Geografik muxit ishlab chikarishga ijobiy yoki salbiy ta' sir

ko'rsatishi mumkin. Geografik muxitning jamiyatga ta'siri kuyidagilarda namoyon buladi:

1) ishlab chikarishga ta'sir kursatadi. Bu ta'sir mehnat taksimotining chukurlashib boruvida, ishlab chikarish turli soxalarining joylanishi va tarakkiyotida namoyon buladi;

2) mehnat unumdorligiga ta'sir kursatadi. Buni ob-xavo sharoitlarining ishlab chikarishga ta'siri misolida kurish mumkin. Yoki tabiiy xodisalar inson faoliyati natijalarini yukka chikarish mumkin. (Masalan: suv toshkini, kurgokchilik va x.k.).

3) tabiiy shart-sharoitlar ishlab chikaruvchi kuchlar tarakkiyotining tezlashuvi yoki sekinlashuviga ta'sir kursatadi;

4) inson kobiliyatlarining tarakkiyotiga ta'sir kursatadi. Bu ta'sir avvalo ijtimoiy ongning shakllanishi va tarakkiyotida namoyon buladi. Ayni vaktida geofafik muxit jamiyat ma'naviy xayotiga xam ta'sir kiladi;

5) jamiyat tarakkiyoti darajasiga uz ta'sirini utkazadi. U jamiyat tarakkiyotini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin;

6) ijtimoiy ishlab chikarish munosabatlariga ta'sir kursatadi. Masalan, Markaziy Osiyo mintakasida tabiiy shart-sharoitlar juda kadimlardan boshlab sugorma dexkonchilikning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan;

7) jamiyatning ijtimoiy-ruxiy kisfasiga ta'sir kursatadi. Jamiyatning geografik muxitga ta'siri inson faoliyati va uning natijalarida namosn buladi. Insonning tabiatga ta'siri ekologik faoliyat, deb yuritiladi. Ekologik faoliyat tabiatga ijobiy va salbiy ta'sir tarzida namoyon buladi. Jamiyat va inson extiyojlarini kondirish zarurati ekologik faoliyatni yuzaga

keltiradi. Geografik muxitning jamiyatga ta' siri geosiyosat (geopolitika)da uz ifodasini topdi.

Aslida «geopolitika» atamasini fanga shvesiyalik olim R.Chsllen olib kirdi. Bu agama 1 -jaxon urushi arafasida keng kullana boshlandi. «Geosiyosat» tushunchasi «geo» - yer' (shar), «siyosat» esa shu Yer shari (Kurrai zamin) ga doyr siyosat yurgizish, demakdir. U muayyan davlat yoki davlatlar guruxining geografik yoki makoniy-xududiy yunalishda olib boradigan siyosati va ayni chogda, jaxon xamjamiyati, ayrim davlatlar ittifoki va bloklarning umumjaxon mikiyosida belgilaydigan ulchov (parametr)lari, fe'l-avtrolarini xam anglatadi. Geosiyosatga doyr nazariyalar XIX asrning ikkinchi yarmida Garbiy Yevropada vujudga kelgan.

Nemis olimi F.Retsel (1844-1904) davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati orasidagi uzaro alokadorlik masalasini kutardi. U xalklarda «aloxida makonni xis kilish» kobiliyati mavjudligini e'girof etgani xolda, uz chegaralarini kengaytirishga intilayotgan xalklarga e'tibor karatdi. Shu asosda K.Xausxofer (1869-1946) moxiyatan tajavuzkorlik tabiatiga ega bulgan «nemis millati xayotiy makoni» xakidagi gipotezani ishlab chikdi. Geosiyosat nazariyasi geografik muxit xalklarning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy tarakkiyotida xal kiluvchi rol uynashi tugrisidagi karashlarni mutlaklashtirishga xarakat kiladi. Bunday karashlar guyoki yangicha yondashuvlar sifatida talkin etilsa-da, aslida bunday goyalar kadimgi grek olimlari asarlarida, surishgan. O'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari karashlarida ilgari surilgan edi.

Geosiyosatdagi g'arbparastlik mayllari tufayli davlatlar urtasidagi munosabatlarda zuravonlik konuniy jarayon sifatida, mustamlakachilik urushlari zarurat sifatida talkin etila boshlandi. Bunday karashga kura, kuchsizlar ustidan kuchlililarning xukmronlik kilishi konuniy jarayon xisoblanadi. Ana shunday nukgai-nazarga tayanib, Germaniya siyosatchilari kuch ishlatish bilan xukmronlik kilishni birinchi uringa kuydilar. Nemis siyosiy arbobi O.Bismark Germaniyaning yakkayu-yagopa xududi uning armiyasidir, degan goyani ilgari surdi-ki, bu siyosatni amalga oshirish avvalo nemis xalkiga, sungra jaxon xalklariga juda kimmatga tushgani xammaga ma'lum. Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon

ekani to'g'risidagi qarashlar AQSH faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi. Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik - jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini hayotga tadbiq etadi. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi

mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi. Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi. Taraqqiyotning o'zbek modeli – jamiyatning tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi. Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo'ldan – inqilobiy va tadrijiy yo'ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti barqaror – tabiiy rivojlanish yo'li ekanini ko'rsatdi. XX asrning 80-yillarida geosiyosat yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Geosiyosat nazariyasi davlat siyosatida uz ifodasini topa boshladi. Davlat siyosatining muxim tomonlaridan biri geografik siyosatdir. Geografik siyosat keng

ma'nodagi tushuncha bulib davlatlarning ichki va tashki siyosatlarida uz ifodasini topadi. Uning asosiy yunalishlaridan biri ekologik siyosat bulib xisoblanadi.

Ekologik siyosat:

- a) suv, xavo, tuprok, usimliklar va xayvonot dunyosini muxofaza qilishda;
- b) chikindisiz texnologiyalarni ishlab chikarishga joriy etishda;
- v) ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirishda namoyon buladi.

Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchilik bilan — bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir». O'zbek modelning asosiy tamoyillari quydagilardir:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy himoyalash;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek modelining hayotiyligi jahon jamoatchiligi tamonidan e'tirof qilindi. O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini

rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotining mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanishini alohida ta'kidlaganlar.

Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei va rolini kuchaytirishga qaratilgandir. Oila muammolarini ilmiy asosda o'rganilganligi va ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimiz xususiyatlariga mos bo'lgan yangi alifboga o'tish uning mavqeini oshirish va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Davlatning jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyati. Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni

ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir. Jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'alarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir. Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish — O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Fuqarolik jamiyati kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pchirali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'lga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarning yuksak

siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yobga chiqarish maktabidir. Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Shunday yetuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Jamiyatdagi munosabatlar, asosan, muayyan ijtimoiy institutlar orqali quriladi va bu institutlarning xilma-xilligi, nechog'li ko'pligi, dinamik xususiyatlari jamiyatning qanday qadriyat va me'yorlar, tamoyil va paradigmalariga moyilligini ko'rsatadi. Sosiologiya fanidan yaxshi bilamizki, ijtimoiy institut — bu ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning mohiyati, xulq-atvori, dunyoqarashi, ong va tafakkuri yaqin odamlarning o'zaro kelishgan holda ijtimoiy maqsadga yo'nalgan harakati, ijtimoiy vazifalarini bajarish maqsadida tashkil etilgan guruhlar faoliyatining uyushgan shaklidir. Ijtimoiy institut o'zining maqsadlariga muvofiq keladigan faoliyat turlarini qo'llab-quvvatlaydi, ushbu standart talablardan tashqariga chiqadigan individning xulq-atvorini nazorat qiladi, tartibga soladi. Demak, ijtimoiy institutlar o'zining aniq maqsadlariga ega bo'lishi, ular o'z a'zolarining bu maqsadlarga xizmat qili-shi, standart talablarga rioya etishi, individning guruh, jamoa, partiya ichida qaror topgan me'yorlar, tartib-qoidalar, axloqiy, siyosiy va tashkiliy talablarni o'z faoliyatining mezoni sifatida qabul qilishi orqali mavjuddir.

Ijtimoiy institutlarni institusional xususiyatlari, maqsad va vazifalari, tashkiliy tuzilmasi, jamiyatdagi o'rni, ichki belgilari kabi jihatlariga qarab tasnif qilish mum-kin. Keling, ularni quyidagi guruh va tizimlarga tasniflaylik.

1. Davlat, hokimiyat;
2. Siyosiy partiyalar;

3. Jamoat, nodavlat tashkilotlari;
4. Iqtisodiy institutlar;
5. Fuqarolarning ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy xarakterdagi ixtiyoriy uyushmalari;
6. Huquq va huquqiy institutlar;
7. Ommaviy harakatlar va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari;
8. Xalqaro (transmilliy) notijorat uyushmalar;
9. Diniy birlashma va tashkilotlar.

Ijtimoiy institutlarni bunday tasniflash tizimlarga alohida (tizimli yoki tizimli-funksional) yondashishni taqozo etadi. Biroq siyosiy jarayonlar va siyosiy tizimga bunday yondashish "turg'unlik va konservatizm" uslubiyatiga olib keladi. Shuning uchun har bir tizim haqida kompleks yondashuv orqali fikr yuritgan ma'qul. Chunki, kompleks yondashishgina ijtimoiy-siyosiy hayotni mavjud yutukdari va ziddiyatlari bilan o'rganish imkonini beradi. Tizimli yondashuv esa, keng ma'noda, ya'ni faqat tashkiliy yetuklik va butunlikni emas, balki muayyan hodisaning barcha jihatlarini, qarama-qarshiliklar tahlilini, ularning tartibotini, o'zaro aloqalarini qamrab olishi zarur. Shu-ning uchun ijtimoiy institutlar faoliyati bir-biridan ayriqcha qaralishi mumkin emas. Chunki barcha jamiyatlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida, muayyan umumiy ijtimoiy va madaniy asosda yuzaga kelgan. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy institutlar, ichki (yoki quyi) tizimlar kengroq tizimning tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur. Har bir ijtimoiy institutga, tizimga quyidagi to'rt funksiya — namunani qayta yaratish, integratsiya, maqsadga erishish va adaptatsiya funksiyalari taalluqlidir. Bu o'rinda T. Parsons singari ayrim g'arb tadqiqotchilari tizimlarni inson shaxsiyati bilan bog'lab, uning organizmiga oid tizim-larga ajratganini ham ta'kidlash joiz.

Chunki mazkur funk-siyalar bu tizimlarga o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi va sub'yektlarning xatti-harakatlarida aks etadi. Ijtimoiy tizimlar ilkboshdanoq tajriba va tovar almashishga tayyor, ochiq tizim bo'ladi. Ularning ichki, quyi tizimlari o'rtasidagi aloqalar to'rt ko'rsatkich — qadriyatlar, me'yorlar, jamoalar va rollar orqali namoyon bo'ladi. Demak, ijtimoiy institutlarni tadqiq qilganda ana

shu funksiya va ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim. Davlat, hokimiyat siyosiy tizimdagi bosh, asosiy institutdir. Siyosatshunoslik fani bizga davlat ijtimoiy butunning funksiyalarini alohida ajratish zarurati paydo bo'lgan, butun o'zining mavjudligini anglagani holda oliy manfaatlarining borligini idrok etgan joyda yuzaga keli-shini o'rgatadi. Ushbu butun hokimiyatni o'z ta'siri ostiga oladi va uni kuch va huquq orqali maydonga chiqaradi. Butun-ning, ya'ni xalq umummanfaatining natijasi va ifodachisi ekanligi bois davlat ijtimoiy-siyosiy institut sifatida yashab keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatning mohiyatini qanday tushunasiz?
2. «Jamiyat – yaxlit tizim» fikrining ma'nosini sharhlang.
3. Jamiyat hayotining asosiy sohalari qaysilar?
4. Jamiyatning iqtisodiy hayotiga nimalar kiradi?
5. Jamiyatning ma'naviy hayoti tarkibiga nimalar kiradi?

1-ilova

Aqliy xujum metodining asosiy qoidalari:



- ilgari surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda gapni bo'lmang!
- Maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- Qanchalik ko'p fikr va g'oya bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa, asabiylashmang va hayron bo'lmang.
- Xayollar to'zg'ishiga ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamida hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.
- Fikrlar xujumini o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iy rioya qilinishi shart.
- Berilgan savolga aisdacha (1-2 so'zdan iborat) javob beriladi.


Aqliy hujum savollari


1. Jamiyat to'g'risida gapirib bering;
2. Jamiyat sohalari haqida gapirib bering;
3. Taraqqiyot haqida ma'lumot bering.
4. Tadrijiy rivojlanish yo'llari haqida tushuncha bering;

2-ilova.

Qonunchilik huquqi faoliyatini quyidagicha izohlash mumkin.







Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivativimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

9 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi boTishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

5-Mavzu: Jamiyatning tizimli tahlili

REJA:

1. Jamiyatning falsafiy talqini. Jamiyat ijtimoiy falsafaning tadqiqot ob'ekti sifatida.
2. Jamiyat hayoti va uning o'ziga xos jihatlari. Barqarorlik va beqarorlik. Onglilik va ongsizlik. Tartib va tartibsizlik.
3. Jamiyat yaxlit tizim sifatida. Jamiyat hayotining asosiy sohalari.
4. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik jamiyati.
5. O'zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati.

Tayanch tushunchalar: Fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla, jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar.

Jamiyat – kishilar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi; tabiatning bir qismi; ijtimoiy borliq.

Jamiyat g'oyat murakkab va ko'pqirrali hodisa bo'lib, muttasil ravishda o'zgarish va rivojlanish xususiyatiga egadir. Juda qadim zamonlardanoq

insoniyatning ulug' mutafakkirlari jamiyat mohiyatini bilishga va insonning jamiyatdagi o'rnini va rolini belgilashga harakat qilganlar. Turli tarixiy davrlarda mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi to'g'risida muayyan bilim, tasavvurlar hosil qilishga imkon bergan.

Insoniyat ma'naviyati yuksalib borgani sayin jamiyat to'g'risidagi qarashlar ham tobora takomillashib borgan, jamiyat to'g'risidagi o'ta sodda diniy-mifologik qarashlarga nisbatan ancha murakkab va ishonchli ilmiy-falsafiy qarashlar vujudga kelgan. Jamiyat to'g'risidagi izchil ilmiy-falsafiy qarashlarning rivojlanishiga Markaziy Osiyo mutafakkirlari qomusiy bilim egalari: Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari ulug' mutafakkirlar salmoqli hissa qo'shganlar. Ularning ilg'or qarashlari ko'p asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, komil inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi va hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino birinchi bo'lib jamiyat qanday paydo bo'lgan, degan savolga ilmiy asosda javob berishga harakat qilganlar. Insoniyat jamiyatining paydo bo'lish sabablarini odamlarda aql va tafakkurning rivojlanishi, kishilarning birdamlikka bo'lgan tabiiy intilishi bilan bog'laganlar. Ibn Sino jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni normal-tabiiy holat ekanligini ta'kidlagan. Mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslashga harakat qilgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari keyinchalik yevropalik olimlar tomonidan yanada rivojlantirildi. O'rta asrlarda Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkurida diniy qarashlar yetakchi mavqiyeni egalladi. Bu davr mutafakkirlari (nominalistlar va realistlar) inson va jamiyatning qay biri oldin vujudga kelgan, degan masala atrofida bahs-munozara yuritganlar.

Mashhur ilohiyotchi Foma Akvinskiy va uning izdoshlari inson va jamiyatning paydo bo'lishini Xudoning irodasi bilan bog'laganlar. XIX asr o'rtalariga kelib jamiyatni ilmiy asosda tadqiq etish, uning rivojlanish istiqbollari oldindan ko'rish, yetilgan ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda hal etish hayotiy zaruriyatga aylandi. Bu davrda tabiiyotshunoslik fanlari sohasida erishilgan ulkan

kashfiyotlar olimlarni jamiyat to'g'risida ham ilmiy nazariya yaratishga rag'batlantirdi. Tabiiyotshunoslik fanlarining ilmiy bilish metodlarini jamiyatni bilishga tatbiq etish yaxshi natijalar berishi mumkin, degan xulosaga olib keldi: jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariya -sosiologiya fani vujudga keldi. Ijtimoiy falsafa sosiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning xulosalariga tayanib, jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot va dunyoqarash yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot yaratguniga qadar g'oyat mashaqqatli g'oyaviy kurash yo'lini bosib o'tdi. Yevropa ijtimoiy falsafasi ilm-fan xulosalariga tayanib, jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanish xususiyatlari to'g'risida izchil ta'limot yaratishga qaratilgan edi.

Mashhur nemis faylasufi Hegel (1770-1831) jamiyatning paydo bo'lish sabablarisi mutlaq ruh taraqqiyotining qonuniyatli natijasi sifatida izohladi. Jamiyat to'g'risidagi falsafiy fanga asos solgan fransuz faylasufi O. Kont (1758-1820) esa jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishini insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti ma'suli sifatida talqin etdi. Buyuk nemis faylasufi I. Kant (1724-1774) kishilik jamiyatining paydo bo'lishi ahloqiy ongning rivojlanishi, oilaning vujudga kelishi bilan bog'ladi.

Ingliz faylasufi G.Spenser jamiyatni tabiatning ajralmas bir qismi, umumiy evolyusion jarayon sifatida tushuntirdi; jamiyat va tabiatni bir-biri bilan qiyoslash orqali ular o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatdi. Jamiyat mohiyatini bilishda ijtimoiy darvinizm, psixologizm (freydizm, instinktivizm, xalqlar psixologiyasi) marksizm singari falsafiy ta'limot muayyan rol o'ynadi. Bunday ijtimoiy falsafiy qarashlar hozirgi paytda tanazulga uchrab o'z ahamiyatini yuqotgan bo'lsada, jamiyat mohiyatini ilmiy asosda bilish yo'lidagi urinishlar edi deyishimiz mumkin. Hozirgi zamon ijtimoiy falsafasi ana shu ta'limotlarning biryoqlama, xato va ijtimoiy amaliyotga zid va u tasdiqlamagan tomonlarini yanada takomillashtirish asosida qaror topdi. Jamiyat to'g'risidagi har bir falsafiy ta'limotda konkret tarixiy davrning ruhi, ma'naviy salohiyati o'z ifodasnni topadi. Hegel iborasi bilan aytganda, jamiyat falsafa orqali o'zligini anglaydi. Jamiyat va inson mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Bu

tushunchalarni bir-biri bilan ayniylashtirish ham, ularni qarama-qarshi qo'yish ham xatodir. Inson mohiyatini bir yoqlama tushunish muqarrar ravishda jamiyat mohiyatini ham biryoqlama va xato tushunishga olib keladi. Insondagi biologik va ijtimoiy jihatlarni bir-biridan ajratish, ulardan birini muhim, asosiy deb hisoblash marksizm va freydizmning biryoqlama ta'limot bo'lib qolishiga olib kelgan.

Inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy bog'liqdir: inson jamiyatdan tashqarida o'zining haqiqiy mohiyatini yo'qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig'indisidagina iborat emas. Bundan tashqari, jamiyat odamlar o'rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi; bunday munosabatlar kishilarni oila, urug', qabila, millat, davlat va nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Odamlar yig'indisini xis etish, kuzatish mumkin. Biroq odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish, kuzatish imkonsizdir, chunki ular yashirin xarakterga ega bo'lib, jisimsiz, nomoddiydir. Jamiyat hayotida ana shunday munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jamiyat elementlari deganda ijtimoiy tizimning eng kichik qismlari tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar - jamiyatni tashkil etuvchi subyektlar o'rtasidagi muayyan aloqa va bog'liqlikdir. Barqaror va doimiy ravishda takrorlanuvchi munosabatlar asta-sekin barqaror ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, institutlarning shakllanishiga olib keladi. Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik boy, xilma-xil bo'lsa, bu jamiyatning demokratik xarakterga ega ekanligidan, rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy tizim boshqa tizimlardan ajratib turadigan muhim xususiyatlar quyidagilardir;

- 1) jamiyatni tashkil etadigan elementlarning ko'pligi;
- 2) ijtimoiy tizim elementlarning rang-barangligi, turlicha sifat va xarakterga ega ekanligi;
- 3) ijtimoiy tizim asosiy elementi va yadrosi bo'lgan insonning betakrorligi, o'z faoliyati va xulq-atvorini erkin namoyon etishidir. Bu holatlar jamiyat istiqboli qanday bo'lishini oldindan bilishni nihoyatda qiyinlashtiradi.

Biroq shunga qaramay ijtimoiy-falsafiy tafakkur jamiyat elementlarini bir-biri bilan uzviy bog'laydigan yagona asosni topishga intilib keldi. Bu asos inson

faoliyatidir. Inson faoliyati tufayli butun ijtimoiy tizim harakatga keladi, turli elementlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi. Ijtimoiy hayotning mohiyatli asosi bo'lgan inson faoliyatining ro'y berishi uchun quyidagi to'rt element talab etiladi. Birinchi va asosiy element inson, kishilardir. U faoliyatning faol qismi, faoliyat subyektidir.

Inson faoliyatining ikkinchi elementi faoliyat obyektlaridir. Bu inson faoliyati yo'naltirilgan narsalargina emas, balki insonning o'zi ham faoliyat obyekti hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi, vrach faoliyati insonga qaratiladi. Lekin ko'pincha narsalar faoliyat obyekti hisoblanadi. Inson faoliyati uchun zarur bo'lgan uchinchi eng muhim element til, nutq, informasiyadir. Bunday belgilarsiz inson faoliyatining amalga oshishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Ramzlar va belgilar inson ongiga ta'sir etib, faoliyatning uzluksiz ravishda amalga oshishini ta'minlaydi. Inson faoliyatining to'rtinchi muhim elementi barqaror aloqa va munosabatlardir. Barqaror munosabatlar inson faoliyati elementlarini harakatga keltiradi.

Ijtimoiy faoliyatning to'rt asosiy elementiga mos ravishda ijtimoiy hayotning quyidagi to'rt sohasi vujudga keladi:

- 1) ma'naviy soha,
- 2) moddiy soha,
- 3) siyosiy soha,
- 4) ijtimoiy soha.

Hozirga qadar adabiyotlarda jamiyatning moddiy va ma'naviy sohalari birbiridan keskin farqlanar, uning moddiy jihatiga ko'proq e'tibor berilar edi. Xolbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini singdirishga katta e'tibor berilyapti. Insonning haqiqiy mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini

bilishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuksak ma'naviyat tufayligina inson o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi. Har qanday jamiyat hayotida ma'naviyat, ma'naviy ishlab chiqarish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to'laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o'zlashtiradilar, bir-birlari bilan insonlarcha munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida ilg'or g'oya, nazariya va ta'limotlar yaratiladi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, Ilm-fan va texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun zamin yaratadi.

Falsafa jamiyatni obyektiv olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat, uning mohiyati, taraqqiyot qonunlarini o'rganadigan falsafaning maxsus sohasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyat muammosi qadimdan odamlarni qiziqtirib kelgan. Kishilik jamiyatini o'rganadigan fan sohalari ko'p. Jamiyatning iqtisodiy hayoti iqtisodiyot nazariyasi, unda kechadigan tarixiy jarayonlar tarix, jamiyatni boshqarish sohasi «Davlat va huquq nazariyasi»ning tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa boshqa fanlardan farqli o'laroq jamiyatni o'z-o'zini tashkillovchi va boshqaruvchi yaxlit bir tizim sifatida o'rganadi va bu tizimga xos bo'lgan qonunlarni ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi zamon antropologiya va etnografiya fanlari nuqtai-nazaridan odam bundan taxminan 5 million yillar muqaddam shu Yer deb atalgan Quyosh sistemasi tarkibidagi planeta – Ona – tabiat harakati natijasida tirik mavjudotlar ichida bir tur sifatida vujudga kelgan. Odam miya tuzilishining hayvonlarnikidan sifat jihatidan farq qilishi va ongli mehnat tufayli asta-sekin fiziologik va intellektual (aqliy) jihatdan takomillashib borib, keyingi 50-40 ming yillardan e'tiboran Kromanon tipidagi odam jamiyat bo'lib yashashga o'tgan. Odamzotning jamiyat bo'lib yashashi uchun ma'naviy madaniyat kerak edi. Ana shu ehtiyojlar sababli ilgari

odam tiplari (avstralopitek, pitekanthrop, sinantrop, neandertal) dagi instinktlar o'rnini ahloq normalari egallab bordi. Natijada dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelgan odamlar jamoasida ruxsat va ta'qiq tizimi shakllandi. Ibtidoiy jamiyat odamlari mifologik dunyoqarash asosida shakllangan. Dastlab ular sehrli kuchlar borligiga ishonganlar, ulardan najot tilab yashash tarziga o'tganlar. Diniy dunyoqarashning shakllanishi tufayli ruxsat va ta'qiqlar o'rniga savob va gunoh haqidagi tushunchalar tarkib topdi; odamzotning keyingi uch ming yillik ma'naviy madaniyati ana shu qarashlar doirasida takomillashib bordi. Davlatning demokratik shakllari yuzaga kelgach, jamiyat ma'naviyati qonun ustivorligi ruhida shakllanib bordi. Davlat va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi Bobil, Misr, Hindiston, Markaziy Osiyoda vujudga kela boshlagan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da, qadimgi hind eposlari bo'lmish «Mahabhorat», «Ramayana», «Kalila va Dimna»da jamiyat, inson, ijtimoiy muammolar o'z ifodasini topgan. Jamiyat muammosi qadimiy Yunon faylasuflari qarashlarida markaziy o'rin tutadi.

Platon ta'limotida jamiyat, davlat masalalari muhim o'rin tutadi. Platon jamiyatga tizim sifatida yondoshib, uning tarkibi, davlat boshqaruvi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Qadimiy Yunon faylasufi Aristotel jamiyatni o'rganish bilan bog'liq fanlarni «Metafizika» deb nomlagan. Bu fanlar orasida siyosatga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, jamiyat siyosiy mavjudotlardan tashkil topgan. Jamiyat, unda odamlarning o'rni, ularning hamkor, hamnafas bo'lib yashashi to'g'risidagi g'oyalar Markaziy Osiyoda shakllangan moniylik va mazdakiylik ta'limotining asosini tashkil etadi.

Amir Temurning «Temur tuzuklari» da jamiyat, uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti; jamiyat hayotini tashkil etish qonun-qoidalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkir olimlar ijodida alohida o'rin tutadi.

Abu Nasr Forobiy asarlarida jamiyat muammosi falsafiy tahlil qilingan. U Platon va Aristotel asarlariga tayanib, jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy

ehtiyojlarni qondirish yotadi, degan nazariyani ilgari surgan. Tabiiy ehtiyoj kishilarni birlashishga, jamoaga uyushuviga, o'zaro yordamga olib kelgan. O'zaro yordam tufayli ehtiyojlar qondirilgan. Kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam jamiyatni keltirib chiqargan. Insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro bir-birlaridan tillari, urf-odatlar, malakalari, xususiyatlari bilan farqlanadilar.

Forobiy jamiyatlarni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma'rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o'zaro ko'maklashuviga, bir-biriga yordam berishga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib trochi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lgani uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Abu Ali Ibn Sino «Ishorat va tanbihot» asarida inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo'libgina, o'z ehtiyojlarini qondirishi mumkin» deb hisoblaydi. U insonlarning jamiyatdagi o'rniga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

- a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishi bilan shug'ullanuvchilar;
- b) xom-ashyo va zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar;
- v) davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi xujumlardan saqlashni ta'minlaydigan xarbiylar.

Ibn Sino jamiyatning paydo bo'lishi kishilarning birdamlikka bo'lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanligini ko'rsatgan.

Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib sivilizasiyalarning paydo bo'lishida tabiiy-geografiy muhitning tutgan o'rnini asoslashga uringan. U jamiyatni idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini

yo'qotishidan iborat, deb bilgan¹⁰. Alisher Navoiy o'z asarlarida «ideal jamiyat» qiyofasini chizgan.

XIX asrning o'rtalarida jamiyat, uning mohiyati, taraqqiyot istiqbollarini o'rganish hayotiy zarurat darajasiga ko'tarildi. Ikkinchi mavzuda ta'kidlaganimizdek, aynan shu zaruriyat falsafa fanidan ijtimoiy falsafaning ajralib chiqishiga va maxsus falsafiy fan sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi.

G'arbiy Yevropaning G.Spenser (1820-1907), Dyurkgeym (1858-1917, Georg Vilgelm Gegel (1770-1831), M.Veber (1864-1920), singari olimlari, jamiyat hayotini murakkab ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etdilar.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) jamiyat bir butun yaxlit olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o'ziga xos ko'rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli.

2) jamiyat bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimdir. Falsafa jamiyatni yaxlitlik sifatida olib o'rganadi va shu asosda uning mavjudligi, taraqqiyot qonunlarini ochib beradi.

3) ijtimoiy falsafa jamiyatning barcha tomonlari orasidagi aloqadorliklar va taraqqiyotni tadqiq etadi.

4) Ijtimoiy falsafa jamiyat ham olam kabi uzluksiz harakatda, o'zgarishda, taraqqiyotida, deb biladi, unda kechadigan barcha voqyea-hodisalarni dinamik jarayon sifatida o'rganadi.

Iqtisodiy hayot sohasi jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni nazarda tutadi. U jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlarini yaratishdan iborat bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatning ijtimoiy hayoti deganda undagi mavjud turli birliklar, guruhlarining hayoti hamda, ular orasidagi turli-tuman ijtimoiy aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi. Jamiyatning siyosiy hayoti sohasi odamlar, siyosiy kuchlar-sinflar, millatlarning o'zaro siyosiy munosabatlarini, ularning davlat hokimiyatini qo'lga kiritish va mustahkamlash borasidagi ongli faoliyatlarini

¹⁰ Жаҳон фалсафаси тарихидан мавхулар. I қисм. – Т., Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамияти нашриёти, 2004 йил, 122-бет.

qamrab oladi. Jamiyatning ma'naviy hayot sohasi ma'naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat va uning natijalari: (xilma-xil qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, fan, adabiyot, san'at, ta'lim-tarbiya kabi) ni, ma'naviy munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyatlar ochiq jamiyat, yopiq jamiyat, axborotlashgan jamiyat, fuqarolik jamiyati kabi shakl va ko'rinishlarga ega.

Ochiq va yopiq jamiyat tushunchalarini ijtimoiy falsafaga ingliz olimi Karl Popper (1902-1994) kiritgan. U yopiq jamiyatni totalitar siyosiy tuzumning mahsuli sifatida ta'riflaydi. Ochiq jamiyatda fuqarolar shaxs hisoblanadi. Bunday jamiyatda muayyan qarorlarni qabul qilishda fuqarolar qatnashadilar. Karl Popper ochiq jamiyatni bozor iqtisodi (bozor erkinligi) bilan bog'laydi. Uning fikricha, dunyoda insonparvarlik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy tuzumni tashkil etish uchun insoniyat beshta muhim vazifani ado etishi zarur.

1. Erkinlikni mustahkamlash, undan kelib chiqadigan mas'uliyatni anglash;
2. Dunyoda tinchlik o'rnatish;
3. Qashshoqlikka qarshi kurash;
4. Demografik «portlash»ga qarshi kurash;
5. Zo'ravonlikka qarshi ta'lim-tarbiyani jadallashtirish¹¹.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi amerikalik faylasuf, sosiolog Olvin Toffler (1928 yilda tug'ilgan) tomonidan iste'molga kiritilgan, u postindustrial jamiyatni axborotlashgan jamiyat, deb ataydi.

Axborotlashgan jamiyat deganda informasiya, ijodiyot va intellektual texnologiyaning ahamiyati ortib borgan jamiyat nazarda tutiladi. Bu jamiyat kompyuterlar, lazer texnikasi, biotexnologiya, gen injeneriyasi, informatika, elektronika, televideokommunikasiya rivoji bilan bog'liq ravishda mavjud bo'la oladi. Bu jamiyatda asosiy e'tibor mashinalarni o'zgartirishga emas, balki kishilar ongi va madaniyatini o'zgartirishga qaratiladi.

Ijtimoiy falsafa fani doirasida ideal jamiyatga nisbatan «fuqarolik jamiyati» tushunchasi qo'llanadi. Garchi fuqarolik jamiyati tushunchasi iste'molga nisbatan

¹¹ Фалсафа. Қомусий луғат. Т., «Шарк», 2004 йил, Б-331-332

keyin kiritilgan hisoblansa-da, aslida u haqidagi falsafiy fikrlar qadimiy davrlardan shakllangan. Aristotel «Siyosat» asarida fuqarolik jamiyati muammosiga diqqatini qaratgan va uni «polis» sifatida ifodalagan.

Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida fuqarolik jamiyatiga xos xususiyat – boshqaruvning jamoatchilik asoslari haqidagi g’oyalarni ilgari surgan.

Ta’lim-tarbiya tizimi jamiyat ma’naviy hayotida muhim o’rin tutadi. Hayotga kirib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy qiyofasi, madaniyati, hayotga va odamlarga bo’lgan munosabati maktabda shakllanadi. San’at, adabiyot, madaniyat, ilm-fan arboblarning mehnati jamiyatning yuksalishida alohida o’rin tutadi, shu boisdan ham ularning mehnati qadrlanadi.

Jamiyatning moddiy va ma’naviy sohalari kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog’liq ravishda vujudga keladi. Jamiyatning moddiy hayotiga:

- kishilarning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg’i, kommunikasiya vositalari;
- moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o’rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi;
- moddiy boyliklar, tabiiy zahiralarni kiradi.

Jamiyatning moddiy hayoti kishilar uchun tirikchilik ne’matlari, vositalari yaratishga qaratilgandir. U kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Moddiy ishlab chiqarishda jismoniy mehnat kishisi asosiy rol o’ynaydi. To’g’ri, bu sohada aqliy mehnat kishilari, (injener, agronom, zootexnik, rahbarlar va h.k.) ham faoliyat ko’rsatadi, biroq yetakchi mavqeyi jismoniy mehnat xodimlari egallaydilar. «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo’jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo’lidagi mavjud to’siqlarni bartaraf etish - bu

sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir.» Moddiy ishlab chiqarishsiz jamiyat hayotining normal tabiiy rivojlanishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirish, butun e'tiborni moddiy ishlab chiqarishga qaratish ham jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, hozirgi paytda tovar ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi foydaliroq bo'lib qolyapti. D. Bell, 3. Bzejnskiy singari g'arb olimlari o'z tadqiqotlarida postindustrial jamiyatda moddiy ishlab chiqarishning ahamiyati tobora kamayib borishini ko'rsatyaptilar.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biridan farqlash ijtimoiy hayot mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradi. Aslida real hayotda ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Ilmiy iazariya va amaliyotda jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim deb hisoblash jamiyatning tabiiy-tarixiy rivojlanishini izdan chiqaradi.

Jamiyatning ma'naviy-intellektual taraqqiyoti uchun iqtisodiy zamin yaratish qanchalik muhim bo'lsa, moddiy farovonlikni ta'minlash uchun ma'naviy-intellektual salohiyatni kuchaytirish ham shunchalik muhimdir. Jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish qanchalik muhim o'rin tutsa, uni boshqarish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning turli elementlari normal ishlashi, bir-biriga muvofiq faoliyat ko'rsatishi uchun uni boshqarish talab etiladi. Boshqarish davlatdan tortib korxona va oilagacha bo'lgan keng sohani qamrab oladi. Boshqarish bilan maxsus kishilar, siyosatchilar, rahbar xodimlar shug'ullanadilar. Boshqarish turli darajalarda amalga oshirilsa ham, boshqarish faoliyatining eng yuqori shakli siyosiy faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatni siyosiy boshqarishning xilma-xil shakllari mavjud bo'lib, har bir mamlakatning milliy mentaliteti, an'analariga mos ravishda siyosiy boshqarishning monarxiya, aristokratiya, respublika shakllari qo'llaniladi. Bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrlarida qadriyatlarni qaytadan baxolash, jamiyat hayotida davlat, oila, mehnat, mulk, siyosiy partiyalar, din, fan

va boshqa ijtimoiy institutlar mohiyatini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bunda faqat mazmunga emas, balki shakl ham qayta quriladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi, mustabid tuzum mafkurasi va siyosatining inqirozga yuz o'girishi bilan «...davlatning mohiyati butunlay tubdan o'zgardi. Davlat dastlabki bosqichda jamiyatni yangilashning eng faol kuchiga aylangani holda islohotlarning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lib qoldi». Inson ehtiyojlarining muttasil o'sib borish qonuniyati mavjud siyosiy sistema oldiga qator talablar qo'yadi. Mamlakatimizda uzoq yillar davomida xukm surib kelgan ma'muriy buyruqbozlikka asoslanuvchi siyosiy sistema o'zining tub mohiyati bilan shaxsning har tomonlama erkin rivojlanishiga imkon bermaganligi uchun ham muqarrar ravishda inqirozga yuz o'girdi. Iqtisodiy tanazzul siyosiy sistemaning yemirilishiga olib keldi. «Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda shu paytgacha misli kurilmagan siyosiy faollik sharoitida yuz beradi. bu hol tabiiydir. Shu paytga kelib karaxtlik holatidan halos bo'lgan jamiyat to'planib qolgan jami ijtimoiy ziddiyatlarni bir zumda yuzaga chiqaradi».

Jamiyatni boshqarish tizimi har bir xalqning milliy xususiyat, psixologiyasi, an'nalari. madaniy salohiyatiga mos ravishda vujudga keladi. Turli jamiyatlarda siyosiy boshqarish usullarining turlicha xarakteri ularning ilg'or yoki qoloq ekanligidan dalolat bermaydi. Siyosiy boshqarishning har bir usuli turli tarixiy sharoitlarda turlicha samara berishi mumkin. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgan sayin siyosiy boshqaruv usullari ham tobora insoniylashib boradi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi siyosiy boshqaruvning demokratik shakli ancha qulay va insonparvar ekanligini ko'rsatdi.

Ochiq demokratik jamiyatda davlat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar tashabbuskori, jamiyat rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demokratik jamiyatda siyosiy boshqarish huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishni taqozo etadi. qonun ustuvorligi demokratik jamiyat va davlat hayotining muhim sharti hisoblanadi. Demokratik davlat jamiyatni boshqarishda konstitutsiya talablariga bo'ysunar ekan, u jamiyatni tanho boshqarish da'vosini qilmaydi. Balki jamiyatni

boshqarishda turli diniy, ilmiy tashkilotlarga, jamoat tashkilotlariga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlariga keng vakolatlar beradi. Demokratik jamiyatda dinning davlatdan, maktabning diniy muassasalardan ajratilishi, kishilarga vijdon erkinligi huquqining berilishi progressiv hodisa, jamiyat erkin rivojlanishining muhim shartidir.

Odatda dunyoviy va diniy davlatlar bir-biridan farqlanadi. Dunyoviy davlatlar konstitusiyaga, ilm-fan xulosalariga asoslanadi. Diniy yoki teokratik davlatlar diniy ta'limot va shariat hukmiga asoslanadi. Bunday davlatlar o'z fuqarolarining vijdon erkinligini ta'qiqlaydi; ta'lim-tarbiya asosan diniy ruhda olib boriladi.

Demokratik davlatda ta'lim-tarbiya muassasalari jamiyatni oqilona boshqarishga yaqindan yordam beradi; yosh avlodga puxta siyosiy va huquqiy bilim beradi, mavjud ahloqiy, huquqiy normalarni singdiradi, siyosiy ong va madaniyatni rivojlantiradi. «Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash -mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning asosiy yo'nalishidir».

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, yetilgan muammolarni oqilona hal etish, mamlakat fuqarolarining siyosiy faolligini oshirish-jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi barcha boshqaruv organlari va tashkilotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Jamiyat a'zolarini umumiy maqsad yo'lida yanada jipslashtirish, ijtimoiy-siyosiy faollikni kuchaytirishda milliy g'oya va milliy mafkura muhim rol o'ynaydi. g'oyaviy mushtaraklik jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh, qatlam va sinflarda birdamlik tuyg'usini kuchaytiradi, turli siyosiy harakat va partiyalar faoliyatini bunyodkorlik ishlariga yo'naltiradi. Mamlakatimizning milliy mustaqillik yillarida orttirgan tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta'minlashda ijtimoiy sohaga ko'proq e'tibor berishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. «Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi».

Jamiyatning rivojlanishida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Kishilarning qobiliyatiga qarab mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida turli kasblar bilan shug'ullanadigan qator toifalar, guruhlar, qatlamlar va sinflar vujudga keladi. Ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rinni egallaydilar; jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo'shadilar. Sosial stratifikasiya aholining iyerarxik mavqeyiga mos ravishda ijtimoiy qatlamlarga bo'linishidir. Ijtimoiy stratifikasiya oliy va quyi qatlamlar mavjudligini, huquq va imtiyozlarning tengsizligini, mas'uliyat va burch tengsizligini e'tirof etadi. Ijtimoiystratifikasiyaning konkret shakllari nihoyatda xilma-xildir.

Agar jamiyat a'zolarining iqtisodiy maqomi turlicha bo'lsa, mulkdor va mulksizlar mavjud bo'lsa, jamiyat qanday shaklda tashkil etilishidan qat'i nazar uning iqtisodiy tabaqalanishi murqarrardir. Agar biron bir guruh ichida mansab va obro'oiga, unvon va lavozimiga qarab turli iyerarxik rang (daraja) mavjud bo'lsa, bu guruhning siyosiy differensiallashganligidan dalolat beradi. Agar jamiyat a'zolari o'z faoliyat turiga qarab turli guruhlarga bo'lingan bo'lsa, ayrim kasblar boshqalariga nisbatan qadrliroq bo'lsa, professional guruh a'zolari rahbarlar va itoat qiluvchilarga bo'lingan bo'lsa, bunday guruh professional differensiallashgandir. Ijtimoiystratifikasiya iqtisodiy, siyosiy va professional shakllardan tashkil topadi. Barcha a'zolari har jihatdan teng bo'lgan ijtimoiy guruh, hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi. Ijtimoiy stratifikasiya - har qanday uyushgan jamiyatning doimiy tavsifidir. Har bir ijtimoiy struktura bo'sh joyda vujudga kelmaydi: balki ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy struktura negiziga yangilik kiritish orqali vujudga keladi. O'tmishda mavjud bo'lgan va bugungi kundagi mavjud ijtimoiy struktura o'rtasida tarixiy aloqadorlik mavjuddir. Ana shu bog'liqlik insoniyat jamiyati rivojlanishining yagona jarayon sifatida ro'y berishini taqozo etadi. Tarix takrorlanmaydigan faktlarni o'rganadi. Shu boisdan ham fatalizm nazariyotchilarining voqeya, hodisalar, faktlarning albatta oldindan - belgilanganligi to'g'risidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixiga faqat takrorlanmaydigan hodisalargina kiradi. Tarixiy davrlar individual hodisalarni

namoyon etadi. Falsafada jamiyat taraqqiyotining mezoni nima, degan masalada turlicha qarash va nazariyalar vujudga keldi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekanligi to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surildi. Bunday qarashga ko'ra jamiyat taraqqiyotini agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratildi. Adabiyotlarda jamiyat rivojlanishiga sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos tomonlarini saqlab qolgan holda boshqa xalqlarning tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

G'arbda ijtimoiy rivojlanishning siklli nazariyasi keng yoyilgan bo'lib, uning yirik vakillari O. Shpengler va A. Toynbi hisoblanadi. O. Shpengler o'zining «Yevropa quyoshining so'nishi» asarida jahon tarixini «ko'plab madaniyatlar fenomeni» sifatida tavsifladi. Har bir madaniyat bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladi, ularning har biri o'zining ma'naviy harakatlantiruvchi kuchiga, o'z qiyofasiga, o'z hayoti va o'limi tarixiga egadir. Shpenglarning fikricha, tarix progress nimaligini bilmaydi: ulardan har birining madaniyati betakror bo'lib, ularni bog'lab turadigan mezon yo'q.

Angliyalik sosiolog A. Toynbi ham ana shu g'oyani davom ettirdi. Uning fikricha, butun insoniyat tarixi 21 sivilizatsiya tarixidan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan ichki bog'lanmagan. Har bir sivilizatsiya o'z rivojida: vujudga kelish, o'sish, sinish, parchalanish va halokat bosqichini kechiradi, so'ng o'rnini boshqa sivilizatsiyaga bo'shatib beradi. Toynbi barcha sivilizatsiyalardagi ijtimoiy jarayonlar bir-biriga o'xshash ekanligini ta'kidladi.

Sivilizatsiya rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi «ijodkor ozchilik bo'lib, u inert ko'pchilik» ni orqasidan yetaklashga qodirdir. «Ijodkor elita» asta-sekin ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish qobiliyatini yo'qotgach, o'z hokimiyatini avtoritet orqali emas, balki zo'ravonlik bilan amalga oshira boshlaydi. Agar asosiy omma harbiy holat yoki tabiiy ofatdan qirilib ketmasa, bu sivilizatsiyani yemiradi. A. Toynbi hozirgi paytda besh sivilizatsiya (xitoy, hind,

ispan, rus va g'arb) saqlanib qoldi, degan xulosaga keldi. Har bir yangi sivilizasiyaning vujudga kelishi, Toynbi fikricha, dinning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. P.A.Sorokin jamiyat tarixini madaniy va ijtimoiy tizimlarning almashinuvi sifatida izohladi. Tarixiy jarayon madaniyatning uch tipi (xissiy, rasional, intuiativ) almashinuvidan iboratdir.

Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarini ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik nisbiy sokinlik, ijtimoiy tizimning normal faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sistemaning tanazzuli alomatidir. Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashinib turishi ham mumkin. Jamiyat ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarda muayyan yutuqlarga erishib, ijtimoiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi. Ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasiga mos ravishda mavjud siyosiy sistema kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini hayotga tatbiq etadi. Insoniyat jamiyati tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxik, aristokratik, totalitar va demokratik usullar amal qilib kelgan. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yuqolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishida, davlat organlarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli konfliktlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat bir butun yaxlit olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o'ziga xos ko'rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli.

Jamiyat bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimdir. Falsafa jamiyatni o'rganganda uni yaxlitlik sifatida olib o'rganadi va shu asosda uning mavjudligi, taraqqiyot qonunlarini ochib beradi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatning barcha tomonlari orasidagi aloqadorliklar va taraqqiyotni tadqiq etadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat ham olam kabi uzluksiz harakatda, o'zgarishda, taraqqiyotida, deb biladi, unda kechadigan barcha voqea-hodisalarni dinamik jarayon sifatida o'rganadi.

JAMIYATNING FALSAFIY TAHLILI

Modiy olamning tarkibiy qismi

Jamiyat o'z-o'zini tashkillovchi, o'z-o'zidan rivojlanuvch murakkab tizim


Jamiyat kishilarning hayot tarzlari, faoliyatlatining barcha turlari, ularning natijalarini qamrab oladi.

Kishilar hayoti va faoliyati o'tmishi, hozir va kelajakdan iborat vaqt mezonini aks ettiradi.

Jamiyat kishilararo ob'ektiv ijtimoiy aloqa va munosabatlarning mahsuli va ko'rinishi

Jamiyat insonlar uchrashuvidan iborat bo'lgan birlik. Jamiyat – maqsadlari, orzu-intilishlari, yashash tarzlari mushtarak bo'lgan odamlar oilasidan iborat

Ijtimoiy faoliyatning to'rt asosiy elementiga mos ravishda ijtimoiy hayotning quyidagi to'rt sohasi vujudga keladi:



ijtimoiy soha

ma'naviy soha,

moddiy soha,

siyosiy soha,

Insert jadvali:

- ma'lumotlarni sistemalashti-rishni (mustaqil o'qish/ ma'ruza eshitish jarayonida olingan), ularni tasdiklash, aniklashtirish yoki rad etish; qabul qilinayotgan ma'lumotning tushunarligini nazorat qilish, avval egallangan ma'lumotni yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi;
- o'kuv ma'lumotini mustaqil o'rganilganidan so'ng qo'llanadi.

Insert jadvalining tuzilishi va uni to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar.

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni individual hxolda sistemalashtiradilar; Matnda qo'yilgan belgilar asosida jadval ustunlarini to'ldiradilar:

V - xaqidagi bilimlarimga javob beradi;

«-» - ... xaqidagi bilimlarimga zid;


+ - yangi ma'lumotlar

? – tushunarsiz (aniqlashtirish, to'ldirishni talab qiladi) ma'lumot.

Nazorat uchun savollar:

1. «Jamiyat», «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini ta'riflang, ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
2. Fuqarolik jamiyati masalasining falsafa tarixida qo'yilishi.
3. XX asr falsafasida fuqarolik jamiyati konsepsiyalarining ishlab chiqilishi.
4. «Ochiq jamiyat» qanday jamiyat?
5. «Fuqarolik jamiyati»ning asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?
6. Fuqarolik jamiyatining strkurasiga nimalar kiradi?

Klaster tuzish qoidalari



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

9 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi boTishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

6 - Mavzu: Jamiyal hayoti asosiy sohalarining tizimli tahlili

REJA:

1. Jamiyatning iqtisodiy xayoti. Moddiy ishlab chiqarish jamiyat iqtisodiy xayotining asosi.

2. Moddiy ishlab chiqarish, uning strukturasi.

3. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari.

4. Ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteri va taraqqiyot darajasiga muvofiq kelishi qonuni-ijtimoiy taraqqiyot qonuni sifatida.

5. Mustaqil Uzbekistonning iqtisodiy xayoti va taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: Iqtisodiy xayoti, mulk, texnika, texnologiya, mexnat taqsimoti.

Kishilarning o'z moddiy xayot sharoitlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bulgan barcha faoliyat turlari xamda shu jarayonda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy xayot soxasini tashkil etadi.

Jamiyat iqtisodiy xayot soxasining asosini moddiy ishlab chiqarish tashkil etadi. Moddiy ishlab chiqarish deganda, avvalo, inson xayoti uchun zarur bo'lgan, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi. Ayni vaqtda moddiy ishlab chiqarish inson xayotining o'zini ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishni xam o'z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarish jamiyat a'zolarining moddiy xayotiy extiyojlarini qondirish zarurati tufayli amalga oshiriladi. Jamiyat kishilar xayoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni va o'z o'zini ishlab chiqarmasdan turib mavjud bo'la olmaydi. Aslida insoniyat tarixi tirikchilik vositalarini ishlab chiqarishdan boshlangan. Moddiy ishlab chiqarish 2 asosiy tarkibiy elementdan tashkil topgan.

1) Ishlab chiqarishning texnologik usuli.

2) Iqtisodiy ishlab chikarish usuli.

Ishlab chiqarishning texnologik usuli deganda kishilarning mexnat predmetlari va mexnat vositalariga munosabatlari nazarda tutiladi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli «texnika», «texnologiya» tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Nemis olimi Ernst Kappa «Insoniyat tarixiga diqqat bilan nazar tashlansa, u boshdan-oyoq mehnat qurollarini ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan» deb bejiz yozmagan. «Texnika» yunoncha so'z bulib, san'at, maxorat ma'nolarini anglatadi. Texnika odamzodning turli qurollar, asbob uskunalarni yaratish san'ati ma'nosini ifodalaydi. Texnika tushunchasi kishilar tomonidan ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar, mexnat qurollariga nisbatan qo'llangan. Inson tabiatga ta'sir etishda ulardan foydalanadi.

Texnikaning shakllanishi xakida fikr yuritganda, uning 2 million yillik tarixga ega ekanligini nazarda tutmok lozim. Texnika narsalarga ishlov berish, shaklga kiritish ma'nosida pitekanthrop tipidagi odamlardan boshlangan. Ular yasagan qo'pol tosh qurollarini inkor etish orkali odamzotning aqliy saloxiyati rivojpanib, tafakkur tarzi mukamallashib bordi. Sinantrop, neandertal tipidagi odamlar tosh qurollarni takomillashtirib, ulardan foydalanish malakalarini xam rivojlantirdilar. Nixoyat, kromanon tipidagi odamlarda rivojlangan nutq tili markazining shakllanishi tufayli, ular jamoa va jamiyat bo'lib yashashga o'tdilar, odamzotning aqliy saloxiyat beqiyos rivojlanishi, uning taraqqiyotda yuksak bosqichga ko'tarilishga olib keldi. Aqliy saloxiyat tufayli odamzot avvalo og'ir jismoniy mexnatning bir qismini uyga o'rgatilgan xayvonlar zimmasiga yukladi. Asta-sekin dexqonchilik, uy ashyo qurollari, shaxar qurilishi, ayniksa xarbiy

qurol aslaxalar ishlab chiqarish, ularni takomillashtirish tufayli texnika rivojlanib bordi. XVII asrdan boshlab G'arbiy Yevropada ilmiy-texnika taraqqiyoti yuz berdi. Oqibatda mashina mexnati shakllana boshladi. XX asrga kelib texnika inson xayoti va faoliyatining barcha soxalarini qamrab oldi. XX asr o' rtalarida ITI ro' y berdi. Xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatida odamzot xayoti va faoliyatining texnika ishtirok etmayotgan biron-bir jabxasi qolmayapti. Shundan kelib chiqqan xolda texnika tushunchasiga inson tomonidan tashqi dunyoni o' zgartirish vositasi, inson yashaydigan muxit va insonning mavjudligi timsolidir¹, degan ta' rifga qo' shilishi o' rinli. Demak, texnika – mexnat predmetlariga ta' sir ko' rsatish vositalari.

Texnologiya – mexnat predmetlariga fan va amaliyot imkoniyatlari, talablari asosida ta' sir etish. Texnikani qo' llash, undan foydalanish usullari texnologiya, deb yuritiladi.

Ishlab chiqarishning texnologik usuli tarixda 4 xil shaklda namoyon bulgan.

a) tayyor maxsulotlarni o' zlashtirish (ibtidoiy jamiyat odamlarining tabiatdan ozik-ovqat ombori va qurol-yarog' arsenali sifatida foydalanishi, termachilik faoliyati).

b) agro-xunarmandchilik texnologiyasi.

v) industrial texnologiya.

g) axborot-kompyuter texnologiyalari¹².

Xozirgi davrda «inson-texnika» munosabatlari ishlab chiqarishning asosini tashkil etmoqda. Jamiyatlar taraqqiyoti

¹² Fa!safa.–T., 2006 й и л, 335 б е т.

ishlab chiqarish texnologiyasi taraqqiyotida o'z ifodasini topadi. Ishlab chiqarish texnologiyasi taraqqiyoti oddiydan murakkabga qarab borgan. Bu dastlab asbob-uskunalaridan foydalanish, so'ng mexanizatsiyalash va nixoyat undan avtomatlashtirishga, kompyuterlashga utish tarzida yuz bergan. Texnika taraqqiyoti fandagi chukur o'zgarishlarsiz yuz bermaydi. Avvallari fandagi yangiliklar texnikaga tatbiq etilar va bu ket maketlikda sodir bo'lar edi. Endilikda fan va texnikadagi o'zgarishlar bir vaqtda yuz bermokda va bunday o'zgarishlar muayyan sifat xususiyatlariga ega. Shuning uchun xam ular ilmiy-texnika inkilobi deb yuritadi.

Ilmiy-texnika inkilobining xozirgi bosqichi:

mikroelektronika, radiotexnika, radioelektronika, biotexnologiya, kompyuterlashtirish, radiotexnika, radioelektronika, sintetik kimyo kabi yangi soxalarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Jamiyatning iqtisodiy xayoti kup fanlar tomonidan o'rganiladi. Iktisodiyot nazariyasi moddiy ishlab chikarish, uning qonunlarini; ergonomika inson va uning ishlab chiqarish faoliyatini o'rganadi. Jamiyatning iqtisodiy hayoti uning iqtisodiy ishlab chiqarish usulida o'z ifodasini topadi.

XXI asr boshlariga kelib, jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'nomazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiati tubdan o'zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining

muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham shundan iborat. Bugungi kunda va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida oldimizda qator strategik vazifalar turibdi. Ularning barchasi ustuvor ahamiyatga egadir. O'tgan davr mobaynida bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy iqtisodiyotning investisiyalarga bo'lgan talabini qondirish, bozor munosabatlari sub'yektlari faoliyatini erkinlashtirish masalalariga alohida e'tibor berildi. Jamiyatimiz farovonligi yo'lidagi davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilingan dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institusional o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu jarayonda ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish evaziga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi. Erkin konvertatsiyami ta'minlovchi valyutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valyuta kursini shakllantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarni joriy etish yo'li o'z samaradorligini ko'rsatmoqda. Bu jabhada soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirishga harakat qilinayotgani ham aslo bejiz emas. Bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarimiz o'z natijasini bermoqda. Yangi turlardagi sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobidan ularning hajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va axolining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil

manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga muhim jabha tarzida qaralmoqda. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investisiyalar va kreditlardan samarali foydalanish bilan bog'liq vazifalar ham nihoyatda muhimligini yaxshi bilamiz.

Harakatlar strategiyasining natijasi o'laroq, Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining huquqiy asoslari yaratildi. Yangi O'zbekiston strategiyasi, avvalo, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilganini ta'kidlash lozim¹³. Makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir. Kelgusidagi iqtisodiyotning kamida 5 foizga o'sishi, byudjet defisiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 foizdan oshmasligiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Inflyasiyaviy targetlash doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmaslik asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo'yicha ba'zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo'lmaydi, albatta¹⁴. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlantirishga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlash, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institusional tizimni yanada takomillashtirish zarurati kabi kuyidagi vazifalarni kun tartibiga qo'ymoqda:

makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish maqsadlari va tarkibiy islohotlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, shuningdek, tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy sikllarni boshqarishning zamonaviy prognozlashtirish modellariga asoslangan samarali tizimi va mexanizmlarini joriy etish jarayoni yanada ko'proq e'tiborni talab qilmoqda;

¹³ Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент.: “O'zbekiston” нашриёти, 2021 йил Б-129.

¹⁴ Ўша жойда. Б-130

◆◆◆◆◆ kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy ko'llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarini bajarishda yuksak samaradorlikka erishilmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini yanada oshirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda;

◆◆> hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yondashuv va tamoyillarni to'liqroq shakllantirish, iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, bu jabhadagi mavjud salohiyat va "nisbiy ustunlik" mezonlaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillarni inobatga olish masalalari ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda;

*** mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning yanada samaraliroq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadga yo'naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o'qitish va kasbga o'rgatish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, pgu jumladan, barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag'larning sarflanish samaradorligini baholash ishlarini tashkil etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarga barham berish lozim;

◆◆◆◆◆ mamlakat sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlari hisoblangan sohalarda mehnat unumdorligini yanada oshirish, sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirish, shuningdek, mazkur jarayonda texnik reglamentlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangilash va samarali foydalanish masalalari ham alohida e'tiborni talab qilmoqda. Mazkur vazifalarning bajarilishi jamiyatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini kengaytirish imkoniyatlarini yanada oshiradi Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri - har bir fukdro boy bo'lsa - davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa - mamlakat farovon bo'ladi. Yangi O'zbekistonni halol mehnat qilib muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o'zi va oilasi farovonligini ta'minlashga

intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur.

1-ilova

Aqliy xujum metodining asosiy qoidalari:

- ilgari surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda gapni bo'lmang!
- Maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- Qanchalik ko'p fikr va g'oya bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa, asabiylashmang va hayron bo'lmang.
- Xayollar to'zg'ishiga ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamida hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.
- Fikrlar xujumini o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iy rioya qilinishi shart.
- Berilgan savolga qisqacha (1-2 so'zdan iborat) javob beriladi.

2-ilova

Aqliy hujum savollari

1. Jamiyat to'g'risida gapirib bering;
2. Jamiyat sohalari haqida gapirib bering;
3. Taraqqiyot haqida ma'lumot bering.
4. Tadrijiy rivojlanish yo'llari haqida tushuncha bering;

3-ilova.

Qonunchilik huquqi faoliyatini quyidagicha izohlash mumkin.


Qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqi sub'yektlari tomonidan kiritiladi

Qonunchilik palatasi Spikeri qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqadigan qo'mitaga topshiradi. Mas'ul qo'mita xulosa tayyorlaydi

Qonunchilik palatasi kengashi mas'ul qo'mita xulosasi asosida qaror qabul qiladi

Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan qonun loyihasi tegishli materiallar bilan Qonunchilik palatasining qo'mitalariga yuboriladi

Qonunchilik palatasi kengashi mas'ul qo'mita taqdim etgan qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi



FSMU texnologiyasi

(F) – fikringizni bayon eting.

(S) – fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.


(U) – fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni mustaqil fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, ularning qay darajada egallaganini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Hozirgi davrda davlatlar o'rtasida global hamkorlikni shakllantirish iqtisodiy rivojlanish va taraqqiyotni jadallashtiradi

F	Fikringizni bayon eting.
S	Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating.
M	Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
U	Fikringizni umumlashtiring.

IQTISODIY ISHLAB CHIQUVCHI USULLARI



Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatning iqtisodiy xayoti tushunchasi nimani ifodalaydi.
2. Jamiyat iqtisodiy xayotining asosida nima yotadi?
3. Moddiy ishlab chiqarishning mohiyatini qanday tushunasiz?
4. Iqtisodiy ishlab chiqarish usuli nima, ta'riflang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

9 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi boTishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017

10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

7-Mavzu: Ijtimoiy ong va ijtimoiy bilishda tizimli tahlil

1. Bilish. Ilimiy bilish. Ijtimoiy bilish. Ijtimoiy bilish haqidagi qarashlar
2. Ijtimoiy bilish tarkibi. Ijtimoiy bilish darajalari. Empirik va nazariy bilish.
3. Empirik bilish metodlari. Nazariy bilish metodlar.
4. Ijtimoiy bilishning jamiyatdagi o'рни va ahamiyati.

Ijtimoiy bilish, bu – jamiyat, ijtimoiy-madaniy, jarayonlar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va m a' naviy tizimlar, xossalar va qonuniyatlar haqidagi tasavvurlar, g' oyalar va ta' limotlarni ishlab chiqarish jabhasi va majmuasidir. O' z navbatida ijtimoiy bilish kundalik hayot tajribasini odamlar ongida umumlashtirish, mafkuraviy tizimlarni yaratish, ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar o' tkazish jarayonida shakllanadi.

Hozirgi zamon falsafasida “ijtimoiy bilish”, “gumanitar bilish”, “ijtimoiy-gumanitar bilish” tushunchalari sinonimlar sifatida qo' llaniladi. Mohiyatiga ko' ra, ijtimoiy bilish tarixiy, ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy, sotsiologik va hokazolarga bo' linadi. Ularni muayyan mo' ljallar, turli qadriyatlar, dalil, maqsad va mazmunni aks ettirishiga ko' ra, bilishning boshqa shakllaridan farqlaydilar. Avvalo, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilish shakllari o' zaro aloqadorligi, bog' liqligini ta' kidlash lozim. Aslida, ular insoniyatga xos umumiy bilishning bir-biri bilan uzviy bog' liq ikki tomonidir. Bilishning shakllari orasida chegara yo' q. Zero, ular asosida ish ko' radigan, faoliyati bilishning mazkur shakllari bilan bog' liq bo' lgan mutaxassislarining ongi va dunyoqarashida farq bor.

Ijtimoiy bilishning mohiyatini tushunishda uni ijtimoiy sifat, ijtimoiy ziddiyat, ijtimoiy-tarixiy dalil, ijtimoiy

nazariya kabi tushunchalar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Albatta, ijtimoiy bilish uchun bilishga tegishli bo'lgan barcha jarayonlar xosdir. Dallillarni izohlash va umumlashtirish (empirik bosqich), tadqiq qilinadigan hodisalarni tushuntirish, ularning qonun va sabablarini aniqlash, nazariy va mantiqiy tahlil, bashorat qilish va boshqalar ijtimoiy bilish uchun ham umumiy jihatlardir. Bu, bir tomondan, bilishning barcha shakl va turlarining o'zaro aloqadorligini, ikkinchi tomondan esa ularning har birida alohida xususiyatlar, turlicha namoyon bo'luvchi ichki farqlar mavjudligini ifodalaydi. Bunday xususiyatlar ijtimoiy hodisalarni bilishda ham ko'rinadi.

Ijtimoiy bilishda qonuniylik, umumiylik, yakkalik, individuallik munosabatlari nihoyatda muhim:

a) gumanitar sohada tabiatdagidek obyektiv qonunlar mavjud bo'lib, ularni aniqlash va foydalanish ijtimoiy bilishning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu qonunlar asosida ijtimoiy bilishning predmetini ajratib olish murakkab vazifadir. Shu tufayli bu sohada umumlashtirish qiyin kechadi;

b) ijtimoiy-tarixiy hodisalarning tez o'zgaruvchanligi, unikaligi, takrorlanuvchanligi umumiy qonuniyatlarni aniqlash zarurligini mutlaqo inkor qilmaydi. Birinchidan, har qanday yakkalik ma'lum darajadagi umumiylik bo'lib, unda umumiy tomonlar namoyon bo'ladi. Har qanday unikalik o'zida universallik elementlarini mujassamlashtiradi. Ikkinchidan, jamiyatda sof yakkalik, unikalik mavjud bo'lmaydi. Ular doimo boshqa yakkaliklar bilan o'zaro ta'sir tizimida bo'ladi;

v) ijtimoiy voqelik ma'lum m a' noda individuallashtirish uchun uni strukturalashtirish hamda tiplashtirish qiyin, bu uning aniq ifodasi va modelini yaratishni murakkablashtiradi. Bu usullar qiyin bo'lsa-da, gumanitar sohada ham qo'llaniladi. Ba'zi mutaxassislar fikricha, ijtimoiy bilimning tili ikki xil tarzda namoyon bo'ladi. Birinchisi – jamiyatshunoslikda ishlatiladigan so'zlar ko'p uchraydigan jamoa tili bo'lib, masalalar mohiyatini sodda tushuntirishga mo'ljallangan. Ikkinchisi esa falsafa, sotsiologiya, madaniyat nazariyasi, antropologiya, psixologiya va boshqa sohalarga oid tadqiqotlarning murakkab terminologik fondini mujassamlashtirib, ilmiy-nazariy va hermenevtik faoliyatga mo'ljallangan. Shu bilan birga, jamiyatshunoslikda aniq tushunchalar, misollar keng qo'llaniladigan tabiatshunoslik tili ham talqin qilinadi.

Ijtimoiy bilish predmeti doimo subyektivdir, ya'ni bunda har qanday holatda ham inson o'rganiladi. Shuning uchun, bu nafaqat "subyekt-obyekt" munosabati, balki "subyekt-subyekt" munosabati hamdir. Qadimgi zamon mutafakkiri Sofokl majoziy ma'noda ifodalaganidek, odamlar hayotda o'zlari yaratadigan dramaning ham muallifi, ham aktyorlaridir. Olamda o'zi uchun ham, o'z zavoli uchun ham kuch va murakkab narsalami mohirona yaratishda insonga teng jonzo't yo'q. Birinchi kamondan atom bombasigacha, birinchi sirtmoqdan kompyutergacha, birinchi tuzoqdan kosmik kemalarigacha bo'lgan yo'lni faqat inson bosib o'tgan.

Xullas, har qanday ijtimoiy bilim predmetida subyekt mavjudligini inkor qilish mumkin emas. Shuning uchun ijtimoiy

bilishning asosiy vazifasi – o' ziga o' xshagan boshqa “men” ni, ya' ni, odamni obyekt sifatida emas, balki boshqa subyektni, uning subyektiv faoliyatini, o' zga odamlar, ijtimoiy birliklar (subyektlar) faoliyatini reallik sifatida tushunmoqdan iborat. Subyektning ijtimoiy bilim predmetiga kiritilishi bu predmetning nihoyatda murakkabligining ifodasidir. Bunga moddiylik va ma' naviylik, stixiyalilik va ongliik, emotsionallik, ratsionallik va irratsionallik o' zaro aloqadorlikda namoyon bo' ladi. Bu sohada turli manfaat va ehtiyojlar, xilma-xil maqsad va ideallar shakllanadi, amalga oshadi yoki bir-biriga zid kelib qoladi.

Demak, tabiiy bilishda inson (subyekt), asosan, moddiy dunyo, xususan jonsiz tabiat elementlari (obyektlar)ni o' rgansa, ijtimoiy bilishda o' zi va o' ziga o' xshash subyektlarni ko' proq o' rganadi. Jamiyat tahlil qilinar ekan, u bir vaqtning o' zida ham obyekt, ham subyektni mujassamlashtirishi, ular orasidagi farq, ba' zida ziddiyat reallik ekanligini unutmaslik kerak. T. Adomning ta' kidlashicha, “Ziddiyat eng yuqori darajadagi reallik bo' lib, u ijtimoiy predmetning o' zidadir. Uni bilish jarayonidan yoki real ijtimoiy dunyodan ajratish mumkin emas” . Bunda bilish subyekti faoliyatining ijtimoiy xarakterga ega bo' lgan obyektlarga nisbatan tatbiq etilishi sinergetikada ko' p uchraydigan vaziyat bilan ifodalanishi mumkin. Ijtimoiy muhitning barqarorligi yoki beqarorligida har bir kishining harakati o' z o' miga ega, u qay tarzda bo' lmasin, baribir makroiijtimoiy jarayonlarga ta' sir etadi. Bu, o' z navbatida, har bir kishining yagona ijtimoiy tizim, ya' ni umumiy faoliyatda o' z o' mi

borligini anglatib, uning jamiyat taqdiriga mas'ul ekanligini bildiradi.

Ijtimoiy-gumanitar bilim – inson borligi, hayoti mazmunini, uning ishlab chiqarish bilan bog'liq jihatlari va qadriyatli mazmunini anglashga qaratilgan. Agar inson uchun biror narsaning moddiy yoki ma'naviy qadri va ahamiyati bo'lmaganida edi, odamzot hech qachon uni o'rganmagan bo'lar edi.

Mazmun va qadriyat kategoriyalari ijtimoiy bilish xususiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Inson hayoti ongli faoliyatdir. Uning mazmuni inson borligining ma'naviy yo'nalishi, uning asosi, oliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni amalga oshiruvchi haqiqat, yaxshilik va go'zallik sifatida namoyon bo'ladi. Gumanitar bilim aynan shu mazmunni aniqlash va asoslashga qaratilgan. Ijtimoiy bilishda tushunish ham muhim ahamiyatga egadir. Tushunishning oddiyligi, to'xtovsiz jarayon ekanligi haqidagi tasavvurlar uzoq vaqt mobaynida uning murakkab va serqirra hodisa ekanligini tan olishga halaqit bergan. Odatda, bu tushunchaga ta'rif berilmaydi, aksariyat hollarda uning garmenevtika uchun asosiy manba ekanligi ta'kidlanadi.

Ijtimoiy-gumanitar bilimda obyekt va subyektning murakkab, vaqt va davr bilan bogliq aloqasi mavjud. Bu Baden maktabi namoyandalari tomonidan tavsiflab berilgan. Ular ijtimoiy fanlarda, xususan, tarix fanida ijtimoiy voqelik, uning tarixiy bosqichlarini yozma matnlar – hujjat, xatlar alohida o'rganib egallashini, bu reallik arxeologik va tarixiy manbalar orqali namoyon bo'lishiga e'tibori qaratganlar. Tarixiy reallik

tarixchilardan mislsiz vaqt oralig' i bilan ajralganligi uchun tarix sohasidagi tadqiqotlarning obyektlari yuqoridagi manbalar hisoblanadi.

Ijtimoiy bilish va gumanitar fanlarda semiotika muammolari alohida o' rin tutadi. Semiotika (yunoncha – belgi) belgi va belgilar tizimi xossalarini o' rganuvchi fandır.

Ijtimoiy bilishda dialog ham muhim ahamiyatga egadir. Dialog– ikki yoki undan ortiq kishilarning suhbatı yoxud ular orasidagi og' zaki muloqotning yozma tarzda mustahkamlanishi. Dialog ikki yoki bir necha kishining o' zaro tushunish va tushuntirishga tabiiy intilishi tarzida namoyon bo' ladi.

Ijtimoiy bilish o' rganilayotgan voqelikning sifatiga bevosita e' tibor qaratadi. Bunda hodisa va jarayonlar, eng aw alo, son va raqam, aniq natijalar nuqtai nazaridan emas, balki sifat va individual ahamiyat, qadr nuqtai nazaridan o' rganiladi. Shuning uchun ijtimoiy nazariyalarda son va raqamlar tabiiy matematik fanlarga nisbatan kam. Biroq bu yerda ham bilishni matematikalashtirish, kompyuterlashtirish, formallashtirish har bir jarayonni kengroq yoritishga yordam beradi.

Ijtimoiy bilishda empirik va nazariy komponentlarning o' ziga xos birligi mavjud. Empirik metodlarning ijtimoiy bilishdagi cheklanganligi aniq bo' lsa–da, ulardan keng foydalaniladi. Bular so' rovnomalar, testlar, modeli eksperiment va boshqalardan iborat bo' lib, ular o 'rganilayotdan hodisalarning tabiiy– obyektiv xossalariga emas, balki insoniylik tavsifi, qadri, ahamiyatini aniqlashda qo' llaniladi. Ulardan foydalanishda voqea

va jarayonlarda ishtirok etishning ahamiyati katta. Ijtimoiy bilishda tan olingan umumiy paradigmalarning yo'qligi yoki o'zgaruvchanligi qiyinchilik tug'diradi. Ijtimoiy bilishning bu xususiyatini hozirgi zamon mantiqshunosi va faylasufi G.X. Fon Vrittt alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatshunoslikda umumiy olingan paradigmalar mavjud emas, shu bilan u tabiatshunoslikdan farq qiladi. Biroq tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida muayyan nazariyalarning hukmron paradigmasiga aylanadi. Jamiyatni bilishda kishilarning ijtimoiy munosabatlari mahsuli sifatida kelib chiqadigan ishlab chiqarish munosabatlarning belgilovchi xarakterini tushunish katta ahamiyatga ega.

Demak, ijtimoiy bilish – bu jamiyatni, undagi ijtimoiy hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanishi qonunlarini bilishdir. Bu esa ularni ijtimoiy munosabatlar tizimida, ularning mahsuli sifatida olib o'rganishni talab qiladi. Ijtimoiy hodisalarning haqiqiy kelib chiqishini o'rganishda, nazariy jihatdan tushunishda moddiy, ma'naviy munosabatlar belgilovchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy bilishning boshqa barcha jihatlari uning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy bilish, keng ma'noda, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongning in'ikosidir. U ijtimoiy in'ikos bo'lib borliq in'ikosining hamma ungacha bo'lgan shakllari va bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy bilish jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarning, iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning kishilar miyasidagi faol aksidir.

Umuman olganda, aqlga muvofiq va aqlga nomuvofiqlik o' zaro bir-birlari bilan qarama-qarshi va ayni vaqtda butun baholash jarayonining ajralmas ikki tomonini tashkil qiladi. Baholash jarayoniga xos bu aqlga muvofiqlik va aqlga nomuvofiqlikni bir biridan ajratib, ularni bir-biriga butunlay qarama-qarshi qo' yish xatodir. Chunki jamiyatdagi narsa va hodisalar tabiatiga, mohiyat e' tibori bilan bu xususiyatlar xos emasdir. Bunday xususiyatlarni ularga inson o' z ehtiyojlari, talab va manfaatlaridan kelib chiqib beradi.

Shunday bo' ladi, kishilarning aqlga muvofiq, deb amalga oshirgan ijtimoiy amaliyotlarining ular hali bilmagan, kutmagan aqlga nomuvofiq tomonlari ham paydo bo' lishi mumkin. Masalan, kishilar daryolarni bog' lab, gidroelektrostansiyalar quradilar va arzon elektr energiyasi olishga erishadi. Bu – aqlga muvofiqdir. Lekin, shu bilan birga, bu joyda suv ombori hosil bo' lib, u yerdagi ko' p ekinzor yerlar suv ostida qoladi, atrofida esa botqoqliklar paydo bo' ladi, yer osti suvlarining ko' tarilishi ro' y beradi. Imoratlar zaxlab keta boshlaydi. Atrof-muhitning iqlimi, tabiiy sharoiti o' zgaradi va h. k. Bular – aqlga nomuvofiqdir.

Aqlga muvofiqlik va aqlga nomuvofiqlik insonning ijtimoiy bilimlari sohasiga ham xosdir. Aqlga muvofiq bilimlar ijtimoiy hayotda muhim rol o' ynab, jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishi, kishilar hayotining farovon bo' lishiga olib kelishi mumkin. Aqlga nomuvofiq bilimlar jamiyat taraqqiyotiga to' sqinlik qilib, uni turg' unlikka, tanazzulga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy bilishning mohiyatini to'g'ri tushunishda muhim masalalardan biri – ijtimoiy bilimlarning haqiqatligi masalasidir. Ijtimoiy haqiqat– ijtimoiy bilimlarning ijtimoiy borliqqa, unga xos voqea–hodisalarga mos kelishidir. Bu jihatdan ijtimoiy haqiqat ham mazmuniga ko'ra insonga, insoniyatga, kishilarning ongiga, xohish irodalariga bog'liq emas. U ham o'z mazmuni jihatidan obyektiv xarakterga ega. Biroq ijtimoiy bilishda ijtimoiy haqiqat namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu o'ziga xoslik, avvalambor, subyekt va obyekt munosabatlarning alohida xususiyatlari bilan, subyekt va obyektning tashkil etgan kishilarning ongli faoliyatlari, subyektning obyektning o'zlashtirishga qaratilgan faol amaliy ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy haqiqat bunda obyektga subyektning faol ta'siri tufayli sodir bo'ladigan ijtimoiy in'ikos sifatida yuzaga kelgan ijtimoiy bilimlarning obyektiv mazmunidir. Lekin ijtimoiy bilish obyekti kishilar faoliyati mahsuli bo'lganidan haqiqatning mazmuniga doimo subyektivlik ham xos bo'ladi. Shu tufayli ijtimoiy haqiqat o'z mazmuniga ko'ra har doim obyektivlik va subyektivlikning dialektik birligidan tashkil topadi. Bu dialektik birlik, shu bilan birga, o'zaro tafovutga ham ega. Ijtimoiy haqiqatning mazmuniga xos bu tafovut obyektivlik va subyektivlikning qarama–qarshi munosabatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy bilishda bilimlarning haqiqatligi ularning tarixiy jihati bilan ham bog'liqdir. Ijtimoiy bilimlarning shakllanishi asosida ham, eng avvalo, kishilarning moddiy va ma'naviy amaliy faoliyatlari yotadi. Shu tufayli ularning mazmuni ham ma'um vaqt va makon, shart–sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Bulardan

tashqari, ijtimoiy bilimlar doimo ma'lum ijtimoiy guruh, sinf, tabaqa yoki shaxslarning manfaatlari, maqsadlari, xohish va istaklari bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi. Ijtimoiy bilimlarning mazmunida bu narsa ma'lum mafkuraviy va dunyoqarash komponentlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy haqiqat ijtimoiy bilish obyektining holati bilan ham bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy bilishda haqiqatning shakllanishi mantiqi, odatda, yetuk obyektни talab qiladi. Yetuk obyektgina subyektga obyektни toifa bilish, u haqda to'la mazmunli bilimlar hosil qilish imkonini beradi. Yetuk rivojlangan ijtimoiy obyekt haqida hosil qilingan bilimlar ijtimoiy borliqning hal etilmagan shakllarini bilishda katta rol o'ynaydi. Shu sababli ijtimoiy bilishda obyektning o'tmishi va hozirgi holatini bilish uning kelajak holatini oldindan ko'rishga, ya'ni oldindan aytishga imkoniyat beradi.

Ijtimoiy haqiqat ham nisbiy va mutlaq haqiqatlarning birligidan yuzaga keladi. Jamiyatning rivojlanib borishi bilan ijtimoiy bilimlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat taraqqiyotining konkret bosqichidagi har bir yangi avlod o'zidan oldingi avlodlar orttirgan bilimlarni o'zlashtirib olish bilan birga, o'zlari o'rganib, insoniyatning ijtimoiy bilish chegaralarini yanada olg'a siljitib boradi. Shu sababli nisbiy ijtimoiy haqiqatlar to'planib, mutlaq ijtimoiy haqiqat tomon yaqinlashib boradi. Insonning bir butun bilishi kabi uning ijtimoiy bilish imkoniyatlari ham benihoyadir, u ham nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqatga tomon boradigan cheksiz jarayondir. Butun ijtimoiy fanlar va ijtimoiy amaliyot tarixi ijtimoiy bilimlarning ham nisbiy

haqiqatlardan mutlaq haqiqatga tomon borishidan iborat dialektik jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy bilishning rivojlanishi ham qarama-qarshi g'oyalari va qarashlarning, konsepsiyalar va nazariyalarning o'zaro kurashi orqali, ularni har bir davrda qayta ko'rib chiqish, yangicha baholash, ularning eskirgan va xato tomonlaridan voz kechib, yangi tomonlarini qabul qilib borish asosida yuzaga keladi.

Chunki ijtimoiy haqiqat ham aniq bo'lib, u ham jamiyatdagi aniq voqea va hodisalarga, ular mavjud bo'lgan aniq davrga, vaziyatga, joyga, o'ringa, vaqtga, aniq obyektiv va subyektiv ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir. Shu sababli ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan, avval haqiqat bo'lgan ijtimoiy bilimlar o'zgargan sharoitda haqiqat bo'lmay qolishi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy bilishda mavhum haqiqat yo'q, balki aniq haqiqat mavjuddir. Shuning uchun ijtimoiy hodisalarni o'rganishga doimo aniq ijtimoiy aloqadorlik va bog'lanishlardan, aniq obyektiv va subyektiv ijtimoiy shart-sharoitlardan kelib chiqib yondoshmoq lozim. Chunki, hamma zamonlar, hamma davrlarda, har qanday sharoitda o'zgarmay qoladigan ijtimoiy bilimlar yo'q. Ijtimoiy bilishda haqiqatning aniqligi masalasini to'g'ri tushunish hayotda juda katta rol o'ynaydi.

Nihoyat, ijtimoiy bilimlarning haqiqatligi kriteriysi ham ijtimoiy-tarixiy amaliyotdir. Ijtimoiy-tarixiy amaliyot ijtimoiy bilimlarning haqiqat yoki xato ekanligini ajratadigan, aniqlaydigan mezonidir. Lekin ijtimoiy-tarixiy amaliyot ma'lum tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lgani uchun haqiqat mezoni sifatida

nisbiy xarakterga ega. Chunki, bu mezon inson bilimlarining mutlaqlikka aylanib ketishiga imkon bermaydigan darajada nomuayyan bo'lishi bilan birga, ulaming faqat nisbiy haqiqatlardan iborat emasligini tasdiqlovchi darajada muayyandir. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, ijtimoiy amaliyot mezonini mohiyat e'tibori bilan hech vaqt insonning ijtimoiy bilimlarini mutlaq to'liq holda tasdiqlab yoki rad qilib bera olmaydi.

Ijtimoiy haqiqat o'z tabiatiga ko'ra kishilarning his-tuyg'ulari va ehtirolari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy haqiqatga erishish his-tuyg'ularsiz mumkin emas. Kishilarning his-tuyg'ularisiz hech mahal haqiqatni qidirish bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas.

Ijtimoiy haqiqat ijtimoiy borliqning, undagi voqea va hodisalarning oddiy mexanik in'ikosi yoki to'g'ri ifodalanishi emas, balki ma'lum qadriyatlarining, mavjud voqelik va imkoniyatlarining ideallashtirilgan ma'naviy ifodasi hamdir. To'g'risi, ijtimoiy haqiqat ancha chuqur ma'nodagi ijtimoiy obyektivlikning ideal ma'naviylik bilan mos kelishidir. Shu sababli ijtimoiy haqiqatda tarixiy haqiqat, hayot haqiqati va badiiy haqiqatlar bir-biridan farq qiladi.

Ijtimoiy bilishda hayot haqiqati ham mavjud. Hayot haqiqati – bu ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum tarixiy bosqichida hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan, jamiyat tomonidan anglangan va e'tirof etilgan voqea va hodisalar haqidagi ularga mos keluvchi ijtimoiy bilimlardir. Biz hayot haqiqati deganimizda, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqea-hodisa vajarayonlarining, ular asli qanday holda yuz berayotgan bo'lsa, ulaming bizning bilishimiz

jarayonida va bilimlarimizda xuddi shunday o'z ifodasini topishini tushunamiz. Hayot haqiqati, odatda bizning ijtimoiy bilimlarimizdan tashqari, san'at va madaniyat asarlarida, moddiy va ma'naviy qadriyatlarda, huquqiy va axloqiy normalarda, ta'lim va tarbiya sohalarida o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan hayot haqiqati badiiy haqiqat bilan chambarchas bog'liqdir. Xo'sh, badiiy haqiqat nima?

Hayot haqiqatning san'at va madaniyat asarlarida san'at qonuniyatlari va mantiqi asosida aks ettirilishi natijasida ifodalangan qarashlar, g'oyalar badiiy haqiqat deyiladi. Bunda hayot haqiqati badiiy haqiqatni belgilaydi. Hayot haqiqati o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy in'ikos prinsiplari bilan bog'liq yuzaga kelsa, badiiy haqiqat ijtimoiy hayotning san'at va madaniyat asarlarida estetik aks ettirish xususiyatlari va san'atning voqelikni estetik in'ikos ettirish prinsiplari bilan bog'liq holda o'z ifodasini topadi. Shu sababli san'at asarining qiymati unda hayot haqiqatining badiiy haqiqatda qanchalik real, haqqoniy, to'g'ri badiiy ifodalanishi bilan belgilanadi. Xullas, tarixiy haqiqat, hayot haqiqati va badiiy haqiqatlar ijtimoiy haqiqatning turli tomonlari, turli qirralari bo'lib, ular o'zaro bog'liq va birbirini to'ldiradi. Ijtimoiy haqiqat, shu bilan birga, o'z ichiga aql va adolat talablariga mos keluvchi bilimlarni ham oladi.

Bu jihatdan ijtimoiy haqiqat bilimlarning, nazariy qarashlarning ijtimoiy hodisalar va voqealarga oddiy mos kelishi bo'lmay, balki "aqlga muvofiq" mos kelishidir.

Ijtimoiy bilish tarkibi, darajalari. Ijtimoiy bilishning tarkibi juda ko'p elementlardan tashkil topgan. Bu elementlarning eng muhimlari – uning subyeksi va obyektidir. Ijtimoiy bilish jarayoni ayni shu subyekt va obyektning o'zaro ta'siri va munosabatlari asosida yuzaga keladi.

Ijtimoiy bilishning subyeksi keng ma'noda kishilar, shaxslar, inson va insoniyat, ya'ni bir butun jamiyat a'zolaridir. Tor ma'noda esa jamiyatning ma'lum bir konkret bosqichidagi yashovchi aniq shaxs, kishilar, sotsial guruhlar, sinflar, ijtimoiy qatlamlar, partiyalar, xalqlar va miliatlar, ma'um jamoa va shu kabilardir.

Ijtimoiy bilishning obyeksi, keng ma'noda, bir butun jamiyat, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong, uning moddiy va ma'naviy hayoti, umumiy taraqqiyot qonunlari va asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridir. Tor ma'noda esa jamiyatning ma'lum bir konkret bosqichdagi ijtimoiy tizim, bazis va ustqurma, unga xos ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari, ularning tarkibi, rivojlanish va o'zgarish qonunlari, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar, sodir bo'ladigan konkret voqea va hodisalar ijtimoiy bilishning obyektini tashkil qiladi.

Jamiyat bir vaqtning o'zida ijtimoiy bilishning ham subyeksi, ham obyeksi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda jamiyatning o'z-o'zini bilishi sodir bo'ladi. Ijtimoiy bilishning rivojlanishi, avvalo, bilish obyeksi va subyeksi bo'lgan jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki ijtimoiy bilish tekshirilayotgan ijtimoiy obyektning, real jarayonning ijtimoiy ongdagi in'ikosidan iboratdir.

Shuni aytish kerakki, jamiyat hodisalari va voqealari o'z-o'zidan ijtimoiy bilishning obyekti bo'la olmaydi, balki ular kishilarning bilish faoliyati doirasiga kirgan chog' da ijtimoiy bilishning obyektiga aylanadilar. Buni subyekt to'g'risida ham aytish mumkin. Shaxs, ijtimoiy guruhlar, etnik birliklar, sinflar, ijtimoiy qatlamlar, xullas, jamiyat o'z-o'zicha ijtimoiy bilishning subyekti bo'la olmaydi. Binobarin, ma'lum shaxslar, guruhlar, sinf yoki millat o'z bilishini biror ijtimoiy voqea yoki hodisaga qaratgan paytdagina, ular ijtimoiy bilishning subyektini tashkil qiladi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular o'rtasidagi aloqadorlik har doim konkret tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy bilishda subyekt va obyekt birlikda, bir narsaning ikki tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Subyekt o'z faoliyatini o'zi tug'dirmaydi, balki obyekt-subyekt faoliyatini tug'diradi. Bundagi subyekt sifatidagi kishilar guruhi o'z faoliyatlarini o'zlaridan oldin bo'lgan avlodlar faoliyatlarining davomi sifatida yaratadilar, o'tmish avlodlar faoliyatlari bu o'rinda keyingi avlodlar faoliyatlari uchun yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy bilishning subyekti garchi bir butun jamiyat, katta yoki kichik ijtimoiy guruhlar va jamoalardan iborat bo'lsa ham, bunda odatdagi bilish jarayoni bevosita faqat real faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiy shaxslar, individlar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin bundan, alohida individ ham ijtimoiy bilishning subyekti bo'lar ekan, degan xulosaga kelmasiik kerak. Sababi, individ hamma vaqt faqat ma'lum obyektiv va subyektiv ijtimoiy

shart-sharoitlarda shakllanib borib, oqibatda, ma'lum ijtimoiy shaxs sifatida o'z manfaati bilan bir qatorda, doimo o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh, sinf yoki ma'lum miilat, xalq manfaatlarini ifodalaydi.

Ijtimoiy bilish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – uning subyekt va obyekt dialektikasidir. Ijtimoiy bilishning subyekt va obyektining o'zaro munosabatlarida ularning har ikkalasi ham faoldir: subyekt obyektga ega bo'lishi bilanoq o'z-o'zini yaratadi; obyekt esa tarixiy jihatdan ma'lum darajada subyektning konkret faoliyat shaklini oldindan belgilaydi. Shuni aytish kerakki, ijtimoiy bilishning subyekt va obyekt aloqadorligi, ularning bir-biriga bog'liqligi va o'zaro ta'siri tabiatni bilishga nisbatan ancha murakkabdir. Buning sababi shuki, ijtimoiy bilishning subyekt va obyekt bo'lgan jamiyatda doimo ma'lum maqsadga ega bo'lgan, muayyan darajada bilimli, ongli kishilar faoliyat ko'rsatadi, ularning faoliyatisiz bunda hech narsa bo'lmaydi. Jamiyatda sodir bo'lgan har bir ijtimoiy hodisa yoki voqea ma'lum ijtimoiy guruh yoki ijtimoiy jamoaning, ularni tashkil etgan kishilar ongli faoliyatlarining natijalari sifatida maydonga chiqadi. Bunda o'z tarixini yaratuvchi subyektning faoliyati bizda hech bir shubha tug'dirmaydi. Lekin obyektga kelganda, bir qarashda, u har qanday faollikdan mahrumga o'xshab tuyuladi. Bu narsa faqat yuzaki qarashda shiindaydir. Aslida, obyekt ham subyekt kabi faoldir. Umuman olganda, ijtimoiy bilish jarayonida subyekt va obyekt bir-biriga "begona" emas, bunda obyekt subyektga predmet faoliyati

sifatida berilgan bo' ladi va ayni vaqtda obyekt o 'zida subyektning nimasinidir ifodalaydi.

Ijtimoiy bilishda subyekt obyektни o' z manfaatlari, maqsadlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, o' ziga xos holatda in' ikos ettiradi. Bunda subyektning maqsadlari va manfaatlari, birinchi navbatda, ijtimoiy borliqning moddiy, obyektiv shart-sharoitlari subyektning ijtimoiy pozitsiyasi bilan mos holda uning ongida nazariy jihatdan qayta hosil qilingan bo' ladi. Bunda hamma narsa shu ijtimoiy bilishni amalga oshiradigan subyektga va uning e' tbori qaratilgan obyektga bog' liq bo' ladi. Ijtimoiy bilishda bilishning subyektini tashkil qilgan ijtimoiy kuchlar, guruhlar, o' zlarining subyektiv manfaatlariidan kelib chiqib, obyektни buzib aks ettirishi ham mumkin. Bunday holat, odatda, obyektning mohiyati va qonunlarini to' g 'ri in' ikos ettirish bu guruhlarining tub manfaatiga zid keladigan paytlarda ro' y beradi.

Ijtimoiy bilishda subyektivlik bilan obyektivlik bir-biriga mos kelishi lozim, zid kelishi esa ba' zan jamiyatda jiddiy xatolarga va buzilishlarga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy bilishdagi subyektivlik ayrim rahbar shaxslarning tafakkuridagi shaxsiy cheklanganliklar bilan bog' liq bo' lishi ham mumkin. Bunday hollarda subyektga xos subyektivlik faqat subyektning shaxsiy subyektiv tomonlaridangina kelib chiqmasdan, balki subyekt hayoti faoliyatining obyektiv shart-sharoitlaridan ham kelib chiqishi mumkin. Chunki, subyekt bu o' rinda obyektning aynan o' zi emas, balki uning boshqacha nisbatdagi olinishidir. Ijtimoiy bilishning subyekti va obyektі dialektikasi shundayki, bunda ulaming o' zaro ta' siri jarayonida obyektning o' zgarishi va

rivojlanishi subyektning ham o' zgarishi va rivojlanishiga olib keladi.

Ijtimoiy bilishda subyekt va obyekt kategoriyalarining metodologik roli shundaki, ular yordamida bizning tafakkurimiz ijtimoiy hodisalarni bir biridan ajratadi. Bu jihatlarning biri faol faoliyat ko' rsatuvchi subyekt bo'lsa, ikkinchisi – subyekt tomonidan bilinishi zarur bo'lgan jamiyat, uning moddiy yoki ma'naviy hayotiga oid hodisa yoki voqeadan iborat obyektidir.

Ijtimoiy bilishni, uning obyektidan kelib chiqqan holda siyosiy, iqtisodiy bilishlarga bo'lsa, uning subyektidan kelib chiqqan holda esa ma'lum ijtimoiy guruh, sinf, ijtimoiy-etnik birliklarning siyosiy, iqtisodiy, badiiy, falsafiy tafakkuriga ajratish mumkin.

Ijtimoiy bilish strukturasi empirik va nazariy bilimlar darajasi ham mavud. Nazariy darajada ijtimoiy hodisalarning mohiyati, qonuniyatlari o'rganiladi. Empirik darajada ijtimoiy tizim va hodisalarning tashqi tomonlari tasvirlanadi, xususiyatlari qayd qilinadi. Bu darajada zarur faktologik bilimlar (ma'lumotlar) olinadi. Olingan ma'lumotlar va bilimlarni umumlashtirish nazariy darajada sodir bo'ladi. Inson o'rganayotgan obyektni doimiy va u bo'ysunadigan qonuniyatlarni ochib olgach, ularning xususiyatlarini tushuntirishga, bilimlarni mantiq nuqtai nazardan asoslashga kirishadi, bilimlarni bir butun, yaxlit tizimga aylantiradi. Bunda predmet haqida hosil qilingan chuqur bilim, uning tizimi nazariyaga aylanadi. Ijtimoiy bilishda empirik va nazariy metodlarning birligi. Kuzatish ijtimoiy bilishning empirik bosqichidagi birinchi va zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu

aslida har qanday ilmiy bilishning muhim shartidir. Har bir ilmiy kuzatish noilmiy kuzatishdan qo' yilgan, muammo va vazifalarni hal etish bilan farqlanadi. Kuzatishning o' ziga xos tomonlaridan biri chetdan kuzatish usulidir. Bu usul tabiiy fanlarda ham qo' llaniladi.

Ijtimoiy bilishning salohiyati faktlarni haqiqiy ma' nosiga kirib borish, yakka va ayrim hodisani orqasidagi umumiylikni anglashi bilan belgilanadi. Inson faktlarni ma' lum tasavur, g' oya yoki ta' limot nuqtai nazardan turib tafsilotini beradi. Shunday bo' lsa-da faktlar ijtimoiy bilish, umuman ilmiy bilishning fundamentini tashkil qiladi.

Faktlarni izohlash va tushuntirish jarayonida gipoteza yoki dastlabki g' oya tasdiqlanadi, nazariya tug' iladi. Boshqacha bo' lishi ham mumkin. Yangi faktlarni mavjud nazariya asosida tushuntirib berish imkoniyati bo' lmasligi mumkin. Bunda mavjud nazariya o' z o' rnini yangi nazariyaga bo' shatib beradi.

Ijtimoiy bilishning falsafiy masalalaridan biri shunday bir savolda ifodalanadi: ijtimoiy hodisalarni bilishda hammaning ishonchini qozonadigan yoki, boshqacha qilib aytganda, obyektiv haqiqatning bo' lishi mumkin-mi? Ijtimoiy bilishda obyektning in' ikos qilish va unga baho berish birlashadi. Ijtimoiy bilish sohibi faktlarni, kuzatish jarayonida olgan ma' lumotlarni shundaygina qayd qilmaydi, balki ularni ma' lum g' oya yoki tasavvur nuqtai nazardan turib tahlil qiladi, umumlashtiradi, faktga yoki hodisaga baho beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy bilishning mohiyatini tushuntiring.
2. Tarixiy bilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntiring.
3. Tarixiylik tamoyilining ijtimoiy bilish jarayonidagi o' rni qanday?
4. Ijtimoiy haqiqat tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
5. Ijtimoiy bilishning subyekti va obykti deganda nimalarni tushunmoq kerak?

IJTIMOY BILISHNING HOZIRGI ZAMONGAXOS TALQINI

NATURALIZM

Tabiiy va tabiiy-texnik bilimlarning ahamiyatini bo'rttirish asosida gumanitar soha, ya'ni ijtimoiy bilimlarning keragi yo'qligini asoslaydi.

GUMANITARIZM

Ijtimoiy bilimlardan boshqa bilim sohalarini e'tiborga olmaydi; gumanitar ong va ijtimoiy bilimlarni mutlaqlashtirish g'oyasini ilgari suradi.

VIZUAL MATERIALLAR

IJTIMOY BILISH DARAJALARI

EMPERIK BILISH


151

Kuzatish

Statistik usul

Ijtimoiy

Hujjatlar bilan



7.1 Topshiriqlar mazmuni

Ma'ruza mashg'ulotida foydalaniladigan interfaol metodlar

Fikrlar Hujumi

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv - seminari yakunida (talabalarning o'quv-seminari xaqidaga fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talabalarni, dars jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Maqsad. Ushbu texnologiya talabalarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O'tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1- bosqich. Fuqarolik jamiyati tushunchasi. Uning ta'rifi. Islom Karimov asarlarida fuqarolik jamiyatini ko'rinishlarini o'qituvchi dars davomida avval xar bir talaba yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi xaqida talabalarga ma'lumot beradi; dars jarayonida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2- bosqich. har bir talabaga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi chizilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Har bir talaba yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU-ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan Holda to'latadi.

3- bosqich. Har bir talaba o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, o'qituvchi ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan Holda talabalarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi; o'qituvchi xar bir guruhga FSMU texnologiyasining: 4-bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi; o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4-bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich. Kichik guruhlarda avval xar bir talaba o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi; Guruh a'zolari FSMU ning 4-bosqichini xar biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar; Fikrlarni umumlashtirish vaqtida xar bir talaba o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-bosqich. Kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi. Iloji boricha izoh bermagan holda.

Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6-bosqich. O'qituvchi darsga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

quyidagi savollar bilan talabalarga murojaat qiladi:

ushbu texnologiya yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

ushbu texnologiyani qo'llanilishi talabalarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi talabalarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

ushbu treningda o'qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat.

IZOH: yuqorida keltirilgan savollar Har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener tomonidan talabalarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

FSMU TEXNOLOGIYASI


(F) Fikringizni bayon eting

(S) Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating

(M)- Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

(U) - Fikringizni umumlashtiring

6. “Sinkveyn “texnikasi



- 1-qator - tushuncha.
- 2-qator - tushunchani xarakterlovchi ikkita sifat.
- 3-qator – ushbu tushuncha funksiyalari to'g'risidagi uch fe'l.
- 4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi to'rt so'zli so'z birikmasi.
- 5-qator - ushbu tushuncha sinonimi.

7. BBB jadvali

<i>No</i>	<i>Mavzu savollari</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni istayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1	2	3	4	5
1.	Ijtimoiy ong darajalari va shakllari			
2.	O'zbekistinning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni va xalqaro tashkilotlarga a'zoligi			
3.	Insoniyatning yaqin kelajagi haqida ijtimoiy pragnozlari ko'rinishlari.			

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qafiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar laoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
10. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.
11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.
13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009
14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

8-Mavzu: Inson falsafasi

REJA:

1. Falsafiy antropologiya tushunchasi.
2. Insonning mohivati muammosi. Biologizatorlik yoki naturalistik yondashuv. Teologik yondashuv. Sotsiologizatorlik yondashuv. Sotsiokosmik yondashuv.
3. Antropogenez muammosi. Antropogenezning teologik konsepsiyasi. Insonning biologik evolyutsiyasi konsepsiyasi. Insonning kosmik evolyutsiyasi konsepsiya. Inson ongining kelib chiqishi.
4. Insonning ruhiy dunyosi. Insonning ma'naviy rivojlanishi. Odam

evolyutsiyasining keyingi istiqbollari. Insonning erkinligi va javobgarligi. Inson va bioetika muammolari. Evtanaziya: muammo va yechimlar.

Tayanch tushunchalar: Odam, kishi, inson, shaxs, antropologiya, antropogenezis, hayot va o'lim, bioetika, ong, ruh, jon, tana, erkinlik va mas'uliyat, fatalizm, determinizm, indeterminizm, gnoseologiya, jamiyat, qadriyat, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong, madaniyat, sivilizatsiya, ommaviy madaniyat, shaxs madaniyati, madaniyat turlari.

Insonni o'rganishga bag'ishlangan falsafa bo'limi antropologiya¹⁵ falsafasi deb ataladi. U inson bilan bog'liq ilmiy antropologiya yoki maxsus fanlar kompleksidan tubdan farq qiladi. Barcha fanlar insonning bir ma'lum tomonlarini o'rganadi. Masalan, psixologiya insonning ichki dunyosi, ongini o'rganadi. Tibbiyot kasallik sababalari va ularni davolashni o'rganadi. Nitrofiziologiya odam va hayvonning asab tizimi funksiyalarini o'rganadi. shunday qilib, insonni o'rganishga bag'ishlangan juda ko'p va har xil ilmiy fanlar mavjud bo'lib, ularidan farqli o'laroq falsafiy antropologiya falsafiy dunyoqarashlik ahamiyatiga ega bo'lgan holda insonning eng umumiy tomonlarini o'rganadi, ya'ni, keng qamrovli antropologik muammolarni tadqiq qiladi. Ma'umki, deyarlik barcha fanlar uzoq vaqt davomida insonning yashirin kuchlari yoki o'limidan keyingi hayot muammolarini o'rganish bilan jiddiy shug'ullangan emas edilar. Hozirgi kunda esa insonning bioijtimoiy mavjudot sifatida o'rganish masalalari bilan falsafa va tabiatshunoslik fanlari jiddiy shug'ullanmoqdalar. Demak, shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, antropologiyaga falsafiy yondashuv o'zining bir butunligi va tizimlilik bilan maxsus ilmiy yondoshuvlardan farq qiladi.

«Inson»¹⁶ so'zi eng ko'p tarqalgan kundalik va ilmiy tushunchalardan biri hisoblanadi. so'zning tagida qanday mazmun-mohiyat yashiringan? Ma'lumki, tirik mavjudotning ma'lum biologik turi bu «Homo Sapiens» - aqlli odamdir. Uning asosiy belgi va turlari qanday? U bo'yi o'rtacha- 160-180 sm bo'lgan, pastki ikki oyog'i bilan tik yuradigan, oziqlanish usuli aralash (hayvon va o'simlik bilan oziqlanish), ko'payish usuli - jinsiy, miyasi to'liq, yuqori qo'llari yaxshi harakatlanadigan, o'rtacha umr uzunligi - 65-85 yosh (XX asrda), ichki organlari,

¹⁵ **Антропология** (юнонча Anthropos “одам”-logos-“таълимот”) одамнинг келиб чиқиши, одамзот ирқларининг пайдо бўлиши, одамнинг тана тузилишидаги табиий тафовут, ўзгарувчанлик ҳақидаги фан.

¹⁶ **Инсон** [арабча-одам] 1. Одамзод, башар. 2. Ҳар бир якка шахс; одам

nutqi va aqli rivojlangan mavjudotdir. Ammo bu belgilar, uning tabiiy va ijtimoiy tirikchiligi bilan bog'liq tashqi ko'rinishi bo'lib, lekin uning mohiyatini tushunish imkoniyatini bermaydi.

Mohiyat nima? Keng ma'noda - bu faqat shu hodisa va predmetga xos bo'lgan eng muhim xususiyatdir. Ular bir-birini to'ldirib, predmetning ichki asosini tashkil qilib, uning o'zgarishi, o'zaro ta'siri, rivojlanishini belgilab beradi.

Mavjudlik nima? Bu hodisa va predmetning real borligi, real hayoti: u o'zini voqelikda qanday tutishi, namoyon qilishidir. Faylasuflar mohiyat hamma vaqt chuqur yashiringan, mavjudlik esa yuzaga joylashgan deb faraz qildilar. Ana shunda ulaming qarama qarshiligina namoyon bo'ladi. Biroq real predmet mohiyat va mavjudlikning birligidan iborat. Mohiyatni tushunish mavjudlikni o'rganish, tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy Falsafada inson to'g'risida juda ko'p qarashlar mavjud bo'lib, ulardan ba'zi bir eng ma'lum va xarakterlilarini umumlashtirilgan holda keltiramiz.

- Odam - koinotning qismi, kichik koinot (mikrokosm) – qadimgi hind, xitoy, yunon falsafasi.
- Odam - bu abadiy, mutloq ruh (Atman) - qadimgi hind falsafasi (yoga, vedanta).
- Odam - barcha narsaning o'lchovi - Qadimgi yunon sofistlari (**Protagor va boshq.**)
- Odam – siyosiy hayvon - **Aristotel.**
- Odam – qiyofa va xudoga o'xshash - o'rta nasroniylik teologiya.
- Odam – fikrlovchi mavjudot - **R.Dekart.**
- Odam - jonlantirilgan mashina – **L.Lametri.**
- Odam-ikki dunyoga tegishli mavjudot. Tabiiy zaruriyat dunyosiga va axloqiy erkinlik dunyosiga - **I.Kant.**
- Odam - tartibsizlik, ziddiyatlardan qo'rqish, aql va jahl urushi. - **B.Paskal.**
- Odam - aqllihayvon - **K.Linney.**
- Odam – qurol ishlab chiqaradigan hayvon - **B.Franklin.**
- Odam – tanlovchi mavjudot - **S.Krkegor.**

Ma'lumki, odamga yuqorida berilgan ta'riflarning ko'p qismi tor va bir tomonlama bo'lib, odam mohiyati tomonlarining bittasini ko'rsatadi, xolos. Umuman insonning mohiyatiga berilgan ta'riflarni to'rtta asosiy yondashuvga (boshqalari ham bor) ajratish mumkin. Bu yondashuv tarafdorlarining fikricha, insonning mohiyati - bu uning tabiiy asosi bo'lmish biologik jismlar va insonning tirikligini ta'minlovchi har xil organlarning xususiyatlardan iboratdir. Bunda insonning mohiyatni belgilovchi ijtimoiy va ma'naviy jihatlar qarab chiqilmasdan, faqat biologik jihatlar asos qilib olinadi. Bunday qarashlarni hind falsafasi charvak maktabining, yangi dunyo Yevropa faylasuflari J.Lamitri (mexanitsizm), T.Gobbe (mexanitsizm), L.Feerbax va boshqalarning izdoshlari yoqlab chiqdilar. Bu yerda insonning mohiyati «jon» masalasiga bog'lab tushuntiriladi. U biologik jism - tanaga qarama qarshi qo'yiladi va inson mohiyatining ijtimoiy jihatini bu yerda odatdagiday qarab chiqilmaydi. Inson ruh (ilohiy asos), jon (ilohiy asosning aks ettirilishi. odamning «men»ligi, uning ongi), jismi (tabiiy asos) uyg'unligi sifatida tushuniladi. Inson mohiyati ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida qaraladi. Inson mohiyatining ma'naviy jihatini ijtimoiy jihatga o'xshatiladi va insonning biologik tabiatiga bog'liqlik holda qo'yiladi. Inson ijtimoiy munosabatlarga qo'shilgan aqlli biologik mavjudot sifatida tushuniladi va inson mohiyatining shakllanishi, rivojlanishi butunlay ularga bog'liqlik bo'ladi, deb hisoblanadi. Bu uchta yondashuvda boshqalar zarariga, inson mohiyatining jihatlaridan biriga (biologik, ma'naviy yoki ijtimoiy) haddan tashqari e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. shunday ekan, qayd qilingan yondashuvlar bir tomonlamadir. Hozirgi kunda inson mohiyatining har xil jihatlarini birlashtiradigan, sotsiokosmik yondashuv eng qiziqarli bo'lib ko'rinmoqda. inson mohiyatining

uchta jihati – ma'naviy, ijtimoiy, biologik tomonlari bor deb taxmin qilinadi. Ma'naviy yoki kosmik jiliat insonning ma'naviy mohiyati bilan bog'liq. Ijtimoiy jihat madaniy ta'sir natijasida jamiyatda shakllangan inson shaxsiga bogliq. Biologik yoki moddiy jihat insonning biologik jismi va tabiiy (tug'ma, sezgi) intilishlariga bogliq. Sotsiokosmik yondashuvga binoan, inson biologik jismlar, shuningdek quyi va oliy energetik jism (qobiq)lardan iborat. Oliy energetik jism inson mohiyatining ma'naviy-kosmik jihatlaridan tashkil topib, o'lmas va bir moddiy shakldan boshqasiga ko'chib yuradi. Odamning oliy va olovli jismi uning kosmik individualligini tashkil qiladi. Ingichka va tig'iz jism dunyoviy shaxsning vaqtinchaligini ifodalaydi. Individuallik shaxs orqali izchil rivojlanadi, dunyoviy hayotdagi eng yaxshi ma'naviy yutuqlarni o'ziga singdiradi. Inson mohiyatini bunday tushunish ezoterik buddizm, teosofiya, tirik etika falsafiy tizimi uchun xosdir.

Antropogenez¹⁷ – bu odamning kelib chiqishi va insonning keyingi rivojlanishi. Hozirgacha bu muammo fanda, falsafada va dinida ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan. XIX va XX asrlarda ilmiy antropologiyasida odamning biologik evolyutsiyasi hukmronlik qilib, uning qaror topishiga ingliz naturalisti Ch.Darvin katta hissa qo'shgan. Ammo bu nazariya o'zining ko'pchilik kamchiliklariga ega. Masalan, hayot shaklining takomillashishi va murakkablashishida tasodifning roli, ongning rivojlanishida biologik omilning ko'paytirilishi va boshqalar hisobga olinmaganligi shular jumlasiga kiradi.

¹⁷ **Антропогенез**-антропологиянинг «одамнинг келиб чиқиши ҳақида» баҳс юритувчи қисми.

Hozirgi madaniy makonda mavjud bo'lgan odamzodning kelib chiqishi haqidagi har xil nazariyalarni uchta: teologik, biologik evolyutsiya va kosmik evolyutsiya konsepsiyalariga ajratish mumkin. Bu konsepsiya xudo tomonidan dunyo va odamning yaratilishi – **kreatsionizm**¹⁸ to'g'risidagi diniy ta'limotning bir qismidir. Xudo o'zining qudratiga binoan «o'ziga o'xshash» odamni yaratadi. Bu jarayon hech qanday evolyutsiyani ko'zda tutmaydi. Injilda aytilishicha: odamning jismi, «yer,tuproq»dan yasalgan bo'lib, xudo unga jon kiritgan. Shu tariqa, birinchi inson mavjudot erkak bo'lgan. Keyinroq xotin uning «qovurg'a»sidan yaratilgan. Boshda ular jannat bog'larida yashagan. «Yaxshi va yomonni bilish» sin deb, maium bir aybi uchun Xudo ularni yerdagi tabiiy hayotga tushirgan, odam urug'i shunday boshlangan degan fikrga asoslanadi.

Teologik konsepsiyada bunday olganda odamning kelib chiqish jarayonini konkret tushuntirish yo'q, uning yaratilishi to'g'risidagi «fakt»larni qayd qilish bor. Bu konsepsiyaning foydasiga xizmat qiluvchi jiddiy dalilliy asoslar ham noma'lum. Shuning uchun ham u ilmiy materializm tarafdorlari tomonidan, boshqa falsafiy ta'limot izdoshlari tomonidan ham qattiq tanqid qilinadi. Masalan, teosoflar odamning kelib chiqishini injilga tushuntirishni rad qilmaydi, lekin nasroniy cherkovlaridek uni to'la ma'noda qabul qilish mumkin emasligini tasdiqlaydilar. Belgilar bilan to'ldirilgan injil va boshqa muqaddas kitoblarni ekzoterik, germinativ kalitlarni egallamasdan turib, ularni tushunish mumkin emas. Bu tirik tabiat evolyutsion rivojlanishi to'g'risidagi - darvinizm nazariyasining oqibati hisoblanadi. Bu konsepsiya tarafdorlari hozir mavjud bo'lmagan, ibtidoiy davrda yashagan odamsimon maymundan kelib chiqqan deb faraz qiladilar. Odam va hayvonot dunyosining rivojlanishi, takomillashish tomoniga asta sekin o'zgarish jarayoni evolyutsiya demakdir. Biologik evolyutsiya jarayonida quyidagi omillar-genetik irsiyat, genetik o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu omillar mifologik va antropoid maymun,

¹⁸ **Kreatsionizm** (lot. Creatio-yaratilishdan)-kўpa organik олам (хаёт) инсоният, ер сайёраси. Шунингдек умуман оламнинг асосий шакллари тўғридан-тўғри яратувчи ёки Худо томонидан яратилган деб ҳисобланади диний ва фалсафий таълимотдир.

boshqa o'zgarish, jarayonlarni ijobiy oqim tomon yo'naltirdilar, oxir oqibatda yangi sifatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. To'g'ri yurishga, barmoqlarning o'zgarishiga, nutqning rivojlanishiga, bosh suyagi va miyaning kattalashishiga, aqlning paydo bo'lishi va hokazo.

XX asr boshlarida Darvin nazariyasi genetika va boshqa fanlar ma'lumotlari bilan to'ldirilib, evolyutsiyaning sintetik nazariyasi (STE) paydo bo'ldi. Kreatsionizm va teosofiya tarafdorlari darvinchilarni evolyutsiyaning ma'naviy omillariga e'tibor bermaslikda va tasodifiy biologik o'zgarishlarga olib kelishda tanqid qiladilar. Shu bilan birga teosofiya va Jonli Etika evolyutsiyaning rad qilmaydi, nafaqat biologik jihat va kosmikjihatlarini qarab chiqishga chaqiradi. Bu qandaydir ma'noda diniy kreatsionizm va biologik evolyutsionizmni yaratishga qaratilgan konsepsiyadir. U Jonli Etika falsafiy tizimi va teosofiya tarafdorlari tomonidan rivojlantiriladi. Bu konsepsiya izdoshlari quyosh tizimidagi planetalardan birining evolyutsion ichki ta'siri natijasida odam hayotning kosmik shaklidan kelib chiqib, yerda paydo bo'ladi deb hisoblaydilar. Yerda hayot evolyutsiyasi ikki yo'l – astral-psixik (nobiologik hayot) va oksil-nuklin (biologik hayot – birinchi tirik hujayradan murakkab ko'p xujayrali organizmgacha) bilan amalga oshiriladi. X (iks) nuqtasida (taxminan bir nechta million yildan necha o'n million yil oldin) bitta mavjudot hayot evolyutsiyasining ikki oqimi kesishishi sodir bo'ladi. U o'z biologik jismining antral (ruhni) to'ldirishiga erishadi. Kosmik evolyutsiya konsepsiyasiga binoan odamning kelib chiqishi va rivojlanishiga qanday asosiy omillar ta'sir qilgan? Bu kosmik yoki ma'naviy omil (kosmosning energetik ta'siri va oliy aqliy mavjudot). Bu biologik omil (naslchilik, o'zgaruvchanlik, tabiiy

tanlash). Bu ijtimoiymadaniy omil (ijtimoiy munosabatlar, mehnat, ta' lim, tajriba almashish). Deyarli yuz yil bu g' oyalar ilmiy dunyo tomonidan e' tiborsiz qoldi. Unga qiziqish faqat XX asr oxirlarida oshaboshladi. Inson axborot-energetik nazariyasining tarafdorlari, inson kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi kelajakda katta istiqbollarga ega deb faraz qiladilar. Odamning paydo bo' lishi muammosi bilan uning ongining kelib chiqishi muammosi bir-biri bilan chambarchas bog' liq. Yuqorida qayd qilingan antropogenez konsepsiyada uning qanday yechilganligini qarab chiqamiz. Inson ongi jonning alohida qobiliyati hisoblanadi. Jonni odamga xudo beradi. shunday qilib ong ham Xudoning tuhfasidir. Biroq, bu konsepsiya, qanday qilib xudo ongni (jon) yaratganligini aniq tushuntirib berolmaydi. Inson ongini yuqori darajada tashkil topgan materiya -odam miyasining mahsuli deb biladi. U odamning evolyutsiya jarayonida qo' lga kiritgan ruhiy dunyosining alohida qobiliyatidir. Bu tabiiy muhitda tabiiy tanlanish sharoitida yashab qolishga imkon beradigan qobiliyatdir. Darvinistlar fikriga ko' ra bu qobiliyat, biologik o' zgaruvchanlik va naslchilik, shuningdek ibtidoiy odam mavjudotning mehnat va ijtimoiy faoliyatining oqibatidir, yuqon darajadagi radiatsiya yoki boshqa sabablar natijasidagi biologik mutatsiya ongning rivojlanishiga turtki boigan boiishi mumkin. Boshqa organizmlardan ustunlik beruvchi yangi sifatlarning paydo bo' lishi, naslchilikning genetik mexanizmi tufayli tabiiy ravishda avlodlarda mustahkamlanib boradi. Teosofiya va Jonli Etikaga binoan, ong (aql) ruh-materiyaning alohida funksiyasi bo' lib, u shunday funksiya rivojlanishiga ega bo' lgan ob' yektlarning ishtirokida

rivojlanishi mumkin. Olovning boshqa olovdan yonishiday, ong (aql) ham boshqa ong (aql) ta' sirida rivojlanadi. Inson ongining paydo bo'lishi kosmik aqlning ta' siri bilan bog'liq bo'lib, kosmosning protoodam organizmiga ma'lum energetik ta' siri deb tushunish kerak. shunday qilib, organizm har xil gumhlariga bunday ta' siming jadalligi, «Yashirin Doktrina»ning guvohlik berishicha unchalik bir xil emas. Natijada, bir odam mavjudotning aqlliligi (ongning rivojlanishi), boshqa odam mavjudotnikiga nisbatan yuqori bo'ldi. Shuning uchun ham hozirgacha rivojlangan sivilizatsiyali odam (masalan yevropaliklar) va yovoyi (masalan Okeaniya orollari) orasida uzoq masofa bor. Insonning mhiy dunyosi faqat ong sohasi bilan chegaralanmaydi, balki, uning doirasidan uzoqqa tarqaladi. Inson ruhiyatining bu sohasi ong sohasi doirasidan tashqarida bo'lib, ongsizlik sohasi degan nom oldi. Sharqiy falsafiy va diniy ta'limotlarda bu sohaga katta e'tibor berildi. G'arb falsafasi an'analari to'g'risida bunday deb aytaolmaysiz.

Uzoq vaqt ongning har xil jihatlarini o'rganishga ustun darajada murojaat qilindi. XIX–XX asrlarda haqiqiy G'arb ongsiz dunyosi ochildi. XIX asrda postklassik falsafaning ko'p oqimlari (hayot falsafasi, teosofiya, intuitivizm va boshqa) an'anaviy ratsionalizmdan chekinadi. Falsafiy ta'limotlarda har xil ongsizlik kuchlari – iroda, tug'ma his tuyg'u, intuitsiya, sezgi, yashirin ma'naviy qobiliyatlar birinchi o'ringa chiqadi. XX asrda «psixozanaliz» deb atalgan falsafiy oqimda bu tendensiya rivojlanadi va eng avjiga chiqadi. Talantli avstriya psixologi va psixiatri Zigmund Frayd uning asoschisidir. Ongsizlik sohasini (tush, yanglishish, xato, unutuvchanlik, ixtiyorsiz harakat,

gipnoz (ta' siri) tadqiq qilib, ffayd shaxsning ruhiy struktura modelini ishlab chiqadi. Unda u uchta asosiy darajani ajratadi: ikkita ongsiz – quyi va yuqori – va bitta ongli.

- **Quyi darajadagi inson ruhiyati** «U» atamasi bilan ifodalanadi. Bu ongsizlikning quyi sohasi instiktlaming «qaynayotgan qozoni». Ulaming muhimlari - hayot instinkti (Eros) va o' lim instinkti (Tanatos) deb Freyd faraz qiladi. Hayot instinkti – avlodni saqlash va davom ettirishga urinish. U ongsiz seksual qiziqishni (libido) avjiga chiqaradi. o' lim instinkti – bu ongsiz tajovuzkor kuch bo' lib, avstriyalik psixiatr hayot instinkti keltirib chiqaradigan g' azablanishlami tenglashtirish deb qaraydi. «U» hayvonlar va ilk yoshdagi bolalar uchun xos bo' lgan lazzatlanish tamoyiliga amal qiladi.

- **Ikkinchi darajadagi inson mohiyati** «Men» (yego) tushunchasi bilan ifodalandi. Ongning bu sohasi – ongsizlikning katta qorong' i yer to' lasidagi kichkina alanga shami «Men» tashqi reallikning «iz»I sifatida shakllanadi, lekin shu bilan birga «U»ning qiziqish va instiktlari bilan bog' liq. Garchi Freyd reallik (istaklami qondishdan voz kechishga qobiliyati) tamoyillariga amal qilib, ongning ba' zi bir mustaqilligidan voz kechmadi, shunday qilib u «U», «Men»ning yashirin harakatlantiruvchisi deb faraz qildi. Ong buni hamma vaqtda ham anglamaydi.

- **Uchinchi darajadagi inson ruhiyati** «Mendan yuqori- Men» (Super-Yego) atamalari bilan ifodalanadi. Bu ongsizlikning oliy sohasi bo' lib, tarbiyaviy taqiqlar, ijtimoiy va axloqiy me' yorlar ta' sirida shakllanadi. «Yuqori-Men» odam axloqiy

tamoyillarining manbayi bo'lib, uning ongida, masalan, vijdon, burch, sharaf sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib inson ruhi oliy va quyi ongsiz kuchlarning doimiy kurash sahnasiga aylandi. Yoki, boshqacha aytganda ma'naviy tamoyillar va hayvon instinktlari o'rtasidagi kurashdir. Agar instinktlar yengsa, odam o'zining insoniylik qiyofasini yo'qotadi. Uning ongi quyi kuchlarga bo'ysinadi va ongsiz qiziqishlarni doimo amalga oshirishga intiladi. Agar ma'naviy tamoyillar yengsa, qiziqishlar va instinktlar chegaralanadi. Ong quyi ongsizlik ustidan g'alaba qozonadi va uning ichki turtkilarini nazorat qiladi. Odam ongsizlikning quyi sohasi ustidan ongning nazoratini kengaytirishga intilishi kerak quyi ongsizlik ustidan g'alaba qozonadi va uning ichki turtkilarini nazorat qiladi. Odam ongsizlikning quyi sohasi ustidan ongning nazoratini kengaytirishga intilishi kerak. Eng qadimgi davrdan boshlab Sharq falsafiy ta'limotlarida rivojlanishi va amalga oshishi mumkin bo'lgan odamda yashiringan ma'naviy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlar mavjudligi to'g'risida fikr yuritiladi. Asta sekin bunday kuchlarni egallashning maxsus uslubiyati ishlab chiqildi. Deyarli, ularning hammasi odamni ma'naviy shakllantiradigan qadimgi amaliy tizimi **Yoga** bilan to'g'ri yoki bilvosita bog'liq edilar. Yogik usullardan har xil diniy va ma'naviy-falsafiy ta'limotlarda (buddizm, induizm, daosizm, yangi platonchilik, nasroniylik, islom, teosofiya va boshq) foydalanildi. Fan uzoq vaqt odam organizmida nomalum kuchlar mavjudligi mumkinligini rad qildilar. Albatta, ortodoks olimlar odamning shunday qobiliyatlari: xotira, iroda, aql, sezgi organlari, jismoniy kuch

va boshqa zahiralari bo'lishi mumkin dedilar. Lekin, odam masalan shunday qobiliyatlarga: levitatsiya, telepatiya, telekinez kabilarga ega bo'lishini noilmiy deb hisobladilar. Ammo, sharq faylasuflari ta'sirining kuchayishi va ilmiy kuzatishlar natijalarining yig'ilishi natijasida olimlarning odam to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boshladi. XX asr boshlarida ko'p davlatlarda odamning yashirin kuchlari to'g'risidagi jiddiy tadqiqotlar olib borildi.

Qanday kuchlar va qobiliyalar to'g'risida gap ketayapti?

- Nojismoniy ko'rish va eshitish qobiliyati («oldindan bilish» va «oldindan eshitish»);
- Telepatiya (masofadan turib fikrlarni uzatish va qabul qilish);
- Levitatsiya (odam tomonidan yer tortilishini tugatish, muallaq holatga keltirish);
- Avtonom yashash ongning jismdan tashqariga chiqishi;
- Olimdan keyin odam ongining avtonom yashashi;
- Tabiiy jarayonlarga (yomg'ir, shamol, tabiiy hodisalar) inson ruhiy energiyasining ta'siri; «Ruhiy energiya va fikrlar kuchi yordamida davolash»;
- Fiziologik jarayonlarni irodaviy (fikriy) boshqarish;
- Ongning o'tmishga ruhiy nazarsolishi (o'tmishga mahliyo bo'lish qobiliyati va o'zi yoki boshqalarning yashashini eslash);
- Kelajakni qabul qilish qobiliyati;
- Tez hisoblash va o'qish qobiliyati;
- Noyob xotira;
- Fikrlarning biologik jarayonlarga ta'siri;

- Telekinez (jismoniy predmetlarga boshqacha ta' sir qilish, yoki aloqasiz ko' chirish qobiliyati).

XXI asr boshlarida fan odatiy qarashlar, qobiliyatlar doirasidan tashqari, odamning yuqorida ko' rsatilgan va boshqa noodatiy namoyon boMishi to' g' risida ko' p miqdorda omillar yig' adi. Ular «paranormal qobiliyat» degan nom oldilar. Ularni ilmiy-nazariy tushuntirish, hozirgi davrda odamning yangi ilmiy andozasi faol ishlab chiqilishi bilan asoslanadi. Uni odamning biomaydon tabiati konsepsiyasi yoki odamning axborot-energetika nazariyasi sifatida ifodalaydi. Bu konsepsiya (nazariya)ning bosh g' oyasi shundaki, odam shunday biologik jism emas, energetik va hujayra – nuklein jismlardan iborat murakkab biomaydon tizimidir. Noodatiy (paranormal) kuchlaming namoyon bo' lishi, odam ichki energiyasining o' rganilmagan harakatlar bilan tushuntiriladi.

XIX va XX asrlarda odamning yashirin kuchlarini o' rganishga, hozirgacha shunday falsafiy ta' limotlar: klassik yoga, buddizm, daosizm, teosofiya va Jonli Etika (Agni –Yoga) ta' sir qilib kelmoqda. Odamning o' limidan keyin unda nima kechadi? Uni o' ldi deb e' lon qilgandan keyin uning joni, aqli, ongi yoki ruhi yashaydimi? O' limdan keyin jon qayerga ketadi? Yerga yana qaytib kelib, tiriladimi? Hayot va o' limning siri bilan bog' liq bu va boshqa savollar insoniyatni hamma vaqt o' ylantirib kelgan va kelmoqda. Diniy taTimotlarga ko' ra o' lim bo' sag' asidan keyin odamning hayoti davom etadi, lekin, qanday va qanday turda ekanligi har xil tushuniladi. Falsafiy ta' limot har xil javob berdilar - o' limdan keyin hayotning to' la inkor qilinishidan, odamning ma' naviy hayotining reinkamatsiya (shaklning o' zgarishi

yoki ko' chib yurishi) sigacha fan uzoq vaqt ongni miya faoliyatining mahsuli deb hisobladilar. Shuning uchun ko' p olimlar jism va miyaning o' lishi bilan odamning ongi ham o' ladi, oTimdan keyin hech narsa yo' q – faqat yo' qliq podSholigi hukm suradi deb faraz qildilar. Umuman, o' limdan keyingi hayot muammolarining falsafiy yechimini uch guruhga bo' lish mumkin. Bu masalan, qadimgi Hindistondagi charvak maktabi, qadimgi Yunonistondagi epikurchilar; Qadimgi Rimdagi stoiklar; Golbax, Kondilyak, Lamitri; Germaniyada Feerbax, Marks, Engels; Rossiyada Chemi Shevskiy, Plexanov, Leninlar. Materializm tarafdorlari biologik jism o' lganidan keyin odamning hayoti to' xtaydi deb faraz qiladilar. Hcch qanday ruh, jon, ong, aql yashamaydi va yashayolmaydi. Masalan, bular: A.Blajinney, V.Velikiy, F.Akvinskiy, N.Kuzanskiy, V.Solovyov, N.Berdyaev va boshqa nasroniy faylasuflar: Aristotel, Dekart, Kant, Gegel va boshqa idcalistik falsafa vakillari. Bu mutafakkirlar odamning joni uning jismoniy jismi o' lgandan keyin abadiy ruhiy dunyoda yashashi mumkin deb hisoblaydilar. Masalan, mif germetizmi, Hind yogasi, vedantlar falsafasi, buddizm, pifagorchilar, platonchilar, islom ismoilitlari, teosofiya, Xram, Jonli Etika (Agni–yoga) ta' limoti. Bu ta limotlar izdoshlari, odamning (ruh) mhiy asosi abadiy yashashiga va izchil boshqa shakllarga o' tishiga ishonadi. Boshqa so' z bilan aytganda ular odam ruhiy mohiyatining bir jismdan boshqa jismga o' tishi reinkamatsiya nazariyasini tan oldilar. Ilmiy o' limdan keyingi hayot muammolarini jiddiy o' rganish XIX asr oxirida boshlandi va XX asrda faol rivojlandi. Tig iz moddiy va ingichka ruhiy dunyolar o' rtasida vositachi bo' ladigan

odamlar – mediumlar o'rganildi. Boshqa borliq sohasiga tegishli noma'lum kuchlar va mohiyatlar medium orqali namoyon bo'lishi aniqlandi. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan o'tgan odamning joniga o'xshash ingichka moddiy flyuidik fantomlar paydo bo'lishini rasmga va videorasmga olindi. Klinik o'lim holatini boshidan kechirgan odamlarning ko'rsatmalari tahlil qilindi. Sinalgan odamlar bir-birini tanimasa ham, har xil yoshda, jinsda, diniy e'tiqodda, millatda, o'limga har xil munosabatda bo'lsa ham, ularning ko'rsatmalarida hayron qolarli darajada ko'p o'xshash elementlar (unsurlar) borligi aniqlandi. Klinik o'lim davrida inson ongining o'chmasligi, boshqa tirik (odamiy–noodamiy) mavjudotlar bilan to'qnashuvi, boshqa reallikda yashashni davom ettirishi aniqlandi. Ongning ruhiy retrospeksiyasi – odamlarning o'z o'tmishidagi mavjudligini eslashi tadqiq qilindi va tekshirildi. shunday hodisalarning ma'lum foizi yuqori darajadagi ishonchlilik bilan farq qilib, mutaxassislar fikricha soxtalashtirilmagan, chunki ular joriy hayotida muddati va tajribasidan kelib chiqqan holda, bilishi va eslashi mumkin bo'lmagan holda bu odamlar o'tmishini batafsil gapirib bergan. Ba'zi bir olimlar jismoniy o'limdan keyin yangi bioiogik shakl (jism)da odam ruhining tirilishi mumkin degan Sharq falsafasining nuqtayi nazariga mayillik bildirdilar. Garchi, hozircha ilmiy dunyoda oiimdan keyingi hayot muammolari to'g'risida to'la yagona flkr mavjud emas. Ehtimol, boshqa – oiimdan keyingi borliq sirlarining yaqin kelajakda ochilishiga guvoh boiishimiz mumkin.

Ko'p diniy, falsafiy va ilmiy taiimotlarda «insonning ma'naviy rivojlanishi», «odamni ilohiylashtirish», «odamning

ma'naviy evolyutsiyasi» degan tushunchalar ishlatiladi. Hozirgi dunyoda «moddiylik», «texnokratizm», «tubanlik», «javobgarsizlik», «texnokratizm», «mekanizm», «hayotga iste'molchilik munosabatda bo'lish» kabi tushunchalarga qarshi «ma'naviyat» to'g'risida ko'p gapiriladi. «Ma'naviylik» va «insonni ilohiylashtirish» nima? G'oyalari ko'p G'arb diniy, falsafiy va ilmiy ta'limotlariga singgan, sharq falsafasining nazariy bazasi va amaliy yutuqlariga tayangan holda bu savollarga javob berishga harakat qilamiz. Ma'naviyat eng umumiy ma'noda ruhga yaqinlashish yoki qo'shish demakdir. Yuqorida biz o'rganganimizdek «ruh» tushunchasi yo tabiiy borliq (ma'naviy dunyolar)ning yuqori holatini yo aql (ma'naviy mavjudot) va hayotning takomillashgan holatini odatda simvolik ifodalaydi. Masalan, Agni-Yoga fanidan, ilohiylashtirishni, moddiy shakllarni har tomonlama shakllantirish, ularning potensial sifat va xususiyatlarining ochilishi, borliqning kosmik evolyutsiyasi zina-poyalaridan yanada ko'tarilayotgan harakati deb ta'kidlaydilar. Shunday qilib odamning ma'naviy rivojlanishi aqlli kosmik mavjudot sifatida uning mohiyatining har tomonlama rivojlanishidir. Ko'p diniy va falsafiy ta'limotlarning asoschilari bu jarayonning har xil xususiyatlariga diqqat qilsa ham, insonning ma'naviy rivojlanishiga ko'maklashishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydilar. Shu bilan birga bu ta'limotlar bir-biriga qarama qarshi qo'yilmasligi kerak. XX asr boshlarida har xil diniy va falsafiy konsepsiyalar g'oyalarini birlashtiradigan (sintez) yangi yo'nalish kuchaya bordi. U teosofiya va Jonli Etika axloqiy-falsafiy ta'limotlarida yorqin

namoyon bo' ldi. Ulaming izdoshlari odamning ma' naviy rivojlanish muammolarini birinchi marta ilmiy asosda ko rib chiqa boshladilar. Xususan, ular odamning ma' naviy rivojlanishi bilan uning kosmik evolyutsiyasi jarayonlari o' rtasida bevosita aloqa borligini ko' rsatishga urindilar. Biologik aqlli mavjudot sifatida odamning kelajagi masalasi falsafiy va ilmiy antropologiyaning muhim masalalari qatoriga kiradi. Lekin, hozirgi ilmiy nazariyalar bu muammoga kam e' tibor bermoqda. U bilan faylasuflar, futurologlar va fantastik yozuvchilar ko' p shug' ullandilar. Inson rivojlanishining istiqbollari to' g' risida qanday qarashlar mavjud? (nasroniylik, islom va boshq.) inson kelajakda o' zgarishi kerak. Lekin, shunday o' zgarishlar ilohiyotchilar tomonidan evolyutsiya sifatida qaralmaydi. Masalan, islom ilohiyolchilari taqvodor odam o' limidan keyin o' zgaradi, qandaydir ruhiy mavjudot sifatida jannatda abadiy yashaydi deb hisoblaydilar. Diniy taMimot faqat odamning axloqiy boshqa qiyofaga kirishi to' g' risida gapiradi. Uning jismiy (jismoniy jism o' miga – ruhiy jism) o' zgarishi to' g' risida odamda bilvosita gapiriladi.

Klassik ilmiy qarashlarga (darwinistlar, marksistlar, pozitivistlar va boshq.) binoan, kelajakda odamni axloqiy, aqliy, jismoniy ma' noda shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, bu guruhning ba' zi bir vakillarining fikricha, kam harakatli turmush tarzi sivilizatsiyasi ta' sirida, ojiz gavda, rivojlanmagan oyoqlari, katta boshi bilan odam kelajakda inqirozga uchraydi. Biroq, bu yerda odatda insonning sifat o' zgarishlan qarab chiqilmaydi. Aqlli odam – Homo-Sapiens bo' lgan va hozirgi yashab turgan odamdan farqi kam bo' lgan holda, kelajakda qaror topgan

biologik tur sifatida qolaveradi deb hisoblanadi. shunday qilib, bu yerda mavjudotning keyingi evolyutsiyasi mohiyatan rad qilinadi. Dunyo sivilizatsiyasi rivojining texnotron konsepsiyasi tarafdorlarining qarashlariga binoan, kelajakda uning organizmiga har xil texnik qurilmalarning tatbiq qilinishi natijasida odam takomillashishi mumkin. Bular: kompyuter chiplari va portlari, miniatyur yurak stimulyatorlari, gormonal regulyatorlar, sun'iy organ va suyaklar bo'lishi mumkin. Odamni bunday «takomillashtirish» natijasida u butunlay boshqa mavjudot – nafaqat tirik biologik materiyadan, yana boshqa uning tanasiga o'ralgan qurilma, sun'iy yaratilgan elementlardan iborat biokibernetik organizm bo'lishi mumkin. Tirik mavjudotning bu turini *Homo-techno Sapiens - aqlli texno-odam* deb atash mumkin. Bunday jarayonni odam tabiatining evolyutsiyasi deb aytish mumkinmi? Albatta yo'q. Bu yerda biz texnika evolyutsiyasiga ega bo'lib, odam organizmiga tatbiq qilinadi va o'ziga bo'ysindiradi. Ba'zi bir faylasuflarning fikricha, sivilizatsiyaning bunday rivojlanish yo'li odam uchun ma'naviy mavjudot sifatidajuda xavfli. Insonning keyingi evolyutsiyasi muammolariga eng radikal qarashlarini hayot va aqlni takomillashtiruvchi evolyutsion - kosmik yo'l tarafdorlari yo'qlaydilar. U falsafiy, ilmiy va ba'zi bir noodatiy diniy ta'limot (teosofiya, tirik etika, rus kosmizmi, mistik nasroniylik, sufizm, budizm, yoga va boshq.)larni o'z ichiga oladi. Bu yerda bosh g'oya shundaki, - odam doimiy kosmik jarayonga qo'shilgan. Mavjud odam turi (Homo Sapiens) evolyutsion tugagan va takomillashmagan. U o'zgarib, boshqacha qiyofada, ancha takomillashgan — aqlli hayot turlariga o'tishi muqarrar. Bunday o'zgarish va hayot ma'naviy turlarida nimalar nazarda tutiladi? Rus faylasufi Nikoloy Fyodorov texnika vaqtincha, sivilizatsiya rivojining qo'shimcha shoxi deb hisoblaydi. Odam kuchi boshqa tomonga - o'zini-o'zi yaxshilashga va

o'zgartirishga yo'naltirilishi kerak. Nasroniy kosmik Vladimir Solovyov hayvoniy mayillikni tugatish va ma'naviy takomillashish Isoday odamni «Xudoga teng» - o'zida insoniy va ilohiy tabiatni birlashtiradi deb faraz qiladi. Yana bir ms kosmisisti - Aleksandr Suxova-Kobelin odamzotning tobora ruhiylashining kuchayib borishi natijasida,uni zaif jismoniy tanadan xalos qiladi,uning o'miga *efirli organizm* paydo bo'ladi. Bu efirli organizm hech qanday texnik qurilmalarsiz odamzotning kosmik uchishlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi,degan g'oyani ilgari suradi.Rus kosmik - faylasuflar ta'limotida insonning ma'naviy - kosmik evolyutsiyasi to'g'risidagi qadimgi ezoterik g'oya namoyon bo'ladi, natijada biologik (hayvon) organizmiga muhtoj bo'lmagan holda aqlli odam hayvon kosmik mavjudotni ilohiylashtirishda qiyofasini o'zgartiradi. Plastik astral substansiyadan o'z mhiy energiya va yangi organizmni foydalanishi, odamga ekologik xavfli texnikadan voz kechish, jismoniy kasalliklardan qutilish, lashqi jismoniy va ichki (ruhiy) koinotni keng miqyosda o'zlashtirishni boshlash imkonini beradi deb faraz qilinadi. Nimaga u yashaydi, uning hayotining ma' nosi va maqsadi to' g' risidagi masalalar odamni hamma vaqt o' ylantirib keladi. Ba' zan, bu masalalami hal qilishga intilish ma' nosiz, hatto zararli deyiladi. Axir hayvonlar yashaydi, lekin o' z hayotining mazmuni to' g' risida o' ylamaydi. Lekin odam – hayvon emas. Uning mhi, aqli ma' nosiz yashayolmaydi. shunday vaqt keladiki, bunday hayot odam uchun chidayolmas darajada bo' ladi. Nimaga o' qish, ishlash, kurashish, azob kurish, takomillashish kerak? Ruhshunoslar shuni aniqladiki – hayot ma' nosi va maqsadini yo' qotsa odamni axloqiy, ruhiy va jismoniy turg' unlikka, hatto inqirozga olib kelar ekan.

Masalan, shu narsa ma' lumki fashistlar konslageridagi mahbuslar o' z hayot ma nosini izlashni yo' qotib, kasallik va ochlikdan tez halok bo' lganlar. Odam hayoti ma' nosi muammosining

ikki – sub’ yektiv va ob yektiv jihatlar bor. Hayotning sub’ yektiv ma’nosi nima? Bu ma’no konkret odamning o’zi, uning intilishlari va istaklari bilan bog’liq. Bu u hayotdan nimani istaydi. Masalan, seʼmivchi ona o’z hayoti ma’nosini bola tarbiyasida ko’radi. Ashaddiy kolleksioner – o’z kolleksiyalarini saqlash va kupaytirishda. Dindor odam – xudoga xizmat qilishda. Egoist – o’ziga o’zi xizmat qilishda. Ma’lumki, hayotning sub’ yektiv ma’nosi juda ko’p. Garchi ko’pchilik faylasuflar bitta umumiy hayot ma’nosi bor bo’lib, boshdan mavjud odamning bilish – bilmasligidan, istash – istamasligidan xoli deb faraz qildilar. U dunyo yaratuvchisi, kosmik borliq tomonidan oldin berilgan va hayotning ob’ yektiv ma’nosi hisoblanadi. Ma’lumki, falsafani eng oldin hayotning ob’ yektiv ma’nosi qiziqtiradi. Boshqa masalalardagi kabi bu yerda ham faylasuflarning fikri bir biridan farq qiladi. Garchi asosiy, keng tarqalgan javoblar kam. Faylasuf-maternalistlar hayot ma’nosini lazzat olishda (chorvak, epikurchilar) yoki jamiyatni va o’z mohiyatini takomillashtirishda (markizm) ko’rdilar. Faylasuf-idealistlar hayot mazmunini dunyodagi doimiy buzulishlardan, azob-uqubatlardan xalos bo’lish, oliy ruhiy dunyo va abadiylikka erishish (vedanta, yoga, buddizm), xudoni bilish va ilohiy dunyoda xudo bilan birga jonning abadiy hayotligiga erishish (nasroniylik, islom) deb xisoblaydilar.

Teosofiya va bilishning ezoterik an’analarga yaqin falsafiy oqimlar hayotning maqsad va ma’nosini, borliqni bilishda, mahaviy takomillashishda, oliy mahaviy mavjudotning o’zgarishida, oliy ruhiy dunyodagi hayotga va abadiylikka erishishda, koinotda

hayot evolyutsiyasiga xizmat qilishda ko'rdilar. Inson erkinligi muammosining ikki asosiy jihati bor – ijtimoiy va tabiiy. Insonning ijtimoiy erkinligi – ijtimoiy tuzilish – siyosiy, iqtisod, yuridik qonunlarga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, erkinlikning bu jihati insonning o'zi va insoniyat jamiyatiga bog'liq. Jamiyatning tarixiy takomillashishi, aniqrog' i tarixiy taraqqiyot – bu ijtimoiy erkinlikning rivojlanishiga, odamning boshqa odamlardan (quldorlar, zolim hukmdor, feodal, podSho, buijua va boshq.) jismoniy, feodal, yuridik, iqtisodiy qaramlikdan ozod bo'lish yo'li. Jamiyat qancha rivojlangan bo'lsa, qancha erkin bo'lsa, konkret odamning erkinliklari Shuncha ko'p bo'ladi. Bu yerda hammasi tushunarli. Lekin, erkinlikning boshqa jihati tabiiy erkinlik bo'yicha faylasuflarda bunday aniqlik yo'q.

“Erkinlikning tabiiy jihati” deganda nima nazarda tutiladi? Odam o'zining hayotida qanchalik tanlaydi va unga amal qiladi. Tanlash nimaga bog'liq? Bunday tanlovni odamning o'zi qiladimi yoki (birov) tomonidan belgilanadimi, yoki odamning o'zi tanlagandek tuyuladimi? Bir so'z bilan aytganda, odamning iroda erkinligi to'g'risida gap ketadi. Falsafada bu muammo bo'yicha o'ta va motadil fikrlar aytiladi. Maxsus falsafa tilida ular – taqdir, iroda erkinligining indeterminizmi, iroda erkinligini dialektik lushunish deb ataladi.

Fatalizm – bu falsafiy dunyo qarashning bir ko'rinishi bo'lib, unga binoan odamning harakati oldindan belgilangan bo'ladi. Boshqacha aytganda odam amalda hech qachon mustaqil tanlay olmaydi. Odamni harakatini oldindan kim belgilaydi? Ilohiyatchilar va ba'zi bir diniy faylasuflar bu xudo (islom ilohiyotchilari) deydi. Boshqa

faylasuflar tabiat shunday qurilganki, uning qonunlari odamga erkin tanlash (yunon atomchilari, yevropa mexinitsistlari va boshq.) imkonini bermaydi deb uylaydilar. shunday qilib, fatalistlarga binoan odam real tanlov qila olmaydi va real iroda erkinligiga ega emas. O' qilishi kerak bo'lgan, oldindan yozilgan qandaydir oliy (ilohiy yoki tabiiy) zaruriyatdir. Erkinlik va tanlash – bu hayolparastlikdir. Bunday holatda odamga axloqiy va huquqiy nonnalarni qo'llash be'manlilik va adolatsizlikdir. Axir agar u yomonlik (o'ldirish yoki o'g'irlik) qilsa bu uning erkin harakati emas, oldindan belgilangan harakat, unda konkret odam faqat taqdir qurolidir. Bunday nuqtayi nazar o'zining ko'p qarshilariga ega bo'lib, ular uning be'manliliгинi ko'rsatdilar. Haqiqatda ham, odamning tarixiy hayoti doimo shuni isbotladiki, eng qiyin sharoitlarda, o'lim va hayot orasida haqiqat yoki yolg'onni, erkinlik yoki qullikni, yaxshi yoki yomonni, uyasiz hayot yoki qahramonlarcha kurashni tanlashi mumkin. Ma'lumki, fatalistlar zaruriyat bilan bog'liq, iroda erkinligi muammolarining dialektik tomonlaridan birini kupaytirib yuboradi.

Iroda erkinligini indeterminizmi - bu falsafiy dunyoqarashning bir turi bo'lib, unga binoan odamning harakati odam istagidan boshqa sabab va omillar bilan bog'liq emas. Ular juda erkin bo'lib, hech qanday moddiy yoki ma'naviy ta'sir (I.G.Fixte, M.F. Men de Biron va boshq.) bilan belgilanmaydi. Ma'lumki, odamni real hayoti bu nuqtayi nazarni inkor qiladi, chunki amalda uning tanlovi ichki va tashqi xarakterga ega bo'lgan ko'p sabablar bilan bog'liq. Odam bor imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, bu sabablar bilan hisoblashishga va qaror

qabul qilishga majbur. Biz indeterministlarning iroda erkinligi muammolarining boshqa dialektik – odam irodasining mustaqilligini oshirib yuborilganligini tomonidan tomoni ko'ramiz. Ko'rib chiqilayotgan muammolarning eng muallaq falsafiy yechimini iroda erkinligi haqidagi dialektik konsepsiya beradi. Bu konsepsiyada odamning real iroda erkinligi tan olinadi, lekin Shu bilan birga, odamning tanlashi va harakati erkin amalga oshirilmaydi, ma'naviy va moddiy xarakterga ega bo'lgan ma'lum sabablar ta'sirida (buddizm, Kant, Gegel, marksizm, teosofiya) amalga oshishi ko'rsatilgan. Masalan, nemis faylasufi I.Kant ta'limotiga binoan, odam aqli mavjudot sifatida ikki dunyoga – aqlning transsendent dunyosiga va real tabiat (empirik) dunyosiga taalluqli. Ularning birinchisida odam juda erkin. Ikkinchisida tabiiy zaruriyatga bo'ysinadi. Bunday nuqtayi nazar sal farq bilan buddaviylar va yoqlaydi, ular faqat odamning yagona hayotini qarab chiqmasdan, uning izchil ko'p tug'ilishlari va o'lishlarini ham qarab chiqib, reinkamatsiya (boshqa qiyofaga kirish), odamning ma'naviy mohiyati nazaryasini tan oladilar. Odamning hayot sharoiti, uning ma'naviy – ruhiy holati, shunday qilib, tanlash erkinligi uning karmlari – o'tmish hayotidagi uning fikr va harakatlari, sabab va oqibatlari summasiga bog'liq. Biroq, odam o'zining kelajak karmasiga ta'sir qilish va o'zgartirish kuchiga ega, chunki uning iroda erkinligiga ko'p bog'liq. U bir nechta fanlar – tibbiyot, genetika, filosofiya, etika va huquqning shakllandi. Hozirgi bioetikaning dolzarb inson teosoflar tutashishi natijasida muammolari qatoriga quyidagilar: abortlar, evtanaziya, hayotni cho'zish, klonlashtirish, organlarni

ko' chirish, surragat onachilik, gen muhandisligi, jinsni almashtirish va boshqalar kiradi. Bu muammolar, ulami yechishga yo' naltirilgan yangi texnologiyalar nafaqat tibbiy va biologik, balki axloqiy, falsafiy va huquqiy masalalami keltirib chiqarmoqda. shulardan ba' zilarini ko' rib chiqamiz. *Diniy ta'limot homiladorlikni snn'iy to'xtatish* - abortni hamma vaqtda qoralaydi. Ammo fan va tibbiy texnologiyalar rivojlanishi bilan, abort eng kundalik, ommaviy jarrohlikka aylandi. Butun dunyoda unday jarrohlikning soni yiliga o' n millionga etdi. Faqat Rossiyada yiliga ikki yarim im million aborl qilinadi. Ko' p mutaxassislar bu odam mavjudotning ommaviy oidirilishi deb baholaydilar. Axir, xotin tomonidan ko' iarib yurilgan homila, bir nechta haftadan keyin urug'lanishdan boshlab, biologik tugallangan organizmga aylanadi, tashqaridagi ovozni sezadi.

Evtanaziya: muammo va yechimlar. shunga o'xshash *evtanaziya* (kasalni oiimini tezlashtirish) muammolarini echishda kompleks yondoshuvini qo'lash kerak. Uning mohiyati shundaki, davosi yo'q kasal odam ixtiyoriy oiish huquqiga egami? Agar shunday bo'isa kim va qanday sharoitda hayotdan ketishiga yordam berishi kerak? Hozirgacha bu muammo ilmiy dunyoda va jamoatchilik orasida keng munozara qilinmoqda. Shu bilan birga maiumi, shifokor sog'ayib ketishiga umid yo'q odamni azobdan qutqazish, qachon u insonparvar bo'isa shu yagona vaqtda kasalga hayotdan ketish huquqini amalga oshirishga yordam berishi mumkin. Shunda ham bunday qaromi - bemor (agar u ongida bo'isa), uning qarindoshlari bilan, shifokorlar konsiliumi, huquqshunoslar yoki ijtimoiy himoya xizmati vakillari bilan jamoaviy qabul qilinishi kerak. Bunday jamoaviy qaror, shifokorlar yoki qarindoshlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar va o'zboshimchaliklar ehtimolini kamaytiradi.

Shuning uchun ham xalq bilan muloqot qilishning ilmiy-amaliy ahamiyati haqida **Sh.M. Mirziyoev: «Hammamizni tarbiyalagan, voyaga etkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shunday xalqimiz bizdan rozi bo'ladi Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi»¹⁹**:> - degan edi.

Ma'ruza mashg'ulotida foydalaniladigan yangi interfaol usullar.

Aqliy Hujum metodi

Aqliy Hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi. O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Nazorat uchun savollar

1. Inson mohiyati muammosi.
2. Antropogenez va ongning kelib chiqishi.
3. Inson va sivilizatsiyaning keying istiqbollari.
4. Inson hayoti ma'nosi muamolari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва обод демократик жамиятимизни барчамиз, биргаликда барпо этамиз.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд., -Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.-Б-151.

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2 Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

11. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

13. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

14. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

9-Mavzu: Ijtimoiy falsafada erkinlik va ma'suliyat masalasi

REJA:

1. Jamiyat va shaxs, ularning uzviy birligi va aloqadorligi.
2. Jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy qarashlar
3. Shaxsning erkinligi va mas'uliyati
4. Erkin fuqarolik jamiyati va shaxs.

Erkinlik butun ijtimoiy tarix davomida insoniyat va inson shaxsi hayotining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki erkinlik ijodiy, yaratuvchi, faol, o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo'lib, uning tabiati bilan bog'liqdir. Inson hayoti g'oyat murakkab aloqadorliklar orqali kechishi, munosabatlari g'oyat xilma-xil sohalarda namoyon bo'lishi tufayli uning erkinligi ham ko'p qirrali. dastavval, buni so'z erkinligi, shaxsning tanlov erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi va hokazolarda ko'rish mumkin. Erkinlik nima, degan savolga berilgan javoblar ichida, dastavval, uni voqelik –olam rivojlanishining zaruriy jihatlari bilan bog'lash ko'zga tashlanadi. darhaqiqat, zaruriyatning o'zi nima? zaruriyat deganda uni taqdir taqozosi (diniy qarashlar), voqelik rivojlanishining pirovard natijada qonuniy, zaruriy holda yuz berib, o'ziga yo'l topib olishi (materialistik, deterministik qarashlar), ma'naviy rivojlanish ifodasi, (turli ruhshunoslik va subyektiv yo'nalishdagi qarashlar) kabi tarzlarda talqin etiladi. bu qarashlarda, albatta, muammoning muayyan jihatlari o'z ifodasini topgan. lekin shuni alohida aytish kerakki, masala antinomiya (qonundagi ziddiyatlilik) ko'rinishida qo'yilmasligi lozim. balki masala erkinlik va zaruriyat birligida, ular nisbatining eng umumiy jihatlari aniqlash tarzida olinishi mumkin. bu esa aniq tarixiy yondashuvni taqozo etadi.

Kishilar kundalik hayotlarida turlicha ko'rinishlardagi zaruriyatga duch kelib turadi. ular o'z faoliyatlarining obyektiv sharoitlarini tanlab olishda o'z bilganlaricha ish ko'ra olmaydilar. balki ayni shu sharoitlar talablaridan kelib chiqib harakat qiladilar. shu bilan birga, zaruriyat qonunlarining amal qilishi avtomatik tarzda har bir aniq olingan hodisada ro'y bermay, balki xiyla katta hodisalar doirasida, ularning o'zgarishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi. kishilar zaruriyat ketidan shunchaki ergashib yurmaydilar, zaruriyat qonunlari talablariga yo turli darajada moslashadilar, yo imkoni bo'lgan hollarning barchasida bu

talablarga qarshi turadilar. ana shu o'rinda kishilar erkinligining ifodalanishi uchun dastlabki sharoitlar yaratiladi. natijada har bir kishi u yoki bu qarorni qabul qilishi, o'z harakatlarini amalga oshirishi mumkin. bunda, *birinchidan*, insonning erkinligi nafaqat tashqi omillar bilan, balki uning ichki intilishlari, qadriyatlar tizimi va mo'ljallari bilan ham bog'liq. *Ikkinchidan*, shaxs o'ziga ko'rsatilayotgan har qanday ta'sirga fikran turlicha javob bera oladi. shunga ko'ra, bitta sabab bilan qator oqibatlarni yuzaga keltirsa bo'ladi. Shaxsning maqsadga muvofiq faoliyati jarayonida uning erkinligi turli bosqichlarni - erkinlikni subyektiv anglab olishdan tortib, to uni obyektiv amalga oshirishgacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tadi. Chunonchi, shaxs o'z faoliyati natijasini oldindan belgilab olish imkoniyatiga ham ega. Chunki har qanday aniq vaziyatda ham bir nechta imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Aks holda, ya'ni, oqilona muqobilik yetishmay turganda ham shaxs o'z erkinligi doirasida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan o'zini chetga oladi. shaxsning tanlov erkinligini, insoniyat dunyosida tutgan o'rnini jonli tabiatdagi obyektiv saralanish bilan qiyos etish mumkin. biroq bular o'rtasida ma'lum farqlanishlar ham bor. tabiiy saralanish bu - obyektiv jarayon. insonning tanlov erkinligi esa amaliy xususiyatlar ifodasi bo'lib ham subyektiv, ham obyektiv tabiatga ega. tanlov istagan joyida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rganilishi, o'zlashtirilishi va ijodiy takomillashtirilishi mumkin. Inson shaxsining bu jihati faqat individual tabiatga ega bo'lmay, balki keng ijtimoiy mazmunga ham ega. ya'ni, shaxslargina emas, balki katta yoki kichik el-elatlar, millatlar va xalqlar ham taqdirlariga tegishli hollarning barchasida ijtimoiy tanlov erkinligiga egadir. lekin

bular shaxs va ijtimoiy kuchlar sof subyektivligining natijasi emas, balki pirovardida obyektiv taqozolanganligi oqibatidir.

Shaxs erkinligi individual sezgi, subyektiv erkinlik sifatida tanlov qilishdan boshlansa-da, insonning tabiatan faolligi tufayli yuqoriroq bosqichlarda - maqsadga erishish uchun tanlangan vositalarni ishlatib, muayyan xatti-harakatlar qilishda (obyektiv erkinlikda) nihoyasiga yetadi. Erkinlikning subyektiv va obyektiv ifodalanishlarida undagi ichki va tashqi tomonlarning xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi va muhim farqlarni payqash qiyin emas. Shaxs erkinligining ichki tomoni belgilovchi va tuzilishiga ko'ra ancha murakkab bo'lib, asosiy unsurlar sifatida maqsad va vositalarni tanlash, amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaziyatlarni bilishni, bu bilingan, o'zlashtirilgan tashqi zaruriyatni ichki e'tiqod bilan muvofiqlashtirib olish va, nihoyat, o'zligini to'la namoyon etish kabilarni o'z ichiga oladi. bular alohida olinganda ham, birgalikda olinganida va nisbiy mustaqil tarzda ham mavjud.

XX asr yevropa mutafakkirlaridan *M.Xaydegger*, *K.Yaspers* va *J.P.Sartr* inson ichki erkinligi masalasida muhim ta'limotlarni ilgari surganlar. haqiqiy erkin tanlov - bu individning ichki ehtiyojiga muvofiq qilingan tanlovki, uning ichki e'tiqodi, samimiyligi, sofdilligi bilan bog'liqdir. Tashqi erkinlik - bu, dastavval, mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs o'rni va ahamiyatining ifodalanishi, uning ichki erkinligining hissiy-buyumlashgan tarzda namoyon bo'lishidir. bunda oxir-oqibatda shaxs bilan sotsium manfaatlarining uyg'unligi masalasi alohida

ahamiyatga ega. Shaxs va u mansub bo'lgan tuzilma - jamiyat manfaatlari muammosi, shaxs erkinligi masalasi borasida bir-birini istisno qiladigan ikki xil qarashlar mavjud. Ulardan birida inson shaxsi manfaatlarini rivojlanishning belgilovchi omili hisoblanib, mutlaqlashtiriladi. Ikkinchisi esa, aksincha, insonga shunchaki bir unsur sifatida qarab, uning manfaatini ijtimoiy manfaatlar oldida ahamiyatsiz qilib qo'yadi. Tashqaridan qaraganda bu nuqtayi nazarlar bir-biriga qarama-qarshi turadi. Amalda esa ularning har ikkalasida ham manfaatlar nisbati to'g'risida gap boradi.

Shaxs mohiyatining ko'pgina muhim qirralari, uning tabiatidagi qator jihatlari, imkoniyati, bajarishi lozim bo'lgan vazifalari va hokazolar qadimgi davrlardan boshlab insoniyatning butun tarixi davomida kishilar hayoti jamiyat tarzida qanday tashkil qilinganiga, siyosiy hokimiyatning o'rniga hamda amaldagi huquqiy tizimlar qay tarzda mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs jamiyatning demokratiyaviylik darajasiga bog'liq holda shakllanadi. Demokratiyaning ilk ko'rinishlari sivilizatsiya tongidayoq qaror topgan bo'lib, insoniyatning buyuk qadriyati hisoblanadi. Biroq insoniyat rivojlanishining butun bosqichlarida demokratiya yo sahnadan ancha vaqtda tushib ketib, yo qisqa vaqtda tiklanib, mutafakkirlarning o'y-fikrlari markazida inson bilan inson, inson bilan jamiyat uyg'unligini ta'minlaydigan ijtimoiy muhit shakllarini topishga urinish yotadi. Sharq uyg'unlash davrida Forobiy va boshqalar antik davrning demokratiyaga doir qarashlarini rivojlantirib, ancha ilgarilab ketgan edilar. Movarounnahrda jamiyatni, kishilar

hayotini tashkil etish va boshqarishning o'z davri uchun tipik jihatlari dastlab xorazmshohlar, keyinroq amir temur davrida rivoj topdi. bularda (masalan, «temur tuzuklari»da) jamiyat va shaxsning siyosiy huquqiy maqomlari aks etgan edi.

Shaxs erkinliklari, uning davlat oldidagi burch va majburiyatlari demokratiyaviy konstitutsiyalarda qonunlashtirilgan bo' ladi. unda, birinchi navbatda, xalqning xohish-irodasi erkin ifodalanishi, shu xalqning hokimiyat manbasi ekanligi o' z aksini topadi. shuning uchun ham xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi lozim.

Konstitutsiyada shaxsning vijdon erkinligi, so' z erkinligi, mulkiy daxlsizligi va hokazo huquqlari aks etgan bo' lib, ularda inson borlig' ining asosiy shartlari qamrab olinadi. davlat iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat sohalarida o' z manfaatlari talablariga ko' ra qanday qonun-qoidani ishlab chiqib kuchga kiritmasin, bu mamlakat asosiy qonuniga, shaxsning unda belgilab qo' yilgan maqomiga zid kelmasligi kerak. har qanday demokratik davlatda shaxs maqomi faollikni nazarda tutadi. O' zining faolligi tufayli shaxs mavjud siyosiy institutlar yordamida jamiyatga muntazam ta' sir ko' rsata oladi. bunda taqiqlanmagan barcha harakatlarga yo' l qo' yiladi. shaxsning jamiyatga ko' rsatadigan ta' siri parlament demokratiyasi yo' li bilan olib borilganda maqsadga muvofiqdir. Bular quyidagilarda ko' rinadi:

Birinchisi - shaxsning «to' g' ridan to' g' ri» demokratiyaviy institutlar faoliyatidagi ishtirokidir. davlat hokimiyati o' tkazadigan yalpi saylovlarda ovoz berishi va hokazolar shaxs fikr-o' yining barometri hisoblanadi. Ko'pchilikning fikri davlat

miqyosida qabul qilinadigan qarorga asos bo' ladi. Lekin bundan ozchilikning fikri noto' g' ri, degan ma' no kelib chiqmasligi lozim. O' zining shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo' lish insonning ajralmas huquqidir. buni ta' minlash natijasidagina shaxsning ehtirosi junbushga kelgan olomonning to' la ta' sirida bo' lishdan saqlanish va demokratiyaning oxlokratiya ko' rinishiga o' tishining oldini olish mumkin. ***Ikkinchisi*** - inson shaxsining xalqaro bayonotlar himoyasida bo' lgan va mamlakat asosiy qonunida mustahkamlab qo' yilgan hech kim tomonidan o' zgartirilishi mumkin bo' lmagani asosiy huquqlaridir.

Uchinchisi - shaxsning o' z huquqi ma' lum qismini o' zi saylagan vakiliga, masalan, xalq deputatiga berish bilan «to' g' ridan to' g' ri» demokratiya usullarini muayyan nisbatda olinishidir. bunda ular birbirini muayyan darajada cheklaydilar ham. shundagina shaxsning siyosiy maqomini ta' minlash mumkin bo' ladi. Shaxs maqomi muayyan demokratiya madaniyati doirasida ta' minlanadi. bunda xalq vakillarining ham saylovchi shaxslardan begonalashib, ajralib qolmaslik choralarini nazarda tutish lozim. masalan, yalpi saylovlarda buning oldini olish uchun ularni o' tkazish tartibi shunday belgilanishi kerakki, natijada shaxsning ichki mustaqilligi, uning individualligi namoyon bo' lsin. shuningdek, saylovchilar topshirig' i, deputatlarning ularga hisob berib turishi, ularning chaqirib olish huquqi va hokazolar vositasida hokimiyatning manbayi bo' lgan xalqning, binobarin, har bir shaxsning manfaati ta' minlanadi²⁰.

²⁰ Sh.Azizov. Shaxs va Jamiyat. (Ijtimoiyot asoslari). Darslik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.: 2010. B-55-61

Jamiyat va shaxs munosabatlari falsafa tarixida turlicha taxlil qilingan. Aslida jamiyat va shaxs munosabatlari odam va olam munosabatlarining bevosita davomi. Jamiyat va shaxs orasidagi munosabat murakkab xarakterga ega bo'lib, bu jarayon jamiyatning insonga va insonning jamiyatga ta'siri tarzida namoyon bo'ladi.

Hozirgi davr nafaqat jamiyatning insonga, ayni vaqtda insonning ham jamiyatga ta'sir ko'rsata olishini inobatga olishni taqozo qilmoqda. Fan va texnika yutuqlari insonlar turmush tarzining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib borayotgan hozirgi zamon sivilizasiyasi sharoitida yakka inson, alohida shaxs hatto insoniyat taqdirida buyuk burilishi yasashi yoki o'ta xavf solishi mumkinligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Ana shunday sharoitda jamiyat va shaxs orasidagi munosabatlar muammosining ilmiy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning insonga ta'siri, avvalo uning shaxs bo'lib shakllanish jarayonida aks etadi.

Jamiyat shaxsning shakllanishi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning shaxsga ta'siri: a) megamuhit; b) makromuxit; v) mikromuhit darajasida amalga oshadi.²¹

Megamuxit insoniyat dunyosi, davr muhitining insonga ta'siri.

Makromuxit inson hayot kechirayotgan jamiyat, mamlakat.

Mikromuxit insonni o'rab olgan, unga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muxit (oila, mehnat jamoasi).

Shaxsning jamiyatga ta'siri har bir tarixiy davrdagi ijtimoiy muhitda turlicha kechadi. Uning jamiyatga bevosita ta'siri mikromuhitda namoyon bo'ladi. Makro va megamuhitga ta'siri u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh, millatning aniq bir tarixiy davrdagi egallagan mavqyeiga muvofiq keladi. Shaxsning jamiyatga ta'siri, uning hayotga munosabatdagi faolligi darajasiga bog'liq. Shaxslarning muayyan tarixiy davrdagi faoliyatlari, jamiyatda tutgan o'rinlariga ko'ra: a) oddiy; b) talantli; v) buyuk; g) geniy turlarini ko'rsatish mumkin. Oddiy shaxsning jamiyatga ta'siri asosan tor doirada – mikromuxitda bevosita seziladi. Buyuk shaxslar, tarixiy zotlar,

²¹ С.Э.Крапивенский. Социальная философия – Москва, 1998, стр. 285-286.

daholar o'z faoliyati bilan jamiyatga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi, uning xayotida chuqur iz qoldirishi mumkin.

Geniyl²² shaxs qobiliyati va faoliyatining betakrorligida namoyon bo'ladi. Geniy ijodi va faoliyati o'ziga xosligi bilan, insoniyat jamiyati taraqqiyoti uchun alohida tarixiy ahamiyati bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy fikr sohasida buyuk shaxs tushunchasi qo'llanadi. Shaxsning buyukligi o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh, elat yoki xalqning fikr-o'yini ifodalab, ularning asosiy maqsad-muddaolarini tarixiy jarayonlarning obyektiv mantiqiy talabalariga mos amalga oshirishda hal qiluvchi ishlarni bajara olishidadir. Bunday shaxsning faoliyatida o'z xalqini baxtli-saodatli qilish, o'zligini ro'yobga chiqarish, milliy va davlat mustaqilligini himoya qilish, xullas insoniyat yalpi ilgarilama harakatiga ko'mak berish belgilovchi o'rin egallaydi. Bunday holatda shaxs tarixning subyekti darajasiga ko'tariladi.

Umuman olganda, ijtimoiy taraqqiyotga yoki tanazzulga tarixiy shaxslar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadilar.

Shuni esda tutish lozimki, shaxs tipi ijtimoiy munosabatlarining real tizimining in'ikosidir. Shaxsni hyech qachon jamiyatdan, jamiyatni shaxsdan ajratib bo'lmaydi. Jamiyat shaxssiz yashay olmagindek, shaxs jamiyatdan tashqarida faoliyat ko'rsata olmaydi. Jamiyatning shaxsga ta'siri masalasini yuqorida ko'rib o'tdik. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar shaxsni qanday qilib shakllantirgan bo'lsa, o'z navbatida shaxs ham jamiyatni shunday tarzda barpo etadi. Bundan shaxsda u yashayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat, u mansub bo'lgan sinf, tabaqa, millat yoki elatning o'ziga xos xususiyatlari aks etadi, degan xulosaga kelishi mumkin. Har bir jamiyatda o'ziga xos shaxs tipi mavjud bo'ladi. Turlicha jamiyat, turli ijtimoiy muhitda shakllangan shaxs o'zining ijtimoiy xislat, fazilatlari bilan boshqalardan tubdan farq qiladi.

Ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyat munosabatlarining tarixiy tiplari masalasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra sanoatlashgan jamiyatga qadar, sanoatlashgan (industrial) jamiyat va postindustrial jamiyatlariga xos

²² Гений лотинча genius сўзидан олинган ва даҳо маъносини ифодалайди.

munosabatlarning: a) shaxsiy qaramlik; b) shaxs mustaqilligi; v) erkin shaxsdan iborat uch tipi ko'rsatilgan.

Erkin, mustaqil shaxs postindustrial jamiyatga o'tish jarayonida shakllana boshladi. Bunday jamiyatda bilim, axborot, kasbiy mahorat ustuvor hisoblanadi, xizmat ko'rsatish sohalari jadal rivojlana boshlaydi. Qudratli moddiy-texnik baza, taraqqiy etgan ishlab chiqaruvchi kuchlari bo'lgan bunday jamiyatda shaxs taraqqiyotining moddiy va ma'naviy omillari yetilgan bo'ladi. Ochiq, erkin jamiyat erkin shaxsning shakllanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Shaxs faqat ochik, erkin jamiyatdagina erkin bo'la olishi mumkin. Shuning uchun ham mustaqillikka erishgan, demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat va jamiyatda inson eng oliy qadriyatga aylanadi.

Shaxs va jamiyat orasidagi munosabatlarni dinamik jarayon sifatida o'rganish va bunda ham jamiyatdagi, ham inson shaxsidagi o'zgarishlarni inobatga olish lozim bo'ladi.

Jamiyat uzluksiz harakatda, o'zgarishda bo'lgani singari, shaxs ham doimo harakatda, o'zgarishda bo'ladi va bu holat shaxsning takomillashuvidan iborat dinamik tizimni ifodalaydi. Faylasuf olim Anvar Choriyev shaxsning shakllanishi va takomillashuvi uch asosiy bosqichni:

- vujudga kelish, shakllanish;
- ulg'ayib borish;
- takomillashishni o'z ichiga qarmab oladi, deb hisoblaydi.²³

Jamiyat va shaxs orasidagi aloqadorlikka ijtimoiy-tarixiy nuqtai-nazardan yondoshmoq lozim. Bu narsa, bir tomondan, shaxsning jamiyatga ta'siri turli davrlarda o'ziga xos namoyon bo'lishini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, jamiyat turli davrlarda shaxs oldiga turli vazifalarni qo'yadi. Shunga ko'ra, Sharq madaniyatida donolik, botirlik, kamtarlik odillik qadrlangan; qadimiy Yunonistonda aqliy barkamollikka erishish yuksak baholangan; sanoatlashgan jamiyatda tadbirkorlik, tashabbuskorlik qadrlangan.

²³ Анвар Чориев. Инсон фалсафаси. II. Мустақил шахс. – Т., 2002 йил, 105-бет.

Jamiyat va shaxslar orasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar taxlili shundan dalolat beradiki, jamiyatning sivilizatsiyali taraqqiyoti shaxs rolining tobora o'sib boruviga olib keladi. Bu hol shaxs erkinligi bilan ma'suliyatini dolzarb masalaga aylantiradi. Shu munosabat bilan erkinlikning o'zi nima? Erkin shaxs qanday shaxs? kabi savollarga javob topish lozim bo'ladi. Avvalo, erkin shaxs deganda mustaqil shaxs nazarda tutiladi. Mustaqil shaxs mustaqil fikrlash, ishlash, yashash malakasiga ega bo'lgan individ.²⁴

Shaxs mustaqilligini ta'minlovchi eng muxim kafolatlaridan biri – insondagi erkinlik va ma'suliyat tuyg'ularining uyg'unlashganidir. Erkinlik muammosiga faylasuflar o'z munosabatlarini bildirganlar. Rus faylasufi N.Berdyayevning fikricha, erkinlik tufayli inson tanlash, saralash imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin faqat tanlashning o'zigina erkinlikni ta'minlab bera olmaydi. Xaqiqiy erkinlik ijodkorlikni taqozo etadi. Inson erkinligini ijodkorlikdan, bunyodkorlikdan ajratish mumkin emas.

Deterministik konsepsiya tarafdorlari erkinlik insonning obyektiv zaruriyatni anglab olish qobiliyati, deb tushunadilar. Erkinlik tanlash uchun imkoniyat mavjud bo'lgan joyda vujudga keladi. Erkinlik insonning o'z maqsadlariga erishishining muxim omili, uning uchun berilgan imkoniyatdir.

Erkinlik, shaxs erkinligi volyuntarizm va fatalizm falsafiy yo'nalishlarining bosh masalasidir. Fatalizm lotincha fatalis – taqdirga oid, degan ma'noni anglatadi. Pifagorchilar, Demokrit, Nisshe fatalizm namoyondalari xisoblanadilar. Fatalizm Kalom falsafasining eng muxim aqidalaridan biridir. Fatalizm xar bir xodisa va insonning barcha xatti-harakatlari taqdiri – azalga, qismatga bog'liq, deb hisoblaydi. Fatalizm inson xech narsani o'zgartira olmaydi, barcha narsa, xodisa, jarayonlar mazmuni, yo'nalishi, okibatlari oldindan belgilangan, degan g'oyani ilgari suradi va bu bilan insonni xech qanday faoliyat ko'rsatmaslikka, passivlikka, qismatga buysunishga da'vat etadi.

Volyuntarizm lotincha voluntas – iroda, degan ma'noni ifodalaydi. Bu falsafiy qarash shaxs irodasini tirlamchi deb e'tirof etadi hamda tarixiy jarayonlar

²⁴ Ўша асар. 43-бет.

alohida shaxslarning subyektiv hoxishlariga asosan amalga oshadi, degan g'oyaga asoslanadi. Volyuntarizmning mazmun-mohiyati XIX asr nemis faylasufi A.Shopengauerning iroda falsafasida o'z ifodasini topgan.

Mustaqil shaxsga xos asosiy xususiyat erkinlikdir. Erkinlik tushunchasining ma'nosi kishining o'z istagi bo'yicha ish tutishdir. Erkinlik jamiyat xayotining turli sohalari bilan bevosita bog'liq. Shunga ko'ra erkinlik deganda: a) iqtisodiy; b) siyosiy; v) ma'naviy erkinlik nazarda tutiladi. Iqtisodiy erkinlik, bu avvalo majbur qilishdan ozodlikdir. Ayni vaqtda iqtisodiy erkinlik inson tomonidan ijtimoiy mexnatning turini tanlab olishda, mulkka munosabatda va qayerda faoliyat ko'rsatishni tanlab olishda namoyon bo'ladi. Bunda shaxs xam o'z intilishlari, xam real jamiyatning real imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Siyosiy erkinlik xayot kechirish uchun zarur xuquq va erkinliklarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Taraqqiy etgan jamiyatda davlat insonning xaq-xuquqlarini kafolatlaydi. Saylash – saylanish xuquqi, adolatli davlat tizimi, xalqning davlat ahamiyatiga molik masalalarni xal qilishdagi hal qiluvchi ishtiroki, ya'ni demokratik xuquq va erkinliklardan foydalanish siyosiy erkinlik tushunchasida ifodalanadi.

Ma'naviy erkinlik deganda, avvalo, vijdon erkinligi, jamiyat ma'naviy xayotida ishtirok etish, ma'naviy boyliklardan baxramand bo'lish, ijodning u yoki bu turi bilan shug'ullanish, so'z erkinligi kabilar nazarda tutiladi.

Erkinlik ma'suliyat, javobgarlik bilan bevosita bog'liq. Erkinlik va ma'suliyat inson faoliyatining o'zaro uzviy bog'liq ikki tomonini tashkil etadi. Ma'suliyat avvalo, javobgarlik ma'nosini ifodalaydi. Ma'suliyat – ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishi, muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilish bo'yicha shaxsning jamiyat a'zolari oldidagi javobgarligi. Erkinlik kabi ma'suliyat xam xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Siyosiy, xuquqiy, axloqiy ma'suliyat, shaxs ma'suliyati, jamoa mas'uliyati va x.k. shular jumlasidandir.

Ma'suliyat jamiyat, ijtimoiy gurux tomonidan shaxsga qo'yiladigan talablar asosida shakllanadi. Bu talablarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi uning xatti-harakatlari, faoliyatida namoyon bo'ladi. Shaxsning shakllanishida ma'suliyat

xissini tarbiyalash muxim o'rin tutadi. Ma'suliyat shaxsning jamiyat manfaatlarini qay darajada chuqur anglay olishini nazarda tutadi. Erkin shaxs avvalo jamiyat manfaatlarini anglagan, jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini chuqur xis eta oladigan inson. Jamiyat xayoti va taraqqiyoti inson faoliyatining maxsuli va ko'rinishi ekan, inson qanchalik ma'suliyatni chukur xis eta olsa, shunchalik u ongli faoliyat ko'rsata oladi.

Shaxs erkinligi ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

Falsafiy ta'limotda shaxs murakkab tushunchalardan biridir. Shaxsni ijtimoiylashuvi ijtimoiy hayotda vujudga keladi. Zero, shaxs va jamiyat uyg'un holda rivojlanadi. Chunki shaxs muayyan jamiyatning alohida olingan ajralmagan bo'lagidir. Bu ikkala tushunchaga yagona bir organizm sifatida qaralishi o'rinalidir. Insonga shaxs sifatida qaraydigan bo'lsak, uning bu holatini dastavval jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari ifodalaydi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy — iqtisodiy, ma'naviy va madaniy muhitning ta'sirida kechadi. Bu jarayenning birinchi bosqichi oiladir. Oilada go'dakning dunyoga kelgan kunidan boshlab, ahlokiy va ongli faoliyatiga asos solinadi. Zero, yangi tug'ilgan chakalokning shaxs sifatida shakllanishining birinchi «g'ishti» oilada quyilar ekan, bu shaxs kamolotining juda ko'p va murakkab obyektiv va subyektiv omillari ichida muximlaridan, xattoki xal qiluvchi jihatlaridan biri hisoblanadi. Lvvalo dunyoga yangidan kelgan go'dak sog'lom bo'lishi, buning uchun uning onasining ham sog'lom bo'lishi va ruxiyatini tetik bo'lishiga ko'p narsa bog'liq. O'zbek xalqining alloma olimi buyuk mutaffakir Abu —Ali ibn Sino shu munosabat bilan o'zining «Tib qonunlari» nomli asarida «chaqaloqning ona kornida rivojlanishi va tug'ilgandan keyingi davrlarda shaxs sifatida shakllanishi ona ruhiyatiga bog'liq» degan edi.

Inson bolasining shaxs sifatida kamolotga yetishishi, uning dunyoga keltiruvchi ota va onalarning ruxan va jismonan tetik bo'lishi, ayniksa ma'naviyati boy bo'lishi muhimdir.

Shaxs va jamiyat, davlatni boshkaruv masalalari Sharq va G'arb mutafakkirlari hamda davlat arboblarning asarlari va fikrlarida o'z ifodasini topdi.

Bu sohaga ulkan hissa ko'shgan faylasuflardan Sakrat, Platon, Aristotel, I.Kant. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abulkosim Firdavsiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Abdullox Rudakiy, Yusuf Xamodaniy, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodlarida muayyan bu masalalarga nisbatan mux,im fikrlar bildirilgan.

Abu Ali Ibn Sino shaxs kamoloti ya'ni ijtimoiylashuvi xaqida fikr yuritar ekan, u shunday degan: "inson shaxsi «dunyoviy aql» va «dunyoviy ruh» bilan ko'shilganda, olamni bilish borasida, kamolatga yetishishdagi muvaffaqiyatga erishadi."⁴ Sharq mutafakkirlari inson mohiyatini tahlilida uning biruhiy va ijtimoiy mavjudotligiga e'tibor berganlar. Xuddi shunday holatni biz Abu Rayxon Beruniyda xam kuzatishimiz mumkin. Olimning fikricha, insonning aqliy qobiliyatlari: fikrlash, muxokama qilish, o'ylab topish, xotira olamni yanada tinikroq tasavvur etish uchun insonga berilgan «Tangrim tuxfasi»dir. Ahliy qobiliyatlar tufayli inson tashqi muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning birini ikkinchisiga tanishtiradi, tahlil qiladi, rostini yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni nohakdikdan ajratadi, Bu bilan olim shaxsmi ijtimoiylashuvi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri murakkab jarayon ekanligiga e'tibor qaratadi.

Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» nomli asarida shaxs kamolotiga, ijtimoiylashuviga alohida urg'u beradi va u orqali shaxs va jamiyat munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi omillarni ko'rsatadi. «Har bir inson, deydi — Forobiy, — O'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga extiyoj tug'iladi».⁵

Bu bilan olim yolgiz insonning o'zi jamoasiz o'z oldiga qo'ygan maqsadllriga yetisha olmasligi va shaxsning ijtimoiylashuvi va kamolotga yetishishi jamiyatsiz bo'lmasligini uqtiradi. O'z fikrini davom ettirib Forobiy shunday deb yozadi: «Shu sababli yashash uchun zarur bo'lg'an kishilarni bir — biriga yetkazib beruvchi va uzaro yordamlashuvi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin»⁶

Insonni shaxs sifatida shakllanishini kishilarning birlashuvi shaxs va jamiyat munosabatlarini yo'lga qo'yishda deb biladi. Albatta bu fikrni kuvvatlagan xolda ta'limotlarini shaxs kamolotining boshqa omillari borligini ya'ni shaxs dunyoda knday o'rinni belgilashi, avvalo o'z taqdirini egasi bo'la olishi bilan belgilanadi.⁷ Bunda shaxs erkinligi masalasi muxim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning doimiy faolligi, o'z —o'zini rivojlantirishning muxim sifati bu erkinlik hisoblanadi. Ammo erkinlik yashab turgan jamiyatdan ozod holda bo'lmaydi. Erkinlik va mas'uliyat oldidagi mas'uliyatni o'zining ijtimoiy burchi hisoblab faoliyatida erkinlikning namoyon bo'lishi va davom etishi deb qarashi lozim. Ijtimoiy faollik esa, shaxsiy shakllanishning muhim omilidir. Shaxs o'z talab va zaruriyatlari asosida olamni o'zgartadi va jamiyatda o'z o'rnini topadi, bu holat shaxsning ongi va yaratuvchanlik faoliyatidir.

Inson hayoti murakkab aloqadorliklar va harakatlar hamda xilma — xil munosabatlarda namoyon bo'lrishi tufayli uning erkinligi ham ko'p qirralidir. Bu erkinliklarning ruyobga chiqishi zaruriyat orqali amalga oshadi. Shaxs va jamiyat munosabatlarining o'rnatilishida yoki ayrim kishilar kundalik qalblarida turlichs ko'rinishdagi zaruriyatga duch keladilar. Shaxsning muayyak zaruriyatlarga munosabati avvalo obyektiv voqyealik va tartib asosida kechsa, ikkinchi tomondan uning ichki dunyosi, intilishiga qarab amalga oshadi. Natijada shaxsning maqsadga muvofiq faoliyati vujudga keladi. Hozirgi falsafiy ta'limotda shaxsni qanday maqsadga intilayotganiga qarab, uning ijtimoiylashuvi darajasi belgilanmoqda.

Shaxsni ijtimoiylashuvi natijasida uning subyektiv «Men»i ham shakllanadi. Shaxsning «Men»i u yashab o'tgan ijtimoiy muxit (ota — bobolar, oila, mahalla, yaqin aloqada bo'lgan kishilar va b.) asosida shakllanadi. Bu jarayon shaxsning «Men»i shakllanishiga ijobiy (ko'pincha) yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. bunda insonning ikki mohiyatidan kelib chiqadigan doimo bir —biri bilan yonma — yon mavjud bo'lib turadigan ma'naviy psixik holatini aslo e'tibordan soqib qilib bo'lmaydi. Shaxsni «Men»ni shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy muhit va umuman komil inson tarbiyasidagi ijobiy omillarni farqiga yetish zarur bo'ladi. Ya'ni bular poklik yoki nopoklik, sahiylik yoki ochko'zlik, mehr — shafqatlilik

yoki toshbag'irlik, insofililik yoki noinsofililik, vijdonlik yoki vijdotsizlik, ezgulik yoki yovuzlik kabi psixik holatlar kiradi. Muayyan ijtimoiy muxitda shakllangan subyektiv «Men»dagi bu holatlar bir —biriga o'tib turadi.

Inson subyektining «Men»i to'g'risidagi fikrlarni voqyealikka muvofiq, kelishi va kelmasligi masalasini nazardan qochirmaslik lozim. Agar inson «Men»ning shakllanishida yuqorida fikr etilgan salbiy xirlarga erk berib yuborilsa, odam insonilik sifatlaridan qadam — baqadam mahrum bo'lib boradi. Bu nojois xirslarnirshg yovuz ruhi qaror topib qilmasligi uchun odam ongi, qalbi doimo izchil ravishda ezgulik xissidagi oziq olib turishi lozim.

Shaxs va uning «Men»i shakllanishida yuqoridagi omillardan tashqari bilim va g'oyalar muhim o'rin egallaydi. Har qanday jamiyat madaniyatida inson shaxsning yetuklik darajasiga e'tibor qaratilgan masalan, Sharq madaniyatida aqliy barkamollikka erishish shaxs hisoblanib, sanoatlashgan jamiyatning rivojida tadbirkor inson shaxsning asosiy ideali hisoblanib kelgan. MDH davlatlari shakllangandan buyon shaxs idealiga bunday k,arash eskirib, aqliy barkamollik bilan tadbirkorlikning uyg'unligi hozirgi zamon shaxs ideali hisoblanadi.

Shaxs ijtimoiylashuvida maqsad tomon intilyash turli e'tikod va karashlarda namoyon bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda ijobiy harakterga ega bo'lib, inson xatti — xarakatlari, ehtiyojlari, maqsadlari, bilimlari va orzu — umidldrini o'z ichiga olishda namoyon bo'ladi.

Bu darajaga yetishish uchun inson juda ko'p murakkab bosqichlaridan o'tishi zarur bilimlarga, hayotiy tajribalarga ega bo'lishi, o'zi yashayotgan va mehnat qilayotgan jamoa, muxit va muayyan jamiyatning talab va ehtiyojlarini o'zida aks ettirgandagina shaxs sifatida shakllana boradi. Shaxsni shakllanishi — ijtimoiylashuvi deb ataladi.

Shaxs tushunchasini «individ» tushunchasidan farqlash lozim. Falsafada insonga nisbatan «individ» emas «individuallik» ishlatiladi. Bu muayyan insonning aloqadaligi va betakrorligidir. Inson individ shaklda tug'ilar ekan, u shaxsga aylanish uchun o'zining barcha ichki imkoniyatlarini, individualligini namoyon g'qilishi kerak bo'ladi. Individuallik xaqida turli darajada gapirish

mumkin. Masalan, bioximik, neyrofiziologik, psixologik va xokazo. Lekin bu individuallik shaxs tushunchasini to'liq aks ettirmaydi. Shaxs esa ong va o'z — o'zini anglash paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi,

«Individ» va «Individualizm» bir — biriga yaqin atamalar bo'lsa ham xar birini o'ziga xos mazmun va mohiyati bor. Agar individ deganda mustaqil yashaydigan tirik vujud, shaxsni tushunilsa, "mndnvidualizmni kelib chiqishi falsafa qomusiy lug'atida to'kri yozilishicha, uning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar shaxsni jamoaga qarama — qarshi ko'yishni ifodalovchi tamoyil sifatida xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan.⁸

Falsafa qabul qilingan individ tushunchasi uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Uning shakllanish davrining boshlanishi ibtidoiy jamoa bosqichiga tug'ri keladi. Uning jismoniy mavjudligi, individ sifatida mustaqilligi o'zi mansub bo'lgan urug' jamoasi doirasida bo'ladi. Ma'lumki, urug' jamoasining yemirilishi bilan asta — sekin ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilik, bir xotinlikka asoslangan oilaning qaror topishi o'rta davr uchun xos bo'lgan individdan yuksak bo'lgan yangi bosqich kelib chiqishini ta'minlagan. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida falsafada "individ" emas "individuallik" atamasi ishlatilgan.

Darxaqiqat, insondagi individuallik, boshqacha qilib aytganda, alohidalik yo'qolib ketmaydi, aksincha unda bu xususiyatlar obyektiv ravishda inson xususiyatlarini ifodalovchi bo'lib davom etaveradi. Insondagi individuallik, uning hayoti, faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladigan o'ziga xos sifatlaridir. Individuallik alohida olingan insonning aniq xatti — harakati, malakasi, layoqati, odat va ko'nikmalarni ifodalaydi.

Jamyatda moddiy ishlab chikarishni amalga oshirish, jarayonida kishilarning siyosiy, ma'naviy — madaniy ishlarda ishtirok etish fan va san'at sohalarida noyob ishlarni ijod va kashfiyot kilishadi, imkoniyatini yaratadi, umuman olganda ko'plab burchlarning bajarilishida ana shu individuallik namoyon bo'ladi. Ya'ni bunday ijobiylik hukm suradi. Individuallikda insonning ichki va tashqi betakror xususiyatlari shakllanganligi uchun boshqalardan farq qilib turadi.

Individualizm atamasini Sharq va G'arb mutafakkirlari o'zlariga xos va mos mazmunda fikr bildirib kelganlar. G'arb olimlari individualizmga lotincha *tsuklshp* — bo'linmas, ya'ni inson shaxsiy xayotining alohidaligi sifatida qaraganlar, Sharqda esa, arabchadagi yakka, yolgiz ma'nosida ishlatilib, uning mazmuni keng qamrovli ekanligiga e'tibor qaratilgan.

O'rta asr oxirlaridan boshlab individ jamoadagi o'z o'rnini topgan shaxsga nisbatan ishlatilgan, individuallikni shaxsdan farqi individning betakrorligi, alohidaligi va o'ziga xosligidir.

Individuallikdagi keng qamrovli mazmunning kasb etilishi muayyan jamiyatdagi ijtimoiy — iqtisodiy, madaniy — ahloqiy zaruriyatlar oldinga suradigan talab va ehtiyojlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, IX— XV asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan mutafakkirlar falsafa, fan, din va san'atda shunday yangi fikrlarni aytishga muvaffaq bo'ldilarki, ular nafaqat o'z davrlari uchun, balki keyingi davrlar uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonining tarixiga nazar tashlasak, shu narsa ayon bo'ladiki, antik davrning oxirlarida individuallikning shaxs deb ataganlar, inchinun u faqat tabiiy organizm emas, balki insoniy, ijtimoiy mavjudot sifatida qabul qilingan. Shundan e'tiboran shaxs atamasi va unga taallukdi narsalar shaxsiylik ma'nosida ishlatilish odat tusiga kira boshlagan.

Xozirgi zamon falsafa va ijtimoiy — gumanitar fanlarda shaxs tushunchasiga bir necha yangicha talqin berilgan. Ya'ni, shaxs deb o'zining ijtimoiy — iqtisodiy tuzum sharoitlariga bog'lik bo'lgan, o'z taqdirini egasi bo'la olgan, individual holatida: intellektual, emosional va irodaviy sifatlariga ega bo'lgan odamga aytiladi.

Tarixdan turli diniy falsafiy tizimlar shaxsga o'zlaricha yondoshganlar. Agar antik davr falsafasida shaxsga nisbatan asosan munosabatlar deb qaralgan bo'lsa, xristianlik ta'limotida shaxsning maxsus mohiyati bu «Individual substansiya» aqliy xususiyat, nomoddiy ruhning sinonimi deb tushunilgan.

Yangi davr falsafasida fransuz faylasufi R. Dekartdan boshlab shaxs haqida dualistik g'oya shakllanishiga yo'l ochdi. Bunda birinchi o'ringa o'z — o'zini

anglash «Men» tushunchasi bilan birlashtirib yuborildi. Nemis faylasufi I.Kant fikricha, shaxs o'z —uzini anglashi orkali shakllanadi, bu xolat uning xayvonlar olamidani farqlab, o'zining «Men»ini ahloqiy qoidalarga bo'ysindirish imkoniyatini beradi. Ingliz faylasufi Dj.Lokk esa shaxsni «aqliy fikrlovchi» mavjudot, ⁱ deb tushungan.

Yuqorida zikr qilingan atoqli faylasuf olimlarning shaxs xaqidagi ta'riflarga qo'shilgan holda shaxsning ijtimoiylashuvi, bizningcha, o'z —o'zini anglash va aqliy fikrlash hamda muayyan tuzumda faol qatnashish, buning uchun o'z intellektual, emosional va irodaviy sifatlarini to'lik; namoyon qilish va nihoyat shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarining o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Tarixiy taraqqiyot natijasida faqat shaxsning shakllanishi mavjud ijtimoiy tuzumni o'zgarishi bilan chegaralanmaydi., balki shaxs bilan jamiyat munosabatlari ham o'zgarib, rivojlanib boradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng shaxsning har tomonlama, yaxlit rivojlanishiga yo'l ochildi. Bu holat davlatimizning qaror, farmon va buyruqlari, bilan mustahkamlanmoqda. Xususan kadrlar tayyorlashning Milliy dasturini hayotga tadbiq qilinishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Fuqarolar va huquqiy davlat bunyod etilayotgan hozirgi sharoitda jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratish, bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish, madaniy ma'rifiy ishlarni amalga oshirish asosida ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni o'zida uyg'unlashtirib birlashtirgan yangi inson — shaxsni shakllanishi ta'minlanadi.

Shaxs va jamiyat munosabatlarida shaxsning o'rni alohida bo'lganligidan, uning psixologik jihatlari psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shaxsning xususiyatlariga odamning xarakteri, intellekti, emosional sifatleri, temperamenti, qobiliyatlari va psixik xolatlari (kechinmalar) xatti — harakatlar kiradi.

Umum psixologiyada shaxs tushunchasi o'ziga xos talqin qilinib, individdagi turli psixik jarayonlarni birlashtiruvchi va uni xulqini belgilovchi ketma —ketlik va qagiyatlik deb qaraladi.

Olimlar o'z tadqiqotlarida bunday nazariyaga qaysi tomondan yondoshishiga qarab bir necha yo'nalishlarga bo'linadilar: 'psixobiologik (U. Sheldan, AKSh); biososiologik (F.Olpart, K.Rodgers AKSh); psixososial va neofreydistlar (A.Adler, K.Xarki. AKSh).

Bu sohada keyingi paytda olib borilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari bo'yicha shaxs haqidagi ayrim nazariyalar, jumladan freydizm, bixevirizm, personalizm tanqid qilina boshladi.

Ammo shaxsning shakllanishidagi biologik va ijtimoiy omillar birlikda asosiy omil deb hisoblanmoqda. Shaxsning shakllanishni muxim jihati individning o'ziga xos hususiyati emas balki u ishtirok etadigan va ijtimoiy funksiyani bajaradigan ijtimoiy tuzumdur.

Shunday qilib, psixologiya nuqtai nazaridan shaxs insonning ichki xislatlari va xususiyatlarining majmui bo'lib, barcha tashqi ta'sirlar mazkur xususiyatlar orqali singib ugadi. Shaxsning faollik manbai esa, insonning xilma — xil shaxsiy va ijtimoiy extiyojlardan iborat. Eng muximi shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun ijodiy faollikni oshirish, u bilan bog'lik, bo'lgan ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatini oshirib borishdan iboratdir.

Shaxs muammosi dolzarb muammo bo'lganligi uchun uning mazmun va mohiyatini yanada chuqurroq tadqiq etishga qiziqish olimlar o'rtasida, ayniqsa XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida bir muncha jonlandi. Natijada inson shaxsi bilan bog'liq falsafiy oqimlar vujudga kela boshladi, ana shunday yo'nalishlardan biri personalizmdir. Personalizm -lotincha regzoshit - shaxs so'zidan olingan bo'lib, shaxsni birlamchi ijodiy — reallik va oliy ma'naviy qadriyat deb talqin qilina boshladi. Personalizm tarafdorlari olamning mavjudligini oliy yaratuvchi kuch — xudo ijodiy faoliyatining namoyon bo'lishi deb tushuntiradilar. Personalizm XIX asrning oxirlarida Rossiya va AKShda shakllandi, keyinchalik XX asrning 30 — yillarida Fransiya va boshqa mamlakatlarda yoyila boshladi. Rossiyada personalizm g'oyalarini N.A Berdyayev. Amerika personalizmi asoschilari B.Baun, J.Gaye va ularning izdoshlari U.Xaying, E.Braytmen, J.Junson edilar¹² davom ettirdilar.

Yevropa olimlarining personalizm g'oyalari diniy ta'limot (asosan xristianlikning katolik yunalishi) bilan qorishilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ularningcha, shaxs madaniyatining eng oliy chuqqisi, olam esa o'sha oliy qadriyat — shaxsning ijodiy faoliyati tufayli o'zgarib turadi degan nazariyaga asoslanadi. Shu boisdan bu olimlarning personalizm ta'limotining asosini shaxsni iroda erkinligi tashkil qiladi. Personalizm nuqtai nazaridan ijtimoiy taraqqiyot muammolarining hal etilishi hamma vaqt shaxsga bog'liq bo'ladi. N.Berdyayevning fikricha, bu yerda muammo inson shaxsiga jamiyat va davlat tomonidan belgilangan erkinlik haqida emas, balki cheksiz huquqqa ega bo'lgan davlat va jamiyatni ta'siridan holi bo'lgan shaxs erkinligini qaror toptirish haqida fikr yuritilmoqda.

Shaxsda ana shunday erkinlik bo'lganida ularningcha, irodasini hohlagan tomonga yo'naltirish, ahloqiy qadriyatlarni tanlash erkinligiga ega bo'ladi.

Fransuz katolik personalizmning yirik vakillaridan E. Munye xristianlikning shaxs haqidagi ta'limotni yuqori baholab, bu insoniyat hayotidagi eng katta o'zgarishga sabab bo'ldi, deydi. Chunki xristianlik ta'sirida bo'lgan jamiyat xristianlik jamoasi kabi shakllangan bo'lishi mumkin.

Inson muammosi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston faylasuf olimlari hozirgi zamon personalizm haqida fikr yuritmoqdalar. Masalan, A.Choriyevning «Inson falsafasi» kitobida yozilishicha, personalizm muammosi hozirgi kunda assimilyasiya bo'lib ekzistensialistik va xristian antropologiyasi g'oyalarini mushtariklashtirib, o'ziga xos g'oyalarni ilgari surmoqda. Bu g'oya asosida turli millat vakillarining o'zaro do'stlikka asoslangan muxabbat qaror toptirishga intilmoqda. Kitobda shunday deyilgan: «Personalizmda muxabbat «men» ning «sen» oldidagi mas'uliyati shaklida taqin qilinmoqda. Shaxs axloqiy kamolotga erishishning eng oliy chuqqisi uning xudo shaxsi bilan doimiy muloqotidir».

Bu holat faqat xristianlikda emas, balki boshqa barcha dinlarda, xususan jahon dinlarida mavjuddir. Jahondagi asosiy dinlar, payg'ambarlar haqida fikr yuritib, diniy ta'limotlarda olamning yaratilishi, shu jumladan odamlarni jamiki tirik mavjudodlarining yaratilishiga e'tibor qaratilgan. Islom falsafasida esa odob

—axloq masalalari keng' yoritilgan. Unda inson kamolotiga alohida urg'u berilgan. Ya'ni_g insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun diniy e'tiqoddan tashqari dunyoviy bilimlarni puxta egallab xaq yo'ldan toymaslik, hayotda ezgu izlar qoldirib, "iymon e'tiqod va xidoyat yo'lida ulug' maqsadlar bilan yashashga da'vat etilgan. Shaxs odob — ahloqning shakllanishida diniy qadriyatlarining o'rnini kattaligiga e'tibor qaratilgan.

Tasavvuf ta'limoti N. Komilov fikricha, O'rta Osiyo falsafasi taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni o'z ichiga qamrab olib_g uni rivojlantirgan, din va falsafa, hikmat va vaxdat, kalom va hadis ilmlarini birlashtirgan, ilohiy bilimlarining birlashtirgan, bular bilan dunyoviy ilmlarni bog'lashga harakat qilgan. Olimning «Xilvat» va «Uzlat» qaqidagi Imom G'azzoliy fikrlarini tahlili diqqatga molik. Tasavvuf yo'liga kirishdan oldin har bir odam (erkak) oila a'zolari manfaatlariga zarar yetmasligini hisobini qilish, agar shunday qilmasdan «Uzlat»ga kirish gunoh ekanligi asoslanadi.

Ammo bu fikrlardan islom ta'limotida shaxs va jamiyat haqida, ularning o'zaro munosabatlari haqrxidagi barcha faoliyatlar faqat ilohiy qudrat orqali boshqariladi degan xulosaga kelish juda ham to'g'ri bo'lmaydi.

Olimlarning olib borgan izlanishlari natijasida Qur'oni karimda «Ilm» so'zi 750 marta, «aql» so'zi 50 marta tilga olinganligi aniqlangan. Demak Qur'oni Karim va boshqa diniy manbalar inson (shaxs) aql — zakovatini ijodiy tomonga yo'naltirishga yo'l ochadi. Islom paydo bo'lg'an dastlabki asrlarda ya'ni VII asrning oxiri va VIII asrlarda ushbu diniy ta'limotda turli mazhablar, yo'nalishlar shakllana boshladi. UP asrning ikkinchi yarmida dastavval Xorijiyalar (Al — Xavorij, xaraja — dindand chiqmoq mazmunida) yo'nalish shakllandi, so'ngra ikki yirik oqim — sunniylik va shialikka ajralgan. Bu ikkala yo'nalishning har birida keyinchalik bir necha huquqiy mas'hablari shakllanib islomning rivojiga o'z xissasini qo'shgan.

IX —XII asrlarda va undan keyin XIV —XV asrlarda dunyoviy va diniy ilmlarning 2 xaqiqat nazariyasi asosida rivojlanishi fanda, falsafada, ijtimoiy hayotda katta yutuqlarni qo'lga kiritishga olib kelgan. O'sha davrlarda O'rta Osiyo

din va diniy ta'limotni maqsad deb emas, balki ilm va fanning barcha qirralarini egallashda, tashqi dunyo mohiyatini bilishda insonlarning tabiatda tutgan o'rnini aniqlashda vosita deb bilganlar. Din va diniy e'tiqod insonning ruhiyat ehtiyojlarini qondirsa, ilm kashfiyotlar insonning ijtimoiy - iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga yaratilgan.

Xalqimiz tarixidan ma'lumki, ilm —fan, adabiyot, san'at va ijtimoiy — iqtisodiy muammolarining xal qilishda dunyoviylik va diniylikka nisbatan ko'p holda to'g'ri yondoshilganligi uchun ijtimoiylik va ilmiy sohada shunday jahonga mashhur kashfiyotlar qilindiki, ular xalqimizning ma'naviy —madaniy merosning oltin xazinasidan munosib o'rin oldi, Bu kashfiyotlarning egalari o'z zamonasining, xattoki hozirgi davrning ham yuksak shakllangan shaxsi ekanligidan dalolat beradi.

Shaxsning jamiyatiga va aksincha jamiyatning shaxsga munosabati masalasi ham muximdir. Jamiyat, odamlar uyushmasining maxsus shakli, taraqqiyotning ma'lum bosqichida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Jamiyatning shakllanishi va qaror topishi uzoq tarixiy davrini boshdan kechirgan bo'lib, murakkab jarayonning ijtimoiy hodisasidir.

Jamiyat vujudga kelishida mehnat qilish eng asosiy omili bo'ldi. Jamiyat shunchaki odamlar yig'ini emas, balki ijtimoiy munosabatlar orqali tashkil topadi. Ana shu shaxs va jamiyat munosabatlari ham shakllana boradi. Bunda ijtimoiy mehnat turlaridan tashqari, odamlar o'rtasida amal qilingan, ahloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, hududiy, mafkuraviy munosabatlarga kirishadi. Shaxs va jamiyat munosabatlarida tarixan tashkil topgan oila va shaxs, oila va jamiyat munosabatlari ham muayyan jamiyat qabul qilingan qonun — qoidalar doirasida rivojlanib boradi.

Xalqimizning o'tmish tarixidan ma'lumki, o'zining bir necha asrlar davomidagi ijtimoiy — iqtisodiy, ilmiy —madaniy, g'oyaviy — ahloqiy rivojlanish jarayonida uyg'onish davrining ikki bosqichini bosib o'tgan Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband kabi ulamo, buyuk muxaddislarni, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr

Farobiy Al Xorazmiy, Axmad Farg'oni, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Amir Temur Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi buyuk fan va davlat arboblari yetkazib bergan. Bu ulamo — olimlar va mutafakkirlar doimiy o'zgarish va rivojlanishida bo'lgan jamiyatning mazmun — mohiyati, jamiyat va shaxs munosabatlari fan bilan din aloqalari haqida fikr yuritish bilan bir vaktida davlat va jamiyatni boshqarish, shaxs kamoloti masalalariga ham alohida e'tibor berdilar.

Ushbu masalalarni tashkil qilishda mutafakkirlar fanlarini turkumlashda diniy va dunyoviy fanlarga ajratganlari holda ularni bir — biriga qarama — qarshi qo'ymaganlar. Ammo bular ikkala yondoshuvda o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, o'rganish obyektlarida bir — biridan farq qiladigan tamoyillarini ham ko'rsatib o'tganlar. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug' mutafakkirlar jamiyatning paydo bo'lishi, mohiyati va istiqbollari to'g'risida, shaxs va jamiyat munosabatlari, davlatni boshqarish xususida ilg'or ilmiy qarashlarni ilgari surdilar. Bunda arab faylasufi Ibn rushd olg'a surgan xaqiqatga erishishining ikki hil yo'lini, ya'ni biri diniy, ikkinchisi ilmiy yo'l deb bildilar. Diniy yo'l bilan xudo va uning qudratini bilish yo'lidan iborat bo'lsa, ilmiy yo'l esa tabiat va obyektiv olamni bilish orqali amalga oshadi.

Ulug' mutafakkirlarning jamiyatni paydo bo'lishi, mazmun — mohiyati, shaxs va jamiyat munosabatlari to'g'risidagi ilmiy qarashlari falsafiy qarashlarida katta ahamiyatga ega. Farobiyning "Fozil odamlar shaxri" asaridagi fikrlari, Ibn Sinoning jamiyatning paydo bo'lishi, kishilarning ijtimoiy mehnatga jalb qilinishi, mehnat taqsimoti va muximularning birdamlikka bo'lgan ehtiyojlarining kelib chiqishi, Beruniy esa sivilizatsiyalarning paydo bo'lishida tabiiy — geografik omil hal qiluvchi o'rin egallaganligini ta'kidlagani bejis emas.

Jamiyat paydo bo'lishi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarini ilmiy asosda tadqiq etishi XIX — XX asrlarda Yevropalik olimlar, nazariyotchi — faylasuflarining ham diqqat markazida bo'ldi. Ularning nazariyalarida jamiyat g'oyat murakkab ijtimoiy organizm bo'lib, unda ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, ijtimoiy — iqtisodiy tuzum ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab

chiqarish munosabatlari bazis, ustqurma va ijtimoiy ong shakllari mavjud bo'lishi qayd qilingan.

Jamiyatning mazmun mohiyati, shaxs va jamiyat munosabatlari har bir tarixiy davrda yaratilgan falsafiy ta'limotlar asosida talqin qilinib kelgan bo'lsa, jamiyatning xozirgi rivojlanish bosqichida ular o'rniga ilgorroq ta'limotlarni yaratish vazifasini qo'ymoqda.

Demokratik jamiyatni shakllanish va taraqqiyotni amalga oshirish jaryoni ketayotgan hozirgi sharoitga odamlar o'rtasidagi amal qiladigan axloqiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, diniy va mafkuraviy munosabatlarni yaxshilash va mustahkamlash uchun xalqimiz ma'naviyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shaxs va jamiyat munosabatlarining axloqiy, huquqiy jixatlarini mustahkamlash inson shaxsni shakllantirishga, fukarolik jamiyatini asoslarini yaratishga bog'liqdir.

Shaxs va jamiyat munosabatlari asosida o'zaro hamkorlik, turli xalq va millatlar o'rtasida hurmat va do'stlik iplarini mustahkamlashni hozirgi zamon fani yutuklarisiz (Kompvyuter texnologiyasi, internet orqali aloqalar o'rnatish va boshqalar) tasavvur qilish kiyin. Zero, hozirgi zamon fani turli texnologik vositalar orqali ilm fan sohasida, dunyo xalqlarining turmush tarzi va hayoti haqida taraqqiyotning ijtimoiy va iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy jarayonlari, xalqaro axvollari xususida tez va oson axborot olish imkoniyatiga dunyo xalqlari qatori o'zbek xalqi ham muvvafaq bo'lmoqda. Shaxs va jamiyat munosabatlari yuqorida qayd qilingan jihatlari bilan chegaralanmasdan, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga va jamiyatni boshqarishda shaxsning rolini oshirishga ham o'z hissasini qo'shadi.

Shaxs va jamiyat munosabatlari tahlilidan quyidagi xulosalarga kelishi mumkin:

a) «Shaxs» falsafada murakkab tushunchalardan biri bo'lib, uning moh.iyati muayyan jamiyatida tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari bilan belgilanadi; b) shaxsni biologik rivojlanishining muhim jihati inson miyasi hisoblanadi. Lekin shaxsning mohiyati —bu ijtimoiy munosabatlar natijasidir. Miya — moddiy organ uning yordamida shaxs o'zini namoyon qiladi; v) shaxsni shakllanishi —

ijtimoiylashuv deb ataladi. Shaxs tipi bu —ijtimoiy munosabatlar tizimini, in'ikosidir. Uning ijtimoiy faoliyati shaxs shakllanishining muhim omilidir; g)shaxsning jamiyatga munosabati masalasida jamiyat madaniyatida shaxsning yetuk darajasiga e'tibor qaratilgan. Sharq xalqlarida shaxsning aql — zakovati, zehnli, qo'rqmas botir, kamtar va odillik kabi axloqiy, jismoniy sifatlari qadrlangan; d) shaxs va jamiyat munosabatlari muayyan jamiyatida qabul qilingan qonun — qoidalar, huquq va vazifalarni amaldagi talablar asosida bajarish orqali shakllanadi; e) shaxsning shakllanishi va axloqiy kamolotga erishishning eng oliy cho'qqisi, diniy manbalari ko'rsatilishicha, uning xudo shaxsi bilan doimiy muloqotidir; z) shaxs dunyoni o'zgartirish bilan o'zini ham rivojlantiradi, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi; .i) demokratik va huquqiy davlatni shakllantirish jarayoni ketayotgan hozirgi sharoitda komil inson shaxsni shakllantirish shaxs va jamiyat munosabatlarini huquqiy tamoyillar asosida mustahkamlash, ma'rifiy— madaniy ishlarni yuqori bosqichga ko'tarish fuqarolik jamiyatini barpo etishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Antropologiya inson mohiyatini to'laroq ochish uchun «men», «ong», «shaxs», «ruh» tushunchalaridan foydalanadi. «Men» insonning o'zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. Boshqa narsalar insonga begona voqyelik sifatida anglanadi. Shaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi. Inson o'z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini 'qondirishga intiladi.

Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig'ining zarur sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma'nosi faqat hayot ne'matlaridan ko'proq bahramand bo'lishda, tanani semirtirishda, lazzatlanishda, boylikka ro'ju qo'yishda, maishatparastlikda deb bilish inson mohiyatiga ziddir. Bunday biryoqlamalik insonni tubanlikka olib keladi. Inson ruhining kamol topishi bilan unda ma'rifatparvarlik, odamiylik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliyhimmatlik, vatanparvarlik, burchga sodiqlik sifatlari shakllanadi.

Yuksak ma'naviyat insonni poklaydi, imon-e'tiqodini mustahkamlaydi. Mantiq nuqtai nazaridan tushuncha hajmi qancha keng bo'lsa, uning mazmuni shuncha qashshoq bo'ladi. Individ tushunchasining hajmi

nihoyatda keng bo'lib, o'z ichiga har qanday insonni (jismonan sog'lom va majruh, axloqan yetuk va aqli ojizlarni ham, oddiy insonlar va buyuk tarixiy shaxslarni ham) qamrab oladi. Binobarin, har qanday odam individdir. Bu tushunchada insonning na biologik, na ijtimoiy sifatlari o'z ifodasini topmaydi. Shu manoda «individ» va «shaxs» tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, bir-biridan keskin farqlanadi.

Individ deganda umuman inson zotiga mansub bo'lgan ayrimlik tushuniladi. Individ umumiylikning ayrim holda namoyon bo'lishidir. Shu boisdan ham bu tushuncha alohida tavsiflanmaydi. U hamisha shaxssizdir.

Inson shaxsi predmetli olamni tushunish, idrok etish jarayonida shakllanadi. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydilar, balki shaxs bo'lib shakllanadilar. Shaxs-konkret shart-sharoitning, ijtimoiy muhitning mahsulidir. Inson ongi voqyelikni shunchaki aks ettirmaydi, balki tasavvur, tushuncha, g'oya, tafakkur sifatida ijodiy o'zlashtiradi va o'zgartiradi. Hegel ta'kidlaganidek, ish-harakat inson mohiyatini yorqin ifoda etadi, uning maqsad va intilishlarini yaqqol ko'rsatadi. **(Gegel. Sochineniya. T. 12. S. 223)**

(Shaxs o'ziga xos tarkibiy tuzulishga egadir. Shaxs strukturasining muhim elementlari:

- ong;
- o'zlikni anglash;
- bilish jarayonlari;
- hissiyot;
- mustaxkam e'tiqod;
- iroda.

Shaxs strukturasini uchun xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilar:

- temperament;
- xarakter;
- qadriyatlar tizimi;
- e'tiqod, ishonch;
- dunyoqarash;

- ideallar.

Shaxs tushunchasining mazmuni g'oyat boy bo'lib, ayrim olingan kishilarning noyob, nodir va betakror xususiyatlari, fazilatlari va ijtimoiy sifatlarini o'zida aks ettiradi. Shaxs tushunchasida individning tabiiy-biologik xususiyatlari emas, balki ijtimoiy sifatleri o'z ifodasini topadi. Chunki inson mohiyatan ijtimoiy mavjudotdir. Biroq insonning tabiiy-biologik xususiyatlari shaxsning shakllanishida muayyan rol o'ynaydi.

Shaxs hamisha konkret tarixiy hodisa bo'lib, juda ko'p omillarning o'zaro ta'siri, birlar-biri bilan uyg'unlashuvi natijasida vujudga keladi. Inson konkret tarixiy sharoit, ijtimoiy makon amaliy faoliyat va ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs sifatida shakllanadi.

Shaxs g'oyat murakkab strukturaga ega bo'lib, turlicha talqin etiladi. Masalan, pedagogikada bola shaxsining shakllanishi, psixologiyada shaxs deganda inson xulq-atvoridagi psixik jarayonlarni bog'lab turuvchi asos tushuniladi. Sosiologiyada insonning individual xususiyatlari emas, balki uning bajaradigan ijtimoiy funksiyalari tadqiq etiladi. Sosiologiyada shaxs turli ijtimoiy rollarni bajaruvchi sifatida talqin etiladi.

Falsafada shaxs ijtimoiy ideallar, insoniy fazilatlar, qadriyatlar sohibi, ijtimoiy sifatleri o'zida yaqqol namoyon etuvchi individ sifatida o'rganiladi. Falsafa uchun insonning shaxs sifatidagi mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va rolini aniqlash muhimdir. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydilar balki, jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadilar va rivojlanadilar. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlar, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo'l bilan o'tmaydi.

Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy sistema, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura va hokazolar mavjud bo'ladi. Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, munosabatlar, axloqiy normalar, siyosiy g'oya, milliy mafkura va hokazolar ta'sirida yashaydi. Ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlar paydo

bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir.

Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida xatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.

Shaxs - mustahkam imon-e'tiqodga, g'oyaga, insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarida ifoda etadigan insondir.

Shaxs «komil inson» tushunchasi bilan ma'nodoshdir. Sharq mutafakkirlari shaxs tushunchasi o'rnida fozil inson, komil inson, barkamol inson tushunchalarini qo'llaganlar. Komil inson deganda mustahkam imon-e'tiqodga, yaxshi insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kishilar tushuniladi.

Kamolotga erishish yo'llari, usullari turli diniy va falsafiy sistemalarda muhim o'rin egallab kelgan.; Har bir tarixiy davr talablariga mos ravishda turli falsafiy ta'limotlarda komil inson ideali yangicha talqin etilgan. Shm-fan, san'at, axloq, huquq va hokazolar barkamol inson shaxsini shakllantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilgan. Agar inson tushunchasi o'zida ham biologik, ham ijtimoiy (ijtimoiy) sifatlarni mujassamlashtirsa, shaxs tushunchasida insonning ijtimoiy sifatlari, chinakam insoniy fazilatlari, qobiliyat va iste'dodlari, betakror va noyob fazilatlari o'z ifodasini topadi.

Shaxs insondagi insoniylikni, iloxiy iste'dodni, barcha oliyjanoblik, ezgulikni o'zida aks ettiradi.

Boshqacha qilib aytganda, shaxs insonning ijtimoiy-psixologik mohiyatini, borlig'ini ifoda etadi.

Inson bolasi dunyoga tug'ma instinktlar bilangina emas, balki, kattalarga taqlid qilish, uvonish, g'am-qayg'u va iztirob chekishni bilish qobiliyati bilan ham keladi. Insoniy qobiliyatlar butun hayot davomida takomillashib boradi. Insondagi

biologik va ijtimoiylik bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda mavjud bo'ladi, insonning ma'naviy - ijtimoiy tomoni ustunlik qilishi mumkin.

Shaxs strukturasi xos xususiyat, elementlardan birortasining yo'qolishi shaxsning degradasiyalashuviga olib keladi. Shaxs strukturasi madaniyatning barcha darajalari yaqqol namoyon bo'ladi: an'ana, milliy qadriyatlar, oilaviy - maishiy normalar, ilmiy bilim, ma'naviy qadriyatlar shaxsga xos bo'lik hisoblanadi. Shaxs strukturasi ana shu elementlari dunyoqarashga bevosita bog'liqdir.

Inson dunyoqarashi - uning olamga, tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga bo'lgan qarashlari, e'tiqodi, ijtimoiy, axloqiy va estetik ideallari. Dunyoqarash obyektiv reallikni idrok etish jarayonida shakllanadi, bilim e'tiqod xarakteriga ega bo'lgandagina dunyoqarashga aylanadi. Yoki ilmiy bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi bilan dunyoqarash shakllanadi.

Inson shaxsning o'z qarashlari, g'oyalari, prinsiplari va ideallari to'g'riligiga bo'lgan ishonchdir. Shaxs jamiyatdagi xilma-xil g'oya va qarashlardan birini tashlash imkoniyatiga ega bo'lsagina, uning bilimlari e'tiqodga aylanadi. E'tiqod-shaxsning g'oya bilan uzviy bog'lanishi va uni amalga oshirish uchun kurashidir.

Inson o'z mohiyatini faoliyat jarayonida ro'yobga chiqaradi, uning sobitqadam faoliyati jarayonida iroda erkinligi namoyon bo'ladi. Iroda erkinligida shaxsning zaruriyatni anglashi asosida faoliyat turini tanlash qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. O'z xulq-atvori va faoliyati uchun mas'uliyatni his etish shaxsga xos muhim xususiyatdir.

Shaxs tushunchasi «individuallik» tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Individuallik shaxsning betakror, noyob, o'ziga xos xususiyatlarida, temperament, xarakter, xotira, xatti-harakatning o'ziga xosligida o'z ifodasini topadi.

Shaxs faoliyati natijalari hamisha individualdir. Shaxs va individuallik uzviy bog'liq bo'lsa ham, inson ijtimoiy borlig'ining turli tomonlarini tavsiflaydi. Biz individuallik tushunchasiga nisbatan yorqin, original, ijodkor sifatlarini qo'llaymiz. Shaxs tushunchasiga nisbatan «kuchli», «mustaqil», «tarixiy», «buyuk»

singari sifatlarni qo'llaymiz. Individuallikda insonning o'ziga xosligi, shaxsda esa mustaqillik o'z ifodasini topadi.

Shaxs individualligida ijtimoiy hayotning tuganmas va murakkab qirralari, rang-barangligi o'z ifodasini topadi. Shaxs individualligi insoniy hayotga jozibadorlik, go'zallik bag'ishlaydi. Shaxsning individualligi tufayli insoniy hayot qiziq, zavqli va qadrlidir.

Kishilar bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida shaxsning o'ziga xosligi (temperamenti, xarakteri, estetik didi, madaniy, axloqiy saviyasi va boshqalarni) albatta inobatga oladilar, shaxsning individualligi bilan hisoblashadilar.

Shaxs individualligining shakllanishida tabiiy-biologik omil ham, ijtimoiy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Insonning ijtimoiy kelib chiqishi, oila, mahalla, mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit ijtimoiy ziddiyatlar shaxs individualligining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Barkamol inson shaxsini shakllantirishda oila, mahalla, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va madaniyat muassasalari, mehnat jamoalari muhim rol o'ynaydi.

Oilaning eng muhim vazifalaridan biri bola shaxsida olijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini singdirish, hayotga tayyorlashdir. Bola eng avvalo oila bag'rida insoniy munosabatlarni o'zlashtiradi, ona tili, milliy madaniyatni egallay boshlaydi. Bola shaxsiga individual yondashish va uning qadriyatlarini rivojlantirishda onalarning -roli juda kattadir.

Demokratik davlat onalarning tarbiyalovchilik vazifalarini to'la ado etishlari uchun zarur iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlar yaratadi. Mamlakatimizda bolalik va onalikni himoyalashning huquqiy asoslari yaratildi. Ayniqsa, sog'lom avlodni voyaga yetkazish davlat dasturining amalga oshirilishi jamiyatimizda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit yaratish, ajdodlarimizning eng ilg'or an'alarini davom ettirish uchun puxta zamin yaratyapti.

Mehnatga bo'lgan munosabatda shaxsning barcha qobiliyat, fazilat va xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Mehnat jamoasi shaxsga xos fazilat va xislatlarni baholaydi, uning to'laroq namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar

yaratadi. Mehnat jamoasidagi raqobat, bir-biriga o'zaro yordam, tajriba almashish muhiti shaxsning kamol topishi uchun yaqindan yordam beradi.

Shaxsni shakllantiruvchi, tarbiyalovchi eng muhim omiolaridan biri ta'lim-tarbiya muassasalaridir. Izchil va muntazam ta'lim-tarbiya jarayonida inson shaxsi kamol topadi. Shaxsni shakllantirmay turib tarbiya jarayonining muvaffqiyatini ta'minlab bo'lmaydi. Nihoyat, shaxsni tarbiyalovchi omillardan yana biri insonning o'zidir: shaxs o'z-o'zini tarbiyalaydi. Barkamol inson o'z xatti-harakati va xulq-atvorini tanqidiy baholaydi, yo'l qo'ygan xato va nuqsonlarini bartaraf etishga intiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonni ma'naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgandir.

Insonning ma'naviy ehtiyojlarini uning tabiiy - moddiy ehtiyojlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash biryoqlamalikka olib kelishi, yetilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy - badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi, balki, aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bulishga rag'batlantiradi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat doirasida yashashga, saxiy va oliyhimmat bo'lishga olib keladi.

Yuksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamlashgandir. Insonning oliyjanob fazilatlari shaxsda o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida, u yoki bu mafkurani amalga oshirishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda inson borlig'ining salbiy tomonlari ham tahlil qilina boshladi.

Mustaqillik yillarida demokratik erkinliklarni suiste'mol qilish, oshnagog'aynigarchilik, maxalliychilik, poraxo'rlik, uyushganjinoyatchilik va boshqa salbiy holatlarning yaqqol namoyon bo'lishi inson tabiatini chuqurroq o'rganish va insondagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlar vujudga keldi.

Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va normalarni poymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladilar. Shuningdek, milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka rahna soladilarva ma'naviy-axloqiy muhitni buzadilar. Bunday guruhga mansub bo'lgan kishilar:

- turli konfliktlarni keltirib chiqaruvchi buzg'unchi firbgarlar;
- hokimiyatga intiluvchi diniy ekstremistlar;
- korrupsiya va jinoyatchilik bilan shug'ullanuvchilar;
- giyohvandlar;
- poraxo'rlar;
- terrorchilar;
- shuhratparastlar va boshqalardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday guruhlariga mansub kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir.

Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, g'ayriijtimoiy ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan kishilarni tarbiyalash, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Shaxs erkinligi va tarixiy zaruriyat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida inson qobiliyatlari to'laroq nomoyon bo'ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning boy va qashshoq guruhlariga ajralishi tabiiy va qonuniyatli jarayondir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati aholining nochor qismi, talabalar va

nogironlarning davlat tomonidan himoyalashida ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoyon bo'lyapti.

Kishilarning boqimandalik psixologiyasi, tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari o'z bilim va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo'nalishga ega ekanligidan dalolat beradi.


Asosiy tushunchalar


- **Erkinlik** - insonning turli muqobilliklarda tanlov imkoniyatini beradigan, uning talablariga chuqur singdirilgan holatidan iboratdir.
- **Shaxs xillari (tiplari)** - insoniyat o' tmishi turli davrlari shartsharoitlari bilan bog' liq holda shaxsning farqlanishi.
- **demokratiya** (yunoncha: *xalq hokimiyati*) - davlat-siyosiy tuzumi shakli bo' lib, uning manbasi xalq hisoblanadi.
- **oxlokratiya** (yunoncha: *olomon hokimiyati*) - Arastuning ta' kidlashicha, demokratiyaning buzilishi shakli bo' lib, ommaning cheklanmagan hukmronligini anglatadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Zaruriyatsiz erkinlik, erkinliksiz zaruriyat bo 'lishi mumkinmi?
2. Erkinlikning mezonlari bo 'ladimi?
3. Insonning ichki erkinligiga misollar keltiring.
4. Tashqi erkinlikning shaxsga ta' siri.
5. Qaysi soha erkinligi eng zarur hisoblanadi?
6. Shaxsning shakllanishida jamiyatning mas' uliyatini qanday tushunasiz?

Jamiyat shaxsning shakllanishi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning shaxsga ta'siri quyidagi darajada amalga oshadi.





«INSERT» JADVALI

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	+	-	?
Jamiyat bilan shaxs orasidagi munosabatlar xaqidagi qanday falsafiy fikrlar ilgari surilgan?				
Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoitning o'rni				
Shaxsning tarixiy tiplarga ajralishining asosiy omillari, deganda nimani nazarda tutasiz?				
«Erkin shaxs» tushunchasini ta'riflang				
Shaxs erkinligi va ma'suliyati xaqida nimalar deya olasiz?				

V – bilaman.

+ - yangi ma'lumot.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

7. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

10 Mavzu: Ijtimoiy falsafada ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik mezonlari

REJA:

1. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda Yangi O'zbekistonning tashabbusi.
2. Jamiyat barqarorligida konfliktlarning ahamiyati
3. Jamiyat barqarorligini ta'minlashning Ijtimoiy-g'oyaviy asoslari

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqada global miqyosda xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan rahna solishga intilayotgan diniy ekstremizm, terrorizm kabi tahdidlar muntazam ogoxlikni talab etayotir. Aynan, shu sababli mintaqadagi xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan alohida tashabbus ko'rsatilmoqda. Zero, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida qayd etganidek: —...**tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz**²⁵, - deya ta'kidlagani bejiz emas. Binobarin, bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu boradagi keng ko'lamli sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari tobora kuchayib bormoqda.

Dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashni taqozo etmoqda. Zero, dunyo miqyosida keskin

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

g'oyaviy kurashlarning tobora avj olishi, turli mafkuralar to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlari bilan —chiroyli niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy rahna solishga intilayotgan ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, giyohvandlik, missionerlik, prozelitizm kabi tahdidlar jiddiy fikrlashni talab etadi. Ayniqsa, mintaqamizda kuchayib borayotgan xavf – xatarlar, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama – qarshiliklar, terrorizm, radikalizmning tobora avj olishi tinchlik va barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda²⁶.

2017 yilning 10-11 noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafeligida Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan edi. Mazkur konferensiyada qatnashgan BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar bo'yicha yordamchisi Miroslav Encha: —ushbu nufuzli konferensiyaning Samarqandda o'tkazilayotganida ramziy ma'no bor. Bu azim shahar Markaziy Osiyoning o'tmishi va umumiy kelajagini o'zida namoyon etadi. Bugun ko'p tomonlama hamkorlik har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyatga ega. Chunki terrorizm, radikalizm, iqlim o'zgarishlari, migratsiya kabi qator muammolar global xavfsizlikka tahdid solmoqda. Shunday ekan, ularni bir mamlakat yolg'iz hal eta olmaydi. Bunda hamjihatlik juda muhim sanaladi, deya o'zining ijobiy fikrlarini bildirib o'tdi. Mana shunday fikrlarni ushbu konferensiyada qatnashgan MDH Ijroiya qo'mitasi raisi Ijrochi kotibi Sergey Lebedev tomonidan ham aytib o'tilgan. Bu haqda Sergey Lebedev: —mazkur xalqaro anjuman mintaqaviy hamkorlikka yangicha mazmun bag'ishlaydigan imkoniyat ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Mintaqa davlatlari munosabatlari ravnaqidagi yangi bosqich xalqaro tashkilotlar uchun mayoq vazifasini o'tasa, ajab emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z nutqida BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo

²⁶ M.Musayev. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda Yangi O'zbekiston tashabbusi. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari. (—Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansga munosib poydevor yaratilmoqda loyihasi doirasida tashkil qilingan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari). Buxoro-2021.: B-41-47

davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga doir maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifini ilgari surdi. Ushbu mintaqadagi barqarorlik hamda taraqqiyot barcha uchun dolzarbdir. Shuning uchun ham BMT ushbu yo'nalishda yordam berishga tayyorligini ta'kidlamoqchiman. Biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga faqat birgalikda erishamiz²⁷, degan fikrlari ayniqsa e'tiborga sazovordir. Shu bilan birga ushbu konferensiyada qatnashgan Amerika tashqi siyosat kengashi huzuridagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi Frederik Starr tomonidan bildirilgan fikrlari ham diqqatga molikdir. Frederik Starr: —Markaziy Osiyoda xavfsizlik hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha bo'lib o'tayotgan xalqaro konferensiyani mintaqa uchun ham, O'zbekiston uchun ham tarixiy voqea, deb atagan bo'lardim. Ushbu yirik tadbirda hududdagi barcha davlat, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashayotgani ham Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari tufayli mamlakatingiz Markaziy Osiyoning birlashtiruvchi markaziga aylanayotganidan dalolat beradi. Forum yaqin qo'shnichilik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bu sa'y-harakatlar Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi muqarrar, deya ta'kidlasa, NATO Parlament assambleyasi Prezidenti Paolo Alli: —Barqarorlik va xavfsizlik har bir davlat taraqqiyotining, iqtisodiyoti investitsiyaviy jozibadorligining hal qiluvchi omillari hisoblanadi. Shuning uchun ham Samarqand konferensiyasi dunyoda tobora nufuzi oshib borayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida taraqqiyotga erishish, xavfsizlik hamda hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni jihatdan aytganda, O'zbekiston Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan biri sifatida mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda-bunyodkorlik g'oyalari bilan yaqqol ajralib turibdi. Prezident SHavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan takliflar nafaqat mintaqa, balki dunyo jamoatchiligi tomonidan ham ijobiy qabul qilinmoqda. O'ylaymizki, bu tashabbuslar Markaziy Osiyoda yangi muhitni yarata

²⁷ Tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik. 2017 yilning 10- 11 noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafeligida —Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik mavzusidagi xalqaro konferensiya. <https://religions.uz/news/detailid=634>

oladi²⁸, –deya ta’kidlashi Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevni mintaqada xavfsizlikni ta’minlash borasida ilgari surayotgan tashabbuslari dunyo miqyosida ijobiy e’tirof etilayotganligini aytib o’tish lozim. 2021 yilning 15-16 iyul kunlari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida —Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog’liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar mavzusida xalqaro konferensiya bo’lib o’tgan edi. Mazkur konferensiyada Afg’oniston Islom Respublikasi Prezidenti, Pokiston Islom Respublikasi bosh vaziri, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining tashqi ishlar vazirlari, 40 dan ortiq mamlakat va 30 ga yaqin xalqaro tashkilot delegatsiyalari, nufuzli xorijiy ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari rahbarlari ishtirok etdi. Albatta, ushbu bo’lib o’tgan anjuman, xalqaro maydonda hamda mintaqamiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim voqelik sifatida e’tirof etildi. Ushbu Konferensiyani O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ochib, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o’rtasidagi tarixiy yaqinlik, uni bugungi kunda o’zaro ishonch va manfaatdorlik asosida mustahkamlashning ahamiyati haqida nutq so’zladi. Prezidentimiz o’z nutqida: —Bugun dunyo ham tahdidlar, ham yangi imkoniyatlarni o’zida tutgan global geosiyosiy transformatsiyalar davriga qadam bosdi. Bunday sharoitda 2 milliarddan ziyod odam yashayotgan Markaziy va Janubiy Osiyo o’rtasidagi aloqalarning qayta tiklanishi yanada muhim va ob’ektiv jarayonga aylanib bormoqda. Xalqlarimizning ulkan tarixiy, ilmiy va ma’naviy-madaniy merosidan, iqtisodiyotlarimizning bir-birini to’ldirib turishidan, intellektual salohiyat va mehnat resurslarining borligidan kelib chiqib, birgalikdagi sa’y-harakatlarni birlashtirish fursati keldi, deb o’ylayman va bu, shubhasiz, katta manfaat keltiradi²⁹,– deya alohida to’xtalib o’tgani bejiz emas. Bu borada, 2021 yil 2 fevral kuni Toshkentda O’zbekiston, Afg’oniston va Pokistonning yuqori martabali delegatsiyalari ishtirokida Markaziy va Janubiy Osiyo o’rtasidagi transport aloqalari bo’yicha uch tomonlama muzokaralar bo’lib o’tganligi mazkur uchrashuv

²⁸ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 15 mart kuni Ostona shahrida bo’lib o’tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvidagi ma’ruzasi. <http://uza.uz/uz/politics/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-birinchi-maslahat-uchrashuvi-15-03-2018>

²⁹ O’zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoni birlashtirmoqda. https://uza.uz/uz/posts/o'zbekiston-markaziy-va-janubiy-osiyo-birlashtirmoqda_265664

yakunida Mozori-Sharif – Kobul – Peshavor temir yo'lini barpo etish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi imzolanganligini ta'kidlaydi. O'z navbatida ushbu loyihaning amalga oshirilishi bevosita Markaziy Osiyo oldida turgan strategik vazifalardan biri – Hind okeani, xususan, Pokistonning —Karachi, —Kasem va —Gvadar bandargohlariga chiqish imkonini berishini mazkur loyiha Janubiy Osiyo temir yo'l tizimini Markaziy va Yevroosiyo temir yo'l tizimlari bilan bog'lashi natijasida butun Markaziy Osiyoning tranzit salohiyatini ancha oshirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga A. Veselov O'zbekiston Prezidentining tashabbuslari bugungi kunda jahon miqyosida alohida e'tirofga sazovor bo'layotganligi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016 yil dekabrda o'z lavozimiga kirishganidan so'ng, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashni tashqi siyosatda eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab berilganligini qayd etib o'tadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslari mintaqa xavfsizligi, barqarorligi va istiqboli yo'lida o'zining ijobiy samarasini berayotganligini ta'kidlaydi. Ana shunday muloqotlar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiyalar, sayyohlik, madaniyat, sog'liqni saqlash va ekologiya sohalarida o'zaro manfaatli mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha muhim qo'shma qarorlar qabul qilinayotganligini alohida ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning yaxshi qo'shnihilik siyosati Afg'oniston bilan aloqalarni mustahkamlashda ham yaqqol namoyon bo'layotganligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, —ming yillar davomida O'zbekiston va Afg'oniston xalqlari yagona madaniy-tamaddun makonida rivoj topganlar, degan fikrlarini alohida e'tiborga olgan holda, Afg'on zaminida Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab o'zbek olimlari, shoirlari, mutafakkirlari yashab, ijod etishganligini qayd etib o'tadi. Hozirgi kunda O'zbekiston rahbariyati qardosh Afg'onistondagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etish bilan bir qatorda Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamda xalqaro savdo-iqtisodiy

munosabatlarga jalb qilishga yordam beradigan muhim iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishdagi faoliyatlarini alohida e'tirof etadi. Albatta, O'zbekiston Respublikasi tomonidan qo'shni Afg'oniston davlatiga ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordami o'z navbatida ikki xalq o'zrasidagi yaqin qardoshlik aloqalarini yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev: **“Jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta'minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda”**³⁰. Zero, bugungi kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahdid va xatarlarni o'z vaqtida teran anglash, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash orqali osuda hayotning hukm surishi mintaqada yaxshi qo'shnihilik aloqalarini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

Hozirgi zamon fani insoniyatning tarixiy o'tmishiga nazar tashlar ekan, konfliktni hamisha ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yo'ldoshi ekanligiga shubha qilmaydi, chunki odamlar bor joyda konfliktlar mavjud bo'lgan va bo'laveradi. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning tutgan o'rni va keng tarqalganligi uzoq o'tmishda ham e'tiborni o'ziga tortgan.

O'tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar, yozuvchilarning asarlarida, afsonalarida va g'oyalarida vujudga kelishi ehtimol bo'lgan konfliktlarning yuzaga kelish sabablari va ularni tugatish yo'llari haqida muayyan fikrlar bildirilgan. O'tmishda konfliktlarni hal etishning asosiy usuli sifatida urug'-qabila oqsoqollari, dohiylarining yakka hokimligi tushunilgan. Biroq ilk davlatchilik tuzilmalarining vujudga kelishi har doim ham jamiyatda uyg'unlikka olib kelmagan,

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

ba' zida ijtimoiy notenglikni keskinlashtirgan, konfliktlarni yaqqol namoyon etgan va kuchaytirgan. Shu bois asrlar davomida insonlar urushlar bo' lmaydigan, nizolar va adovat barham topadigan mukammal kelajakka ishonch hissi bilan yashaganlar.

Qadimgi yunon faylasuflari birinchilardan bo' lib ijtimoiy konfliktlarning tabiatini to' g' ri tushunishga uringanlar. Mashhur qadimgi faylasuf-dialektik olim Geraklit (er.av. 530–470 y.y.) urushlar va ijtimoiy konfliktlar haqidagi fikrlarini borliqning tabiatiga bo' lgan qarashlarning umumiy tizimi bilan bog' lashga harakat qilgan. Uning fikricha, «koinotda hukm suruvchi yagona umumiy qonun – bu urushdir, u hamma narsaning otasi va shohidir. U kimlarnidir xudolar va kimlarnidir insonlar qilib yaratadi, insonlarining ba' zilarini qul, boshqalarini erkin qilib belgilaydi. Hamma narsa, shu jumladan inson muloqoti normalari ham abadiy aylanma harakat va bir–biriga aylanish ta' sirida bo' ladi. Dunyoda barcha narsa adovat va nifoq orqali tug' iladi». Geraklitning bu so' zlari ijtimoiy taraqqiyot jarayonida kurashning ijobiy rolini to' g' ri asoslashga bo' lgan dastlabki urinishlardan biri ekanligini ko' rsatadi. Konfliktlar o' zining yangi xususiyati bilan ijtimoiy hayotning muhim atributi, ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim va zarur sharti sifatida namoyon bo' ladi. Geraklitning konfliktlar va kurash barcha narsaning asosi sifatida hisoblanishi haqidagi g' oyalari boshqa qadimgi faylasufmaterialist – Epikur (er.av. 341–270 y.y.) tomonidan rivojlantirildi, ayni paytda u to' qnashuvlarning salbiy oqibatlari qachonlardir insonlarni doimiy tinch–totuv sharoitda yashashga majbur qiladi deb hisoblagan. Shunday qilib, jamiyatning

konfliktsiz holatda bo'lishi haqidagi g'oyalar dastlabki nazariy xulosalar bilan to'ldirildi.

Buyuk Britaniyalik konfliktolog tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, «Hozirda konfliktlarni hal qilishga ko'pchilik kuch-g'ayrat sarflanmoqda. XX asr 80-yillarining oxiriga qadar bo'lib o'tgan urushlarning aksariyati mamlakatlar o'rtasida yuz bergan. Endilikda urushlarning ko'pchiligi fuqarolik va o'zaro urushlar bo'lib, qurbonlarning ko'pchisi tinch aholiga to'g'ri keladi. Ayni paytda ko'pincha erkaklar nobud bo'ladi, «bedarak yo'qoladi» yoki harbiy harakatlarda qatnashishga majbur bo'ladilar, ayollar, keksalar va bolalar ko'chib yurishga yoki qochoq bo'lishga majbur bo'ladilar.

Ko'pchilik bu holatni dunyoda «bipolyar» tartib inqirozidan so'ng sovuq urushning tugashi hamda millatchilik va etnik o'z-o'zini anglashning tug'ilishi bilan tushuntiradilar. Konfliktlar borasidagi yangi nazariy – tahliliy motivlar polyak olimi, yurist Lyudvig Gumplovich (1838–1909 yy.) ijodida ham uchraydi. Jahon tarixining – irqalar o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat ekanligini e'tirof etgan olim, irqalarning yuzaga kelishi hamda ularning bir-biridan farqini biologik jihatdan emas, balki ular madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlaridandir deb hisoblaydi. Alohida irq – o'ziga xos bir madaniyatdir. Shu bois konfliktlarning sabablarini faqat inson tabiatidagina emas, balki o'ziga xos mavjud madaniyat tiplarining ijtimoiy fenomenidan izlash kerak. Negaki madaniyatlar ijtimoiy fenomeni konfliktlarning qanday tus olishini oddiydan to murakkabgacha

bo'lgan bosqichlarining ijtimoiy hayot talablariga monand o'zgarib borishi jarayonidagi ilk ma'lumotlarni berishi mumkin.

L. Gumplovich fikricha, konfliktlar yagona va zaruriy ijtimoiy jarayon emas. Biroq, keng ijtimoiy jamoalar hamda davlatlarni vujudga keltiradigan ijtimoiy birlashuvlar ahamiyatga molik jarayondir. Chunki bu yerda konfliktning asosiy hal qiluvchi rolni o'ynashining sababi bitta, ya'ni jamiyatda ijtimoiy guruhlar aynan konflikt natijasidagina birlashadilar. Jamiyatda yangi qoidalar birligining shakllanishi alohida-alohida guruhtar kurashi natijasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

L. Gumplovichning jamiyatdagi ijtimoiy konfliktlar tabiatiga nisbatan munosabatlarini uch asosiy tezisga bo'lish mumkin:

konfliktlar tarixiy jarayon negizi, ularning hammasi turli xarakterga ega bo'lsalarda, taraqqiyot omili hisoblanadi;

jamiyatning hukmronlar va bo'ysunuvchilar (xizmatkorlar) ga bo'linishi, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlarning noyig'unligidan kelib chiqadigan konfliktlar ham abadiy hodisadir;

konfliktlar jamiyatning birlashuviga yordam beradi, keng birlashmalarning shakllanishini ta'minlaydi.

Insoniyat yaralibdiki, turli-tuman konfliktlar qurshovida yashab, kurashib keladi. Konfliktlarning mavjudligi, bir tomondan, insoniyatni kurashga, o'zining, jamiyatning hayotini, davlat faoliyatini yaxshilashga undasa, ikkinchi tomonidan turli xil destruktiv, vayronkor kuchlarning faollashuviga ham olib keladi. Tomonlar bir birlarining tushunmasligi, biror bir murosaga kelmasligi mazkur kuchlarni harakatga keltiradi. Shu o'rinda

konflikt tushunchasining izohlarini tahlil qilsak. Konflikt - murakkab, ko'p qirrali va darajali ijtimoiy-ruhiy holat. Konflikt deganda, avvalo, qadriyatlar hamda ma'lum bir maqom, hokimiyat, zaxiralar uchun kurash, raqiblar tomonidan bir biriga moddiy va ma'naviy zarar yetkazish, raqibni yo'q qilish tushuniladi. Konfliktlarda u yoki bu mavzular, qiziqish va manfaatlar orqali birlashgan individlar, ijtimoiy guruhlar, milliy-etnik jamoalar, davlatlar, bir guruh mamlakatlar qatnashadilar.

Konflikt - bu ikki, yoki undan ko'p tomonlarning o'z maqsadlariga yetish yo'lidagi turli manfaatli to'qnashuvidir.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi.

Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi.

Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Konflikt - bu ijtimoiy sub'ektlarning qarama-qarshi manfaatlari, pozitsiyalari, qadriyatlari va qarashlarini amalga oshirish uchun qarama-qarshiligi. Bu va boshqa ko'plab ta'riflarda konflikt birinchi navbatda qarama-qarshilik yoki uning momentlaridan biri - qarama-qarshiliklar kurashi bilan bog'liq. Qarama-qarshilikning muhim belgilaridan biri bu manfaatlarning qarama-qarshiligi bo'lib, ular o'z navbatida qadriyatlar, maqsadlar va yo'nalishlar bilan bog'liq.

Shunday qilib, manfaatlar konfliktni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchadir. Konflikt tarkibiga u yoki bu shakldagi konfliktli harakat va unga rahbarlik qiluvchi ong, harakat vositalari va usullari, konflikt sohasi ham kiradi. Bundan tashqari, biron bir to'qnashuv yuzaga kelishidan oldin paydo bo'lgan ziddiyatli vaziyatsiz mumkin emas.

Konfliktning sub'ektlari, darajasiga qarab, shaxslar, guruhlar, sinflar, milliy-etnik jamoalar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, jamoat va siyosiy birlashmalar, davlatlar, xalqaro hamjamiyatdir. Qarama-qarshilik jarayonida konflikt sub'ektlari o'zgarishsiz qolmaydi. Konfliktning dinamikasi bevosita uning sub'ektlarining rivojlanishi bilan bog'liq va aksincha. Agar konflikt boshqa sifat holatiga aylansa, qarama-qarshi tomonlar ham shunga mos ravishda sifat jihatidan o'zgaradi.

So'nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi.

Konfliktlar turli sabablarga ko'ra yuzaga chiqadi, ya'ni: ma'naviy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy kelishmovchiliklar va boshqalar. Konfliktni chuqurroq tushunish uchun, albatta uning kelib chiqish sabablarini o'rganmoq lozim. Masalan, er-xotin o'rtasidagi konfliktlarni oladigan bo'lsak, avvalo ularning oilaviy hayotda turli ma'naviy va moddiy zaxiraga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalanganliklari, bir-birini hurmat qilmasligi, tushunmasligi, er xotinni, xotin erni qo'llab quvvatlamasligi,

oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik va hokazolarni sabab qilib olish mumkin. Ishxonada rahbar va xodim o'rtasidagi konfliktlar aksariyat holatlarda rahbarning boshqaruv ilmiga to'liq ega emasligi, sohani bilmasligi, qo'l ostidagi xodimlar bilan kelisha olmasligi, ularni tushunmasligi yoki o'z gapini o'tkaza olmasligi va hokazolardan kelib chiqadi. Har qanday konflikt asosida biror tomonning ma'lum bir maqsadga erishish yo'lidagi harakati yotadi. Demak, konflikt ma'lum manfaat va maqsadlarga erishish yo'lidagi o'zaro muloqotning o'ziga xos sifatidir.

Konflikt har kunlik hayot tarzimizga xos bo'lgan voqelik bo'lishiga qaramay, insonlar ko'pincha ularni noto'g'ri talqin etadi hamda ularni "anglangan" holda qabul qilishga o'rgatilmaydi. Konflikt vaziyatga tushib qolgan vaqtimizdagina mana shu konflikt vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizning bilim va ko'nikmalarimiz konflikt vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki bizning hayotiy tajribamiz kam, chunki biz konfliktlar yechimi bo'yicha maxsus bilimlarni egallamaganmiz. Tabiiyki, har bir inson konfliktlarni tushunadi, ular mohiyatini to'g'ri anglaydi hamda ularni yenga biladi deyish, xato hisoblanadi. Shu bois, konfliktlarni o'rganish, ularni ilmiy anglash davr talabi bo'lib, konfliktlar bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarni tarbiyalab - voyaga yetkazish davr bilan hamnafas bo'lishni anglatadi. Xorijiy ellarda yuqori va quyi bosqichdagi barcha rahbar xodimlar, biznes menejerlarning barchasi konfliktlar yechimi bo'yicha ta'lim oladilar. Konfliktlar va ularning yechimi bo'yicha ma'lum bilimlar va ko'nikmalarni egallamasdan

turib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda faoliyat olib borib hamda ularni boshqarib bo' lmaydi.

Hech bir inson o' zini konfliktlardan doimiy muhofaza qilinganman deb hisoblay olmaydi. Chunki konfliktlar ba' zan qo' qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o' zgartirib yuborishi mumkin. Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi bo' lib, hech bir inson konfliktlardan o' zini "kafolatlanganman" deb ishonch bilan ayta olmaydi. Har birimiz bolalik davrlarimizdan konfliktli vaziyatlarga tushamiz va bu holatlardan chiqib ketish yo' llarini, usullarini qidiramiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, konflikt ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki u ko' pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqea va hodisalarni qamrab oladi hamda konflikt rivojidan har bir inson, yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o' rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi zarar ko' rishi mumkin.

Ulg' ayganimiz sari konfliktli voqea, hodisalar o' z kuchi va ta' sirini ham kuchaytirib boradi. Ammo biz konflikt nimaligini bilamizmi?! Har doim ham konfliktli vaziyatga tushib qolganda o' zimizni to' g' ri tutamizmi? Konflikt bizning hayotimiz uchun tahdid ko' rsatadimi? Konfliktning o' z ichki tabiati qanday? Konfliktidan qanday qutilish ya' ni undan qanday chiqib ketish kerak? Ziddiyat qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi? Nizoni rivojlantiruvchi omillarni oldindan bartaraf etsa bo' ladimi? Inson ziddiyatlarsiz yashashga o' rganishi mumkinmi?! kabi savollar butun bir vujudimizni qurshab oladi.

Konfliktologiya, yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Ko'rinib turibdiki, konfliktologiya o'z ichki yo'nalishlari ko'p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga ko'mak beradi³¹.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqloq mafkurasining asosiy vazifalaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Aslida diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etilgan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar hayot saboqlarini bir-biridan o'rganganlar, ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning

³¹ O.Toshev. Jamiyat barqarorligida konfliktlarning ahamiyati. Toshkent-2023.B-214-217

yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Bu asoslar mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir»³², - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir.

Mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg'ulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator tamoyillar belgilab qo'yilgan.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan.

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. **Irqchilikdan** g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkor millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy **aqidaparastlik** va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Demak, muayyan hollarda ular uyushgan shaklda ham chiqishi mumkin. Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak.

Millatlararo totuvlik - milliy istiqlol mafkurasining aso-siy g'oyalaridan biri bo'lib, u muayyan hudud, davlatda turli millat vakil-larining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Yoki boshqacha aytganda,

³² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003.

millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Bu g'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir.

Milliy g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu - tajavvuzkor **millatchilik va shovinizmdir**. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm yoki milliy xususiyatlar bilan hisoblashmagan va soxta baynalmilal-chilik g'oyasiga asoslangan kommunizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Demak, mamlakatlarda ko'p millatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolar jamiyati qurilishining ta'sirchan vositasiga aylanib qolgan.

3. Diniy bag'rikenglik - xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor, hamjihat bo'lib, yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Q.Nazarovning fikricha, qadimdan diyorumizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yaxudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharimizda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat

ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi³³.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir.

Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta'limotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

³³ Назаров Қ., Очилдиев А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2002, 36-37- бетлар.

Aksincha, diniy bag'rikenglikni tor ma'noda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zaro guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. Shuningdek, ayrim guruhlarning g'arazli manfaat-lariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik, umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy g'oyaning amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, holisona hal qilinmoqda. Millatlar o'rtasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo'lishini, mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an'analari, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmog'i lozim.

O'zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, G'arb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa

dinlarga e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi³⁴.

Inson deb ongli tarzda mehnat qilish, ijodiy ilmiy faoliyat yuritib tabiat, jamiyat hodisalarining sir-asrorlarini bilish va ularni o'z ehtiyojlariga qarab o'zgartirish, o'zidan tug'ilgan farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazish, boshqalarning dardlariga malham bo'lish, o'zidagi jismoniy va ma'naviy barkamollikni uyg'unlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan fahm farosatli, tirik aqlli mavjudotga aytiladi.

Komil so'zi arabchadan o'zbek tiliga kirib kelgan bo'lib —yetuk, to'liq, mukammal³⁵ degan ma'noni anglatadi. Shunga ko'ra komillik deb mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuiga aytiladi. Ana shunday komillikka erishgan insonlar jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu tufayli komil inson g'oyasi dunyoga kelgan. O'zbek xalqi mustaqillikka erishgach komil inson g'oyasi yangicha mazmun-ma'no kasb eta boshladi. Hozirgi kunda komil insonga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirish vazifasi qo'yilgan:

1. Har bir odamni jismonan sog'lom qilib tarbiyalash. Jismoniy tanasida nosog'lom bo'lgan odam qanchalik urunmasin komillik darajasiga ko'tarila olmaydi.

2. Har bir katta-kichik odamning dunyoviy (tabiiy va gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy) bilim asoslarini chuqur o'zlashtirishini yo'lga qo'yish. Dunyoviy bilimlarni puxta o'zlashtirmagan odam taraqqiyotning nima ekanligini tushunmaydi, texnika va texnologiyalardan, xo'jalik va davlatni boshqarish san'atidan to'g'ri foydalana olmaydi.

3. Har bir fuqaro diniy bilim asoslaridan xabardor bo'lishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish. Diniy bilim asoslaridan xabardor bo'lmagan odamlar ko'r-

³⁴ A. Sattarov. Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari. "Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari" -2021. B-131-136

³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.2. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. —Б.393.

ko'rona boshqa yo'llarga kirib ketishi, ya'ni diniy ekstremizm kabi vayronkor g'oyalarning qurboniga aylanishi mumkin.

4. Odamlarni ma'naviy-ruhiy jihatdan ham sog'lom bo'lishi haqida qayg'urish. Ma'naviy qashshoqlik, ruhiy xastalik balosiga giriftor bo'lgan odamni hech kim komil insonlar safiga qo'shmaydi.

5. Kishilarni qanday bo'lmasin biron bir foydali kasb-hunarning egasi, ya'ni o'z kasbining ustasi, aniqrog'i yetuk mutaxassis qilib yetishtirish. Kasb hunarsiz odamlar bilan farovon hayot qurib bo'lmaydi.

6. Yoshlarni ongli, mustaqil fikr yuritadigan, har tomonlama bilimli, voqealar rivojidan mantiqan to'g'ri xulosa chiqara oladigan qilib tarbiyalash. Aqlsizlik jaholatga olib keladi. Jaholat esa halokatga olib keladi.

7. Kishilarning ma'naviy vujudida yuksak axloqiy – ma'naviy fazilatlarni shakllantirish. Inson milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qanchalik amal qilsa, uning axloqiy-ma'naviy fazilati ham shunchalik yuksak bo'ladi.

8. Yoshlarni ozod va erkin, o'z Vatanini jondan ortiq sevguvchi shaxs qilib voyaga yetkazish. Uning vujudiga Vatanning mustaqillik ruhini singdirish. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda komil inson tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Komil insonlar deb, dunyoviy bilim asoslarini puxta egallagan, diniy bilim asoslaridan xabardor bo'lgan, jismonan sog'lom, ruhiy jihatdan nuqsonsiz, biron bir foydali kasb-hunarning ustasi bo'lgan, mustaqil fikr yuritadigan, ongli, mantiqan to'g'ri xulosa chiqaradigan, yuksak axloqiyma'naviy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ona-Vatan ozodligi va obodligi yo'lida jon fido qiladigan, haqiqiy vatanparvar, xalqparvar kishilarga aytiladi.

Shu sababli komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butunbutun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkumdur.

Mustaqil Vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g'oyalarni hayotiy e'tiqodiga aylantirgan yetuk insonlarga bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazishga yuksak e'tibor berilmoqda³⁶.

Bugungi kunda o'zbek xalqining tarixiy makon va zamonda bir million yillik o'rni borligi tarixiy haqiqat sifatida ko'pchilik ilm ahliga ma'lum. Bu xalqning davlatchiligi tarixi esa 3 ming yildan ortiqroq vaqtni o'z ichiga qamrab oladi. Ular ana shu tarixiy davr ichida juda ko'plab baxtli va baxtsiz onlarni, ya'ni taraqqiyot va inqiroz, barqarorlik va beqarorlik, g'alaba va mag'lubiyat, hukmronlik va tobelik, saxovatpeshalik va mutelik, sadoqat va xiyonat kabi hayotning totli va achchiq damlarini boshdan kechirganlar. Ayniqsa, ular o'z hayotlarining 200 yilini ahamoniylar, 180 yilini grek-makedoniyaliklar, 200 yilini arab xalifaligi, 150 yilini mo'g'ul bosqinchilari, 130 yilini rus va sovet istilochilari, ya'ni jami bo'lib 800 yilini o'zgalar qo'lida qullik, qaramlik, tobelik, mustamlakachilik sharoitida o'tkazishga majbur bo'lganliklari sababli ozod Vatanda erkin yashashning nima ekanligini o'zgalardan ko'ra yaxshiroq anglaydilar. Shu tufayli ozod Vatan tushunchasi o'zbek xalqi milliy mafkurasining bosh g'oyasiga aylangan.

Ozod so'zi fors tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan bo'lib, lug'aviy jihatdan erkin, hur; asoratdan qutulgan; g'am-tashvishdan xoli; olijanob; saxovatli degan ma'nolarni bildirgan holda kishilarning kundalik hayotida: 1) o'z erki, haq-huquqi o'z qo'lida bo'lgan, ozodlikka erishgan; erkin, hur; 2) qullikdan ozod etilgan, erkinlikka chiqqan, asoratdan qutilgan; 3) o'z holiga, mayliga qo'yilgan, bo'shatib yuborilgan, hech qanday majburiyat bilan bog'lanmagan; bo'sh; 4) tik, tikka, ko'krakni kerib yuradigan odam, elat, millat, xalq ma'nosini anglatish uchun

³⁶ Ж.Я.Яхшиликов, Н.Э. Мухаммадиев. Миллий Фоя: Ўзбекистонни Ривожлантириш Стратегияси. Дарслик. Тошкент – 2018. Б-228-232

ishlatiladi³⁷. Shundan ham ko'rinib turibdiki, ozodlik shunchalik oddiy so'z emas, balki o'zida chuqur falsafiy ma'noni aks ettirgan g'oyaviy ahamiyatga molik bo'lgan tushunchadir. Ozodlik tushunchasining falsafiy mazmundagi g'oyaviy tabiati:

birinchidan, har bir inson, elat, millat, xalq va davlatning o'z haq huquqlarini himoya qilishida;

ikkinchidan, ularning o'z erkini qo'lga kiritib, erkin va farovon yashashga intilishida;

uchinchidan, hayotiy adolatni qaror toptirib, tenglar ichida teng bo'lib, tikka, ko'krak kerib yurishga intilishi sari qilayotgan xatti-harakatlarida;

to'rtinchidan, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish maqsadida olib borayotgan mashaqqatli, ayni vaqtda sharaflilik ishlarni amalga oshirish uchun qanchalik darajada safarbarlik vazifasini uddalayotganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra ozodlik tushunchasiga g'oya sifatida quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Ozodlik – bu mutelik va tobelikning har qanday ko'rinishlarini inkor etgan holda, har bir inson, elat, millat, xalq va davlatlarni qullik va qaramlik balosidan qutilib o'z erkini qo'lga kiritish, haq-huquqlarini himoya qilish, hayotiy adolatni qaror toptirib, tenglar ichida teng bo'lib, erkin va farovon yashash uchun kurashga chorlaydigan, ularni shu yo'lda birlashtiradigan va safarbar qiladigan bunyodkor ijtimoiy-siyosiy g'oyadir.

Insoniyat tarixidan shu narsa ma'lumki, har bir inson, elat, millat, xalq o'ziga tegishli bo'lgan ona-Vatanida, davlatida ozod va erkin yashaydi. Ona Vatandan tashqaridagi ozodlik haqiqiy ozodlik emas, balki unga o'zgalar tomonidan in'om etilgan erkinlikdir.

Shuning uchun har bir aqli raso inson hamisha o'z ona-Vatanining ozodligi uchun kurashib kelgan. Shu sababli ozodlik g'oyasi insoniyat tarixining azaliy

³⁷ *Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. –Т.: —Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. –Б.95.*

yo'ldoshi, o'tmishdan hozirga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelayotgan ezgu qadriyat hisoblanadi.

Ozodlik g'oyasining mazmun-mohiyatini bir necha yo'nalishda talqin va tahlil qilish mumkin. U ijtimoiy ma'noda – jamiyat hayotining qandayligi va qay tarzda tashkil etilganini, siyosiy ma'noda – mustaqil va emin-erkin yashashni, iqtisodiy ma'noda – mulk va moddiy boyliklarga barchaning teng ega bo'lish imkoniyatini, ma'naviy ma'noda – inson va jamiyatning turli tazyiqlardan xolisligi, fikr, e'tiqod va so'z erkinligini anglatadi. Ozodlik g'oyasini umuminsoniy, milliy va shaxsiy nuqtai nazarlardan ham talqin qilish mumkin. Umuminsoniy jihatdan, bu g'oya butun Yer yuzida taraqqiyot va erkinlik uchun kurashayotgan kishilarning muzaffar bayrog'i, demokratik jamiyat va davlatlar hayotining ustuvor tamoyillaridan birini ifodalaydi. Milliy jihatdan, u har bir millat va xalqning o'z mustaqil taraqqiyot yo'li, o'z taqdirini o'zi belgalay olishi, milliy davlatchiligiga ega bo'lishini anglatadi. Shaxsiy darajada ozodlik – inson haq-huquqlarining ro'yobga chiqishi, uning ijtimoiy-ma'naviy jihatdan erkinligini bildiradi.

Ozodlik g'oyasining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosabatlari, mamlakatlar va davlatlararo munosabatlarni me'yor-mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki ortiqcha ta'zim-tavozega chek qo'yadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda —ozod Vatan g'oyasini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Ozod Vatan – o'z taqdirini o'zi mustaqil hal etish huquqini to'la ro'yobga chiqara olgan millatning yashash makoni bo'lib, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga, nufuziga va mavqeiga ega bo'lgan mamlakatdir³⁸.

Inson barcha tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, o'zining yashayotgan maskanini obod qilishga harakat qilib kelgan. Shu tufayli jahon sivilizatsiyasining obodlikni tarannum etuvchi o'choqlari yaratilgan. Obod yashash uchun kurash insoniyatning azaliy orzu-umidi bo'lib, u hayot sinovlaridan o'tgandan so'ng eng

³⁸ *Қаранг:* Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти. –Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2007. –Б.255.

ilg'or ijtimoiy-siyosiy bunyodkor g'oyalar safidan joy olgan. Bular ichida O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon. U yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa ham, daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom ma'noda bunyodkordir. O'zining yashayotgan joyini obod qilgan holda kun kechirish har bir o'zbekning qon-qoniga singib ketgan fazilatdir. Shu tufayli obod Vatan tushunchasi har bir o'zbek bolasi va uning oilasi uchun muqaddas g'oya hisoblanadi.

Obod so'zi forsha bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi —odam yashaydigan, ishlov berilgan, gullab yashnayotgan degan ma'nolarni anglatgan holda kishilarning kundalik turmushida: 1) ko'rkam binolar, chiroyli ko'chalar, bog'u rog'lar bilan go'zallik kasb etgan, gullab-yashnagan o'lka, mamlakat; 2) yaxshi qarov, parvarish bilan yetiltirilgan bog'lar, paxta, g'allakabi ekin maydonlari; 3) xalq ko'p yig'iladigan, gavjum va serfayz joylar; 4) odamlari xursand, shod degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi³⁹.

Barchamizga yaxshi ayonki, har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, bu dunyoga baxtli yashash uchun keladi. Bunday yuksak orzuga yetishning sharti va garovi bo'lgan omillar ko'p. Lekin ular orasida hayotimizga ma'nomazmun beradigan, uni yanada yorug' va fayzli qiladigan bir omil borki, u ham bo'lsa, odamning o'z uyi, o'z yurtini har tomonlama go'zal va obod qilib, shundan o'zi mamnun bo'lib, rozi bo'lib yashashiida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, obod degan so'zning ma'nosini biz juda keng va chuqur tushunamiz.

Obod deganda, xalqimiz, millatimiz nafaqat ko'rkam va chiroyli, shu bilan birga, tinch va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, fayz-baraka hukmron bo'lgan joylarni, doimo pok niyat va sog'lom intilish bilan yashashni tasavvur qiladi.

Mustaqillik yillarida **Obodlik ko'ngildan boshlanadi** degan chuqur mazmunli ibora el-yurtimiz o'rtasida keng tarqalib, odamlarimizni bunyodkorlik tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

³⁹ *Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.Ш. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.74.*

Bunday mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, o'zbekona aytadigan bo'lsak, barchamizning harakat va intilishlarimiz negizida, avvalambor, yurtimiz, Vatanimizni har tomonlama obod qilish, inson erkin nafas oladigan, tinch va farovon yashaydigan hayot barpo etish g'oyasi mujassam ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz. Ana shunday orzu-niyatlar bilan kundalik hayotimizni to'ldirish, ularni hayotimizning maqsadiga aylantirish, shunday g'oya va intilishni amalga oshishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, hech shubhasiz, bugungi kunda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Demak, obod Vatan – bu inson har tomonlama erkin nafas olib tinch va farovon yashaydigan, xavfsizligi har tomonlama ta'minlangan, osoyishtalik va barqarorlik, samarali ijod va yaratuvchanlik, o'zaro mehr oqibat, ahillik, fayz-baraka, jismoniy va ma'naviy poklik hukmron bo'lgan hududdir.

Insoniyatning rivojlanish tarixida mehnatkash xalq hal qiluvchi vazifalardan birini o'tab kelgan. Chunki, ular har qanday mamlakat fuqarolarining eng zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarga bo'lgan ehtiyojini qondirishning moddiy manbasini yaratish bilan shug'ullanganlar. Shuning uchun ham aqli zukko davlat arboblari mehnatkash xalqning turmushini yaxshilash borasida qayg'urganlar. Sohibqiron Amir Temur obod qilish masalasida: —Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafdin obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblari va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin. Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'nib o'tadigan yer; miskin va yetim-yesirga taom beriladigan joy; g'aribxona) solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar⁴⁰, degan topshiriqlarni bergan va uning ijro etilishini qattiq nazorat ostiga olgan. Ajdodlarimizning bunday olijanob ishlari milliy g'oyamizning bosh maqsadini mamlakatimizda amalga oshirishning mustahkam tarixiy ildizga ega ekanligidan dalolat beradi.

⁴⁰ *Қаранг:* Темур тузуклари. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.124–125.

Mamlakatimizda erkin va farovon hayot barpo etish nimalarni anglatadi? **Erkin** deganda, odatda kishilarning har qanday to'siq, g'ov, monelik va shu kabilardan xoli bo'lgan holda qiynalmay, qisilmay, ochiq-oydin, bemalol yurishturishi, yashashi tushuniladi. **Hayot** (arabcha – yashash, mavjud bo'lish, tiriklik) bu insonlarning tug'ilgandan o'lgunga qadar bo'lgan tiriklik, mavjudlik, yashash holati hisoblanadi. **Farovon** yoki farovonlik (forscha – mo'l, juda ko'p, ortiq, ziyoda) esa odamlarning har jihatdan ta'minlanganlik, hamma narsasi mo'lko'l, to'q, serfayz baxtiyor holatini anglatadi. Demak, **erkin va farovon hayot – bu mamlakat aholisining bu mamlakat aholisining hayotiy zaruriyatlarini anglab yetgan holda hech qanday qarshiliklarsiz, to'siqlarsiz, ochiq-oydin, qiynalmasdan o'z qobiliyatlarini har tomonlama namoyon qilishlari orqali hamma narsaning to'kin-sochin, mo'l-ko'lchiligini ta'minlashga erishishi natijasida go'zal turmush, osuda, serfayz hayot kechirishiidir.**

Bunday hayotga erishish uchun uning moddiy va ma'naviy omillarini bilish, ularning rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy jihatdan o'rganish zarur. Masalan, qishloqda erkin va farovon hayot – obod turmushni bunyod etishning moddiy omillariga quyidagilar kiradi: birinchidan, tabiat omili: tuproq, suv, o'simlik va hayvonot olami, dashtu-dalalar; ikkinchidan, ishlab chiqarish omili: paxtachilik, g'allachilik, sholikorlik, mevachilik, polizchilik, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqalar; uchinchidan, ishlab chiqaruvchi kuch va vositalar omili: qishloq xo'jaligi texnikalari, mahsulotlarga qayta ishlov beruvchi qurilmalar, malakali ishchi kuchlari dehqonlar, chorvadorlar va boshqa kerakli mutaxassislar; to'rtinchidan, ijtimoiy turmush omili: zamonaviy turar joylar: odamlarning uy, shaxsiy ehtiyojlar uchun ajratilgan tomorqa yer va chorva mollari.

Qishloqda erkin va farovon hayot – obod turmushni bunyod etishning ma'naviy omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan bilim va harakatlar, ya'ni ekologik ong, huquq va madaniyat; ishlab chiqarish omilini rivojlantirish, ya'ni paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va boshqalardan mo'l hosil olishga qaratilgan bilimlar (agronomiya, zooveternariya,

tuproqshunoslik va sh.k.) va to'plangan amaliy tajribalar; ishlab chiqaruvchi kuch va vositalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiy va texnikaviy bilim hamda tajribalar; zamonaviy turar joylarni go'zallashtirishga qaratilgan me'moriy ilmlar; bolalar bog'chasi, maktab, o'quv markazlari, madaniyat saroylari, sport inshootlari; aholi o'rtasida azaldan davom etib kelayotgan urf-odatlar, an'ana va marosimlar, qadriyat darajasiga ko'tarilgan boshqa ma'naviy ish-harakatlar.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g'oyasi:

birinchidan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan, kindik qonimiz to'kilgan muqaddas zaminning daxlsizligini, xavfsizligini ta'minlash;

ikkinchidan, ma'naviy-ruhiy jihatdan milliy o'zligimizni anglash va uning ifodasi bo'lgan qadriyatlarni saqlash, boyitish va avlodlarga meros qoldirish;

uchinchidan, bu g'oya kelajakka qaratilgan bo'lib, xalqni uyushtirish, safarbar qilish vazifasini bajarish;

Mamlakatimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish g'oyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilangan:

Birinchidan, O'zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lib qolishi darkor.

Albatta, bu masala bo'yicha mas'ul bo'lgan tegishli idoralar bor, kuchqudratimiz ham yetarli. Lekin qachon yurt tinch va obod bo'ladi? Qachonki, har qaysi uyda, har qaysi mahallada yashayotgan odam tinchlik va osudalikning qadriga yetib, uni mustahkamlashni, uni himoyalashni o'zining burchi, deb bilsa, tinchlik uchun kurashsagina bu maqsadga erishish mumkin.

Ikkinchidan, obod hayot degan tushuncha azal-azaldan xalqimizning ongu tafakkurida, avvalambor, farovonlik, to'kinchilik, mo'l-ko'lchilik, qut-baraka, bozorlarda arzonchilik ma'nosini o'zida mujassam etib keladi, Shuning uchun ham bugungi kunda xalq farovonligi tushunchasi Vatan ravnaqi va yurt tinchligi degan, biz uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan qadriyatlar bilan birgalikda milliy

g'oyamizning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda. Bu g'oyani amalga oshirishda aholi farovonligi, uning real daromadlarini oshirish bandlik masalasini yechish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish kabi vazifalar e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning —Mehnatdan kelsa boyluk turmush bo'lar chiroylik degan maqoli zahirida mujassam bo'lgan haqiqatni hayotimiz tarziga aylantirish yo'lida katta-katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, obod turmushning yana bir muhim sharti – bu inson salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Haqiqatan ham, odamlarimiz qachon, qayerda bo'lmasin, duoga qo'l ochar ekan, avvalo, —Tani sog'lik, tinchlik-xotirjamlik bo'lsin, yurtimiz obod bo'lsin, deb niyat qilishi bejiz emas, albatta. Shu bois xalqimizning salomatligini himoyalash, buning uchun sog'liqni saqlash tizimini eng zamonaviy davolash vositalari, texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, profilaktika, ya'ni kasalliklarning oldini olish ishlarini yanada kuchaytirish, bu sohada fidokorona mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlarining mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish masalalari biz uchun doimiy vazifa bo'lib qoladi.

To'rtinchidan, xalqimizning hayot sifati va darajasini yuksaltirish, jumladan, yangi uy-joylar, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, kommunal xizmat sohasidagi muammolarni yechish kabi dolzarb masalalar bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

Beshinchidan, biz turmushimizni yanada obod qilish vazifasini oldimizga qo'yar ekanmiz, bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz zarur. Ya'ni, hayotimizni obod qilishning muhim sharti – bu avvalo, mahallani obod qilish demakdir. Shu borada mahalla idorasining, mahallada yashaydigan aholimizning o'zini o'zi boshqarish tizimini, kerak bo'lsa ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'rni va ta'sirini

yanada kuchaytirish, unga yangi huquq va vakolatlar berish bo'yicha ham keng jamoatchilik ishtirokida amaliy takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, hayotimizni yanada sog'lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o'rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha yo'nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadon, uy bekasi bo'lmish opa-singillarimizning og'irini yengil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bog'liqdir. Bu ulug'vor vazifalarni amalga oshirish uchun taktik va strategik jihatdan hali ko'p ishlarni bajarish kerak bo'ladi.

«INSERT» JADVALI

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	<i>+</i>	<i>-</i>	<i>?</i>
Jamiyat bilan shaxs orasidagi munosabatlar xaqidagi qanday falsafiy fikrlar ilgari surilgan?				
Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoitning o'rni				
Shaxsning tarixiy tiplarga ajralishining asosiy omillari, deganda nimani nazarda tutasiz?				
«Erkin shaxs» tushunchasini ta'riflang				
Shaxs erkinligi va ma'suliyati xaqida nimalar deya olasiz?				

V – bilaman.

+ - yangi ma'lumot.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

7. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

11-Mavzu: Ijtimoiy normalar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni

REJA:

1.«Umuminsoniy axloq prinsiplari» tushunchasi.

2. Insonparvarlik prinsipi. Jamoatchilik prinsipi. Qonuniylik prinsipi. Vatanparvarlik prinsipi.

3.«Umuminsoniy axloq normalari» tushunchasi.

4. Kasb axloqining normalari.

Tayanch tushunchalar: Axloq, odob, xulq, kasb axloqi, axloqshunoslik, axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy va huquqiy munosabat, umuminsoniy axloq prinsiplari, insonparvarlik, jamoatchilik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, axloq normalari, xushmuomalalik, halollik va rostgo'ylik, shijoat va hushyorlik, axloqqa zid normalar, g'azzab, poraxo'rlik, kasbiy buzilish, axloqiy tarbiya

«Prinsip» lotincha - «principium» - «asos, negiz»; «ibtido» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida: 1) biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilaming asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida; 2) xulq-atvor, xatti-harakat me'yorini belgilaydigan, kishi qattiq

ushlab olgan va og' ishmai amal qiladigan ichki ishonch, nuqtayi nazar, qarash, maslak degan ma' nolami anglatadi.

Axloq prinsiplarini biron-bir shaxs yaratmagan, u muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq, moddiy va ma'naviy hayot jarayonida kishilar ijtimoiy turmushining, axloqiy munosabatlarning talablarini birmuncha umumlashgan holda aks ettiradigan axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan qonun-qoidalar hisoblanadi. Shunga ko'ra, **«Umuminsoniy axloq prinsiplari deb jamiyatning ma'naviy ongida ishlab chiqilgan, insonning ma'naviy mohiyatiga, burchiga, hayotining mazmuniga va kishilar o'rtasidagi ofzaro talablarning tabiatiga taalluqli umumiy talablarni aks ettiradigan, insonlar faoliyatining umumiy yo'nalishini ko'rsatib beradigan va muayyan xulq-atvor normalariga asos bo'lib xizmat qiladigan qonun-qoidalarga aytiladi.**

Umuminsoniy axloq prinsiplariga quyidagilar kiradi: insonparvarlik, o'zaro yordam, ishonch, hamjihatlik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, adolatlilik, odamiylik, qonuniylik va h.k. Insonparvarlik ikki ma'noda: birinchidan, amaliy faoliyat, ya'ni insonning ozodlik va tenglik uchun olib boradigan kurashi; ikkinchidan, dunyoqarash, mafkura, siyosat, axloq, tarbiya sifatida tushuniladi. Bu ikki tomon doimo bir-birini to'ldirib turadi.

Insonparvarlik odamlarga mehr-muliabbat bilan qarash ularning haq-huquqlarini hurmat qilish, baxt-saodati, har tomonlama kamol topishi hamda ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi oliyjanob tuyg'ular, qarashlar majmuyidir.

«Insonparvarlik» axloqiy prinsip sifatida kishilarning xulqini bir biriga hurmat va g'amg'o'rlik, insonning kuch-qudratiga ishonch ruhida tartibga solib boradigan xatti-harakatlarni

bildiradi. Insonparvarlik prinsipining axloqiy mazmunini quyidagilar tashkil – insonni oliy darajadagi qadriyat deb tushunish, uning ijodiy kuch va qobiliyatlari, imkoniyatlari cheksiz kamol topishiga ishonish;

- har bir insonning qadr-qimmatini, shaxsiy daxlsizligini, erkin yashashini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishini, baxt-saodatga erishishini talab qilish;

- har bir insonni – yoshi, jinsi, irqi, millati, tili va dinidan qat'iy nazar moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratuvchisi sifatida hurmat qilish;

- erkak va ayollarni, qariya va bolalarni, barcha irq va millat vakillarini ulaming insoniyligiga qarab hurmat qilish;

Insonparvarlik prinsipi o'zining huquqiy ifodasini «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» (1948 yil 10 dekabr), «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» (1992 yil 8 dekabr) kabi xujjatlarda topgan.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da: «Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlarcha munosabatda bo'lishlari kerak» (1-modda); «Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir» (3-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir» (24-modda); «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligiga ega» (27-modda); «Hamma

uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e' tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e' tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo' l qo' yilmaydi»

(31-modda) deyilgan. Bular Konstitutsiyamizning nihoyatda insonparvar ruhdagi qonun ekanligini ko' rsatadi.

O' zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etishning ma' naviy negizlaridan birini insonparvarlik tashkil etadi. Insonparvarlik prinsipini amalga oshirmasdan turib xalqimizning azaliy orzusi bo' lgan adolatli jamiyatni barpo etib bo' lmaydi. Insonparvarlik xislatlari esa xalqimizning qon-qoniga, jon diliga singib ketgan.

Insonparvarlik o' zbek xalqining barcha hayot jabhalariga kirib ketgan bo' lib, uning qonun-qoidalari, masalan, kasb sohasi xodimlarining fuqarolar bilan, aholining turli-tuman qatlamlari bilan bo' ladigan axloqiyma' naviy munosabatlarini qamrab olgan holda ularni tartibga solib turtuvchi, boshqartuvchi vosita hisoblanadi. Umuminsoniy axloq prinsiplariga kiruvchi insonparvarlik kasb sohasi xodimlari, masalan, shifokorlarning aholi sog' lig' ini saqlash faoliyatida o' ziga xos tarzda namoyon bo' ladi. Ushbu xususiyat quyidagilarda ko' rinadi:

1. Kasb sohasi xodimlari faoliyati o' z mazmuniga ko' ra insonparvarlik xususiyatiga ega. Chunki bu muassasalar kishilarning yashashi, mehnat qilishi, ijod bilan shug' ullanishi, dam olishini ta' minlash uchun ularni har xil yuqumli kasalliklardan himoya qilish, ularning shaxsiy, mulkiy, siyosiy haq-huquqlarini ta' minlashga qaratilgan.

Shunga ko'ra, umuminsoniy axloq prinsipi bo'lgan insonparvarlik kasb sohasi xodimlarining faoliyatida yomonlikka, yovuzlikka qarshi kurashuvchi, shaxs va jamiyat, davlat manfaatlarini har xil g'ayrinsoniy tajovuzlardan himoya qiluvchi, jamiyatda o'rnatilgan huquq va axloq normalarining og'ishmay amalga oshirilishini ta'minlovchi, har bir insonning baxtli-saodatli hayot kechirishi va kelgusida kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga xizmat qiluvchi kasb axloqi prinsipi shaklida namoyon bo'ladi.

2. Kasb sohasi xodimlarining xizmat faoliyatida insonparvarlikning kasb axloqi sifatida amal qilishini ko'rsatuvchi omillardan biri ulaming har xil kasalliklaming oldini olishga qaratilgan xatti-harakatlari va o'tkazadigan tadbirlari hisoblanadi. Bu xatti-harakat va tadbirlaming zahirida yotuvchi insonparvarlik g'oyasi quyidagilarda ifodalanadi: axloqiy nazoratdan chetda qolgan shaxslarni aniqlash va ular orasida ta'lim-tarbiya ishlari olib borish; balog'at yoshiga yetmagan yoshlarning mehnat qilish, dam olish, qadriyatlardan foydalanish huquqlarini himoya qilish; yuqumli kasalliklar keltirib chiqaruvchi sabablarni tezlikda aniqlash va ularni tugatish choralarini ko'rish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida muntazam sog'lom turmush tarzini targ'ibot va axloqiy tarbiya ishlarini tashkil qilish.

Shunday qilib, kasb sohasi xodimlari o'z faoliyati bilan insonparvarlikka xizmat qiladilar, ya'ni insonning sog'ligiga zarar yetkazuvchi qonunbuzar shaxslarni jamiyatda qaror topgan huquqiy va axloqiy normalar asosida tarbiyalash va qayta

tarbiyalash orqali erkin ijobiy hayotga, olijanob insonlar davrasiga qaytarish vazifalarini bajaradi.

3. Jamiyat va davlat tomonidan o' rnatilgan huquqiy va axloqiy normalarni buzib, jinoyat sodir etganlarni ham, eng avvalo, inson deb bilgan holda, qayta tarbiyalab, halol mehnat quchog' iga qaytarish asosida ish yuritish o' zбек qonunchiligining va qonun ijrosini ta' minlovchi kasb sohasi xodimlarining faoliyatidagi insonparvarlikning asl mohiyatini tashkil etadi.

4. Kasb sohasi xodimlari faoliyatidagi insonparvarlik kasb sohasi bilan bog' liq yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi kurashda qo' llaniladigan usul va vositalarda o' z ifodasini topgan bo' lib, avvalo, ishontirish, so' ngra rnajbur qilish vositalarini qo' llashda ko' rinadi.

Ishontirish usuli har bir insonni o' rnatilgan huquq va axloq normalariga amal qilishga, qonun talablari va tartib-intizomni buzmaslikka, bordiyu ularni buzsa, albatta qilmishiga yarasha jazo olishi muqarrarligiga iqror etishda namoyon bo' ladi. Insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati bunyod etish jarayonida insonning sog' ligini, uning haq-huquqlarini himoya qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, ayni vaqtda Kasb sohasi tizimi faoliyatini tubdan qayta qurishni, insoniylashtirishni taqozo etmoqda. Kasb sohasi tizimi faoliyatini insoniylashtirish ikki yo' naliq olib borilishi kerak: birinchidan, sog' liqni saqlashning butun faoliyatini;

ikkinchidan, har bir xodimni insoniylashtirish zarur, insoniylashtirish insonparvarlikning amaldagi ifodasidir.

Jahon mutafakkirlari insonparvarlik haqida:

- Odamlar, insonparvar bo'ling! Bu sizning birinchi burchingiz. **(J.J.Russo)**
- Inson bo'lish – san'atdir. **(Novalis)**
- Har bir kishi - butun bir kitobdir, hamma gap uni o'qiy olishda.

(U. Chenning)

- Inson bo'lish - kurashchi bo'lmoqlikdir. **(I.Gyote)**
- Insonni bilish uchun uni sevish kerak. **(L.Feebax)**
- Kimki hech kimni sevmasa, menimcha, uni ham hech kim sevmaydi.

(Demokrit)

3. Jamoatchilik prinsipi. Hech bir odam o'zgalardan ajralgan holda yashamaydi. U, albatta, boshqalar bilan hamkorlik qilgan holda jamoat-jamoat boiib yashaydi va mehnat qiladi. Jamoat boiib yashash - insonlarga xos xususiyatlardan biri. Bu xususiyat asosida o'zaro yordam, hamkorlik, qoilib-quwatlash, hamdardlik yotadi.

Jamoatchilik prinsipi deb kasbiy soha xodimlarining o'z burchini bajarishda odamlarning sog'lig'ini ta'minlash va haq-huquqlarini himoya qilishda shaxsiy manfaatni ko'pchilik manfaatiga ongli ravishda bo'ysundirishga asoslangan o'rtoqlarcha hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlari bilan bog'liq ixtiyoriy, ongli xatti-harakatlarini belgilovchi qoidalar majmuiga aytiladi. Jamoatchilik prinsipi kasbiy soha xodimlarining shaxsiy manfaatlarini jamoatning manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi va xodimlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi mehnat qonunqoidalari sifatida har ikki tomonga (shaxs va jamoatga) muayyan vazifa va majburiyatlamini yuklaydi.

Xodimning xizmat jamoatsi oldidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

1) xizmat jamoatsining kuchiga ishonish, uni hurmat qilish, fikriga quloq solish, unda o'zining baxtini tasavvur qilish;

2) xizmat jamoasida bo'layotgan ishlarga o'zini ham mas'ul deb bilish, tartib-intizomni saqlashga, o'zaro yordam va hamkorlik ishlariga hissa qo'shish;

3) xizmat jamoasining ahilligiga putur yetkazuvchi illatlar bo'lmish shaxsiyatparastlik, soxta jamoatchilik, amalparastlik, «tanish-bilishchilik», kalondimog'lik, gumhbozlikka qarshi kurashish.

Xizmat jamoatsining xodimlari oldidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

1) har bir xodimning xizmatini diqqat bilan kuzatish, jamoat ishiga qo'shgan hissasini adolatli baholash;

2) har bir xodimning ma'naviy va jismoniy imkoniyatlaridan, to'plagan tajribasidan unumli foydalanish;

3) har bir xodimning yaxshi turmush kechirishi uchun g'amxo'rlik qilish, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishida yordam berish.

«O'zbek xalqi azaldan jamoat tuyg'usiga moyil. Biz to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining holidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo'yib, beva- bechoralaming, yetim-yesirlaming boshini silab, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlaming farzandlari bo'lamiz. Jamuljam boiib yashash tuyg'usi biz uchun hayot falsafasiga, hayot qoidasiga aylanib ketgan.

Jamoatchilik axloqiy prinsipi sifatida, birinchidan, tarbiyalash, umuminsoniy axloq prinsiplari va normalarini amalga oshirish, ularning avlodlar o'rtasidagi uzluksizlikka asoslangan vorisiyligini ta'minlash; ikkinchidan, sogiom axloqiy-mhiy muhitni vujudga keltirish; uchinchidan, mehnat va xizmat intizomini mustahkamlash; to'rtinchidan, xodimlarni taqdirlash, axloqiy faolligini oshirish; beshinchidan, oilaviyturmush sharoitlarini yaxshilash, farzandlarni jamoat an'analari muhida tarbiyalash; oltinchidan, demokratiyani rivojlantirish asosida boshqarish ishlarini takomillashtirish vazifalarini bajaradi.

Mutafakkirlar jamoatchilik haqida:

- Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to'rt kishi uch kishidan yaxshi, ko'pchilik bilan birga bo'linglar **(Hadis)**

-Jamoat bo'lmay yakka yashash davri o'tib ketdi. **(Hadis)**

- Xodimlaringiz birodarlaringizdir. Ularga yaxshilik qilinglar. Agar ularni qiyinchilikda ko'rsanglar, yordamlashib yuboringlar. **(Hadis)**

- Odam tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir. **(Arastu)**

- Kishi uzlatda yashay olmaydi, unga jamoat kerak. **(I.Gyote)**

- Kishi jamiyat uchun yaralgan. U bir o'zi yashashga qodir emasligidan tashqari, bir o'zi yashashga jasorat ham qila olmaydi. **(U. Blekstoun)**

- Yakka odam uzlatda qolgan Robinzon singari ojizdir; faqat boshqalar bilan hamkorlikdagina u ko'pgina ishlarni qila olishi mumkin. **(A.Shopengauer)**

Qonuniylik prinsipi deb ularning konstitutsiyada, qonunlarda, farmonlarda, buyruqlarda ko'rsatilgan va belgilab qo'yilgan huquq normalarining talablarini og'ishmay amalga oshirishlari, o'ziga yuklatilgan xizmat vazifasini mavjud qonunlarga qat'iiy bo'ysungan holda bajarishlariga aytiladi. Qonuniylikning to'rt prinsipi mavjud:

- 1) qonuniylikning yagonaligi va bir xilda tushunilishi;
- 2) qonunning ustunligi;
- 3) qonunlarning haqqoniyligi va maqsadga muvofiqligi;
- 4) qonunning madaniyat bilan bog'liqligi.

Bu prinsiplarning amal qilishi, *bir tomondan*, jamoatning sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash borasida fuqarolarning, mansabdor shaxslarning, jamoat tashkilotlari, korxona va muassasalarning haq-huquqlarini qonuniy tarzda qo'riqlashlarini o'z ichiga olsa;

ikkinchi tomondan, tartib-intizomni saqlash, qonuniylikni ta'minlash, qonunga itoatkorlik jarayonlarini qamrab oladi. Bu esa har bir fuqaroning amaldagi qonunchilik prinsiplarini mukammal bilishlari va ularni o'zlarining faoliyatlarida to'liq qo'llashlari lozimligini ko'rsatadi.

Mutafakkirlar qonun va qonunchilik haqida:

- Xalq qonunni o'z tayanchi, o'zini muhofaza qiluvchi devor sifatida himoya etmog'i lozim. **(Geraklit)**

Qonunni himoya qilolmaydigan, jur'atsiz odamlar uchun qonun behudadir **T. Makoley)**

- Qonun ortida uni qo'llab-quvvatlaydigan majburlovchi kuch bo'lmasa — u qonun emas. **(J. Garfild)**

- Odatlar — bu odamlardir, qonunlar esa — mamlakatning aqli. Odatlar ko'pincha qonunlardan ko'ra shafqatsizroqdir. Aksari nomaqbul odatlar qonunlardan ustun keladi. **(O. Balzak)**

— Qonunga rioya qilmaydigan odamdek yovuz hayvon yo'q. **(J. Savonarola)**

- Qonunga xilof harakat hech kimning obro'yini oshirmaydi o'ziga hurmat ham uyg'ota olmaydi. **(L.Kazbegi)**

- Qonun insoniy donolikning yuksak ifodasi bo'lib, u odamlar to'plagan tajribadan jamiyat farovonligi yo'lida foydalanadi. **(SJonson)**

- Hech bir qonunga bo'ysunmaslik o'zini najotbaxsh himoyadan mahrum etish degan so'z, zero, qonunlar bizni boshqalardangina emas, o'zimizdan ham asrab tinnog'i kerak. **(G. Geyne)**

- Qayerda qonun tugasa, u yerda zo'rlik boshlanadi **(U. Pitt)**

- Agar qaysi yerda g'arib xo'rlanur, U mamlakat tezda vayron bo'lur. **(Sa'diy)**

Qonunlar illatlarga barham berib, yaxshilikka yo'l ochmog'i kerak. **(Sitseron)**

- Qonunlar barchaga barobar bo'lishi zarur. **(SH. Monteske)**

- Fuqarolarning haqiqiy tengligi shundaki, ular qonunlarga bir xilda itoat etmoqliklar lozim. **(J. Dalamber)**

— Qonun — mayda pashshalar ilinib, yiriklari qutulib ketadigan to'r emas. **(O. Balzak)**

- Men uchun qaysi tomon kuchliligining ahamiyati yo'q; muhimi huquq kim tomondaligida. (V. Gyugo)

5. Vatanparvarlik prinsipi. «Vatan» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «ona yurt» degan ma'noni anglatadi. «Vatan, – degan edi faylasuf olim H. Po'latov, – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, har kimning birligini qadrllovchi, o'z-o'ziga siyosiy bekligini ifodalavchi zamin, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'chog'idir».

Shunday qilib «Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan ota-bobolarimizning xoki poklari jo'bo'lgan, vaqti-soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir. Vatani bor odamning g'ururi-iftixori yuksak, maqsad-muddaolari aniq bo'ladi. Tog' dek tayanchi – Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi». «Vatanni sevmok iymondandir», – degan edilar payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom. Vatanni sevish vatanparvarlikning negizini tashkil qiladi.

Kasbiy soha xodimlarining vatanparvarligi deb ona-Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilish, har bir fuqaroning sog'ligini saqlash yo'lida har xil kasalliklarning xurujidan himoya qilishga, kerak bo'lsa, uning mustaqilligi, obodligi, ozodligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning

haq-huquqlarini himoya qilish yo'lida jonlarini fido qilishga tayyor turishlariga aytiladi. Kasbiy soha xodimlarining vatanparvarligi ulaming Vatanni his qilishida, Vatanga bo'lgan tuyg'usida ifodalangan bo'ladi.

«Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodir bo'lganligini tan olishdan, buyukligini e'tirof yetishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. O'zbekiston deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas. O'zbeksiz O'zbekistonni, O'zbekistonsiz o'zbekni xayolga ham keltirib bo'lmaydi. ...Azal kotiblari vasiqani shunday bitibdilar, taqdir bizga kulib boqibdi, O'zbekiston bizga Vatan bo'libdi, biz unga farzandi komil bo'libmiz. Toabad shunday bo'lgay, insholloh!».

Vatan hissi – muqaddas tuyg'u. Vatan tuyg'usi – ajdodlarimizning Vatan deya, uning ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilganliklarini, jabr-sitam, zulm-istibdodga uchraganliklarini yod etish, mustaqil, ozod va obod Vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Vatanparvarlik haqida donishmandlar shunday deganlar:

— Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi. **(G.Gegel)**

— Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech kimni seva olmaydi. **(Bayron)**

— Saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi. **(J.J.Russo)**

— Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslikdir.

(M. Robesper)

O ‘tar kunlar, o ‘tar zamon,
ey Vatanim, bo ‘Ima hijron!
Men ketsam-da, sen bo ‘l omon!
Omon — Vatan, Vatan — omon.

(A.Avloniy)

Norma lotincha («norma» – me’ yor, o’ lchov; qoida, qonun) so’ z bo’ lib, o’ zбек tilida. 1) rasmiylashtirilgan qonun-qoida; 2) umum tomonidan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida; 3) biror narsaning, ishning aniq belgilangan o’ lchami, miqdori, me’ yori degan ma’ nolami anglatadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy-ma’ naviy hayoti muayyan normalar orqali tartibga solinadi va boshqariladi.

Umuman olganda, jamiyat hayotida amal qiluvchi barcha normalarni texnikaviy va ijtimoiy normalarga ajratish mumkin. Bunda texnikaviy normalarinson va mashina, ijtimoiy normalar esa inson va inson o’ rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ijtimoiy normalarning turlarga quyidagilar kiradi: axloq normalari, jamoat birlashmalari normalari, milliy urf-odatlar, xalqlarning odatlari, an’ ana normalari, siyosiy hayot normalari, huquq normalari, diniy normalar.

Jamoat birlashmalarining normalari – jamoat birlashmalarining o’ z faoliyatini tartibga solish va tashkilotlarning a’ zolari o’ rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun o’ matgan xulq-atvor qoidalari.

Odat normalari – kishilarning ko'p marta takrorlangani uchun odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari.

An 'ana normalari – ilg'or an'analami asrash zarurati tufayli yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari.

Marosim normalari – kishilarning ma'lum rasm-rusumlari bajarishdagi xulq-atvor qoidalari.

Diniy normalar – dindorlarning xudoga, ibodatxonaga bir-biriga munosabatini, diniy birlashmalarning tashkil qilinishi va faoliyatini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

Siyosiy normalar – alohida shaxslar va siyosiy birlashmalarning hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari. Huquq normalari davlat tomonidan belgilanadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari.

Yuqorida keltirilgan ta'rif va tavsiflardan ham ko'rinib turibdiki, barcha ijtimoiy normalarning mag'zini axloq (xulq-atvor) normalari tashkil qiladi. Chunki, u birinchilar qatorida bashariyat beshigi allasidan bahra olgan holda shakllangan, rivojlangan va uzoq vaqtlar davomida kishilarning ijtimoiy hayotini boshqarib kelayotgan ma'naviy vosita hisoblanadi.

Umuminsoniy axloq normalari deb har bir inson, elat, millat, xalq, davlat va turli xil shakldagi moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, texnikaviy munosabatlarini jamiyatning axloqiy hayoti talablaridan kelib chiqqan holda tartibga soluvchi axloqiy-ma'naviy qonun-qoidalarning muayyan tizimiga aytiladi.

Axloq normalari ikki xil ko' rinishda, ya' ni axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy ong shakllarida mavjud bo' ladi. Axloq normalarining birinchi shakli ko' pchilik kishilarning bir xildagi xatti-harakatlari tufayli kelib chiqqan va keyinchalik barcha uchun bajarilishi shart qoidalar tusini olgan normalardir. Ikkinchi xil axloqiy norma inson ongida o' z aksini topgan muayyan qoida sifatida namoyon bo' ladi (masalan, «o' ldirma», «o' g' irlama» va h.k.), ya' ni unda buymq mayli xususiyati ko' zga tashlandi.

Yuqoridagilardan ko' rinib turibdiki, agar axloq prinsiplari – umumlashgan axloqiy tushunchalar bo' lsa, axloqiy normalar ulami aniqlashtirishga xizmat qiladi, ya' ni axloqiy prinsiplarga rioya qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligini, bunda kishi irodasi qay tarzda namoyon bo' lishi kerakligini ko' rsatadi.

Axloq normalari nafaqat elementar axloqiy ong, balki shu bilan birga, kishilarni harakatga undovchi motiv hamdir. Ular ma' naviy va amaliy hodisalarning sintezi sifatida nima qilish mumkin-u, nima mumkin emasligi, u yoki bu sharoitda qanday harakat qilish kerag-u, nimadan o' zimizni tiyishimiz lozimligini ko' rsatgan holda xulqimizni yo' lga soladi, ya' ni mumkin va nomumkinlik me' yorini belgilab beradi.

2. Kasb axloqining normalari. Kasb axloqi prinsiplari amalda axloq normalari orqali namoyon bo' ladi.

Kasb axloqining normalari deb jamiyat, davlat, vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan, mas'ul xodimlarining xulqi, fe'l-atvorlarini tartibga soluvchi, bajarilishi shart bo'lgan axloqiy-huquqiy talablar majmuiga aytiladi.

Kasb axloqining normalari umumiylikdan xususiylikka va undan alohidalikka qarab amal qilgan holda xodimning o'z xulqiy xatti-harakatlarini sodir etishda nima qilishi lozimligiga emas, balki uning qanday bo'lishi kerakligiga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, axloqiy normalar jamiyat, davlat va xizmat jamoatlarining xodimga munosabatini ifodalab, uning shaxsiga muayyan baho beradi.

Shunday qilib, axloq normalari ayni vaqtning o'zida talab va baho normalari shaklini oladi, ya'ni jamiyat, davlat, xizmat jamoatlari yomonlik keltiradigan xatti-harakatlarni ular orqali qoralaydi va yaxshilikka erishishga qaratilgan xatti-harakatlarni ular orqali ma'qullaydi. Bu bilan axloq normalari nafaqat yomonlik yo'lga to'siq, balki ayni paytda xodimlarni ezgu ishlarga chorlovchi ma'naviy-axloqiy omil bo'lib ham xizmat qiladi. Kasb axloqining normalariga quyidagilar kiradi: xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, ochiqko'ngillilik va dangallik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, siyosilik, kattalarni hurmat qilish va boshqalar.

3. Xushmuomalalik va odoblilik. *Xushmuomalalik* - o'zga kishilarga bo'lgan ichki hurmatning tashqi ko'rinishidir. Uning o'nta belgisi bor. Ular quyidagilar: insof, aql, ilm, hilm, olijanoblik, ko'rkam fe'l, yaxshilik, sabr, shukr, muloyimlik. Mana shularga amal qilgan har bir xodim hamisha va har qanday holatda fiiqarolar bilan odob doirasidan chiqmasdan muloqotda bo'ladi.

Kasb egalarining xushmuomalaligi -har bir xodimning o'z xizmat vazifasini bajarishda dilidagi ardoqli fikrlarini, eng noyob his tuyg'ularini, eng sara ezgu niyatlarini odamlar bilan baham ko'rish asosida osoyishtalik, vazminlik, xotirjamlik, odob bilan muloqot qilishi demakdir.

Biron bir kasb egalarining xushmuomalaligi:

birinchidan, har bir xodimning o' zi va safdoshlarining xizmat jamoatsida o' matilgan intizom va boshqa tartib-qoida talablariga rioya qilishida ko' rinadi, chunki intizomli kishi aksariyat hollarda xushmuomala, intizomsiz odam esa qo' pol va yolg' onchi bo' ladi;

ikkinchidan, har bir xodimning barcha fiiqarolar bilan bo' ladigan muomalada ulaming ijtimoiy mavqeyi va boshqa ustunliklaridan qat' i nazar teng va iltifotli bo' lishida namoyon bo' ladi, chunki xushmuomalalik xushnudlikda, boshqa kishilarga nisbatan hurmatda namoyon bo' ladigan insoniylikdir;

uchinchidan, har bir xodim fuqarolar bilan bo' ladigan muloqotda hech qachon boshqa kishilami noqulay ahvolga solib qo' ymasligida, ulaming fikr mulohazalariga baho berishda odobsizlik qilmasligida, o' zining undan ustunligini aslo pesh qilmasligida bilinadi;

to'rlinchidan, har bir xodimning hayotda uchraydigan u yoki bu masala yuzasidan boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarining noto' g' ri ekanligini, unga qo' shilmasligini odob bilan tushuntirishida, kerak bo' lsa isbotlashga harakat qilishida, binobarin, qo' pollik qilmasligida ko' rinadi.

Xushmuomalalik haqida mutafakldrlar shunday deyishgan:

- Hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun talantdan ko'ra kishilar bilan xushmuomalada bo'lish ko'proq muhimdir. **(J. Lebbok)**

- Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatiligidan darak. (O.Balzak)

- Ozginagina xushmuomalalik hayotingizni yoqimli, kunni esa nurafshon etadi. **(K.Bouvi)**

-Xushmuomalalik engzarurva engyoqimli ezgulikdir. **(J. Lokk)**

- Haqiqiy xushmuomalalik odamlar bilan munosabatdan iboratdir. (J.J.Russo)

- Xushmuomalalik hech narsa turmaydi-yu, ammo kolp naf keltiradi. **(MMontegyu)**

Odoblilik - yaxshi tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi, xatti-harakatlarda, so'zlashuvda me'yori, chegarani, muvofiqlik va nomuvofiqlikni bilishdir. Odoblilikning asosiy belgisi - o'zini tuta bilish, hukm chiqarishda shoshmaslik, kishilarning orqasidan g'iybat qilmaslik, o'zgarar fikrini tinglay bilish, shirinso'zlik hisoblanadi.

Kasb egalarining odobi - bu har bir xodimning o'z xizmat vazifasini bajarishda shirinso'zlik, siyosilik, bosiqlik, xokisorlik, mehrmuruwat ila hech kimni kamsitmasdan fuqarolar bilan bo'ladigan muloqotlarining yaxlit ko'rinishidir. Xodimlarining odobliligi:

- odamlar orasida o'z tanishi bilan boshqalar bilishi shart bo'lmagan ishlar haqida ovozni baland qo'yib gaplashmasligida;

- suhbat chog'ida o'zini bosiqlik bilan tuta bilishida;

- boshqa kishilarning xatti-harakatlari va xarakteri haqida hukm chiqarishda shoshilmasligida;

- kishilarning orqasidan g'iybat qilmasligida;

- birovni nohaq xafa qilmasligida;
- suhbatdoshi istamagan suhbatni sipolik bilan yakunlab qo' ya qolishida;
- o' zi haqida gapirmasligi yoki juda ham kam gapirishida ko' rinadi va h. k.

Odob haqida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday daganlar:

- Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir.
- Odob- kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil- mazahdan, kamsitilishdan saqlaydi.
- Odob kichik yoshdagilarni kattalar duosiga sazovor yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar.
- Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir, odoblilaming yurish-turishida xalq ulug'vorlikni ko'radi.
- Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbali borgan sari rivojlanadi. Odob bo' lmagan joyda ma' naviyat bo' lmaydi. Ma' naviyatsiz xodim esa o' zining xizmat vazifasini odoblilik bilan bajarish qobiliyatiga ega bo' lolmaydi. Shuning uchun ham donishmandlarimizning xushmuomalalik va odoblilik haqidagi fikrlariga amal qilish.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyat taraqqiyotida kasb axloqi qanday rol o 'ynaydi?
2. Umuminsoniy axloq prinsiplarini sanab bering.
3. Vatanparvarlik prinsipi mohiyatini tushuntiring.

INSERT» JADVALI

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	<i>+</i>	<i>-</i>	<i>?</i>
Jamiyat bilan shaxs orasidagi munosabatlar xaqidagi qanday falsafiy				

fikrlar ilgari surilgan?				
Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoitning o'rni				
Shaxsning tarixiy tiplarga ajralishining asosiy omillari, deganda nimani nazarda tutasiz?				
«Erkin shaxs» tushunchasini ta'riflang				
Shaxs erkinligi va ma'suliyati xaqida nimalar deya olasiz?				

V – bilaman.

+ - yangi ma'lumot.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.- Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

7. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

12-Mavzu: Sivilizatsiya, uning mohiyati va shakllari

REJA:

1. Цивилизация тушунчаси. Цивилизация кишилик жамияти тараққиётидаги ўзига хос юксак босқич сифатида.
2. Шарқ ва Ғарб цивилизациялари, уларнинг ўзаро таъсири ва ўзига хослиги.
3. Жаҳон цивилизацияси ва Марказий Осиё мутафаккирларининг жаҳон цивилизацияси ривожига тутган ўрни.

Tayanch tushunchalar: madaniyat, sivilizatsiya, ommaviy madaniyat, shaxs madaniyati, madaniyat turlari.

«Sivilizatsiya»⁴¹ tushunchasi, madaniyat tushunchasiga o' xshash katta ahamiyatga ega bo' lgan, keng foydalanadigan ilmiy tushunchadir. U Ma' rifat (XVIII) davrida ilmiy so' z boyligiga kiritilgan. Eng umumiy ma' noda u yovvoyilikka nisbatan inson va jamiyatning holatini anglatadi. Sivilizatsiyalashgan jamiyat nima? Bu erkinlik, adolat, aql, qonunga asoslangan jamiyat. Bu yerda moddiy madaniyatning rivojlanishi ham muhim rol o' ynaydi. shunday

⁴¹ **Цивилизация** [фр.civilization лот. Civilis- фукарога хос, давлатга хос] 1. Моддий ва маънавий маданиятнинг ижтимоий тараққиётида эришилган муайян босқич; маданий тараққиёт даражаси. 2. Маданият, тамаддун. 3. Маданиятнинг замон ва маконда чегараланган тарихий типи. 4. Инсониятнинг ёввойилик ва вахшийлик давридан кейинги ижтимоий тараққиёт босқичи.// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд.-Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008.-Б.441

qilib odam ancha tarixiy paytgacha yowoyilik holatida qolib, ma'lum holatga o'tgandan keyin sivilizatsiya belgilari paydo bo'ldi. Unga nima yordam qildi? Bunga faylasuflarning fikricha mehnat taqsimoti, sinflar va tovar – pul munosabatlarining vujudga kelishi, davlatning paydo bo'lishi, ma'anaviy madaniyatning rivojlanishi, yozuvning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamoada oilaviy munosabatlarning o'zgarishi va boshqalar.

Ammo hozirgi dunyoda «sivilizatsiya» tushunchasining boshqa ma'nolari ham bor. Ulardan eng ko'p tarqalganlari quyidagilardan iborat:

> «Madaniyat» tushunchasining sinonimi (F. Shelling).

> Madaniyatning antipadi (qarama-qarshi) – jamiyatning tirik holatiga, ma'anaviy madaniyatiga qarshi, hayot tuzilishining jonsiz, o'lik shakli. (N. Berdyaev, N. Rerix).

> Madaniyatning zaiflanishi, uning tug'ilish va o'lish bosqichlari. (O. Shpengler).

> Jamiyatning konkret tarixiy sivilizatsiyasi», «Rim sivilizatsiyasi» va boshq. (A. Toynbi).

> Sivilizatsiya diniy birlik sifatida masalan, «Xristian sivilizatsiyasi», «Budda sivilizatsiyasi» va boshqalar.

> Sivilizatsiya jamiyatning texnologik rivojlanish tarixi. Masalan, «Agrar sivilizatsiya», «Industrial sivilizatsiya» va boshqalar.

> Sivilizatsiya aqlli jonzorlarning birlashgan planitar hamjamiyati sifatida. Masalan, «Yer planetasi sivilizatsiyasi», «Venera planetasi sivilizatsiyasi» va boshqalar.

XIX asrda nemis va rus faylasuflari (Fichte, Nietzsche, Slavyanofililar) madaniyat va sivilizatsiya o'z mohiyatiga ko'ra, har xil ijtimoiy hodisa ekanligiga e'tibor qildilar. Nemis filosofi I. Fichte madaniyatning ichki hayoti, sivilizatsiya esa bu hayotning tashqi namoyon bo'lishidir deb yozadi. XX asrda bu g'oya boshqa mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilib, ularning orasida O. Shpengler, N. Berdyaev, N. Rerix, E. Rerixlar muhim joyni egalladilar. Ular yuqori rivojlangan industrial jamiyat, yuqori sivilizatsiya, insonning ichki ma'naviy takomillashishi kafolatini bemiasligini ishonarli isbotladilar. U qandaydir boshqa tekislikda joylashib, unga transportning rivojlanishi, sanoat, aloqalar va boshqa sivilizatsion boyliklar kam ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Buyuk rassom, mutafakkir va ijtimoiy arbob N. Rerix sivilizatsiya o'z ildiziga ko'ra, fuqarolik yoki hayotning ijtimoiy tuzilishiga egaligini qayd qiladi. Haqiqatda ham u inson borligining tashqi jihozlanishidir. Lekin jihozlash hali hayot degani emas. Axir odamning aqli va ma'naviy mavjudot sifatida hayoti va rivojlanishi madaniyat bilan bog'liq. Madaniyatning ma'naviy jihatini atoliq diniy faylasuf N. Berdyaev ham ta'kidlaydi. Har qanday madaniyat ibodat bilan bog'liq. U diniy ibodatdan kelib chiqadi va rivojlanadi deydi. U tabiiy ofatlar ustidan o'zining ijodiy ishlarining mahsuloti.

Hozirgi tadqiqotlarda har qanday ijtimoiy tizimning asosiy sifatida ma'naviy madaniyatning ahamiyati to'g'risida ko'pgina gapiriladi. Albatta, u erishgan taraqqiyot darajasini va jamiyat barqarorligini qo'llab - quvatlaydi, Shuningdek keyingi taraqqiyotga xizmat qiladi. Ma'naviy madaniyatning vayron

bo'lishi muqarrar ravishda ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi, sivilizatsiyaning vayron bo'lishiga olib keladi.

Masalan, Yevropa va Amerikaning yuqori rivojlangan iqtisodi, hayoti salbiy demografiya, jinsiy chekinishlardan, hayot ma'nosining yo'qolishidan, yoshlar o'rtasidagi ruhiy kasalliklardan, narkomaniya, jinoyatchilik kabi "sivilizatsiya yarasi" dan qutqaza olmaydi. G'arb jamiyati bilan nima bo'ladi? Ko'p futurologlar qorong'i prognoz bermoqdalar. Qo'shimcha dalil - isbot - bu insoniyatning tarixiy tajribasi. O'rta asrlarning boshlang'ich davridagi Rim sivilizatsiyasini eslaymiz. Ma'naviy madaniyatning zaiflanishi, siyosiy o'zboshimchalik, axloqning susayishi, pastkash instinktlar tantanasi, diniy boshqa fikrlovchilarni ta'qib qilish o'z kulminatsiyasiga yetdi. Tez katta imperiya qulay boshladi. Katta Rim yarim yovoyilarga qarshi turaolmadi. Qadimgi eng kuchli sivilizatsiyalardan biri, ma'anaviy chirib, moddiy, siyosiy, iqtisodiy ma'noda mustaqil davlat sifatida yashashga qodir bo'lmay qoldi.

«Sivilizatsiya» tushunchasi lotincha «sivilis» - so'zidan olingan bo'lib, «grajdanlikka oid», «davlatga oid» singari ma'nolarni anglatadi. Ko'p yillar davomida ilmiy adabiyotlarda madaniyat va sivilizatsiya bir xil ma'noli tushunchalar sifatida talqin etib kelindi. Holbuki, buyuk nemis faylasufi I. Kant ular o'rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko'rsatgan edi. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi Osvalg'd' Shpengler «Yevropa quyoshining so'nishi» asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o'giradi. Nemis faylasufi sivilizatsiya deganda texnik-mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutdi.

Madaniyatning paydo bo'lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog'liq bo'lsa, sivilizasiya - tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizasiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Sivilizasiyali hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Hozirgi davrda sivilizasiyalashganlik ko'proq qulaylik tushunchasi bilan ayniylashtirilmoqda. Uning mohiyatini sanoat iste'mol vositalarini yaratish tashkil etmoqda: ayni vaqda u jamiyat rivojlanishining mezonini hisoblanmoqda (q:Slovarg' - spravochnik. Chelovek i obo'yestvo. Rostov-na-Donu, 1996.S.489).

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sivilizasiya atamasining ikkinchi ma'nosi ham yoritilyapti. U lotincha «grajdanlikka oid» tushunchasi bilan bog'likdir. Lotin tilidan kirib kelgan grajdanlik, gorozanin so'zlarining o'zagi bir xildir. Sivilizasiya shu ma'noda shahar madaniyati tushunchasini ham ifodalaydi. Shahar madaniyatini yaratgan va unda yashagan kishilarni sivilizasiyali inson hisoblash rasm bo'lgan. Sivilizasiyani bunday tushunish ayniqsa Yunoniston, Rim va boshqa joylarda keng tarqalagan (Kravchenko A.I. Vvedeniye v sosiologiyu. M.1995)

Xush asr fransuz faylasuflari sivilizasiyaga erishgan jamiyat deganda aql va adolatga asoslanuvchi jamiyatni tushundilar.

Sivilizasiya obyektiv ijtimoiy hodisa bo'lib, odatda biron bir xalq, mintaq, jamiyat, davlat va xatto butun jahonga nisbatan qo'llaniladi:

- sivilizasiyaga erishgan xalq,
- Sharq sivilizasiyasi, g'arb sivilizasiyasi,
- sivilizasiyali jamiyat, sivilizasiyali davlat.

Sivilizasiya butun bir xalq yoki millat, tarixiy davr va mamlakat tomonidan yaratiladi. Madaniyat - sivilizasiyaning muhim bir elementidir. Adabiyotlarda sivilizasiyaga sof moddiy hodisa deb qarash hollari ham uchraydi. Moddiy taraqqiyot o'sa borishi bilan kishilarning faoliyat sohalarida o'ziga xos o'xshashliklar va ma'lum qulayliklar paydo bo'ladi va ular to'planib «sivilizasiya»ni tashkil etadi.

Sivilizasiya tushunchasiga inson tomonidan yaratilgan predmetlar, hodisalar kiritilmoqda:

- moddiy boyliklar, transport vositalari,
- kasb-kor, ilmiy-tadqiqot o'tkazish usullari,
- ichki tartib, qoida, nizomlarni himoyalash usullari,
- insonlarning turmush tarzi,
- oziq-ovqatlarni is'temol qilish sifati, darajalari, me'yorlari
- ehtiyojlarni ta'minlash me'yori va darajalari,
- sanoat, qishloq xo'jaligi, taqsimot, rivojlanish darajalari,
- kiyim-kechak ishlab chiqarish, kiyinish, orastalik, estetik did va boshqalar.

Fan taraqqiyoti, uning amaliyotga tatbiq etilishi, ta'lim-tarbiya tizimi va uni amalga oshirish usullari sivilizasiya yutuqlari hisoblanadi.

Xalqlar, davlatlar, mintaqalar rivojlanishidagi o'ziga xos farqlar sivilizasiyalararo tafovutlarni tashkil etadi. («Sirli olam» jurn, 1994, 4-son).

Demak, sivilizasiya ko'proq moddiy taraqqiyotdagi farqlarga tegishlidir. Madaniyat esa ma'naviy taraqqiyot sohasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Sivilizasiya va madaniyat o'rtasida o'zaro aloqadorlik, shuningdek, ular o'rtasida tafovut va ziddiyatlar bo'lishi ham mumkin. Sivilizasiya va madaniyat ayni bir vaqtda vujudga kelishi mumkin. Biroq ular bir tekis rivojlanmaydi.

Sivilizasiya rivojlangan bo'lishi, lekin madaniyat qoloq ahvolda qolishi mumkin va aksincha. Ko'pgina davlatlar taraqqiyoti shundan guvohlik beradi. Masalan: Qadimgi Rim o'zining gullab - yashnagan davrida o'ta rivojlangan sivilizasiyaga ega edi, ammo unda madaniyat kam taraqqiy etgan edi. Chunki uning san'ati va falsafasi ma'lum bir hayotiy dunyoqarashdan ildiz otib chiqmagan edi, mavjudlari esa biron bir dunyoqarashning ta'sirida rivojlangan edi.

Xristian dini vujudga kelishi bilan dastlabki davrlarda u sivilizasiyaga biror narsa bera olmadi, ammo u dunyoga yuqori darajali madaniyat berdi. Bu madaniyat xristianlik dunyoqarashidan kelib chiqqan edi.

Rimlik aql-idrok egalarining faoliyat tarzi moddiylik talablariga bo'ysungan edi. Demak, Qadimgi Rim taraqqiy etgan sivilizasiyaga misol bo'la oladi. Keyinchalik Rimda sivilizasiya va madaniyat uyg'unlashdi, ya'ni xristianlik tufayli Rim ham sivilizasiyaga, ham madaniyatga erishdi. Biroq sivilizasiya madaniyatga bo'ysundiradirilgan, madaniyatga bo'lgan e'tibor kuchaygan edi.

Jahon taraqqiyotning hozirgi bosqichida sivilizasiya va madaniyatning o'zaro munosabatiga bo'lgan turlicha qarash va konsepsiyalar mavjddir. Yevropa mamlakatlarida asosan jamiyatning moddiy tomoniga e'tibor kuchaytirilib, madaniyatni sivilizasiyaga bo'ysundirishga harakat qilinyapti.

Insoniyatning tafakkur tarixidan yaxshi ma'lumki, taraqqiyotning ayrim davrlarida falsafa, madaniyat, ma'naviyat birlamchi, ustivor o'rinni egallagan. Materialistik dunyoqarashning chinakam sivilizasiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan davrlari ham bo'lgan. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, madaniyat va sivilizasiya tushunchalarining o'zagi bir xil emas: din ruhiyat, ma'naviy kamolot, ilohiyot bilan bog'langan, sivilizasiya esa insoniyatning mehnati, yaratuvchan faoliyati asosida vujudga kelgan ijtimoiy jarayondir.

Demak, sivilizasiya va madaniyat turlicha tushunchalar va kategoriyalarga asoslanadi. Insoniyat tafakkurining turli bosqichlarida madaniyat va sivilizasiyani birlashtirish yo'lida ko'p harakatlar bo'lgan.

Yahudiylarning muqaddas diniy kitobi bo'lgan Tavrotda ijtimoiy g'oyalar va moddiylik birlashtirilib, yaxlit holda berilgan. Yahudiylar o'z ta'limotlarida sivilizasiya va madaniyatni bir-biri bilan bog'lashga, qo'shishga uringanlar. Sivilizasiya va madaniyatni bir-biri bilan bog'lash, qo'shishga bo'lgan urinish hinduizm va zardushtiylik dinlariga ham bo'lgan. Lekin bu ikki sohani ayniylashtirish va bir xil hodisa deb qarash yaramaydi. Chunki sivilizasiya va madaniyat bir-biridan o'z mohiyati va tuzilishi jihatidan keskin farq qiladi.

Sivilizasiya tabiiy va ijtimoiy-madaniy uyushmalarning yaxlitligi, xalq bunyodkorlik faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Bunda shu xalqning madaniyati, an'analari, udumlarining o'ziga xos xususiyatlari, yashash joylarining geografik va iqlim sharoitlari o'z ifodasini topadi.

Sivilizasiya - millatlararo totuvlik, iqtisodiy aloqalar birligi (xo'jalik munosabatlari), tabiiy-geografik sharoitlar, madaniy va antropologik tomonlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bunda milliy til va madaniyat benihoya ahamiyatlidir. Chunki har qanday sivilizasiyaning mohiyati va mazmuni ana shu tushuncha va belgilarga bog'liqsir. Lekin har qanday sivilizasiya o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir asosida shakllanadi. Har qanday sivilizasiya o'zining shakllanishida boshqa sivilizasiyalarning yutuqlari va imkoniyatlaridan iloji boricha keng foydalanadi, ularni o'ziga singdirishga harakat qiladi.

Toynbi, Karl Yaspers va boshqalarning fikricha, Rossiya sivilizasiyasi G'arbiy Yevropa sivilizasiyasi qatorida turadi.

Lekin Rossiya sivilizasiyasi yunon-rim sivilizasiyasining bir tarmog'i hisoblanadi. Shuningdek, Rossiya sivilizasiyasi uchun vizantiyaliklarning roli salmoqlidir.

Odatda yirik sivilizasiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi sistemali ravishda o'rganiladi. Ya'ni sivilizasiyani o'rganishga kompleks yondashish, inson va uning madaniyatini atroflicha o'rganish, shu xalqning madaniyati, faoliyat tarzi, xulq-atvori va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Sivilizasiyaga xos xususiyatlar badiiy, madaniy, ma'naviy yodgorliklarda o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston sivilizasiyasi va madaniyati ancha boy va uzoq rivojlanish tarixiga egadir. U islom dini, madaniyati orqali Sharq mamlakatlari uchun xos bo'lgan umumiy madaniyat manbaalari bilan uyg'unlashadi. Bu esa o'zbek sivilizasiyasining sharqona asosini belgiladi. Ammo o'zbek sivilizasiyasi o'ziga xos xususiyatlarining betakrorligi, noyobligi va milliyligini saqlab qoldi. O'zbek sivilizasiyasi qator xususiyatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yaxlit sivilizasiyani yaratish imkoniyatini kuchaytirmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekiston sivilizasiyasining yo'nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarini hisobga olib integrasiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizasiyalararo ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o'rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud sivilizasiyalar o'rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizasiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

Sivilizasiyaga ideal jamiyat, aql va tafakurga asoslangan jamiyat deb qaralmoqda.

Sayohatlar davri (XV-XVI)da Yeropa madaniyati va axloqidan tashqari olamda turli-tuman madaniyatlar mavjudligi e'tirof qilindi. Natijada XXI asr boshlariga kelib, sivilizasiyaning etnografik konsepsiyasi vujudga keldi. Ya'ni har bir davlat, xalq, millat o'z sivilizasiyasiga ega (**T.Juffrua**).

«Sivilizasiya» tushunchasiga yondashishda XIX asr boshlarigacha 3 xil qarash mavjud edi:

4. sivilizasiya-insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanish ideali,
5. sivilizasiya - insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanishining bir bosqichi,
6. lokal-tarixiy sivilizasiya yaxlitligi, etnoslarning yoki tarixiy, ijtimoiy uyushmalarining noyob va betakrorligini e'tirof etish.

F.Gizo sivilizasiyaning etnotarixiy konsepsiyasini yaratdi. Uning fikricha, insoniyatning yagona progressiv rivojlanishi turli xalqlarning madaniy-realligi o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyat mavjud. Gizo lokal sivilizasiyalar mavjudligini, shuningdek, yaxlit kishilik jamiyati progressi uchun ham sivilizasiya g'oyasini qo'llash mumkinligini e'tirof etdi.

N.Danilevskiyning «Rossiya va Yevropa» asari (1869 yil)da Rossiya sivilizasiyasining tug'ilishi va rivojlanishi masalalari tahlil qilindi.

N.Danilevskiy o'z asarida, birinchidan, insoniyatning «yaxlit sivilizasiya sifatida yashashi» to'g'risidagi ta'limotni inkor etdi, ikkinchidan, tarixiy jarayonlarda faqatgina xalqlar va ularning betakror, o'ziga xos

sivilizasiyasi, «madaniy - tarixiy tiplar» mavjud, bo'lib, bu xususiyatlar boshqa xalqlarda shakllanmasligini, ularni o'zlashtirib bo'lmasligini, ular faqat shu xalqdagina mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Madaniy - tarixiy tiplar bir - biri bilan uzluksiz kurashish jarayonida quyidagi davrlarni bosib o'tadi.

- etnik holatdan davlatchilikka,
- davlatchilikdan esa sivilizasiyaga o'tadi,
- madaniy - tarixiy tiplar o'zgaradi.

N.Danilevskiy g'oyalari XX asrning 20-30- iillarida nemis faylasufi O.Shpengler tomonidan yanada rivojlantirildi.

O.Shpengler «Yevropa quyoshning so'nishi» asarida G'arbiy Yevropa tarixiga xos yevroposentrizm, panlogizm, istorizm, to'g'ri chiziqli progressizm prinsiplarini tanqid qildi va madaniy - tarixiy jarayonning aylanma xarakat nazariyasini yaratdi.

Uning fikricha,

1 .Jahon madaniyati turli - tuman bo'lib, siklli rivojlanishdan iborat: 2.Turli - tuman madaniyatlar yetuklik jihatdan o'zaro teng va baravardir.

Jahon madaniy-rivojlanish jarayoni muqarrar ravishda quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

- 4) yoshlik (mifosimvolik, ilk madaniyat). .
- 5) gullab - yashnash, yuksalish (metafizik - diniy madaniyat):
- 6) tushkunlik (qotib qolgan madaniyat)

O.Shpenglarning fikricha, tushkunlikka yuz o'giran va qotib qolgan madaniyat sivilizasiyaga o'sib o'tadi. Shuning uchun sivilizasiya hamma joyda bir xil sifat, belgi va xususiyatga ega bo'ladi:

- yaxlit madaniy olamning organizm sifatida barham topishi uning o'lganligida ko'rinadi:

- bu ilhomlantiruvchi, rivojlantiruvchi madaniyatning so'ngida o'z ifodasini topadi:

- madaniyatning yo'klikka qaytishi etnik tartibning buzilishi, ya'ni

borliqqa qaytishi demaقدir.

O.Shpengler, tarixiy jarayonning aylanma harakati, tarixiy «ritmi» (maromi)g'oyasini olg'a surdi: Bu nazariya sivilizasiyaning siklli rivojlanishi, ya'ni takrorlanib turishi haqidagi konsepsiyaga olib keldi.

A.Toynbi XX asr o'rtalarida yozgan ko'p jildli asarlarida sivilizasiyaga sistema sifatida yondashdi va bu sistemaning elementlari, qismlari va bo'laklariga uzviy aloqadorlikda qaradi.

Toynbining fikricha, sivilizasiyalarning vujudga kelishi, xalqlarga nisbatan tabiat tomonidan («hosilsiz yerlar» va «siquv yo'llar» stimullari) yoki insoniy muhit («zarba» va «siquv») stimullari tomonidan qo'yilgan chaqiriqqa javobi hisoblanadi.

Yangi sivilizasiya ikki yo'l asosida paydo bo'lishi mumkin: 1. jamiyatning oddiy, primitiv strukturasi omma ichidan yetishib chiqqan ijodiy fikrlovchi elita (tabaqa, guruh) tomonidan o'zgartiriladi.

Chaqiriqqa, talabga nisbatan yangi metod va mexanizmlar yaratadi va ijtimoiy aktivlik mimesis mexanizmi asosida ro'y beradi. (Mimesis-ijtimoiy taqlid, imitasiya orqali ijtimoiy qadriyatlarga ko'shilish, ishtirok etish, aralashish - birikishga intilish demakdir).

2. Yangi sivilizasiya o'tmishda bo'lgan sivilizasiyaning genetik negizidan kelib chiqishi ham mumkin.

Demak, Toynbi sivilizasiyaga sistema sifatida qaradi, ular o'rtasidagi tafovutlarni esa aloqalar tipi, turi bilan bog'ladi. U jahon sivilizasiyalari tarixi, uning turlari, xususiyatlari, farqlarini o'rganish bilan shug'ullandi va qator asarlar yaratdi.

XX asrning I-yarmiga kelib, ijtimoiy - falsafiy ta'limotning maxsus tarmog'i sifatida sivilizasiyani tadqiq etish fani vujudga keldi va tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Xatto qator mamlakatlarning o'quv yurtlarida majburiy predmet sifatida o'quv rejalariga kiritildi.

Sivilizasiya mohiyatini talqin etishga bir qancha yondashuvlar:

kulg'turologik, sosiologik, etnopsixologik, geografik yondashuv va boshqalar vujudga keldi.

Kulg'turologik nuqtai nazardan (M.Veber, A.Toynbi) yondashishga ko'ra sivilizasiya, bu - alohida sosiomadaniy fenomen bo'lib, makon va zamon bilan chegaralangan, Uning asosini din tashkil etadi.

E.Taylor sivilizasiya elementlariga bilim, e'tiqod, san'at, qonun, udumlar, odatlar, va boshqalarni ham qo'shadi, chunki shu jamiyat a'zolari ularni o'zlashtirib oladilar va ularga amal qiladilar.

Sosiologik asosda yondashuv (D.Uilkins)ga ko'ra sivilizasiyani sosium sifatida tushunish mumkin emas, u yagona bir xil madaniyatdan iborat bo'lolmaydi. Gomogen madaniyat sivilizasiyaning belgisi bo'lolmaydi: madaniyat har xil bo'lolmaydi: madaniyat har xil bo'lishi mumkin. D.Uilkinsning fikricha, sivilizasiya-ijtimoiy uyushma bo'lib, u vaqt va makonda aloqalar, konfliktlar asosida mavjud. bo'ladi.

Sivilizasiya munosabatlari xamkorlik, konfliktlar, urush, tengsizlik, barqarorlik va eksplutasiya asosida mavjud bo'ladi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy aloqalar kuchli rivojlangan bo'ladi.

Etnopsixologik yondashuv (L.Gumelev)ga ko'ra sivilizasiyani etnik taraqqiyot xususiyatlari bilan, u yoki bu xalqning madaniyati va psixologiyasi bilan bog'lanadi.

Bu esa sivilizasiyani milliy xarakter bilan bog'lash yoki u bilan ayniylashtirish demakdir. Bunday yondashuv o'rtasidagi o'ziga xos tafovutlarni sezmaslikka olib keladi.

Sivilizasiyaga geografik determinizm asosida yondashish (L.Mechnikov) ham mavjud.

Bu oqim tarafdorlari u yoki bu xalq sivilizasiyasini g'yergrafik muhit bilan bog'laydilar, ya'ni kishilarni uyushtirishni kooiyerasin shakli tabiatning o'zgaruvchan, yaratuvchan faoliyati asosida shakllanadi.

Falsafaga oid adabiyotlarda sivilizasiya mohiyatini keng va tor ma'noda tushunish hollari ham ucharaydi.

Sivilizasiya keng ma'noda jamiyat moddiy va ma'naviy yutuqlarining majmui, yig'indisi sifatida talqin qilinmoqda.

Sivilizasiya tor ma'noda jamiyatning faqat moddiy madaniyatini ifoda etadi, deb hisoblamodalar.

XX asrning ikkinchi yarmida Yevropa sivilizasiyasi masalasida bir qancha yo'nalishlar vujudga keldi.

4. Sivilizasiya - lokal tarixiy uyushma. Bunday uyushma u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy mentalitetini ifodalaydi. Bunda sivilizasiyaning sosiomadaniy xususiyati o'z ifodasini topgandir.

5. «Sivilizasiya» tushunchasini madaniy-reduksion asosda talqin etish yaramaydi. Bu g'oya hozirgi davrdagi globalistika masalasi bilan uzviy bog'likdir. Ya'ni u jahon sivilizasiyasining yaxlitligini e'tirof etadi.

6. Sivilizasiya masalalariga doir yana bir ta'limotga ko'ra sivilizasiya ko'p ma'noli hodisa, turli-tuman sivilizasiyalarning uchrashuvi sifatida vujudga kelgan hodisadir. Unga hozirgi davrning global imperativ (talab) «chaqirig'i» natijasi sifatida qaralmoqda.

Sivilizasiyaning ko'p ma'noli hodisa sifatida talqin etilishi uning mohiyatini germenevtik asosda anglashga olib keldi va atomistik, ya'ni bir tomonlama qarashni istisno etadi. Atomistik nazariya sivilizasiyaga sosiomadaniy birlik, yaxlitlik sifatida qarashni inkor etadi.

Sivilizasiya, bu ko'p sivilizasiyalarning o'zaro aloqasi bo'lib, global masalalar bilan uzviy bog'likdir. Ammo sivilizasiyaga yaxlitlik deb qarash bilan birga har qanday sivilizasiyaning o'ziga xosligi saqlanmoqda (G'arb, Islom, Hindiston, Xitoy, sivilizasiyalari), lekin shunga qaramay, hozirgi davrda sivilizasiyalararo mustahkam aloqa (tendensiya) yo'nalishlari kuchaymoqda. Olamga yaxlit birlik sifatida qaralmoqda.

N.Moiseyevning fikricha, XXI asrda yagona qit'a sivilizasiyasi vujudga keladi, unda umuminsoniy qadriyatlar, kollektiv umum sayyoraviy Aql, axloq va ruhiy olam qaror topadi.

Bunday qarashga zid ravishda E.Batalov tomonidan olg'a surilayotgan nazariyaga ko'ra megasivilizasiya vujudga keladi, lekin milliy, regional, xududiy sivilizasiyalar o'z ahamiyati va noyobligini saqlab qoladi:

3. «madaniy» plyuralizm nazariyasi:

4. «glyubalizm» konsepsiyalari mavjud:

«Madaniy» plyurasizm nazariyasiga ko'ra madaniyat mamlakatlar, regional sivilizasiyalarni bir-biri bilan uzviy bog'lovchi halqadir. Bu olamni garmonik rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. madaniy hamkorlikni vujudga keltiradi. Chunki G'arb sivilizasiyasi faqat yagona sivilizasiya emas, unga zid turgan Sharq sivilizasiyasining o'ziga xos fenomenlari, betakror va noyob tomonlari mavjud. Yevropa yoki G'arb sivilizasiyasi oldida ko'p milliy madaniyatlardan iborat bo'lgan endogen madaniyat modelini, madaniy plyuralizmni yaratish vazifasi kun tartibiga ko'yiladi:

Yer yuzining globallashuvi jarayonida savdo birlashmalari, har xil mafkuraviy ishlari olib borish asosida yagona olam manzarasini yaratishga harakat qilinadi.

Globalizm bir qancha bosqichlarga bo'linadi:

5. globalizmning «tug'ilishi» (XV-XVIII asrning 1-yarmi)

6. globalizmning «boshlanishi» (XVIII asr 2-yarmidan to 1870 yil).

7. globalizmning «sakrashi» (1870 yildan XX asrning 1- yarmigacha).

8. globalizmning «noaniq holati» XX asr I-yarmiga to'g'ri keladi.

Bu davrlarda milliy birliklar, xalqaro munosabatlar «xalqaro hamjihatlik» kabi jarayonlar sodir bo'ladi. Ayniqsa so'ngi «noaniqlik holatida» ko'p etnik va ko'p madaniyatlilik jahon «grajdanlik jamiyati »va jahon grajdanligi vujudga keladi.

Sivilizasiya masalasiga yondashishda bir - biri bilan bog'langan uch xil yo'nalish vujudga keldi:

4. lokal - tarixiy yondashuv asosida izohlash

5. tarixiy - bosqichli yondashuv.

6. Jahon tarixiy bosqichi asosida yondashuv:

Sivilizasiya lokal-tarixiy asosida yondashishda turli qarashlar mavjud.

4. N.Danilevskiy (xronologik tartibda) quyidagi madaniy-tarixiy tiplarni: Misr, Assiriya, Vavilon, Finikiya, Hindiston, Eron, Yevropa, Yunon, Rim, Arab, Yahudiy, Slavyan sivilizasiyalarini ko'rsatdi.

5. O.Shpengler madaniy - tarixiy olamni: Misr, Hindiston, Vavilon, Yunon, Rim, G'arbiy Yevropa sivilizasiyalariga ajratdi.

6. A.Toynbi lokal sivilizasiyalarni: Misr, Xitoy, Minay, Shumer, Mayya, Suriya, Hindiston, Hyett, Ellin, Pravoslav, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq, (Kareya, Yaponiya) Eron, Arab, Vavilon va boshqalarga ajratdi.

Yana u umumlashtirib: A) «G'arbiy Yevropa» B) «Provaslav Xristian» yoki Vizantiya V) «Islom jamiyati» G) «Hindiston jamiyati» D) «Uzoq Sharq jamiyati» kabi sivilizasiyalarni ko'rsatdi.

L.Vasilg'yev esa;

«G'arbiy Yevropa», «Rossiya», «Islom», «Hind-budda», «Konfusi» sivilizasiyalarini farqiladi.

II. Sivilizasiyalarga tarixiy bosqich sifatida yondashuvda u yoki bu aksioma mezonlari asos qilib olinadi va sivilizasiya bir necha tiplarga ajrataladi:

- «og'zaki, yozma, kitob shakliga keltirilgan, ekranlashtirilgan»
- «kosmogen, texnogen va antropogen»
- «tradision va hozirgi» sivilizasiya.
- Hozirgi zamon adabiyotlarida sivilizasiyaga tarixiy-bosqichli yondashuvda ko'proq texnokrat usulga bo'lgan e'tibor kuchaydi:
- agrar (industrial davrgacha) sivilizasiya:
- sanoat (industrial) sivilizasiyasi
- informasion sivilizasiya (U.Rostou, D.Bell, O.Toffler).

III. Sivilizasiyaga jahon tarixi sifatida yondashuviga asos qilib olinadi. Lokal sivilizasiyaning o'zaro munosabatlari negizidan jahon tarixi kelib chiqadi va ekumen (koinot, jahon) sivilizasiyasi shakllanadi. Sivilizasiyani tarixiy jarayon bilan bog'laydilar va turli moddiy, ma'naviy omillarni asos qilib oladilar va o'zgarishlarini ko'rsatadilar.

K.Yaspers jahon tarixiga, insoniyatning qaror topishi va rivojlanishiga ekzistensializm (mavjudlik, ma'naviy ibtido) g'oyasini asos qilib oldi. Uning nazariyasida inson borlig'ining ma'naviy asoslari muhim o'rin egalladi. Uning fikricha, real jahon tarixi:

- inson ruhining maxsus rivojlanish bosqichi:
- turli madaniyatlarning o'zaro aloqalari natijasi:
- madaniy xalqlar o'rtasidagi haqiqiy aloqa vositasi:
- ma'naviyat jahon tarixining muhim omilidir:

K.Yaspers «Tarixning boshlanishi va uning maqsadi» (1949) asarida ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini:

5. «tarixgacha»
6. «qadimgi buyuk madaniyat» (lokal tarix)
7. «o'q davr» jahon tarixining boshlanishi
8. «texnik davr» (yagona jahon tarixi) gacha bo'ladi.

I. Tarixgacha bo'lgan davrda:

- Insoniyatning vujudga kelishi va qaror topishi,
- O't (olov) va mehnat qurollarining yaratilishi davri,
- Nutqning vujudga kelishi,
- Ijtimoiyguruh va hamjihatlikning shakllanishi,
- Hayotning paydo bo'lishini afsonalar, miflar asosida anglash ro'y berdi.

Uning fikricha, bu - tarixgacha bo'lgan davrning muhim, o'ziga xos xususiyatlaridir.

2. «Qadimgi buyuk madaniyatlar» davri: Insoniyat tarixi Yer yuzida bir vaqtda quyidagi joylarda vujudga kelgan:

1.Shumer-Vavilon va Misr madaniyati, shuningdek, egey olami (IV ming yillikdan to bizning milodgacha).

IV. Hindiston havzasidagi Dosroniylar mamlakati (III ming yillikdan to bizning milodgacha).

V. Xitoy arxaik dunyosi (11 ming yillikdan to bizning milodgacha).

K.Yaspersning fikricha, er. av. 800-200 yillardan bizning eramizgacha bo'lgan «o'q davri»da qadimgi buyuk madaniyatlar ta'sirida butun insoniyatning universal

ma'naviy negizi shakllana boshlagan. Bu jarayon bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda Yer yuzining turli joylarida vujudga kela boshlagan.

Hindiston, Xitoy, Eron, Falastin va qadimgi Yunonistonda ma'naviy harakatlar boshlangan va hozirgi qiyofadagi inson tipi shakllangan.

«O'q davri»ning eng muhim xususiyatlaridan yana biri bo'lgan jahon dinlari shu vaqtda vujudga kelgan. Mifologik - afsonaviy ong va dunyokarash o'rniga falsafiy ong va dunyokarash, ma'naviyat, reflekslar, ko'nikmalar vujudga keldi. Ruhning uyg'onishi bu dunyo umumtarixining boshlanishi va lokal madaniyatlar o'zaro aloqasining kuchayishdan dalolat beradi.

K.Yaspers «o'q davri»ga insoniyatning tarixiy makon va zamon sifatida qaraydi. Shuningdek, u «o'q davri»da yaxlit insoniyatning vujudga kelishida ayrim xalqlarning tarixiy rol' o'ynaganligini ko'rsatdi.

K.Yaspers «O'q davri xalqlari» (xitoyliklar, hindistonliklar, eroniylar, yahudiylar, yunonlar) o'z tarixini uzluksiz rivojlantirib, insoniyatning yagona ma'naviy makoni va uning haqiqiy tarixi boshlanishiga asos soldilar. (K.Yaspers. Smqsl i naznacheniiye istorii. M. 1994.str.32-50). III. «Texnika davri»

Bu davr XUI-XX asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning xususiyati shundan iboratki, insoniyat jahon tarixining ma'naviy yaxlitligi uchun harakat boshladi. Bu harakat g'oya va nazariya sifatida emas, balki reallikka aylandi. Yevropa madaniyati keng tarqaldi, geografik kashfiyotlar sodir bo'ldi. XX asrda fan texnika rivojlandi, lekin Yevropa madaniyatining rivojlanishiga qaramay, xalqlar o'zlarining betakror, noyob madaniyatini saqlab qoldilar, yanada rivojlantirdilar va takomillashtirdilar.

L.Vasilg'yev jahon tarixiy jarayonlari sivilizatsiyasi konsepsiyasini taklif etdi.

U insoniyat tarixini uch davrga bo'ldi:

1-davr eng qadimgi davrdan to er. av. VII-VI asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr «osiyo» tipidagi lokal jamiyatlar, tradision, avtoritar, despotik, ma'muriy sistemaning asosiy prinsipi «mulk hokimiyati» va markazlashtirilgan redistributsiya («distributsiya» - taqsimlash, «re»-tiklash, taqsimlashga zid bo'lib, markazlashtirilgan» degan ma'noni ifoda etadi)ga asoslangan bo'lib, hokimiyat

mulkchiligini keltirib chiqargan. Mulkni qayta taqsimlash davlatning qo'lida bo'lgan. Ijtimoiy strukturaning o'zgarishi siklli asosda qayta ishlab chiqilgan va u markazlashgan davlat orqali amalga oshirilgan. Tradision sosiosentrik jamiyat strukturasi juda sekinlik bilan ayrim o'zgarishlar kiritish, joriy etish hisobiga o'zgargan, xolos.

I-davr er.av. VI-VI asrdan to XIV -XVI asrlarni o'z ichiga oladi.

Bu Yevropa tipidagi jamiyatning tug'ilishi va qaror topish davridir. Shu vaqtda parallel tarzda «Yevropa» va «Osiyo» olami, ya'ni ijtimoiy dixotomiya vaziyati vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda ijtimoiy mutasiya tufayli «aniq Yevropa» sivilizasiyasi paydo bo'ldi. U xususiy mulkchilikka, grajdanlik tamoyillariga asoslangan edi (genotip sivilizasiya edi.)

Shu davr XIX asrlarda G'arbning bevosita Sharqqa kirib borish davrini o'z ichiga oladi. Tradision va Yevropa madaniyati strukturalari o'rtasida simbioz (bir-biridan foydalanib, birga yashash) jarayoni boshandi: XX asrga kelib esa simbioz sintezga o'tdi, (ikki sivilizasiya bir-biri bilan bog'lanib, qo'shilib bordi). Sharq sivilizasiyasining g'arbgga ta'siri kuchaydi, jahon tarixi transformasiyalasha boshladi. Bunda Sharq sivilizasiyasining roli, ta'siri kuchaya boshladi.

O'zbekiston hozirgi davrda jahon sivilizasiyasi sari rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanishda o'ziga xos va o'ziga mos an'analar, betakror noyob xususiyatlarini saqlanib qolmoqda.

Ma'lumki, eng yirik sivilizasiyalar. Sharq va G'arb sivilizasiyalari hisoblanadi. Bu sivilizasiyalar o'rtasida umumiylik va o'ziga xoslik mavjud. Qator adabiyotlarda O'zbekiston jamiyati qaysi sivilizasiya asosida taraqqiy etadidegan masala qo'yilyapti.

Agar O'zbekiston G'arb sivilizasiyasi asosida rivojlansa. u holda G'arb taraqqiyotiga xos barcha iqtisodiy, shuningdek, hayotda mavjud bo'lgan ziddiyatlarni ham o'ziga singdiradi va qabul etadi.

O'zbekiston Sharq sivilizasiyasi asosida taraqqiy etsa, u holda Sharqqa xos bo'lgan ijtimoiy xususiyatlarni, davlatning jamiyat barcha jabhalariga

rahbarlarining ustunvorligini, an'ana, rasm-rusm, vaqtni o'zida mujamssamlashtirishi kerak. Bu esa rivojlanish jarayonini cho'zib yuboradi, u yoki bu davlatlarning rivojlanishi namunasini nusxa sifatida tanlashni qiyinlashtiradi.

O'zbekistonning tarixiy qismati Sharq tarixining bir qismi ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, jahon tarixi, insoniyat tarixi yaxlit, bir butun, umumiy birlikdan tashkil topgan, o'zaro aloqada, o'zaro bog'liqdir. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

6. tarixiy o'tish davri muammolarini dalillar asosida aniq idrok etish, uning mohiyatini seza bilish:

7. milliy an'ana, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va takomillashtirish asosida rivojlanish konsepsiyasini yaratish va unga qat'iy amal qilish:

8. jamiyatning barcha jabhalarida: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarni sivilizatsiyali yo'nalishga o'tkazish muammolarini hil etish:

9. xalqlar, davlatlar, millatlar rivojlanishidagi o'zaro o'xshashliklar, tafovutlar va ayrim xususiyatlarni qunt bilan o'rganish, ulardan foydalanish, moslashtirish va boshqalar:

10. shuningdek, jamiyat rivojlanishining eng muhim omillari sifatida geografik muhit va ummuman «tabiiy» faktorlar rolini aniqlash:

Davlatning hududiy joylanishi, daryolar, tog', cho'l regionlarning joylanishishi, ularning xo'jalik tarmoqlari, yer usti, tabiiy boyliklar, iqlim, inson salohiyati va boshqalarning o'rni va rolini aniqlash va boshqarish.

O'zbekistonning sivilizatsiyali rivojlanishi jahon hamjamiyati bilan bevosita bog'likdir, ammo bu jarayonda u o'zligi va noyobligini saqlab qolishi kerak.

G'arb sivilizatsiyasi hozirgi davda rivojlanishning eng yuqori bosqichiga yetdi. U jahondagi mavjud sivilizatsiyalar yutuklarini o'ziga singdirdi, mazmunan boyidi. Lekin G'arb sivilizatsiyasi o'z mohiyati, xususiyatlari bilan boshqa sivilizatsiyalardan, xususan, islom, konfusizm, yapon, hind, buddizm va provoslav madaniyatidan farq qiladi. Bu sivilizatsiyalardan G'arb idealiga xos bo'lgan individualizm, liberalizm, konstitusializm, inson huquqi, erkinlik, tenglik,

qonun ustuvorligi, demokratiya, erkin bozor, cherkovning davlatdan ajratilishi singari tamoiyillar rivojlanmagan.

Demokratik boshqarish usullari G'arbda shakllandi va rivojlandi. G'arbdan boshqa ayrim mamlakatlarda vujudga kelgan ijtimoiy, demokratik o'zgarishlar G'arbning taziqiqi, zo'rlashi asosida ro'y berdi. Ular bevosita xalqning o'zidan, shu mamlakat sivilizasiyasidan o'sib chiqmagan, balki tashkaridan kiritilgan edi.

Sivilizasiya - rivojlanishning muayyan bir bosqichidagi biron-bir xalq va mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifatiy o'ziga xosligidir. Ayrim tadqiqotchilar sivilizasiya asosini madaniyat, xalq, xudud bilan bog'lasalar, boshqalari dinni asos qilib oladilar. Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- ma'rifiy va sivilizasiyali taraqqiyotida dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda turli diniy ta'limotlar ham o'ziga xos o'rin tutgan.

Sivilizasiya madaniy va ma'naviy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga keladi. Sivilizasiyali taraqqiyot milliy madaniyat ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Milliy madaniyat sivilizasiyaning ruhi, jonidir. Milliy madaniyatdan uzilib qolgan sivilizasiya oxir- oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Masalan, hozir yo'qolib ketgan Amerikadagi Mayya sivilizasiyasi bunga misol bo'ladi. Ulardan bugun yuzdan ortiq shaharlarning xarobalari qolgan. Bunga tarixdan yana ko'plab misollar keltirish mumkin.

Sivilizasiyaning tarixiy shakllari. Sivilizasiyalar o'z shakliga ko'ra Sharq va G'arb sivilizasiyalari, xududiy va jahon sivilizasiyasi kabilardan iborat.

Sharq sivilizasiyasiga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ko'rsatish mumkin :

- 1) Sharqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta'limotlar tabiatga ehtiyotkorik bilan munosabatda bo'lishni, sabr- toqatlilikni targ'ib etgan ;
- 2) odamlar orasida bag'rikenglik, birdamlik, hamjihatlik ruhi kuchli bo'lgan;
- 3) milliy qadriyat va an'analar e'zozlangan;
- 4) avlod-ajdodlarga, kattalar, ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida

e'tibor berilgan.

O'zbekiston Sharq sivilizasiyasi bag'rida rivojlandi. Uning sivilizasiyasiga xos belgilar: kambag'al va ojizlarga g'amxo'rlik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat kabilardir.

O'zbekiston jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga ilm- fan, axloq, din, san'at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shdi. Milliy mustaqillik yillarida o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston o'z milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, G'arb va Sharqning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, jahon sivilizasiyasi yo'lidan bormoqda.

Hozirgi zamon sivilizasiyasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Eng muhimi, jahon sivilizasiyasini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishdir. Jahon sivilizasiyasini tanazzulga olib keladigan qator tahdidlarni bartaraf etish, insonni oliy qadriyat sifatida e'zozlash, tabiatni avaylab-asrash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ommaviy qirg'in qurollarini yo'q qilish, davlatlar, xalqlar o'rtasidagi nizolarni siyosiy yo'l bilan muzokaralar orqali hal etish, turli jinoiy uyushmalarga barham berish, xalqaro terrorizm va giyoxvandlikka, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, kishilarda yangicha dunyoqarash va siyosiy tafakkurni shakllantirish hozirgi zamon sivilizasiyasining muhim muammolaridir.

Bunday muammolarni oqilona hal etish uchun turli mamlakat, mintaqalari xalqlari o'rtasida umumiy hamjihatlik va hamkorlikka bo'lgan intilish tobora ortib bormoqda.

Turli falsafiy sistemalarda dunyoning ijtimoiy- madaniy taraqqiyoti mezoni turlicha talqin etib kelindi. Xususan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, texnik va texnologik yutuqlar, tabiiy geografik omilga ijtimoiy-madaniy rivojlanish mezoni sifatida qarab kelindi. Hozirgi paytda qator falsafiy adabiyotlarda shaxs ma'naviyati va uning erkinlik darajasi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot mezoni sifatida ko'rsatilyapti.

Falsafa tarixida jamiyat rivojiga turlicha yondashishlar vujudga keldi. Bular: formasiyali yondashuv, sivilizasiyali yondashuv va h.o.

Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga formasiyali yondashishning bir yoqlama, sun'iy ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi zamon G'arb falsafasida U. Rostouning iqtisodiy rivojlaniish nazariyasi keng yoyildi. O. Toffler nazariyasiga ko'ra, butun insoniyat tarixi uch katta davrga: agrar jamiyat, industrial jamiyat, posindustrial jamiyat (informasion jamiyat) ga bo'linadi.

Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizasiyali yondashish har bir xalq, mamlakat, mintaqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formasiyali yondashishga ziddir. Sivilizasiyali yondashish har bir milliy madaniyatning o'ziga xosligini, noyob va betakrorligini saqlagan holda ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy yo'ldan borishini e'tirof etadi va jahon sivilizasiyasi yutuqlariga tayanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sivilizatsiya tushunchasi.
2. Madaniyatning ko'pxilligi va madaniyatlararo muloqot
3. Hozirgi sivilizatsiyaning rivojlanish tendensiyalari va global muammolari
4. Dunyo sivilizatsiyasining kelajagi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday piktogrammadan: aylana yoki to'g'ri to'rtburchakdan foydalanishingizni o'zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalar sxema zanjiri turini: chiziqli, nochiziqli, spiralsimon (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirib) bo'lishligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Strelka sizning qidiruv yo'nalishingizni belgilaydi: dastlabki holatdan so'ngi natija.

SIVILIZASIYA VA FORMASIYANING FARQINI NIMADA

F (Fikringizni bayon eting)
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring)
U (Fikringizni umumlashtiring)

«INSERT» jadvali

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	+	-	?
--------------------------	----------	---	---	---

Sivilizasiya tushunchasi qanday ma'nolarda qo'llaniladi?				
Sivilizasiya tushunchasining mohiyati.				
Sivilizasiya va madaniyatning o'xshash va farqli tomonlarini ixoxlang.				
Sivilizasiyalar turlari.				
G'arb sivilizasiyasining o'ziga xos tomonlari nima?				

V – bilaman.

+ - yangi ma'lumot.

-- bilganlarimga zid.

? – meni o'ylantirmoqda.

L.Vasilg'yev jahon tarixiy jarayonlari sivilizasiyasi konsepsiyasini taklif etdi. U insoniyat tarixini uch davrga bo'ldi:

I-davr eng qadimgi davrdan to er. av. VII-VI asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr «osiyo» tipidagi lokal jamiyatlar, tradision, avtoritar, despotik, ma'muriy sistemaning asosiy prinsipi «mulk hokimiyati» va markazlashtirilgan redistribusiya («distribusiya» - taqsimlash, «re»-tiklash, taqsimlashga zid bo'lib, markazlashtirilgan» degan ma'noni ifoda etadi)ga asoslangan bo'lib, hokimiyat mulkchiligini keltirib chiqargan.

II-davr er.av. IV-VI asrdan to XIV -XVI asrlarni o'z ichiga oladi.

Bu Yevropa tipidagi jamiyatning tug'ilishi va qaror topish davridir. Shu vaqtda parallel tarzda «Yevropa» va «Osiyo» olami, ya'ni ijtimoiy dixotomiya vaziyati vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda ijtimoiy mutasiya tufayli «aniq Yevropa» sivilizasiyasi paydo bo'ldi. U xususiy mulkchilikka, grajdanlik tamoyillariga asoslangan edi (genotip sivilizasiya edi.)

III-davr XVIII-XIX asrlarda G'arbning bevosita Sharqqa kirib borish davrini o'z ichiga oladi. Tradision va Yevropa madaniyati strukturalari o'rtasida simbioz (bir-biridan foydalanib, birga

«Nima uchun?» sxemasi

«Нима учун?» схемаси


- муаммонинг дастлабки сабабини аниқлаш бўйича бир бутун қатор қарашлар. Тизимли, ижодий, таҳлилий мушоҳада қилиш кўникмаларини ривожлантиради

«Нима учун?» схемасини тузиш қоидалари билан танишади Якка тартибда (жуфтликда) муаммо шакллантирилади. «Нима учун?» сўроғи билан стрелка чизилади ва ушбу саволга жавоб ёзилади. Ушбу жараён муаммони келтириб чиқарган илдиз яширинган сабаби ўрнатилмагунча давом эттирилади

Мини гуруҳларга бирлашади, ўз схемаларини таққослайди ва кўшимчалар киритади. Умумий схемага жамлайди

Натижалар тақдимоти

«Nima uchun?» texnikasi



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.- Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

7. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

13-Mavzu: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar - sivilizatsiya taraqqiyot omili

REJA:

1. Milliy o'zlikni anglash va sivilizatsiyali taraqqiyot yo'liga o'tishda milliy qadriyatlarning o'rni va roli.
2. Milliy va demokratik qadriyatlarni uyg'unlashtirish O'zbekistonning sivilizatsiyali taraqqiyotidagi muhim yo'nalish.
3. Demokratiya eksport qilishga intilish demokratiyaning o'zini mohiyatiga zid ekanligi.

Tayanch tushunchalar: Millat, etnos, ma'naviyat, qadriyat, akseologiya, moddiy hayot, iqtisodiyot, ma'rifat, xalq, guruh, mentalitet, milliy ma'naviyat, milliy tiklanish, milliy qadriyatlar, ma'naviy hayot.

Falsafada hamma vaqtda ham qadriyatlar muammosiga katta e'tibor berilgan. «Haligida nima bor» va «Haligi qanday bo'lishi kerak» o'rtasida aniq chegara o'tkazilgan buyuk nemis faylasufi I. Kantning ishidan keyin ulami jadal o'rganish boshlandi. Kant izdoshlari asta-sekin falsafada yangi yo'nalish - aksiologiyani (qadriyatlar tog'risida falsafiy ta'limot) shakllantirdilar, keyinroq boshqa yevropa faylasuflari (Gusserel, Shiller, Kamyu, Sartr, Berdyaev va boshqalar) faol rivojlantirdilar.

Qadriyat nima? Bu qandaydir obyekt (hodisa)ning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati yoki roli. Falsafiy ma'noda «... qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo'llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir»⁴². Shu bilan birga ko'p qadriyatlar

⁴² Қ.Н.Назаров. Фалсафа асослари.-Т.: Ўзбекистон миллий фаласуфлар жамияти. 2012-Б-155

jamiyatdan tashqari o'z ahamiyatini tez yo'qotadi. Masalan, pul va tillo bezaklar odamsiz orolda kerak emas. Undan hech qanday amaliy foyda yo'q. shunga ko'ra ko'p qadriyatlar faqat insoniyat jamiyatida tug'iladi va yashaydi. Qadriyatlaming asosiy ijtimoiy funksiyasi nimada? U shundaki, odam va jamiyatga hayoti va faoliyatida aniq yo'nalishlar beradi. Nimaga intilish kerakligi, uni qanday qilish lozimligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish vositalarini aniqlaydi. Ma'mumki bunday holatda qadriyatlar odamlar ijtimoiy hayotining tartibga soluvchisi sifatida yuzaga chiqadi. Jamiyat qanday bo'lsa uning qadriyatlari ham shunday bo'ladi. Qadriyatlar qanday bo'lsa uning tartibga soluvchisi ham shunday bo'ladi. Masalan, qonunga itoat qiluvchi, huquqiy jamiyatda oliy ijtimoiy qadriyatlardan biri qonun bo'lib, u orqali barcha ijtimoiy hayot tartibga solinadi. O'z boshimcha va qonunsiz jamiyatda obyektiv qadriyat va tartibga soluvchi, muqarrar ravishda kuch ishlatish hisoblanadi. Bunda qonun, huquq, axloqiy qadriyat hokimiyat tomonidan siqib chiqariladi. Kim kuchli boisa u to'g'ri, barcha qolganlar, garchand haqiqat ular tomonda boisa ham, zo'rovonlar oldida juda himoyasiz bo'lib qoladilar.

Qandaydir hodisaning jamiyat uchun qadrliligi nimada? Bu odamlarning ehtiyojlari va manfaatlarining rivojlanish darajasida. Radiaktiv uran va kompyuterning yovoyi uchun qadrliligi katta emas. U undan qanday amaliy foyda olishni bilmaydi. Bu yerda ma'lumki, u yoki bu narsani ahamiyati va qadrliligi to'g'risidagi qarashlarga odamning yetuklik darajasi ta'sir qiladi.

Odamlarning ehtiyojlar va manfaatlar murakkabroq, chunki ular nafaqat ob' yektiv, subyektiv sabablar bilan ham bog' liq boiadi. Uy-joy va oziq-ovqatga, kiyim-kechakka boigan ehtiyoj har bir jamiyatda ob' yektiv ravishda mavjud. Shu bilan birga moddiy boylik qadriyati har xil jamiyatda bir xil emas. Qayerdadir pul va oltin moddiy boylikning ekvivalenti sifatida ijtimoiy qadriyatlar darajasida birinchi o' rinni egallaydi. Qayerdadir ularga kamtarona o' rin beriladi. Qanday qadriyatlar bor? Berilgan tasniflardan biri bo' yicha ular quyidagicha bo' ladi: moddiy (mehnat quroli, uy, pul, kiyim, ovqat, suv va boshqalar) va ma' naviy (axloq, bilim, go' zallik, ma' naviy ta' limot, falsafa, din, fan, huquq, san' at va boshq.). Bu yerda shuni tushunish kerakki, moddiy qadriyatlar odam hayotida birdan-bir maqsad bo 'la olmaydi. Ular faqat ma' naviy maydonda joylashgan odam borlig 'ining asl maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita vazifasini o 'taydi. Qadriyatlar tasnifming boshqa ikkita guruhi ham mavjud bo 'lib, sub' yektiv va ob' yektivga bo 'linishini taqozo qiladi, shuningdek quyidagilarga ham bo' linadi: shaxsiy, korporativ (guruhlar) va umuminsoniy. Alohida sub' yektiv (odam yoki guruhlar) uchun ahamiyatli xodisa sub' yektiv qadriyat hisoblanadi. Millionlab odamlar konfetlarini yeb, qog 'ozlarini tashlaydilar, chunki konfet qog 'ozi ular uchun hech qanday qadriyat emas. Lekin, kolleksioner ulami teradi va saqlaydi, ular uning uchun katta qadriyat hisoblanadi. Mana suv, toza havo, ovqat har bir odam uchun ob' yektiv moddiy qadriyatdir, chunki ularsiz ycrda hayot kechirishi mumkin emas.

Shaxsiy, korporativ (guruhlar) va umuminsoniy qadriyatlar orasida oxirgisi katta ahamiyatga ega. Barcha insoniyat tarixining rivojlanishi – alohida siyosiy partiyalar, diniy birlashmalar, milliy yoki boshqa guruhlar qadriyatlaridan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvor ahamiyatini odamlarning anglash jarayonidir. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi keng madaniyatlararo muloqotga, o'zaro tushunishga, hamkorlik va yagona planetar hamjamiyatga birlashishda odamlar uchun katta istiqbol ochadi.

Falsafiy ta'limot muhabbat, insonparvarlik, burch, adolat, zo'ravonlik qilmaslik, oliyjanoblik, diniy va siyosiy chidamlilik, bilish, madaniyat, maorif, erkinlik, ijtimoiy taraqqiyot, tenglik va boshqalar kabi umuminsoniy qadriyatlarning butun jamiyat, har bir odam uchun ahamiyatini asoslashga katta xisssa qo'shib keldi va kelmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligiga erishgach, Yer sharining ko'pchilik aholisi kabi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Tabiiyki, bunday jamiyatni shakllantirishida, avvalambor, O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos milliy tamoyillarini jahonda kechayotgan umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashayotganligini nazardan qochirmaslik kerak. Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojeali natijalarga olib keladi. Shu o'rinda Demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillarida sharqona qadriyatlar qanday o'rin egallaydi, degan savol tug'iladi. Milliy qadriyatlarning tiklanishi – demokratik jamiyat qurishning muhim sharti.

Demokratik jamiyat konsepsiyasida milliy umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki

ular o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlar obyektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag'rida shakllanganligi asos bo'ladi. Shunga ko'ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida yuzaga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko'p narsalar olgan. Binobarin. Har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir. Buning isboti sifatida hozirgi davrda mamlakatimizda ko'pgina tarixan din bilan bog'liq qadriyatlar o'zlarining diniy mazmunini o'zgartirib, dunyoviy, milliy qadriyatlarga aylanganligini e'tirof etish mumkin. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdri bo'lavermaydi. Ayniqsa, hozirgi murakkab o'tish davrida islom g'oyalari va qarashlaridan bir-biridan tubdan qarama-qarshi maqsadlar yo'liga foydalanishga urinishlar jonlangan bir paytda, ana Shu omilning o'rnini alohida tahlil etish zarur.

O'tmishdagi barcha ijtimoiy- falsafiy ta'limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'zni maslasiga katat e'tibor berilgan. Agar qadimgi dunyo ijtimoiy - falsafiy ta'limotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan bo'lsa. Turondagi ijtimoiy - falsafiy fikrlar tarixida jumladan, "Avesto"dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar tarixiy ildizlarni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, qadriyat tushunchasining mazmuniga e'tiboringizni tortmoqchimiz. Ushbu tushunchaning ma'nosi xususida ijtimoiy - falsafiy adabiyotlarda ko'pincha ilmiy ta'riflar mavjud. Berilgan ta'riflarni tahlil etish bir tomondan, turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchyi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etish hollari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy ensiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflanadi: "Qadriyatlar – falsafiy va sosiologik tushuncha, u birinchidan, bir obyektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi – baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi." Rus tilidagi «syennost», ya'ni "qadriyat"

tushunchasiga kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma'naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan. Yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan: "Qadriyat (falsafiy, sosiologiyada) - voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarning mazmuni va xarakteriga ko'ra, progressiv va reaksiyon tiplarga ajratish mumkin" deyilgan. Fikrimizcha, bunday ta'riflar mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga, uning asl mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunga ko'ra, uning mazmuni, tuzulishi, asosiy shakllari, namoyon bo'lish xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, bu tizimdagi asosiy qadriyat shakllarining o'rnini va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish bilan bog'liq bir qator masalalarga e'tibor kam ekanligini ko'rsatib o'tish lozim.

"Qadriyat" deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim. Rus, ingliz, nemis, fransuz va chek tillarida Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi G.V.Osipov muharrirligida chop etilgan «Sosiologicheskiy ensiklopedicheskiy slovar»da qadriyatlarni baholash. Qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar yo'nalishi va umuman qadriyatlarga ta'rif berilgan. Qadriyatlar tushunchasi "Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug'ati" da ham alohida o'rin ajratilgan.

Shu o'rnida xosha, "Qadriyat" so'zi nima ma'noni anglatadi degan tabiiy bir savol tug'iladi. "Qadriyat" atamasi bizga arabcha "qadri" so'zidan kirib kelgan bo'lib bugungi kunda bu tushuncha "borliq va jamiyatdagi biron-bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi, o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgun muhim ahamiyatini ifoda etish" uchun qo'llanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, "qadriyat" so'zi qadim zamonlarda paydo bo'lgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir. Demak, bu tushuncha bir

necha ming yillik tarixga egadir. Fikrimizning isboti sifatida dunyoda “aksiologiya” degan atamaning mavjudligini aytish mumkin. Aksiologiya aslida falsafaning muhim yo’nalishlaridan biridir. Faqat bu tushuncha XIX-XX asrlarga kelib, Yevropa mamlakatlari falsafasida rivojlantirildi. Uning tarixi demokratiya tarixi bilan bog’lidir. Binobarin, Yevropa mamlakatlarida ham demokratik jamiyatni barpo etishda qadriyatlarga asoslanish ustuvor bo’lgan.

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi” degan ta’rif mavjud. qadriyatlarni bunday ta’riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasa-da, lekin qadriyatlarga berilgan ta’riflar ichida o’zining ilmiyligi bilan boshqa ta’riflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, “umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo’lgan, insoniyatning mavjudligi o’tmishi, buguni va kelajagini, yashashaning asosiy yo’nalishlari, qonun – qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu – umidlari va ideallarini o’zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining obyektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz hayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir”. Darhaqiqat “umuminsoniylik” tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo’lgan odma zotining hayoti va kamoloti, uning tarixiy taraqqiyoti siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o’z ifodasini topishi kerak. Demak, insoniyatning eng umumiy jamoasi bo’lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarning yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko’lamli va serqirra tushuncha. Uning zamini eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt – saodati kabi umumijtimoiy ma’no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish va uni Shunday izoxlash ilmiy nuqtai – nazardan to’g’ri emas.

Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda tutgan o’rni.

Har bir millat o'z qariyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat har bir xalqning bu imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana Shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o'rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog'liq muammolar ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, biron – bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbollarini tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning Sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishdagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan – avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos ananalarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi sababi ham ruhida, qalbidadoimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir. Biron – bir narsa va hodisa, xox u moddiy bo'lsin, xox ma'naviy bo'lsin, qadriyatiga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt, davr o'tishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham Shunday bosqichlarni bosib o'tgan. O'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishda o'tmishimizdagi barcha narsalarimizni to'laligicha ololmaymiz. Negaki, u hamma uchun ibratli emas. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifi hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir – biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar muteligidan, fikr qaramligidan qutilish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarning qaror topishiga zamin yaratadi.

Demokratiya: milliy va umumbashariy qadriyat.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda mahalliy , milliy mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo‘ladi. Binobarin , har bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay va mustahkamlamay turib , o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqlarning madaniy qadriyatlari, ma’navi ymerosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Demokratik jamiyatni umuinsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo‘lmaydi. Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uni ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo insonning obyektiv olamga nisbattan bo‘lagn aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zurrur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma’naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo‘lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o‘tishda meros bo‘lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo‘lgan qadriyatlar kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o‘zgartirishning muhim omilidir.

Yurtboshimizning “Mustaqillikka erishganimizdan keyingi biz buyuk ajdodlarimizning hurmatini o‘rniga qo‘ya oldik. Bizning bu intilishlariimzni Markaziy Osiyodagi qo‘shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo‘llab quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas – sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir” degan fikrlar har bir millat rivojlanishidagi tarixiy xotiralar unga ijobiy hissa qo‘shgan ham milliy qadriyatlar jumlasiga kirishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvodor, asl musulmon bo‘lmasin, qonunchilikning turli tizimlari – diniy va dunyoviy tomonlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to‘g‘ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat shariat qonunchiligini emas, balqi boshqa xalqlar qadriyatlarini, urf-odatlarini ham tushungan. “Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan jihati va xususiyatlar. O‘z milliy qadriyati bo‘lmagan millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi,

yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi". Negaki. Milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslaran biri, balki demokratik, adolatli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan – asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3 ming yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yarata olgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi o'ziga xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
- b) ajdodlar xotirasiga sadoqat;
- v) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
- g) Insoniy muomalada mulozamat;
- d) hayo, andisha, vazminlik, sabr – toqat kabilarning ustuvorligi.

Ma'lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy mazmunda namoyon bo'ladi. Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlar ustuvorligini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga yetkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi. Umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishi o'zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o'z kuchini ko'rsatadi.

Ijtimoiy – siyosiy hayotda bosqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab – avaylab rivojlantirmoqdamiz.

Milliy qadriyatlar qandaydir o'zgarmas hodisalar emas. Milliy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlar o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. Shu

nuqtai nazardan, qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi o'rniga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e'tibor berish kerak: birinchisi – qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlar. Shuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarmi, mintaqaviy qadriyatlarmi, milliy qadriyatlarmi – uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligini, vorisiylik maslalarini ham o'rganish zarur. Bu holatlar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir. Ayni paytda, fikrimizcha, muayyan milliy, sinfiy, mintaqaviy, shaxsiy va boshqa xususiy qadriyatlar tizimi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimining o'rnini bosa olmaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, uning bu xususiyati har doim ham ko'zga tashlanavermaydi. Shunga ko'ra, demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda uning quyidagi namoyon bo'lish shakllarini alohida ta'kidlash zarur.

a) demokratik jamiyatning uzviyligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirish;

b) odamlarning tafakkuri va ijtimoiy – siyosiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasining mutanosib bo'lishiga erishish orqali;

v) jamiyatdagi turli xil guruhlar qarashlarni yagona maqsad – “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” degan milliy g'oya asosida hamjihatlilik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy – iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida;

g) demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etishi kabi fazilatlarga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;

d) siyosiy munosabatlarda ham axloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish va boshqalar.

Demokratik adolatli jamiyat barpo etishda umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga xos bo'lgan kundalik muloqotlardagi mazmun bilan falsafiy

aksiologik ma'no o'rtasidagi farqqa e'tibor berish lozim. Shu nuqtai nazardan bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyat deganda, eng avvalo, jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrliligi va uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi umumijtimoiy ahamiyat kab etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning nomi, ularni ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy aksiologik tushunchalar nazarda tutiladi. Demak, umuminsoniy qadriyat deganada jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning hatti – harakati, amaliy foliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. Shu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq bundan milliy qadriyatlarning o'rni ana Shu tizimda passiv holatda ekan–da, degan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo'lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita ta'mir ko'rsatadigan hudud, makon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shunga ko'ra, millat har qanday milliy qadriyatning obyekti, uning yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham yashovchanlik xususiyatiga ega. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirish, yangi – yangi qirralarni vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, **birinchidan** milliy qadriyatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyatihamdir. **Ikkinchidan**, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib, o'zgarib boradi. **Uchinchidan**, millat milliy qadriyatning haqiqiy egasi. Demak, millat uning makon va zamondagi harakati

ham, o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham avloddan – avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy obyekti hamdir. To'rtinchidan, milliy qadriyatlarning takomillashganligi millatning yo'q bo'lib ketishi va oxir-oqibatda egasiz bo'lib qolishining boshlanishidir. Sobiq sho'rolar davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo, uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligi tasodifiy hol emas edi. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham, hozirgi davrdan ham ko'plab keltirish mumkin. Beshinchidan, milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi bu faqat ularning o'zini o'ziasrab qolishining asosiy masalasi deb qarash kerak emas. Balki har qanday millatning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgar, masul bo'lishi shart. Ana shu javobgarlik, ma'ullik darajasi milliy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Qozog'istonlik professor, faylasuf Q.Qodirjonov xalqaro konferensiyalarning birida Shunday fikrni bildirdi: “Qozoq ziyolilarining o'z ona tillarini o'rganishlari, o'zlashtirishi va o'z tillarida ilmiy- falsafiy, siyosiy kitoblarni yozishi o'ta mushkul bo'lib qolayotganligining sababi –ular milliy ruhining erkinligiga nisbattan uzoq yillar hukmron bo'lgan “qizil imperiya”ning mafkuraviy tazyiqining natijasidir. Bunday holatni Qirg'iziston va O'zbekiston ziyolilari o'rtasida ham kuzatish mumkin”

Milliy qadriyatlarning adolatli demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini tahlil etish jarayonida eng avvalo, millatning o'ziga ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zurrur. Negaki, millat milliy qadriyatlarning ham obyekti, ham subyektidir. Demak, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi taraqqiyotning zaruriy qonunidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas.davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar , ijtimoiy, ma'naviy kamolotning muayyan yo'llari uchun birga kurashishga, harakatga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'prik kabi odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi.

Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar barcha xalqlar madaniyatini yaqinlashtiradi va tezroq kamol topishiga imkon yaratib beradi. O'zbekistonda erkin, demokratik jamiyat qurish vazifasini amalga oshirish jarayoni demokratiyaning umuminsoniy va milliy –ma'naviy qadriyatlari uyg'un ekanligi e'tirof etiladi. Demokratiyaning asosiy belgisi u yoki bu mamlakatda xalqning oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi manbai ekanligini e'tirof etishdir. Ayni paytda turli xalqlar xalq hokimiyatining shakli va mazmunini turli davrlarda turlicha talqin etishlari mumkin. Masalan, demokratiyaning antik davrdagi talqini bilan Yevropadagi hozirgi zamon talqini ham aynan bir xil emas. Qaysiki, muhim demokratik milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda tamoyillar turli xil siyosiy rejimlarda, unga mos ravishda Shu mamlakat , mintaqadagi xalqlarning milliy – madaniy, tarixiy va boshqa ananalarida o'zining hayotiy ifodasini topgan.

Bugun Shuni alohida qayd etish mumkinki, , demokratiya turli xil milliy – madaniy sharoitlarda yashay olish xususiyatiga ega ekanligini isbotladi. Bu degani bir, tomondan demokratiyaning milliy xususiyatlari mavjudligini ko'rsasa, ikkinchidan uni turli xalqlar, millatlar hayotida, davlatchilik qurilish ananalarida namoyon bo'lishidan dalolatdir. Shunda o'zining milliy – ma'naviy qadriyatlariga tayanmagan, uni hisobga olib, ayni paytda umuminsoniy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'un bo'lmagan demokratiyani haqiqiy demokratiya yoki demokratik jamiyat deb bo'lmaydi. Bu sohada hamon ayrim bahslar mavjud. Uni tahlil etish va munosabat bildirish haqiqatni anglashga yordam beradi. Masalan. Sharq demokratiyasi, g'arb demokratiyasini tushunish bo'yicha: birinchidan demokratiyaning umuminsoniy qadriyat ekanligiga tayangan holda uni Sharq, g'arb ko'rinishlariga bo'lib o'rganishga nisbattan e'tirozli fikrlarning mavjudligidir. Zero bunday yondashuv glaballaShuv jarayoniga to'g'ri kelmaydi, hozir ko'proq glaballaShuv jarayoni to'g'risidagapirish lozim deydiganlar ham yo'q emas. Sharqona demokratiyani qo'llash orqasida o'zimizning ayrim qusurlarimizni “yashirish” holatlari bor degan nuqtai nazar. Ikkinchidan, sharqona demokratiya orqaliSharqni ulug'lash, faqat yutuqlarni ko'rish, bir tomonlam aunga mahliyo bo'lish, o'zini maqtash kayfiyati mavjud. Shuning uchun ham uni bo'lib

o'rganish, uning o'rtasida "xitoy devorini" qo'yish to'g'ri emas, degan nuqtai nazardir. Yana bir qarashda esa Sharq va G'arbga mos bo'lgan demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Avvalo, "Sharq" va "G'arb" atamaları to'g'risida tadiiy yondashgan bir tushuncha umume'tirof etilgan va keng jamoachilikka yaxshi singganligi ma'lum. Ayni paytda u tobora kengroq ma'no-mazmun kasb etib bormoqda. U bugun siyosiy – ijtimoiy, ma'naviy ma'no kasb etayotganligini ham ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, "sharqona demokratiya" yoki "g'arbona demokratiya" atamasining alohida – alohida tarzda ishlatilishi demokratiyaning umuminsoniy ma'no- mazmuniga. Umum e'tirof etilgan qadriyat sifatida uning umumiy mohiyatiga soya tashlamaydi. Boshqacha aytganda, demokratiya (Sharqda ham, G'arbda ham) umume'tirof etilgan tushuncha. Bu sohada o'zaro bahs, keskin ixtiloflar yo'q. Muammo sharqona yoki g'arbona demokratiya o'rtasidagi farqni anglashda kimning fanday tushunib yondoshishi bilan bog'liq. Bunda muammo demokratiyaning umumiy, yagona mohiyatida emas, uning o'ziga xos milliy – ma'naviy xususiyatlarin farqlash e'tirof etish bilan bog'liq. Albatta, sharqona demokratiya to'g'risida fikr yuritib. Uni G'arb demokratiyasidan ustun qo'yishgan yoki G'arb demokratiyasini Sharqnikidan ustun qo'yishga, uni kamsitishga bo'lgan urinishni ham adolatdan yuo'lmaydi. Yoxud sharqona demokratiya to'g'risida gapirganda uning fvqat ijobiy jihatlarini bo'rttirib, ayrim nuqsonli, zararli, zamon ruhiga mos kelmaydigan. Bugungi dunyo e'tirof etgan qadriyatlardan orqada qolgan tomonlarin ham hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham unga qanday ma'no berish , uning mazmun – mohiyatni xolisona yondashib munosabat bildirish bilan muhimdir.

Har bir xalqnnig milliy ongiga Shu xalqqa xos va mos bo'lgan. Tarixan shakllangan asosiy jihatlar borki, u shu xalqning ruhiyatini, mentalitadini, xarakterini ifodalaydi va ular mamlakatning siyosiy tizimida o'zining izlarni qoldirmasligi mumkin emas. Albatta dunyo turaqqiyoti dademokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e'tirof etilgan va Shunga mos e'tibor berilayotgan, amal qilib

kelinayotgan boshqarish uslubidir. Bu umumiy qonuniyat. Ayni paytda, ana Shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim bir jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayoi tarzi, mentaliteti, demokratiyani his etish, anglash va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog'liq. Hamma xalqlar uchun uchun yagona siyosiy idora etish uslubi ham . yagona jamiyat andozasi ham yo'q. Birinchi ikkinchisidan afzal ko'rish mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan jihatlarini tan olib, uning har bir xalq milliy – ma'naviy ruhiyati asosida qaror toptirish va umuminsoniy hodisaga aylanishini e'tirof etmaslik jamiyat rivojiga, demokratik taraqqiyot mantig'iga to'g'ri kelmaydi. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch – quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligin ta'minlaydigan milliylik, milliy ruhiyat, milliy – ma'naviy qadriyatlardir. Demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa. Unga tayanmasa o'z mohiyatiga zid bo'lib qoladi.

G'arbda to'g'ri deb topilgan individning qonun asosidagi ayrim hatti-harakati, xulq atvorini Sharq an'anasiga ko'ra jamoachilik osongina qabul qilmasligi va qonunga zid bo'lmasa ham to'g'ri deb hisoblamasligi mumkin. Bunga G'arb ko'proq qonunga asoslangan holda baho bersa, Sharq jamoachilik, qadriyatlar, an'analarni hisobga olib uni qonun bilan muvofiq ko'radi hamda baho beradi, rag'batlantiradi va jazolaydi ham. Shuning uchun Sharqda qonun ijtimoiy axloq ko'rishnislari bilan doimo o'zaro muvozanatda bo'ladi. Shaxs hatti harakatiga baho berganda, umume'tirof etilgan qonuniy me'yorlar bilan birga ananaviy me'yorlar, axloq ko'rinishlari ham ustivorlik kasb etadi. Lekin bu qonuniy asoslarga zid bo'lmaydi. Qonun ustivorligi Shu jihatdan ham ko'proq hayot tarzimizga singib bormoqda. Lekin hali hamma ham unga to'liq ko'nikib olgani yo'q. Ananaviy holatlarda mo'ljallarimizga faqat axloq normalari nuqtai nazaridan qara, ayrim holatlarda qonunni ham chetga chiqarib, unga noqonuniy tarzda yondashish oqibatida jamoachilik fikri, jamoa nufuzi, sha'ni, or-nomusining qonuniy asoslaridan ustivor kelib qolish hollari hayotimizda uchraydi.

Bu yaxshimi yoki yomon, degan savolga javob berish oson emas. Agarda yaxshi deb javob bersak, o'z manfaatiga va qonuniy-huquqiy holatiga to'g'ri kelmasligini anglab yetgan kishi o'z erkinligini kamitilgan deb his etishi mumkin. Agarda yomon deyiladigan bo'lsa, unda biz o'zimizning ayrimxususiyatlarimizga, ana'nalarimizga, jamoaga nisbattan tarixan shakllanib kelgan qadriyatlarga nisbattan hurmasizlik qilgan bo'lamiz. To'g'rirog'i kimdir Shunday qarashi va berishi aniq.

Shuning uchun qonunlarda inson haq- huquqlari aniq ifodalanishi, inson manfaatining ustivorligi qonun e'tirof etilishi shart. Qonunga tayanish va qonun asosida muammoni hal etish umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlardir. "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi", deyiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (13-modda). Shunga asoslanish va tayanib ish ko'rish Sharq va G'arb demokratiyasi uchun ham umumiy, mushtarak nuqtalardir.

Demokratiyaning sharqona va g'arbona ko'rinishlari ham milliy – ma'naviy xususiyatlarni e'tirof etadigan, unga tayanadigan umuminsoniy qadriyatga aylanib boradi. Bu xalqlar hayotida muhim o'rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishni kafolatlaydi.

Demokratiyaning biron – bir ko'rinishini mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Demokratiyaning milliy xususiyatini, umumbashariy tamoyillarni tan olishni jamiyat rivoji, davlat va jamiyat qurilishi, uni erkinlashtirish jarayonlari taqazo etadi. O'zbekistonda demokratiyaning sharqona xususiyatlari e'tirof etilishining mohiyatini Shunda ko'rish mumkin. Shuning uchun ham mamlakatimizda demokratiyaga milliy va umumbashariy qadriyat sifatida qaralmoqda. Aks holda, biron-bir davlat yoki jamiyat qurilish boshqa davlat yoki xalqlar uchun yagona andoza bo'lib xizmat qilavergan bo'lar edi. Bu esa demokratik taraqqiyotning xilma-xilligiga, rivojlanish modellarining rang-barangligiga to'g'ri kelmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik – O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning asosiy tamoyili. Umuminsoniy qadriyatlar inson ma'naviy –ijtimoiy

kamolotining qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Ular ayni vaqtda barcha miliy qadriyatlarning bir-birga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir. Bu qadriyatlar bugun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga xizmat qiladi. Bu borada biror chekinishlarga. Milliy mahdudlikka va kalondimog'likka yo'l qo'yish nihoyatda katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddimasida O'zbekiston xalqi:

- inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib,
- hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak masuliyatini anglagan holda,
- o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,
- demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,
- xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,
- respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib,
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab,
- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida,

- o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi deyilgan.

O‘zbekiston suveren demokratik davlat bo‘lib, xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsiyaning 13-moddasida Shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, shayoni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”. Demak, demokratik davlatga xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo‘lib, umuminsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali inson va jamiyatning farovonligini, barcha xalqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi. Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilsa, Shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ammo sho‘rola davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar. Bu borada ko‘p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi e‘tibordan chechda qolib ketgan. Bunday “tadqiqot”lardan maqsad har bir millatning o‘z muayyan tarixiy tajribasi asosida o‘z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning e‘tiborini tortmasdan demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etish edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar hamda qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni ulug‘ millatning qadriyatlari egallab turardi.


Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma’naviy boyliklardir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy tajriba, ananalarningmeros bo‘lib o‘tishi – bularning barchasi yangidan – yangi, avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Demokratik jamiyat qurishning umumbashariy va milliy qadriyatlarning uzviy bog‘liqligini ta’minlash deganda nimani tushunasiz?
2. Demokratlashtirish jarayonlarda milliy qadriyatlarning yuksalishi va xususiyatlarini izohlang.


3. Milliy ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati nimadan iborat?
4. Demokratik jamiyat qurishning qanday umumbashariy tamoyillari mavjud?
5. Demokratik jarayonlarni ta'minlashda milliy qadriyatlarning ahamiyati nimadan iborat?

1-илова.



2-илова.

“Har kim har kimga o‘rgatadi” usulining afzalligi talaba o‘z fikrini lo‘nda bayon etib, tinglash, esda saqlash, fanga, mavzuga qiziqishini uyg‘otib fikrlashini rivojlantiradi.



NAZORAT SAVOLLARI:

- 1.Ma'naviy yangilanishning mustaqillik bilan bog'liqligi nimada?
- 2.Milliy-ma'naviy merosning yangicha ma'no va mazmunini bayon eting?
- 3.Agressiv millatchilik, shovinizm nima uchun demokratiya va milliy-ma'naviy negizlarga zid?
4. Ekstremizmning terrorizm bilan bog'liqligini izohlab bering?
5. Qanday shaxs demokratik jamiyat mezonini bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mirziyoyev Sh.M.- Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil
6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.
7. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

14-Mavzu: Globallashuv muammolarining tizimli tahlili

REJA:

1. Globallashuv tushunchasi. Globallashuv jarayonlarining manbai belgilari.

2. Globallashuv: mohiyati, mazmuni, yo'nalishlari va oqibatlari

3. Hozirgi davrning global muammolari. Hozirgi globallashuv davrida mafkuraviy jarayonlarning xususiyatlari.

4. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari.

Tayanch tushunchalar: Globallashuv, globalistika, barqarorlik, globallashuvning xususiyatlari, globallashuvning yo'nalishlari, global inqiroz, iqtisodiyotning globallashuvi, siyosatning globallashuvi, madaniyatning globallashuvi.

Globallashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jumalistlar va tadbirkorlar muhokama qilmoqdalar. Ulaming barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan va tashqi jarayon hamda ulaming umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmoqdalar. Umuman olganda – «globallashuv» tushunchasi fransuzcha *global* – umumiy va lotincha *globus* – shar so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, yer yuziga oid, butun yer sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma'nolarni anglatadi. «Globallashuv»

atamasi 1981–1983 yillarda amerikalik sotsiolog Dj.Maklin, amerikalik tadqiqotchi T.Levitt, angliyalik olim R.Robersonlar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda ishlatilgan⁴³.

Globallashuv falsafiy maynoda - bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, maynaviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatii birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqea hodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir.

Globallashuvni jarayon sifatida ontologik jihatdan uchta: **birinchidan**, tabiat borlig'ida (iqlimning o'zgarishi, hayvonot dunyosi va o'simliklar olamining kamayib ketishi, tabiiy boylik zaxiralarining tugab borishi va boshqalar); **ikkinchidan**, ijtimoiy tabiiy borliqda (energetik, ekologik, demografik va boshqalar); **uchinchidan**, ijtimoiy yoki kishilik jamiyatining taraqqiy etishida (texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, megapolislarning ko'payishi, iqtisodiy hayot darajasining keskin tabaqalanib borishi va boshqalar) sodir bo'layotgan guruhlariga ajratish mumkin. Globallashuvni makonda sodir bo'lishiga ko'ra planetar va regional, zamonda yuz berishiga qarab doimiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga ajratish mumkin.

Globallashuv jarayonlarining manbai deb, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan omillarga aytiladi. Bunday asosiy omillar jumlasiga: birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuz berayotgan tub sifatii o'zgarishlar; ikkinchidan, davlatlarning investitsiya sohasida olib borayotgan yangicha siyosati; uchinchidan, innovatsion tashkilotlarning qamrovlilik

⁴³ Буянов В.С. Сущность глобализации// Глобализация: Учебник-М.:Изд-во РАГС, 2008.-С.17-18

darajasining o'zgarishi; to'rtinchidan, jahonda dunyoviy tartibning o'zgarishi natijasida mavjud borliqqa nisbatan yangicha dunyoqarashning vujudga kelishi va shu kabilar kiradi.

Globallashuvning umum e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilari mavjud:

a) xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi; b) xalqaro kapital aylanmasi va uning yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishi; v) elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlar; g) transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi va boshqalar.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot: birinchidan, odamlar dunyoqarashi o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzot hayotiga ta'simi kuchaytiradi; ikkinchidan, davlatlar va xalqlar o'rtasida birlashishga intilishni kuchaytirishda, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko'rsatib berdi⁴⁴.

Globallashuv jarayonlariga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) inson hayotining barcha jabhalari bo'yicha xalqlar va mamlakatlarning bir-birlariga bog'liqligi va o'zaro aloqadorligining o'zgarishi;

⁴⁴ Назаров Қ. Фалсафа асослари.-Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2012-Б.667.

2) bozorlarning planetar miqyosda kengayishi natijasida umumjahon moliya iqtisodiy makonining paydo bo'lishi, alohida iqtisodiy tizimlarning global iqtisodiyotga qo'shilib ketishi va yangi iqtisodiy tartibning vujudga kelishi;

3) axborot sohasida yangi kompyuter va mediatehnologiyalar, global televideniya, internetning keng ko'lamda ishlatilishi asosida butun jahon aloqa va muloqot tarmog'ining paydo bo'lishi;

4) obyektiv mazmundagi demokratiya va turli xil g'oyaviymafkuraviy jarayonlardan subyektiv maqsadlarda foydalanishning kuchayishi va boshqalar.

XXI asrga kelib insoniyat o'zining hayot sharoitini yanada yaxshilash uchun tabiat, jamiyat, inson tafakkuri sir-asrorlari qonunlarini yanada chuqurroq o'rganish orqali buyuk kashfiyotlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bularga eng arzon va qulay energiya manbaini topish borasida qilinayotgan kashfiyotlar, masalan, yer qobig'ini issiqligidan ("geotermal" bunda "geo" – yer, "termal" – issiqlik), odam tanasining doimiy tebranma harakatlanishidan hosil bo'luvchi issiqlik energiyasidan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun ishlab chiqilgan "energetik kastyum", odamlarning yo'laklarda yurishidan hosil bo'ladigan "yo'l–yo'lak energiyasi" hamda "vodorod yonilg'isi", kishilarning o'sib borayotgan oziq ovqatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan "transgen mahsulotlar", ichimlik suvi muammosini echishga bag'ishlangan "tegimion suvi", kompyuterlashtirishga asoslangan "aqlli uy", "aqlli shahar", yashash joyiga boigan ehtiyojni qondirishga qaratilgan

“gidropolislar” (suv osti shaharlari), *“suzib yuruvchi shaharlar”*, *“sehrli mojizakor nur”* (lazer), super aqlli robitlar, shuningdek, uzoq yashash bo’ yicha olib borilayotgan *“genmuhandisligi”* borasidagi bir qator *“ko’ z ko’ rib, quloq eshitmagan”* ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Globalashuv jarayonlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy jabhalarga o’ tkazayotgan ta’ sirini o’ rganish orqali, uning milliy g’ oyamizga o’ tkazayotgan ta’ sirlarini quyidagilarda ko’ rish mumkin.

Insoniyat tarixida I jahon urushidan hozirgacha o’tgan davr yaxlitligi, ko’lami va ahamiyatiga ko’ra alohida tavsifga ega. Birinchidan, XX asrda, ingliz mutafakkiri A.Toynbi isbotlaganidek, jahon tarixi yagona jarayon sifatida boshlandi va kechmoqda. Ikkinchidan, bu davrda ta’siri davomli bo’lgan omillar paydo bo’ldi. Uchinchidan, o’tgan davrda yashab ijod etgan o’nlab buyuk mutafakkirlarning asarlarida ilgari surilgan ta’limotlarning hayotda o’rin olishi natijasida betakror ma’naviy vaziyat yuzaga keldi. bular, o’z navbatida, dunyo qiyofasida chuqur izlar qoldirmasligi mumkin emas edi.

Hozirgi dunyo, dastavval, kishilar hayoti barcha sohalarini qamragan bemisl ko’lamli va o’zgarishlarga boyligi bilan ajralib turadi. so’ngra xalqlarning o’zaro ta’siri alohida omil sifatida ko’p marta ketdi. endi xalqaro sohadagi raqobat, keskin qarama-qarshi turishlar natijasida insoniyatga kulfatlar keltirgan, qirg’inbarot urushlarga sabab bo’lgan sharoitlar o’zgarib, huquq va manfaatlar uyg’unligiga asoslangan yangi jahoniy tartibot vujudga kelmoqda.

Bunda quyidagilarni alohida qayd etish lozim:

1. Fan, texnika va texnologiyadagi rivojlanish yangi bosqichga chiqdi.
2. Ishlab chiqarishning yangi tipiga o’tildiki, buning ijtimoiysiyosiy oqibati g’oyat salmoqlidir.
3. Jahon xo’jalik aloqalarining chuqurlashuvi va intensivligi oshdi.

4. Xalqlar va davlatlarning turmush-faoliyatining asosiy sohalarini qamragan global aloqalari maydonga keldi. Ko'rinadiki, bularning bari dunyo qiyofasini yangiladi. So'nggi 20 yilcha vaqt davomida ham nazariy va ham amaliy jihatdan globallashuv masalalari faylasuf-u olim, siyosatchi-yu oddiy fuqarolar e'tiborini tobora keng tortmoqda. zero, nafaqat mintaqalar, davlatlar yoki turlituman tashkilotlar va, hatto, ularga tegishli alohida kishilar o'rtasidagi xilma-xil aloqalar tabiiy bir tarzda yo'lga qo'yilmoqda. bunda g'arb sivilizatsiyasining yalpi ekspansiyasi, uning qadriyatlari va institutlari ta'sirida boshlangan bu aloqalar natijasi o'laroq, eng muhimi, tomonlar holatlarida o'xshashliklar tobora belgilovchi bo'lib bormoqda. kishilar hayot-faoliyatining asosiy sohalarini qamraganiga ko'ra, bu jarayon global miqyosda namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, xalqlar va ularning davlat tuzilmalari o'rtasida har doim ma'lum aloqalar yuz berib kelgan. lekin ayrim olimlarning fikricha, globallashuv buyuk geografik kashfiyotlar natijasida va yevropa madaniyati ta'sirida xvi asrdan boshlangan. kishilar kemalarda dunyoning ko'p joylariga suzib bora boshlagan. lekin bu jarayon ko'pchilikning hisoblashicha, xx asrda dunyoviy ko'lam kasb etib o'z yakuniga yetgan.

Agar uning birinchi davri (XVI–XVIII asrlar) da mamlakatlar o'z-o'zicha yetarli holatda bo'lgani uchun ular o'rtasidagi jarayonlar kuchsiz kechgan, xix asrda esa dunyoviy yaxlitlikka erishilmagan bo'lsa-da, davlatlar o'zaro keng aloqalarga kirishganki, bularning natijasi globallashuvni kuchaytirmasligi mumkin emasdi. uchinchi davr – XX asrda yuz bergan tarixiy voqealar 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy krizisi, II jahon urushi, davlatlar valuta aloqalaridagi oltin standartning tanazzuli, isroilning qo'shni arab davlatlariga navbatdagi tajovuziga javoban neftga boy arab davlatlarining yoqilg'i narxini oshirgani natijasida 1973–1974-yillardagi inqiroz, sovet davlatining barham topishi, «sotsialistik hamdo'stlik» mamlakatlarida

tinch kechib, tuzum tabiatini o'zgartirgan voqealar va boshqalar globallashuv ko'lamini yaqqol ko'rsatdi. Ko'rinadiki, globallashuv – yer yuzining katta qismini yagona iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tuzilmalarga birlashtirib,

tarixan kun tartibiga qo'yilgan obyektiv jarayondir. modomiki, bu jarayon kishilik dunyosida kechar ekan, uning ishtirokchilari o'z manfaatlaridan kelib chiqib tegishli harakatlarni ham sodir etadilar. Bu anglatadiki, globallashuv ziddiyatli jarayondir. uni har qanday sharoitda ham tegishli tarzda bajarish lozim bo'ladi.

Globallashuv jarayoni sotsium asosiy tarkibiy qismlarini qamraydi. siyosiy sohada bu jarayon davlatning ishtirokisiz kechmasligi tushunarli. O'tmish an'anaviy-agrar jamiyatlardagi o'z-o'zicha chegaralangan, bir-biridan ajratilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, masalan, qabilalar, ularning davlat birlashmalari, shuningdek, keyinroq paydo bo'lgan milliy maqomdagi davlatning o'zaro aloqalari bulardagi o'z-o'zicha yetarlilikdan farqli o'laroq industrial jamiyatlarda mintaqadagi kuchli mamlakat tevarak-atrofga belgilovchi ta'sir ko'rsatib muayyan davlat birlashmalarini vujudga keltiradi. shu yo'l bilan savdo, keltiriladigan xomashyo ustidan nazorat o'rnatadi. hamda tegishli tarzda foyda qiladi. Globalizatsiya bu sohada muayyan iqtisodiy manfaatlar tashvishlarining doirasini ifodalaydi. ayni vaqtda, mamlakat xizmati va xalqaro tashkilotlar ham bularning talablariga binoan ish ko'rishi lozim. milliy hukumatning vazifalari hududiy-davlat chegaralaridan tashqariga chiqadi. xalqaro tashkilotlar, o'z navbatida, masalalarni hal qilishda ba'zi o'rinlarda hukumat darajalarida ish ko'radilar.

Siyosiy globallashuv hozirgi maqomini XX asrning o'rtalaridan oladi. bu vaqtda bir tomondan texnologik inqilob yuz berib moddiy ishlab chiqarish, transport, informatika va telekommunikatsiya vositalari rivojlanishiga turtki bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning o'zini milliy chegaradan tashqariga chiqishi sodir bo'lgan. shundan e'tiboran davlatning avvalgi monopol holati kuchsizlanib bormoqda, deyish mumkin. endi xalqaro munosabatlarning to'la qonli subyektlari bo'lib transmilliy kompaniyalar bilan bir qator nohukumat tashkilotlari, alohida hududlar va, hatto, alohida fuqarolar ham hisoblanadi.

Bu, birinchidan milliy xo'jaliklarning o'z mamlakatlari chegaralariga sig'may boshqa mamlakatlar xo'jaligi bilan integratsiyaga kirishgani natijasida tovarlar oqimi tezlashib investitsiyalar kiritishga sharoit qulay bo'lib, mamlakat rivojlanishi uchun qo'shimcha yo'l ochiladi. Ikkinchidan, savdo ehtiyoji bu

jarayonni tezlashtirishga turtki bo'ladiki, bu maqsadda hatto Jahon savdo tashkiloti ham ta'sis etilgan. Uchinchidan, tabiiy resurslarning notekis joylashganidan zarur xomashyoga ega bo'lishga undaydi. Tortinchidan, mehnat taqsimoti ustunliklaridan, milliy iqtisodiyotlarni o'zaro bog'liqligidan foydalanib oldinga o'tib olish mumkin. Beshinchidan, harbiy va boshqa sohalar ehtiyojlari global aloqaga ega bo'lishga undaydiki, bu transportni, shuningdek, kommunikatsiyaning boshqa vositalarini jiddiy rivojlantirishni talab etadi. Oltinchidan, aholi migratsiyasi jarayonlarini boshqarish zaruruyati yangi qadamlar tashlashni shart etib qo'yadi va h.k. Globallashuvning hozirgi bosqichida iqtisodiyot sohasida konkret davlat nazoratidan xoli faoliyat ko'rsatadigan transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lganligini alohida qayd etmoq lozim. bularning iqtisodiyotning muayyan sektorini nazorat qilishi konkret hudud, millat yoki madaniyat doiralari bilan cheklanmagan.

Jahon miqyosida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro valuta jamg'armasi, xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki va boshqalar ishlab chiqarishni moliyalashtirishga emas, balki pul oqimlarini yo'naltirishga doir siyosatni belgilaydi. ular moliyaviy davlat sifatida bir qancha mayda va o'rtacha mamlakatlar budjetlaridan ortiq imkoniyatlarga egadir. shuning uchun Jahonga chiqmoqchi bo'lgan istagan mamlakat bularning sharti bilan hisoblashishga majbur. Transmilliy korporatsiyalar, xalqaro valuta jamg'armasi va boshqa xalqaro tuzilmalarda ishlash uchun saylanma xodimlar tayyorlanadi. bu menejerlarning faoliyati natijasida tegishli tarzda global miqyosda turli qarorlar, shu jumladan, kambag'al mamlakatlardan ishchi kuchlarini rivojlangan mamlakatlarning qaysisiga qancha jalb qilishigacha bo'lgan qarorlar qabul qilindi.

Iqtisodiy globallashuvda g'arbdan tashqari qator mintaqalarga kiritilayotgan sarmoya va texnologiya uchun davlat suverenitetining bir qismidan voz kechishga ham majbur bo'linadi. buning oqibatlari esa ko'pdan ko'p salbiy jihatlarni keltirib chiqarmasligi mumkin emas.

Mazmuniga ko'ra amerikacha madaniyatni ifodalagan bu jarayon, albatta, yagona, emas. unda lokalizatsiya – global madaniyatni mahalliy sharoitlardan kelib

chiqib o'zlashtirish ham muhim hisoblanadi. bu yerda globallashuv jarayoni duragaylashuv orqali namoyon bo'layotgani ravshandir. Yuqorida ham aytilganidek, globallashuv g'arb ta'sirining dunyoga yoyilishi bilan boshlangan. lekin madaniyat sohasida, ayniqsa, keyingi davrlarda, boshqa jihat – sharq madaniyatining ham g'arbga muayyan ta'siri ko'zga tashlanmoqda. gap bu yerda New Age shaklidagi diniy madaniyatning yevropa va amerikadagi millionlab kishilarga karma, individ bilan tabiat o'rtasidagi mistik aloqalar va boshqalar singari va meditatsiya, yoga, jangovor san'at va hokazolarning tasavvur hamda xatti-harakat darajalaridagi ta'siri to'g'risida boradi.

Globallashuvning madaniyat sohasidagi ko'rinishidan ma'lum bo'ladiki, bu sohada, birinchidan, texnologik munosabatlar tobora ko'zga tashlanmoqda, ikkinchidan, kichik madaniyatchilik (multikulturalizm) yuzaga kelib «individual madaniyat»ni voqelashtirmoqda; uchinchidan, madaniyatning axloqiy, diniy va etnik boshqaruvchilari kabi muhim qadriyatlarining ahamiyati pasaymoqda; to'rtinchidan, ommaviy madaniyat va maishiy industriya keng tarqalmoqda. Bularning bari ko'rsatadiki, globallashuv jarayoni hozirgi jamiyatda jipslashuvga olib kelmaydi, balki shaxslararo an'anaviy aloqalarning yo'qolib borishi, begonalashuvni, berilgan imkoniyatlardan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi. Globallashuv jarayonining ziddiyatli kechishi, unga qarshi harakatni yuzaga keltirishi tabiiydir. antiglobalizm deb atalgan, yuzaga kelgan yoki kelayotgan xavfni yaqqol tushunish va bartaraf etishga qaratilgan ushbu harakatga eng zarur mazmun va yo'nalishlar berilsa, u **quyidagicha tarzda ifodalanishi mumkin:**

insoniyat sivilizatsiyasiga bo'lgan jiddiy xavfni yaqqol tushungan kishilar tomonidan hamma joyda, aholining barcha qatlamlari orasida inson, uning hayoti ma'nosi va maqsadi to'g'risida zamonaviy va ilg'or qarashlarni keng yoyish;

- inson shaxsi manfaatlarini himoya qilish, uni rivojlantirish yo'lidagi maqsad sari barchani - ular siyosiy

kuchlar yoki ilmiy, badiiy, ruhoniy kuchlar bo'ladiki, hammasini birlashtirib yuzaga kelayotgan xavfga e'tiborni qaratish;

- har bir kishi va insoniyat manfaatini ta'minlashda jamoatchilik fikriga ta'sir eta oladigan taniqli siymolarni jalb etish orqali mavjud xavfga qarshi ijtimoiy-siyosiy tushdagi tadbirlarni, shu jumladan, turli mitinglar va namoyishlarni o'tkazish;

- ommaviy axborot vositalari, maxsus nashrlar, internet orqali yuz berayotgan xavf va undan chiqish yo'llari to'g'risida keng axborot kampaniyasini doimiy tarzda olib borish;

- mavjud xavf to'g'risida sivilizatsiyani saqlab qolish yo'lida manfaatdor bo'lgan barcha kuchlar sa'y-harakatini muvofiqlashtirib doimiy ravishda anjumanlar, munozaralar, uchrashuvlar o'tkazib turish.

Albatta, globallashtirish tug'dirayotgan xavfga qarshi kurashda jamoatchilik harakati qanchalik muhim bo'lmasin, unda davlatning ishtirokisiz uzoqqa borib bo'lmaslighi aniq. ammo ko'pgina antiglobalistlarning ishonchiga ko'ra mavjud davlat bu xavfni bartaraf qilishga qodir emas. har bir insonning shaxsi, uni himoya qilish va rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan davlatgina bu vazifani uddasidan chiqa oladi. lekin bunday davlatning qachon amalda bo'lishi xususida esa faqat nazariy fikr yuritish mumkin.

Asosiy tushunchalar:

- **Globallashuv** - sivilazatsiya asosiy jihatlarini qamragan jarayon sifatida ko'proq g'arb industrial jamiyatlari yutuqlarining keng miqyosda yoyilishini ifodalaydi.

- **Antiglobalizm** - globallashuv jarayonlari tug'dirgan salbiy jihatlarni bartaraf qilish bo'yicha ko'pgina mamlakatlardagi harakatchilik.

- **Transmilliy kompaniyalar** - rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyot, moliya, texnologiya sohalaridagi xalqaro birlashmalari.

Globallashuv ijobiy jihatlarini bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug'dirdi. Ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash qabul qilingan. Jahon miqyosida yuz berayotgan global jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, **hozirgi vaqtda quyidagilar inson uchun dolzarb muammolar hisoblanadi:**

- yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish;

- atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo);

- aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo);

- yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli ta'minlash;

- ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlanishdagi va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

- xavfli kasalliklarni tugatish;

- inson ma'naviy muhiti sofligini ta'minlash (etikologiya muammosi) va boshqalar.

Kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi jihatlariga ko'ra, global muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchisi - bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiati, turli mintaqalar davlatlarining (masalan, sharq-g'arb, Janub-shimol, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmuasi bilan bog'langan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy o'zaro munosabatlar tug'dirgan muammolardir.

Ikkinchi guruhga inson va u mansub bo'lgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.

Uchinchisi o'z ichiga «jamiyat-tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tug'dirgan muammolarni oladi.

Global muammolarning muhim jihatlaridan biri fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikdadir. Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni ta'minlasa, o'z navbatida, texnik rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. agar insoniyat ajdodlari yozuv ixtiro qilgunga qadar taxminan 3 million yil og'zaki aloqa qilgan bo'lsa, undan 5 ming yil keyingina *kitob* bosishni o'rgandi. undan 500 yil o'tib *telefon, radio* va *televideniya* ega bo'ldi, an'anaviy eshituv ko'ruv vositalaridan *kompyuterlarga* o'tish uchun atigi 50 yilcha vaqt kerak bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlar kim qanday maqsadlarni ko'zlasa, o'shalarga tatbiq etilmoqda. bu esa global

muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda.

Urush va tinchlik masalasi: Tinchlik xalqlar uchun bebahone' mat bo'lganidek, urush ham insoniyatning butun tarixi davomida uning doimiy yo'ldoshi bo'lib keldi. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, so'nggi 6 ming yillik vaqt mobaynida yer yuzida 15 mingdan ziyod urushlar sodir bo'lgan. shu davr ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan. amerikalik muallif R.Klarkning «urush ilmi va tinchlik» kitobida keltirilishicha, 1820-1859-yillarda 92 ta urushda 800 ming (jami aholining 0,1%i), 1860-1899-yillarda 106 ta urushda 4,6 million (0,4%), 1900-1949-yillarda esa 117 ta urushda 42,5 million (2,1%) odam qirilib ketgan.

Bizning davrimizda ham xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar tarkibi, xalqaro siyosat mexanizmi, urushlarga tayyorgarlik ko'rish mexanizmlari va hokazolar o'zgarishsiz qolgan. matematikaning so'nggi yutuqlari asosidagi hisob-kitob – modellashtirish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda to'plangan yadro zaryadlari portlatilsa, amerika, Yevropa va Osiyodagi asosiy shaharlar yong'in ostida qolib ketishi, bir oydan so'ng yer ustidagi atmosfera harorati 15–20 darajada, sibir markazi va boshqa ayrim mintaqalarda esa, 40–45 darajagacha pasayib, uning aylanishi (sirkulyatsiyasi) mutlaqo o'zgarishi mumkin. shimoliy yarim shardan janubga qarab nur o'tkazmaydigan qora qatlam butun sayyorani qoplab oladi. Chuchuk suvning barcha manbalari muzlaydi. ekologiyaviy aloqalar buziladi, hosil nobud bo'ladi. yer ustida va okeanlarda hayot tugaydi. bularning hammasi yadro quroli siyosat vositasi va, hatto, urush vositasi ham bo'lmay, balki insoniyat uchun o'z-o'zini halok etish quroli ekanligini ko'rsatadi.

Global muammo sifatida tinchlikni ta'minlash harbiy xarajatlarni keskin kamaytirishni taqozo etadi. negaki, insoniyat 1900-yildan beri harbiy ishga ajratilgan mablag'larni *30 martadan* ko'proq oshirdi. u 90-yillar boshiga kelib 500

milliard dollarga yetdi. harbiy va aslaha sanoatida *60 million* kishi faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, muntazam qo'shinlarda *25 milliondan* ortiq shaxsiy tarkib, *10 millionlik* yarim harbiy muassasalarda ishlovchi *5 million* fuqaroviy kasb egasi bor. bu sohalarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida *500 ming* kishi bandki, bu dunyodagi olim va muhandislarning qariyb 40% ini tashkil etadi. Fan rivojlanishiga har yili ajratiladigan xarajatlarning beshdan ikki qismi yoki *30 milliard* dollardan ortiqrog'i harbiy tadqiqot maqsadlariga ketgan.

Hozirgi vaqtda oddiy qurol-yarog'lar keltirishi mumkin bo'lgan ziyon yadro quroli darajasiga yaqinlashib qolmoqda. Jahonda qurollanishga ajratilgan mablag'larning 80%i shu sohaga sarflanmoqda. Urush va tinchlik masalalarida aqshning o'rni hozirgi vaqtda hal qiluvchi darajaga yetdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar muammolari: Sayyorada umumbashariy tinchlikni ta'minlash ehtiyojlari bilan g'arbning sobiq mustamlaka yoki vassali bo'lgan 130 dan ortiq mamlakat ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish vazifalari o'zaro bog'liqdir. Bu mamlakatlarda o'tmishda xo'jalik hayoti zo'rlik bilan o'zgartirilgani tufayli ko'pincha turg'un holda bo'lgan, qoloq siyosiy munosabatlar saqlab qolingani edi. aksariyat rivojlangan davlatlar bularga xomashyo manbasi, salmoqli bozor va kapital chiqarish uchun qulay makon sifatida qaraydilar. ularning qoloqligini tugatish global muammo hisoblanadi. buning uchun hozirgacha va hozirda ham amal qilayotgan xalqaro iqtisodiy tartibotni o'rnatish zarur bo'ladi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartibot nafaqat rivojlanayotgan davlatlar uchun, balki sovetlardan keyingi hududlar davlatlari va sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun ham zarurdir. Chunki ularning o'rtacha rivojlanganligi darajasi g'arbning ilgarilab ketgan industrial mamlakatlariga yetib olishini ta'minlamaydi.

Ma'naviyat sofligini asrash: hozirgi vaqtda insoniyat ma'naviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tug'dirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Gap shundaki, zo'ravonlik va nafrat kishilar o'rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma'naviy muhitni tobora zaharlamoqda. Buni to'xtatib qolish va keskin kamaytirishga erishish vazifalari dunyo miqyosida kuch-g'ayratlarni birlashtirishni taqozo etmoqda.

Ma'naviy muhitni bulg'ashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning o'rni katta bo'lmoqda. ko'pgina mamlakatlar bu xil moddalarni tarqatganlik uchun og'ir jazo (masalan, eron islom Respublikasida – o'lim, Fransiya – 10 yil, AQSHda – 15 yil, voyaga yetmaganlarga bangilik moddalarini sotgani uchun – 30 yildan umrbod muddatgacha qamoq jazosi) belgilanganiga qaramay, aholining muayyan qismida bangilikka ruju qo'yish avj olgan. shuning uchun ham bmt darajasida tegishli tashkilotlar tuzilib, bu ijtimoiy illatga qarshi ommaviy kurashilmoqda. lekin bangilik moddalarini tayyorlash va sotishdan g'oyat katta foyda olayotgan korchalonlar, bu og'udan o'layotganlar soni yildan yilga oshib borayotganligiga qaramay, barcha imkoniyatlardan foydalanmoqdalar.

«Eng qadimiy kasb» vorislari ham axloq-odob muammosini keskinlashtirishda o'z «hissalarini» qo'shishmoqda. Fahsh sindromi ko'p mamlakatlarda rivojlanib bormoqda. Shimoliy Yevropada behayo filmlar, adabiyotlar chiqarishdan olinayotgan foyda o'nlab milliard dollarga yetadi.

Axloqiylik muammosi tarkibida va undan tashqariga chiqadigan hollarda ham terrorchilikning o'rni alohidadir. ijtimoiy antogonizm shakllaridan biri sifatida kelib chiqqan terrorchilikning xillari tobora ko'payib bormoqda.

Demografik portlash: Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy qoloqlik bilan bog'liq aholi o'sishi (milod boshlarida 230 mln., 1830–yilda 1 mlrd., 1910–yilda 2, 1960–yillar boshida 3, 1975–yilda 4, 1985–yilda 5 va hozirgi vaqtda 6 mlrd.dan ortiq)dirki, odamlarni tegishli moddiy vositalar bilan ta'minlash, zarur ma'lumot darajasi, tibbiy va huquqiy xizmat, tegishli ijtimoiy muhofaza, yosh avlod tarbiyasi va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan jiddiy va ko'lamli vazifalarni kun tartibiga qo'yadi.

Ingliz iqtisodchisi *R.T.Maltus* bundan 200 yil avval shunday degan edi:
«Ota-onasi farzandining yashashini ta'minlashi uchun zarur

kapitalga ega bo' lmasa, bu farzandning yashashga qanday haqqi bor? bunday farzand xayr-ehsonga ko' z tikishi mumkin».

Xavfli kasalliklarning ko'payishi: aholi ko'payishini boshqarish va tashkil etish yo'lga qo'yilmagan mamlakatlardagi ochlik, oziq-ovqatlar tarkibida oqsillarning kamchilligi ko'pgina xavfli kasalliklarni keltirib chiqargan. Ma'lumki, yer yuzida global miqyosdagi ochlik mavjudligi birinchi marta bmt tomonidan 1950-yilda tan olingan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga (yetarli miqdordagi mablag'larning ajratilmasligi, malakali kadrlarning yetishmasligi va h.k.) ko'ra jahon aholisining 40% i vodoprovod suvi, kanalizatsiya va sanitariya xizmatidan foydalanmaydi. O'z-o'zidan ravshanki, bularning hammasi epidemiyalar tarqalishiga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalgan. hozirgi vaqtda bularning yoniga OITS (SPID) ham qo'shilmoqda.

Kasalliklarning global muammo bo'lib qolganligi yana shunda ko'rinadiki, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, allergik, rak va h.k. xastaliklar ko'payib bormoqda. masalan, bu mamlakatlarda yurak-tomir kasali birinchi o'rinda, rak – ikkinchi o'rindadir.

Ekologik muammolar: inson ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining sayyoraviy miqyosdaligi tufayli eng umumiy tarzda quyidagi ekologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

sayyoraning genetik boyligini tashkil etgan o'rmonlar sahni har yili *11 million* gektarga qisqarib bormoqda; bu o'rmonlar biosfera tabiiy vazifalarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega. Yer yuzasining *31 millioncha* gektar qismi «kislotali yomg'irlar»dan zararlangan va bulg'angan. Tuproq eroziyasi tufayli ekin maydonining *26 mln.* gektarida har yili hosildorlik pasayib bormoqda; XX asr ikkinchi yarmida «katta qurg'oqchilik»larning tez-tez bo'lib turishi natijasida cho'llar maydoni yiliga *6 million* gektarga kengayib, o'simlik va hayvonot olamida salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Sanoatlashgan Yevropa va Shimoliy Amerikadagi minglab suv ko'llari biologiyaviy o'lik holga tushgan. Har yili jahon suv havzalariga 32 kub kilometr tozalanmagan sanoat oqava suvlari kelib tushmoqda. Yer yuzidagi ekologiyaviy o'zgarishlar oqibatida 2050-yilga borib

atmosferadagi o'rtacha harorat 1,5–4,5 darajagacha ko'tarilishi kutilmoqda. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida o'simliklarda fotosintez jarayonining qisqarishi, konserogen moddalar ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklarning ko'payishi va h.k. ro'y berishi mumkin.

Tevarak-atrof muhitning bulg'anish muammosi bilan birga tabiiy resurslar, birinchi navbatda, oziq-ovqat manbalari muammosi ham mavjud.

Xomashyo va quvvatning yangi manbalarini toppish: Barcha mamlakatlar quvvatning yangi manbalarini topish zaruriyati oldida turibdi. Ma'lumki, quvvat resurslari ikki xil – qayta tiklanmaydigan (neft, gaz, ko'mir) va tiklanadigan (suv quvvati, yog'och va h.k.) bo'ladi. shuningdek, quvvat manbalarini tashqi (quyosh) va ichki yerosti resurslari (masalan, atom yadrosi) tarzida ham ta'riflash mumkin. Hozir dunyoda 30 dan ortiq mamlakatlarda jahon elektr quvvati ishlab chiqarishining 15% i atom reaktorlari hisobiga to'g'ri kelmoqda. atom quvvati hosil etish xarajatlari yuqoriligicha qolmoqda. uning xavfsizligi xususida xilma-xil va qarama-qarshi fikrlar aytilmoqda.

Quvvat muammosining kun tartibida jiddiy turganligi olim va mutaxassislarning quyosh nuridan, yerosti issiqlik manbalaridan foydalanishga yana ham ko'proq e'tibor berishlarini taqozo etmoqda. Global muammolarning eng asosiylari tavsiflaridan ham ko'rinib turibdiki, bunday buhronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil yechimga ham ega emas. insoniyat ularni hal etish choralarini tinimsiz izlamog'i lozim. Hozirgi zamon tafakkuri darajasida mulohaza yurituvchi ko'pgina mutaxassislarning hisoblashicha, global buhronlarni bartaraf etishning dastlabki sharti – bu ma'naviy yuksaklik, uning insoniylashgani bo'ladi. zamonaviy insonparvarlik eng kamida uchta asosga: globallashtirishni anglashga, zo'ravonlikdan voz kechishga va adolatlilikka tayanadi. ularning hammasi inson huquqlarini tan olishga va insoniyatning yaxlit ma'naviy-axloqiy takomili tizimini yaratishga borib taqaladi. Xalqaro kuch-g'ayratlarni birlashtirish global muammolarni hal etishning muhim omili hisoblanadi. shu yo'l bilan savdoni rivojlantirish, barcha sohalarda aloqalarni mustahkamlash mumkin.

Global muammolar xalqlar, mamlakatlarning xususiy va umumiy manfaatlari bilan aloqador Rio-de-Janeyroda 1992-yili bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda ham alohida ta'kidlangan edi. davlatlar va hukumatlar boshliqlari ishtirokida o'tgan bu anjumanda «*barqaror rivojlanish konsepsiyasi*» qabul qilinib, unda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini atrof-muhitni himoya qilish, hozirgi avlod hayotiy ehtiyojlarini qondirishni kelajak avlod uchun ham shunday imkoniyatlar qoldirish bilan qo'shib olib borish ko'rsatib o'tildi⁴⁵.

XXI asming boshlariga kelib mafkuraviy jarayonlarning universallasuvi shu darajaga yetadiki, undan biror kishi chetda qolayotgani yo'q. U butun yer yuzini, barcha mintqa va mamlakatlarni qamrab oldi, dunyodagi barcha odamlar uning ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Buni uning quyidagi xususiyatlarida: birinchidan, globallashtirish – insonparvarlashish, jamiyatning barcha sohalariga ta'sirida; ikkinchidan, integratsiyalashish – demokratiyalashish, milliy chegaralar doirasida qolib ketmasligida; uchinchidan, differentsiatsiyalashish – siyosiylashish, inson umrining barcha bosqichlariga umumiy ta'sir ko'rsatishida ko'rish mumkin. Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallasuvi, ya'ni ularning butun kurrayi zaminini qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Bu jarayonlar jahon taraqqiyotining muhim xususiyati ekanini e'tirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy ta'sir vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.

Mafkuraviy jarayonlarni globallashtiruvchi va universallashtiruvchi omillarga: 1) iqtisodiy munosabat va

⁴⁵ Sh.Azizov. Shaxs va jamiyat. (Ijtimoiyot asoslari). Darslik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2010. B-183-198

aloqalarning kuchayishi; 2) ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning kengayishi; 3) ma'naviy munosabalar va madaniy aloqalar ko'larining ortishi; 4) axborot va aloqa kommunikatsiyalarining taraqqiyoti;

5) fundamental ilmiy kashfiyotlar va fan yutuqlarining ko'payishi; 6) texnik va texnologik imkoniyatlarning o'sishi va boshqalar kiradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkin. mafkuraviy jarayonlarning globallasuvi – bu xalqlar va davlatlarning bir birlariga g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi natijasida, ular o'rtasidagi mafkuraviy munosabatlarning yer yuzining barcha mintaqalarida ijobiy yoki salbiy tarzda kengayib umumbashariy ahamiyat kasb etishidir.

Har bir narsa va hodisalarning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallasuv jarayonining ham ana shunday tomonlari mavjuddir. AQSHdagi Florida universiteti professori Garri Dams “Kapitalizm transformatsiyasi” asarida globallasuv jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari haqida to'xtalib:” Bu jarayonning afzalliklari haqida so'z ketganda, birinchidan, dunyo miqyosida sifatli mahsulot hajmining ortib borayotgani, unga nisbatan talab-ehtiyojning kengayishi; ikkinchidan, avto va aviatsiya, turizm hamda aholi migratsiyasining kuchayishi; uchinchidan, kompyuter, internet, sun'iy yo'ldosh orqali telekommunikatsiya tizimining mislsiz darajada rivojlanishi; to'rtinchidan, yangi kashfiyot va zamonaviy texnologiyalar vositasida o'simlik va hayvonot olamida irsiyatni

o' zgartirish orqali oziq-ovqat ishlab chiqarish hamda o' ta xavfli irsiy kasalliklarni bartaraf etish imkoniyati tug' ilayotganini e' tirof etish darkor. Ammo mazkur jarayonning salbiy jihatlaridan ham ko' z yumib bo'lmaydi. Xususan, texnologik inqilob, haddan tashqari sanoatlashtirish jarayonining sayyoramiz iqlimiga global ta' sir etishi oqibatida insoniyat salomatligiga jiddiy xavf tug' ilmoqda.

Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: " Ma' lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to' qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o' zlik va ma' naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o' zini o' ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste' molchilik kayfiyati turli yo' llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayapti⁴⁶.

Globalistika – bu gumanitar fanlar inqirozini yengib o' tishga intiladigan xalqaro aloqalar va jahon siyosati sohasidagi bilimlarning maxsus transformsiyalangan shakli bo' lib, u zamonaviy dunyoda sodir bo' layotgan jarayonlar ta' sirida tadqiqot subyektlarining ko' pincha to' sqinliksiz ixtisoslashuvi va o' zgarishiga bo' linishi bilan ifodalanadi.

Globalistika globallashuv jarayonlarining mohiyatini, tendensiyalari va sabablarini, boshqa global jarayonlar va

⁴⁶ Мирзиёев Ш.М. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир.

muammolami ochib beradi, bu jarayonlarning inson va biosfera uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

Globalistikaning shakllanishini 4 bosqichga bo'lish mumkin:

1. 1960–yillarning oxiri – 70–yillarning boshlari. Bu bosqich individual global muammolami o'rganishga bag'ishlangan va ulami ajralmas tizimga birlashtirmagan davri hisoblanadi.

2. 1970–yillarning ikkinchi yarmi. Eng muhim nazariy yo'nalishlarni shakllantirish va tadqiqot obyekti doirasini aniqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi..

3. 1980–yillar. Amaliy harakatlarga urinish bo'lib, u "global miqyosda o'ylang, mahalliy darajada harakat qiling" tamoyiliga asoslanadi.

4. 1980 yillarning burilishi – 1990 yillar. Xavfsizlikni ta'minlash muammolari ayniqsa, keskinlashmoqda va siyosiy globallashtirish rivojlanmoqda. Davrning muhim bosqichi BMTning Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (1992) bo'lib, unda barqaror rivojlanish konseptsiyasi ilgari surildi.

XX-asming oxiridan boshlab global tadqiqotlarda aniq tendensiya mavjud bo'lib, unga ko'ra olimlar, tadqiqotchilar va siyosatchilarning e'tiborlari alohida global muammolardan globallashtirish jarayonlariga va turli mamlakatlar va xalqlarning o'zaro bog'liqligining o'sib borishiga o'tishni boshladi. Xalqaro terrorizm, sayyoramizning alohida mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar va yangi dunyo tartibini o'rnatish masalalari ham birinchi o'ringa chiqdi. Buning sababi shundaki, ba'zi global muammolarni tushunish va ularni engib o'tish tajribasi umuman qoniqarli emas, shuningdek

ulaming paydo bo'lishining asosiy sabablarini va ulaming taktikasi kuchayib borayotganini aniqlash istagi edi. Global tadqiqotlar spektri tobora ko'proq tabiatshunoslik tadqiqotlaridan, ijtimoiy muammolarga va insonning global jarayonlardagi rolini aniqlashga o'ta boshladi.

1990-yillarning ikkinchi yarmida jahon hamjamiyati asosan sotsialistik tizim qulashi natijasida yuzaga kelgan tub o'zgarishlardan qutildi va yangi vaziyatni tushuna boshladi. Aynan o'sha paytda globallashuv jarayonlarini faol anglashi tufayli o'ziga xos "ikkinchi shamol" ga ega bo'lgan global tadqiqotlarga qiziqishning "ikkinchi to'ldirini" paydo bo'ldi.

XXI asrning dastlabki ikki o'n yilliklari globallashuv jarayonlariga jiddiy e'tibor belgisi ostida o'tdi, bu esa global tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylandi.

Insoniyat jamiyati har xil muammolar bilan to'qnash keldilar. Ammo ulaming hammasi ham global emas. Jahonda ko'pchilik odamlar kambag'allik chizig'idan pastda yashaydilar. AQSHda terroristlar butun dunyo savdo markazi Pentagonni vayron qildilar. Angliyada protestant va katoliklar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tmoqda. Bu barcha muammolar jiddiy bo'lib, ko'pchilik odamlarning hayoti bilan bog'liq. Shu bilan birga, ular butun insoniyat manfaatlarini ko'zlaydi. Shuning uchun ham ular global emas. O'z xususiyatlariga ko'ra butun insoniyat hayoti va farovonligiga ta'sir qiladigan o'tkir dunyo muammolari global muammolarga kiradi. XXI asr boshlarida shundan muammolardan eng muhimlari quyidagicha:

Ma'naviy inqiroz.

Ommaviy kasalliklarning tarqalishi.

Ommaviy qirg' in qurollari bilan umsh xavfi.

Planeta tabiiy resurslarining tugab borishi.

Ekologik inqirozning chuqurlashishi.

Demografik muammo. Terrorizmning o' sishi.

Planetada davlat va mintaqalarining ijtimoiy -iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishi.

Klimatning global o' zgarishi.

Yer qobig' i sistemik faolligining ko' chayishi.

Yuqorida qayd qilingan muammolar u yoki bu darajada ko'pchilik mutaxassislar tomonidan tan olinadi. Lekin, shunday global muammolar borki, ularning muhokamasi tor doiradagi professional-tadqiqotchilar tomonidan yakunlanib, ularning hammasi ham bunday muammolarning mavjudligini insoniyat uchun real xavfmi tan olmaydilar. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Yerning kosmik jismlar (meteorit, kometa, asteroidlar) bilan to'qnashuvini kuchli xavfi bo'lib, undan hozirgi kunda himoya vositasi yo'q. Bunday to'qnashuv juda xavfli bo'lib, butun insoniyat va dunyo hayvonot dunyosining halokatiga olib kelishi mumkin.

Ruhiy-energetikaning sayyoraning "ichki koinot" - nozik olamdunyasiga salbiy ta'siri. Bunday ta'sir insoniyatning ma'naviylik va noosferasi o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Har qanday muammoni, shu jumladan global muammoni ham uning sababini tushunmay echish mumkin emas.

Barcha yuqorida qayd qilingan global muammolar umumiy ko' rinishda uchta sababi bor:

- 1) odamning ma' naviy takomillashmaganligi;
- 2) insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining ziddiyatliligi;
- 3) obyektiv tabiiyjarayonlar.

Aksariyat ko' pchilik muammolar birinchi va ikkinchi sabablar bilan bog' liq. Ba' zi muammolar mutaxasislar fikricha, uchta sabab ta' siri ostida (klimatning global o' zgarishi, siyosiy faollikning ko' payishi) keskinlashadi. Ko' rsatilgan muammolardan faqat bittasi butunlay tabiiy jarayonlar bilan bog' liq bo' lib, bu erda inson va jamiyatning ta' siri aniqlanmagan (Yer planetasining kosmik jismlar bilan to' qnashuvi)

Shunday qilib, bir deyarli barcha global muammolar ong yoki inson dunyoqarashi bilan bog' liq bo' lib, uning fan, siyosat, iqtisod, madaniyat, demografiya, texnikasi sohasidagi obyektiv voqelikning tez o' zgarishidan orqada qolganligini ko' ramiz. Hozirgi sivilizatsiya sharoitida odamning o' z faoliyati uchun javobgarligi yuzlab va minglab marta keskinlashadi. Bir nechta yuz yil oldin eng katta urush ham butun insoniyat uchun xavf solmagan edi. Hozirda ommaviy qirg' in quroli bilan harbiy mojarolaming oqibatlarini oldindan aytish qiyin. Yadro quroli nafaqat sivilizatsiyani, planetadagi barcha tirikjonzotlami yo' qotishi mumkin. Bu axloqiy, ekologik va madaniy ustunlikni ta' minlovchi umuminsoniy qadriyatlarga yo' naltirilgan yangi planetar –kosmik tafakkur va insonparvarlik dunyoqarashni rivojlantirishni ifodalaydi. Hozirgi odam tabiiy balansni buzish osonligi, uni

tiklashning qiyinligi, yer ekologik tizimining qanchalik murakkabligini va shu bilan birga qanchalik nozikligini, planeta taqdiri uchun shaxsiy javobgarligini anglashi kerak. Insoniyat o'zining tarixiy rivojlanishida shunday chegaraga keldiki, terroristlar, dovullar, yer qimirlashlar, sunamilar, ekologik fojialar, chegarani bilmaydigan epidemiyalar kabi o'z davlati chegaralariga yaqin dunyo muammolaridan chetda turishi mumkin emas. Endi global muammolardan ba'zilarini batafsil qarab chiqamiz, ularni qanday tugatishni tushunishga harakat qilamiz.

Insoniyatning ma'naviy rivojlanishi hamma vaqtda murakkab va ziddiyatli bo'lgan. Shunday bo'lsa ham XX asrda –XXI asr boshida ma'anaviy madaniyat, jamiyatning axloqiy negizlari shunday sinovlarga duch keldiki, bunday davmi tarixda topish qiyin.

“Ma'naviy inqiroz” tushunchasining hozirgi falsafiy va ilmiy so'z boyligiga kirishi tasodifiy emas⁴⁷.

Nazorat uchun savollar

1. Globallashuv deb nimaga aytiladi?
2. Globalistika nimalardan bahs yuritadi?
3. Globallashayotgan sohalarni sanab bering?
4. Iqtisodiy globallashuv nima?
5. Ekologik muammolarga nimalar kiradi?


6. «Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

⁴⁷ J.YA.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev. FALSAFA. Darslik. Samarqand. 2021.B-436-450


Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfl oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlilali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur»¹⁸⁰ degan so'zlarining ahamiyati haqida fikr bildiring?

«Nima uchun?» sxemasi



«Nima uchun?» texnikasi



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.- Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'. hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. To'xtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

7. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

15-Mavzu: Vangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning o'ziga xos xususiyatlari: yutuqlar, imkoniyatlar va istiqhollari

REJA:

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi falsafiy qarashlar.

2. Fuqarolik jamiyatini barpo etish va tuzilishi.

3. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari - fuqarolik jamiyati shakllanishining bosh omili.

4. Maxalla - O'zbekistonda fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organi sifatida. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati.

Tayanch tushunchalar: «Ochiq jamiyat», «yopiq jamiyat», fuqaro(grajdani)lik jamiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla, jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi mohiyati va uni shakllantirish muammolari ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida, shuningdek, milliy mustaqil davlatlarning yaqin istiqboldagi rivojlanishining siyosiy, nazariy, falsafiy konsepsiyalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik jamiyati yangi davrning muhim nishonasi, jahon taraqqiyotining umumiy tendensiyasi, rivojlanish konsepsiyasi, insoniyat olamini yangicha izohlash, uning fikrlash va hayot tarzi, taraqqiyot ideali, maqsad va orzusi sifatida tarix taqozosi bilan yana kun tartibiga qo'yildi.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi, uning mohiyati, tarkibiy elementlari, funksiyalari nimalardan iborat va u qanday shakllanyapti?

Ma'lumki, hozirgi paytda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslari yaratilyapti, ijtimoiy taraqqiyot ochiq va demokratik jamiyat barpo etish yo'lidan bormoqda. Bu jamiyat o'zining nazariy, falsafiy, analitik va normativ xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Fuqarolik jamiyati ijtimoiy kommunikasiya, sosal aloqalar va qadriyatlar majmui bo'lib, unda bosh sub'yekt fuqarolar, ularning huquqlari va fuqarolik

tashkilotlari (siyosiy, noiyosiy, nodavlat), turli birlashmalar, uyushmalar, ijtimoiy harakatlar, fuqarolik institutlari hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarishiga, turli tarkibiy elementlarning mustaqilligi va tengligiga asoslangani uchun sosal ziddiyat va konfliktlarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va munozaralar orqali tinch yo'l bilan hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati bir- biri bilan uzviy aloqador bo'lgan tushunchalardir, biroq ularni ayniylashtirish yaramaydi. Gap shundaki, fuqarolik jamiyati uzil- kesil shakllangandan keyin ham demokratik va huquqiy davlat u bilan bab- barobar yashashda davom etadi. Fuqarolik jamiyatida davlatning yumushlari ancha kamayadi, uning qator funksiyalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish institutlari ixtiyoriga o'tadi. Lekin shunga qaramay, demokratik davlatning fuqarolik jamiyatidagi ahamiyati yo'qolmaydi: davlat o'z siyosiy maqomi, huquqi, siyosiy tartiblari va o'ziga xos boshqarish apparatlariga ega bo'ladi, o'z faoliyatida ko'proq umumxalq, butun jamiyat manfaatlarini ifoda etadi. Davlat butun jamiyatning irodasi sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun ham jamiyat a'zolari davlat irodasiga ongli ravishda bo'ysunadilar. Fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasida o'zaro munosabatlar inson huquqi va qonun ustivorligi asosida amal qiladi.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning erkin uyushmasi sifatida individlarning shaxsiy manfaatlari va uyushma ehtiyojlarini amalga oshiradi. U o'z qonuni, normativ hujjatlari, axloq va odob me'yorlariga ega bo'lgan mavjudlikdir.

Fuqarolik jamiyati strukturasi tashkil etuvchi elementlar bir-biri bilan uzviy aloqa va munosabatda bo'ladi. Bu jamiyat iqtisodiy sohada : xususiy mayda korxonalar, turli kooperativlar, hissadorlik jamiyatlari, fuqarolarning shaxsiy tadbirkorligi, ishbilarmonligidan; ijtimoiy sohada: oila, o'z-o'zini boshqarish organlari, ko'ppartiyaviylik, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy fikrni o'rganuvchi nodavlat tashkilotlardan; ma'naviy sohada: nodavlat institutlar, ommaviy axborot vositalari (turlicha qarashlarni xolis, beg'araz va erkin bayon etish erkinligi,

jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi xolis vositachi bo'lish, inson va jamiyat manfaatlarini faol va izchil himoya qilish, voqyea va hodisalarni professional mahorat bilan yoritish, bu sohadagi qonunchilik mexanizmiga amal qilish, nodavlat noshirlik va teleradio kanallari tashkil etish), ixtiyoriy ilmiy - ijodiy faoliyat, kasb-hunar va boshqa birlashmalardan tashkil topadi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining qaror topishi «o'zbek modeli»ning tamoyillariga ko'ra, bochqichma-bosqich amalga oshiriladi. U real milliy an'analar, turmush tarzi, yangicha falsafiy va siyosiy tafakkur xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Sharqda demokratik jarayonlar, jamiyatning tub negizlari asta-sekinlik bilan shakllagan va taraqqiy etgan. Sharq xalqlarining hayot va turmush tarzida keskin inqilobiy o'zgarishlar rad etilgan. Sharq donishmandlari ijtimoiy jarayonlarga har qanday sun'iy aralashuvning mudxish oqibatlarini ko'rsatganlar. Shuning uchun ham jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlar xalqlarning fikrlash tarzi, milliy an'analari, urf-odatlariga muvofiq ravishda tadrijiy ravishda ro'y bergan.

Fuqarolik jamiyatlarining ayrim elementlari va xususiyatlari qadim zamonlardayoq Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekiston xududida ham mavjud bo'lgan. Jamiyatda haqiqat va adolat, qat'iy tartib-intizom o'rnatilgan, inson hayoti, aholi tinchligi kafolatlangan, hurfikrlilik, turli e'tiqoddagi kishilarga niyebatan sabr-toqatlilik mavjud bo'lgan, ma'naviy madaniyat rivojlangan, dunyoviy ilm islom madaniyati bilan uyg'un ravishda taraqqiy etgan, ayniqsa, qarindosh-urug'chilik mugnosabatlari mustahkam axloq-odob me'yorlariga bo'ysungan, nodavlat tashkilotlar katta mavqyega ega bo'lgan.

Davlat fuqarolarning shaxsiy va maishiy hayotiga deyarli aralashmagan, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, bilim olish, oila qurish hokimiyatga bog'liq bo'lmagan holda axloq-odob va milliy an'analar asosida rivojlangan. Fuqarolar turli kasb-hunar va diniy uyushmalarga birlashganlar va bir-birlariga o'zaro yordamlashganlar. O'zbekistonda qaror topayotgan fuqarolik jamiyati xalqimizning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, milliy an'analari, fikrlash tarzi va ma'naviy salohiyatiga, tinchlik va millatlararo totuvlikka asoslanadi».

Ijtimoiy struktura jamiyat anatomiyasi bo'lib, ijtimoiy mehnat taqsimoti, mulkchilikning xilma-xil shakllari taqozosi bilan jamiyatning katta va kichik guruhlariga, ijtimoiy birlik va ijtimoiy O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish institutlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilyapti. Ular quyidagilardan iboratdir:

«Jahon sivilizasiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aql-zakovat imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak ma'naviyati va axloqiy qadriyatlari, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, sahovatligi, bag'rikengligi. va jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir»

Mahalla institutining millatlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi o'rni. Ko'p millatli O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va odil fuqarolik jamiyatini barpo etish oliy maqsad qilib qo'yilgan ekan, bunda fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining mavqei alohida ahamiyatga ega.

Oila obro'sini yo'qotish ko'pchilik uchun o'lim bilan barobar. Qishloq va mahalla komitetlarining faoliyatining bosh maqsadi, u erda yashovchilarning farovonligini ta'minlashdan iborat»¹, deb ta'kidladilar. SHu asosda quyidagi xulosalar yuzaga keladi:

Birinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning asosiy bo'gini bo'lmish mahalla instituti Uzbekistonda yaqinda tashkil topgan yangi tuzilma emas, balki o'z ichiga bir necha ming yilliklarni oladigan, qadimiy tuzilmadir.

Mahalla o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilish davomida vujudga kelgan va asrlar davomida takomillashtirib borilgan hayotiy omildir.

Ikkinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining asosiy mohiyati va mazmuni shundaki, u yangi demokratik institut bo'lib, uzluksiz tizimda jamiyatni demokratlashtirib boruvchi, keng xalq ommasining davlatni, jamiyatni boshqarishda erkin, xolis, begaraz, ixtiyoriy ishtirok etishini ta'minlovchi, Uzbekistonning o'ziga xos betakror, noyob xalqchil boshqaruv institutidir.

Uchinchidan, yuqorida nomlari keltirilgan nazariyalar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish faoliyatini takomillashtiradi, chunki nazariya amaliyot uchun xizmat qiladi, jumladan mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning ijtimoiy va davlat nazariyalaridan O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari roli va obro'sini yanada mustahkamlashimiz va yanada qo'llab-quvvatlashimiz kerak.

Mustaqillikdan so'ng eng qadimiy qadriyatlarimizdan hisoblangan, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, o'zbek xalqining yashash tarzini o'zida to'la-to'kis mujassam etgan mahallaning jamiyatdagi munosib o'rni tiklandi. O'zbek mahallasi - xalqimizga xos donishmandlik timsoli. U tarixda ham o'z jozibasi, hayotiyliigi, xalqchilligi, betakrorligi bilan dunyo ahli tafakkurini o'ziga jalb qilib kelgan. Moziydan tortib hozirgacha davlat o'zining ko'pgina ezgu amallarini, xosiyatli, barakatli tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahallada oqsoqollar, faollar aql zakovati, adolatli amalga oshirib, hal qilib keladi

mahalla o'z mohiyati,—faoliyatining mazmuni va shakllari bilg arqona fiklash, ish ko'rish tarzi kabi xaqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettiradi. Mahallalar ko'pmillatli aholini ahil-totuv yashashga, sidqvdildan Mehnat qilishga, kasb o'rganishlik, shular orqali hayot kechirishni engilashtirishga chiqirgan.

Mahalla-avvdyu, sog'lom ijtimoiy muhim mashsani. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi

—Mustaqillikdan so'ng, davlatimiz o'z oldiga adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifasini qo'ygach, mahalla bo'lajak yangi jamiyatning asosi qilib belgilandi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari-mahallalar faoliyatini keng o'rganishga kirishdi hamda «XXI asr Mahallasy» konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu Konsepsiyaga Uzbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish to'g'risida»gi qonuni metodologik asos bo'lib xizmat qilgan va bu BMTning «Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish butunjahon Xartiyasi» va «Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish Evropa Xartiyasi» talablariga asoslangan.

Konsepsiyaning maqsadi O'zbekistonda insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish va uning negizida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iborat. Buning uchun tarixiy merosning yangicha shaklini yaratish, mavqei va nufuzini oshirish orqali milliy taraqqiyotning demokratik mohiyatlarini yanada mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini taqsimlash, xalqni hokimiyat manbaiga aylantirish, uning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash, davlat organlarining ayrim vakolatlarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish jarayonlarini tezlashtirishdir.

Konsepsiyada bozor islohotlarini chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish xususiy mulkni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani ravnaq toptirish, odamlarning moddiy farovonligani oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish, umuman, o'zini-o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar ko'lamini yanada kengaytirish lozim.

Unda mahallaning fuqarolik jamiyati asosiy sifatidagi maqomi, birinchidan, uning fuqarolik jamiyati quyi hududiy birligi, o'zini-o'zi boshqarish maktabi, demokratiya darsxonasi ekanligini; ikkinchidan, jamoatchilik fikri asosidagi ijtimoiy adolat, ma'naviy-axloqiy mezonlar ustuvor sog'lom muhit maskanligi; uchunchidan, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, elu yurt sha'ni, ornomusi uchun kurash, muqaddas insoniy fazilatlar xkamoliyi ta'minlaydigan g'oyaviy-mafkuraviy makon; to'rtinchidan, aholini adolatli ijtimoiy muhofaza etishning xalq ishonadigan tayanch, beshinchidan, mahalla-milliy turmush tarzi, milliy mentalitet tarbiyasi o'chog'i ekanligi ta'kidlanadi.

Mohiyatan demokratiya instituti bo'lgan o'zbek mahallasi mahalliy boshqaruvning o'ziga xos takrorlanmas milliy modeli hamdir. Unda o'zbekona qadimiy-urf-odatlar, an'analar udumlarga va hozirgi demokratik taraqqiyotning tamoyillariga tayanilgan holda, axloqiy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy vazifalar ado etiladi.

Ko'p millatli mamlakatimizda aholining huquqiy madaniyatini oshirish, inson huquqlari va erkinlarini himoya qilish, fuqarolarning ariza va murojaatlarini

o'z vaqtida ko'rib chiqish masalalari doimo fuqarolarnint o'zini-o'zi boshqarish organlarining diqqat markazida turgan.

Turli-xil millat va elatlar o'zaro, hamjihatlikda yashab kelayotgan mahallalarda to'ylar, turli xil marosimlar va boshqa jamoaviy tadbirlari o'tkazishning yangi shakllarini targ'ibotu tashviqot qilish maqsadga muvofiqdir. Bu borada ayrim joylarda ildiz otgan va haqli ravishda boshqalar o'rtasida e'tiroz o'yg'otayotgan, ba'zan esa noroziliklarga sabab bo'layotgan kimo'zarlik, manmanlik va boshqa shu kabi salbiy oqibatlariga olib keluvchi illatlarga chek qo'yish lozim.

Hukumat va mahalliy hokimiyat organlari turli xil millatga mansub oilalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan dasturiy tadbirlarning bajarilishini qattiq nazorat qilishlari, oilani Mustahkamlash, uning moddiy farovonligini oshirishga yordam berayotgan mahalla faollarini har tomonlama qullab-quvvatlashlari darkor.

Mahallalardagi o'zini-o'zi boshqarish organlarining jamiyat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha munosabatlariga alohida e'tibor berishlari zarur:

Birinchidan, jamiyat a'zolarining ongi, irodasi, madaniyati, ma'naviyati, bilimi yuksak darajada bo'lishiga erishish, ayniqsa huquqiy madaniyatiga alohida e'tibor berish;

Ikkinchidan, jamiyat a'zolarining umumiy manfaatlarini shakllantirish va umumiy manfaatlarning shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

Uchinchidan, umummanfaatga erishish uchun turli xil millatga, dinga, irqqa va e'tiqodga mansub jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish;

To'rtinchidan, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-ma'yoriy va qonun hujjatlariga ongli ravishda amal qilishga erishish va boshqalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari» siyosati mahalla institutining siyosiy, huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi. Inson, ma'lum bir milliy-etnik birlikning vakili sifatida ma'lum bir hududda, mahallada yashaydi, umrining asosiy qismini turar joyida o'tkazadi. SHuning uchun ham mahallaning millatlararo

munosabatlarni rivojlantirish va etnosiyosatni real kishilar, oilalar hayotiga olib kirish imkoniyatlari kattadir.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining barpo etilishi jarayonida jamiyatning ijtimoiy strukturasida tub sifatiy o'zgarishlar vujudga keladi, hozirgacha amal qilib kelgan ijtimoiy institutlar faoliyatida sifatiy o'zgarishlar ro'y beradi. Davr talablariga javob beradigan yangi ijtimoiy institutlar paydo bo'ladi.

Ijtimoiystruktura jamiyat anatomiyasi bo'lib, ijtimoiy mehnat taqsimoti, mulkchilikning xilma-xil shakllari taqozosi bilan jamiyatning katta va kichik guruhlariga, ijtimoiy birlik va ijtimoiy qatlamlarga bo'linganligini anglatadi. Ijtimoiystruktura elementlari kishilarning turlicha birliklaridan tashkil topadi. Bular:

- 1) ishlab chiqarish birliklari (korxona mehnat jamoalari, dehqon-fermer xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari;
- 2) mehnat jamoalari (muassasalar, tashkilotlar, idoralar, firmalar, ilmiy tekshirish institutlari);
- 3) siyosiy birliklar (davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar);
- 4) xududiy birliklar (shahar.qishloq, tuman, o'lka, vodi);

Agar sinfiy nazariya jamiyatning ijtimoiy strukturasini gorizontaal kesimda o'rgansa, undan farqli ravishda ijtimoiy stratifikasiya nazariyasi jamiyatni vertikal kesimda o'rganadi. Bu nazariya ijtimoiy mobillik, ijtimoiy ko'chish, harakatchanlik nazariyasining shakllanishi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ochiq va demokratik jamiyatda individ, ijtimoiy tabaqa doimo harakatlanib turadi, ular ijtimoiy strukturada o'z o'rinlari va mavqelarini o'zgartirib turadilar. Individlar, ijtimoiy birliklar va qatlamlarning ijtimoiy holat va mavqeining ijtimoiy strukturada o'z o'rinlari va mavqelarini o'zgartirib turadilar. Individlar, ijtimoiy birliklar va qatlamlarning ijtimoiy holat va mavqeining ijtimoiy strukturada o'zgarib turishiga ijtimoiy mobillik deyiladi.

Ijtimoiymobillik (harakatchanlik) vertikal va gorizontaal yo'nalishda sodir bo'ladi. Vertikal yo'nalishda individning mavqeyi «yuqoriga» va «quyiga»

tomon o'zgaradi, gorizontal yo'nalishda individ bir xil ijtimoiy doira ichida harakatlanadi.

Siyosiy tuzum tabiatiga qarab ijtimoiy sinflar, ijtimoiy tabaqalar, ijtimoiy guruhlar jamiyatda turlicha ijtimoiy statusni egallaydilar. O'tish davrida mulkchilik xilma-xil shakllarining vujudga keltirilishi, tadbirkorlik va xususiy mulkchilikning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi bilan jamiyatimiz ijtimoiy strukturasida yangi sinf, ijtimoiy qatlam va ijtimoiy institutlar vujudga keladi. Xususan, mulkdorlar sinfi jamiyatning ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy rivojlanishining muhim tayanchi bo'lib qoladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston jamiyati ijtimoiy strukturasining tarkibi qanday? Mavjud adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, rahbarlarning nutq va maqolalarida O'zbekiston uchun hos bo'lgan quyidagi ijtimoiy sinflar, ijtimoiy qatlamlar va ijtimoiy guruhlar qayd etilyapti :

- turlicha tarkibdagi oliy siyosiy elita,
- ma'muriy, diplomatiya, partiya arboblari, harbiy, huquqiy, xo'jalik va madaniyat rahbarlari,
- boshqaruv apparatini idora qilayotgan o'rta qatlam,
- yetakchi xo'jalik (birlashmalar, korxonalar, korporasiyalar, bank) rahbarlari,
- mutaxassislar (turli daraja va yo'nalishdagi xizmatchilar),
- diniy muassasa xodimlari,
- turli malakali va ijtimoiy statusli ishchilar,
- jamoa xo'jaligi va korporasiya a'zolari,
- individual mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kosib va hunarmandlar,
- kichik tadbirkorlar,
- talabalar,
- sinfiy qiyofasini yo'qotgan ijtimoiy elementlar (mahbuslar, fohishalar),

Jamiyat ijtimoiy strukturasida sinf muhim o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini belgilovchi kuch mulkdorlar sinfidir. Ular mulkni ko'z qorachig'iday avaylab asraydilar, uni ko'paytirishga, moddiy farovonlikni yaratishga intiladilar,

mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotida aktiv ishtirok etadilar. Mulkdorlar, demokratik jamiyatning muhim ijtimoiy - siyosiy tayanchidir.

So'z erkinligi, vijdon erkinligi, matbuot erkinligi singari demokratik institutlarning amal qilishi, ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim sharti, bu -ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, aholining tinch- totuvligi va insonlarning samarali mehnat faoliyatidir.

Davlat tashkiloti butun sharqda bo'lganidek, O'zbekistonda an'anaviy jamiyatlarning sharoitida ham, rus-sovet mustamlakachiligi davrida ham hayotning barcha sohalariga belgilovchi ta'sir ko'rsatgan. shaxs sifatida inson jamoa va davlatga, jamoa esa davlatga qaram bo'lib qolavergan. natijada bu yerda qadimgi yunon-Rim sharoitlarida boshlang'ich davrini kechirgan va yangi zamonda oyoqqa turgan fuqarolik jamiyati singari voqelik amalda bo'lmagan yoki ilk holatda bo'lgan. Buni hatto ayrim marksist nazariyotchilar ham ta'kidlab o'tishgan. italiya kommunistlarining sardorlaridan bo'lgan A.Gramshi va boshqa bolshevik kommunistlardan farqli o'laroq yozgan edi: «Sharqda davlat beqiyos kuch edi, fuqarolik jamiyati ilk, uyushmagan holatda bo'lgan. g'arbda davlat bilan jamiyat o'rtasida tartibga solingan munosabatlar mavjud edi va agar davlat tebrana boshlasa, darhol fuqarolik jamiyatining mustahkam tarkibi yuzaga chiqqan. Davlat oldingi handaq hisoblangan, orqada qal'a va istehkomlarning mustahkam zanjiri turgan».

Xo'sh, bu nima bilan izohlanadi? **Birinchidan**, sharqda mulkning asosan jamoaviyligi bilan bo'lsa, g'arb-yevropada avvalboshdan xususiy mulk ustunlik qilganligidadir. mulkning bu shakli hukmronligi ham avtomatizm yo'li bilan fuqarolik jamiyati institutini paydo qilmaydi. Davlat va, umuman, siyosiy rejim demokratiyaning ma'lum talablariga javob berishi kerak. shu sharoitlardagina

fuqarolik jamiyatiga zaruriyat bo'ladi. ko'rinadiki, davlat (har qandayi emas, balki demokratiyaviyligi) yaratib bergan shart-sharoitlar fuqarolarning kundalik manfaatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. bunda ishonirish, huquqiy va axloqiy me'yorlar hamda erkin shaxsning ajralmas huquqlari asosida nosiyosiy tashkilotlar yordamida ish yuritiladi.

Ikkinchidan, erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari shundayki, o'z manfaatlari yo'lida erkin shaxslar fuqarolik sohasida amal qiladigan demokratik tartiblarga tayanib o'zlarining keragicha tashkilotlarini yarata olishi mumkin va lozim. zero, erkin va mustaqil shaxs – fuqarolik jamiyatining markaziy figurasidir.

Uchinchidan, davlat o'z faoliyatida fuqarolar talab va ehtiyojlarini maksimum darajada hisobga olishga majburdir. Chunki bu o'z-o'zini doimiy mavjudligini ta'minlashga qaratilgandir. so'ngra fuqarolar ham o'zlarining xilma-xil manfaatlarini ta'minlashda davlat mexanizmiga murojaat qilishga haqlidirlar. bunda esa ular o'zlarining ko'plab nosiyosiy tashkilotlarini ishga soladilar. Fuqarolar mavjud demokratik ijtimoiy tuzum sharoitlarida hokimiyatning belgilovchi manbasi hisoblanadi. Ularning jamiyati markazlashgan davlat hokimiyati va erkin shaxs o'rtasidagi mustahkam vositachi bo'lg'inni tashkil etadi. Davlat esa hokimiyatdan nisbiy mustaqil bo'lgan shaxsning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish orqali yuz berishi kutilayotgan inqirozlarning oldini oladi.

Fuqarolik jamiyati tashkil topishini zarur etib qo'yadigan konkret shart-sharoitlar xilma-xildir. buni turli nodavlat va xususiy xayrehson jamg'armalari misolida qarab chiqish mumkin. Bu xususda adabiyotlardagi qarashlarni quyidagicha umumlashtirib keltirish mumkin:

- 1) fuqarolarni tashkiliy birlashib kimgadir yaxshilik qilishida instinktiv tarzda rahm-shafqat, achinish holati turadi;

2) e' tiqodiga ko 'ra inson birovlariga yetkazgan yaxshiligidan ichki qoniqish hosil etadi;

3) kishilardagi xayr-saxovatga moyillik, uni tashkiliy uyushtirish jamoatchilik oldida o 'zlikni namoyon qilish sifatida qaralishi mumkin;

4) kishilarning tevarak-atrofdagi bolayotgan ozgarishlardan xabardorligini krsatadi;

5) oziga oxshagan kishilar bilan munosabatda burchga sodiqlikni ifodalaydi;

6) fuqarolik nuqtayi nazaridan moddiy manfaatdorsiz birovga yaxshilik qilish evaziga ozida qoniqish his qilish;

7) fuqarolik majburiyati sifatida umuminsoniy manoda tushunilgan adolatga sodiqlik va boshqalar.

Hozirgi Ozbekistonda kechayotgan jarayonlar otish jamiyatiga tegishli bolganidan ijtimoiy maqomiga kora mamlakat kechikib rivojlanish tipiga kiradi. Chunki tarixiy-ijtimoiy jarayonlarning subyekti - ajralmas huquq va majburiyatlarga ega ongli fuqaroni totalitar tuzum yetishtira olmagan edi. busiz esa fuqarolik jamiyati bolmasligi ravshandir.

Ozbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi qator oziga xosliklarga ega. ular quyidagilar:

- otmish jamiyatlardan qolgan va shaxslardagi barqaror tushunchalarning oz-ozidan barham topmasligi, buning uchun esa jiddiy mafkuraviy tarbiyaning zarurligi;

- milliy-davlat istiqlolini mustahkamlash vazifalaridan kelib chiqib fuqarolik jamiyati tarkibiy qismlarini shakllantirish;

- davlatning islohotchilik vazifalari bajarilishi doirasida komil insonni - fuqarolik jamiyati tashuvchilarini shakllantirishga erishish va h.k.

*Ozbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1992–yilda nashr etilgan «Ozbekistonning oz istiqlol va taraqqiyot yoli» asari mamlakat oldida turgan vazifalarni, jumladan, fuqarolik jamiyatini yaratish bilan bogliq masalalarni hal etish boyicha dasturulamal bolgan edi. uning «**Mustaqil Ozbekistonni rivojlantirishning manaviyaxloqiy negizlari**» deb atalgan bobida manaviy merosni saqlash va rivojlantirish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, shaxsga oz imkoniyatlarini axloq va qonun doirasida erkin namoyish qilish hamda vatanparvarlikning orni va ahamiyati korsatib berilgan edi.*

Ozbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslari mamlakat konstitutsiyasida belgilab qoyilgan. masalan, tegishli moddalarda Ozbekistonning demokratik huquqiy davlat sifatida maqomi, bozor munosabatlarini qaror toptirishning asosiy shart-sharoitlari, shaxs shani, uning yashash huquqi, erkinligi, tengligi va hokazo ko'plab qoidalar qayd qilingan.

Konstitutsiya asosida qabul qilingan Fuqarolik kodeksi va fuqarolikka tegishli boshqa qonunchilikda shaxs mulkining daxlsizligi, tuzilgan shartnomalarning erkinligi, xususiy ishlarda biron-bir kishining aralashuviga yol qoymaslik, fuqarolik huquqining betosiq amalga oshishini taminlash, odil sudlov va hokazolar Ozbekistonda yaratilayotgan fuqarolik jamiyatining huquqiy-qonunchilik bazasini tashkil etmoqda.

Fuqarolik jamiyati tashkil etuvchilari soni va salmogiga kora, ***birinchidan***, ixtiyoriy tashkil topgan nodavlat tuzilmalar (ular turli markazlar, klublar, tashkilotlar, jamgarmalar, muassasalar kabilar) dan iborat. ***Ikkinchidan***, moddiy va manaviy sohalardagi nodavlat munosabatlarning yigindisini ifodalaydi. ularning umumiy soni Ozbekistonda 10 000 dan ortiq bolib, 1 million aholiga 20 tadan togri keldi. bu korsatkichga ham, asosan, mustaqillik yillarida erishildi. ular *tarkibiga 4 ta siyosiy partiya, 2 ta harakatchilik, 50 tacha jamiyat, 30 ga yaqin uyushma, 20 tacha tarmoq uyushmalari, 40 ga yaqin jamgarmalar, 30 dan ortiq federatsiya, 20 ga yaqin birlashma* va hokazolar kiradi.

Fuqarolik jamiyati chuqur ildiz otgan mamlakatlarda uning tarmoqlari juda tigiz bolib, fuqarolar va korxonalarining yuz minglab sondagi xilma-xil tashkilotlaridan iboratdir. turli manbalarda keltirilishicha, aqshda 1 mln. aholiga 4334 ta tashkilot togri kelib, jami 1140 000 ta bolsa, kanadada tegishli tarzda 4800 va 144000, buyuk britaniyada - 5172 va 300000, shvetsiyada - 20000 va 184000 ta togri keladi.

Ozbekiston hayotining barcha sohalarida fuqarolik jamiyati faoliyat korsatsa-da, uning keng tarmoqlari iqtisodiy va manaviy sohalarga togri keladi. masalan, aksiyadorlar jamiyati, kichik va orta korxonalar, tijorat banklari ozlarining tegishli nohukumat va notijorat tashkilotlarini tasis etganlar. bular, oz navbatida, Ozbekiston tadbirkorlari va tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, banklar uyushmasi, ishbilarmon ayollar uyushmasi va hokazolarga birlashganlar.


Manaviy sohada turli jamgarmalar tasis etildi. ularning malum qismi xalqaro maqomda (masalan, «Oltin meros», *Imom Al-Buxoriy nomidagi*, *Amir Temur nomidagi*, «Ekosan» va hokazolar) bolsa, boshqalari Respublika miqyosida («ustoz», «nuroniy», sharof Rashidov jamgarmasi, ulugbek jamgarmasi va hokazolar) faoliyat korsatadi.

NNTlar yuridik maqomda tashkil etilgan, hokimiyat organlaridan mustaqil, oz-ozini boshqaruvchi, olingan foydani muassislar ortasida taqsimlamaslik, ixtiyorlik tamoyilida ish korishlari bilan tavsiflanadi.


Nazorat uchun savollar:

1. «Jamiyat», «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini tariflang, ularning umumiy tomonlari va farqlarini korsating.
2. Fuqarolik jamiyati masalasining falsafa tarixida qoyilishi.
3. XX asr falsafasida fuqarolik jamiyati konsepsiyalarining ishlab chiqilishi.
4. «Ochiq jamiyat» qanday jamiyat?
5. «Fuqarolik jamiyati»ning asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?

«Nima uchun?» sxemasi



«Nima uchun?» texnikasi



Oʻzbekiston" nashriyoti, 2021, - 464 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M - Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga koʻtaramiz. - Toshkent, Oʻzbekistonʻ nashriyot-matbaʼa ijodiy uyi, 1 - jild. 2017 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolivatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, Oʻzbekiston" nashriyot-matbaʼa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ. hayoti yorug va kelajagi farovon boladi - Toshkent, Oʻzbekiston" nashriyot-matbaʼa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, Oʻzbekiston" nashriyot-matbaʼa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil

6. Toxtayev X.P. Ijtimoiy falsafa. Oquv qollanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet.

7. Ijtimoiy falsafa. Oquv qollanma. I.Karimov, S. Valieva. K. Tulenova - Toshkent, 2014, 132 bet.

8. Ijtimoiy falsafa. Oquv qollanma. Mualliflar jamoasi. - Toshkent, Universitet, 2009

9. Tuychiyev B.T., Ziyodullayeva X. Osnovi sosialnoy filosofii - T.: 2010

FANGA OID TESTLAR:

1. Qanday muammolar insoniyatning boshqa muammolarga qarshi kurashishida jiddiy tosiq bolmoqda?

- a) Norkomaniya, qoporuvchilik, ekstremizm.
- b) Diniy konfliktlar, ekologiya va fundamentalizm.
- c) Afgon urushi va giyohvandlik.
- d) Qashshoqlik, onalar va bolalar olimi, epidemiyalar.

2. NATO/SEAP tashkilotining 2008 yil apreľ oyida bolib otgan Buxarest sammitida Ozbekiston Prezidenti Afgoniston masalasida qanday taklifni ilgari surgan edi?

- a) “6+2” guruhini shakllantirish.
- b) “6+2” guruhini “6+3” guruhiga aylantirish.
- c) Harbiy yordamni kuchaytirish.
- d) Gumanitar yordamni kuchaytirish.

3. 2010 yilning 11-14 iyun kuni sodir bolgan qanday fojiali voqealar Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatning izdan chiqishi xavfini tugdirdi?

- a) Qirgiziston janubida sodir bolgan qonli va shafqatsiz voqealar.
- b) Afgonistonda 30 yildan buyon davom etayotgan harbiy harakatlar.
- c) Pokistonda yuz bergan qoporuvchilik harakatlari.
- d) Hamma javoblar to'g'ri.

4. Keyingi qirq yilda Orol dengizi bilan bogliq qanday salbiy o'zgarishlar sodir boldi?

- a) Orol boyida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo boldi.
- b) Orol dengizi akvatoriyasi 7 barabar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi.
- c) Orol dengizi akvatoriyasi 5 barabar oshdi va suv hajmi 3 marta ko'paydi.
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Prezidentimiz tomonidan jafokash afgon zaminida tezroq tinchlik qaror topishi uchun qanday taklif ilgari surildi?

- a) Jahon hamjamiyati, avvalambor iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-gumanitar yordam korsatishi va bu ishlarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida amalga oshirilishi zarur.
- b) Jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiy-moliyaviy yordam ko'rsatish va bu ishlarni Afg'onistonga qo'shni bo'lgan mamlakatlar yordamida amalga oshirish.
- c) Jahon hamjamiyati tomonidan ijtimoiy-gumanitar yordam ko'rsatish va bu ishlarning barchasini rivojlangan mamlakatlar yordamida amalga oshirish.
- d) Faqat Osiyo mamlakatlari orqali iqtisodiy-moliyaviy ko'makni amalga oshirish.

6. O'tgan yillar davomida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot o'sishi qanchani tashkil etgan?

- a) 3,5 barobarni
- b) 9,5 foizni
- c) 9,0 foizni
- d) 2,5 barobarni

7. O'zbekistonda har yili davlat byudjetining qancha qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda?

- a) 20 foizi
- b) 50 foizi
- c) 9 foizi
- d) 25 foizi

8. Bugungi kunda yurtimizda aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash necha foizga etdi?

- a) 82,5; 83,5
- b) 50; 55
- c) 100; 93
- d) To'g'ri javob yo'q.

9. O'zbekistonda oxirgi 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr kechirishi qanchaga etgan?

- a) 65 yoshdan 60 yoshga
- b) 50 yoshdan 67 yoshga
- c) 67 yoshdan 73 yoshga
- d) To'g'ri javob yo'q

10. Mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining necha foizini xotin-qizlar tashkil etadi?

- a) 65 foizini
- b) 75 foizini
- c) 48 foizini
- d) 30 foizini

11. Bugungi kunda O'zbekiston davlatining tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning:

- a) 10 foizidan oshmaydi.
- b) 30 foizini tashkil etadi.
- c) 102 foizidan ortadi.
- d) 50 foiziga teng.

12. 2008-2009 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari:

- a) 2 va 5 foizni tashkil qildi.
- b) Retsessiya holati kuzatildi.
- c) 9 va 8,1 foizni tashkil qildi.
- d) 7 va 8 fozga pasaydi.

13. BMTning amaldagi Bosh kotibi bu-

- a) Janob Kofe Anand.
- b) Angela Merkel.
- c) Nikola Sarkazi.
- d) Janob Pan Gi Mun.

14. O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan mablag'lar yalpi ichki mahsulotning necha foizini tashkil etadi?

- a) 3-5 foizini.
- b) 10-12 foizini.
- c) 1-2 foizini.
- d) To'g'ri javob yo'q.

15. 2009 yildan boshlab O'zbekistonda qanday ta'lim tizimi to'liq joriy bo'ldi?

- a) 12 yillik majburiy ta'lim.
- b) 3 yillik ixtiyoriy ta'lim.

- c) 4 yillik bakalavr ta'limi.
- d) 11 yillik majburiy ta'lim.

16. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan 2010 yilga mamlakatimizda qanday nom berildi?

- a) "Sog'lom avlod yili"
- b) "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili"
- c) "Barkamol avlod yili"
- d) "Kelajak avlod yili"

17. "Inson kapitali" tushunchasi deganda nimani tushunasiz?

- a) Ishlab chiqarish jarayoni natijasida ishchi kuchining bilim, malaka, tajriba darajasining oshib borishini
- b) O'qish uchun sarflangan barcha sarf-xarajatlarni
- c) SHaxsning iqtisodiyotda sarflangan pul mablag'larini
- d) CHet el invetsitsiyasining har bir shaxsga sarflangan mablag' miqdorini

18. Jamiyat hayoti va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy omillar ...

- a) 2 ta
- b) 3 ta
- v) 4 ta
- g) 5 ta

19. Jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy omillar.

- a) Geografik muhit.
- b) Aholi zichligi (Demografik omil).
- v) Aholi yashaydigan hudud iqlimi.
- g) Geografik va demografik omil.

20. «Geografik muhit» tushunchasining ma'nosi.

- a) Inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiat elementlari majmuasi, jamiyatning hayoti kechadigan tabiiy makon.
- b) Tabiiy boyliklar.
- v) Tabiatning barcha ko'rinishlari, o'simliklar olami, hayvonot dunyosi.
- g) Hom-ashyolar zahiralari.

21. «Geopolitika» atamasini fanda birinchi bo'lib qo'llagan olim ...

- a) Shvesiyalik olim, siyosatshunos R.Chellen.
- b) K.Xausxofer.
- v) P. Gallua.
- g) Sh. Montestʼe.

22. Geografik siyosat.

- a) U yoki bu mamlakatning o'z imkoniyatlari geografik vaziyatini hisobga olgan holdagi ijtirodigan siyosati.
- b) Xalqaro, siyosiy va davlatlararo munosabatlarda o'ziga xos yo'l tutish.
- v) Tashqi siyosatda davlatning o'z moddiy, ijtimoiy, ma'naviy resurslarining holati va ahamiyatiga e'tibor berish.
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

23. «Geografik determinizm» yo'nalishining mazmuni.

- a) Geografik sharoitlarni jamiyat taraqqiyotining birdan-bir asosiy omili, deb hisoblaydigan yo'nalish.
- b) Fransuz faylasufi Sharl Montestʼe.
- v) XVIII asrda geografik kashfiyotlar taraqqiyot uchun beqiyos imkoniyatlar ochayotgan davrda shakllangan yo'nalish.
- g) «b» va «v» javoblar to'g'ri.

24. Geografik muhitning jamiyatga ta'siri deganda nima nazarda tutiladi?

- a) Ishlab chiqarish sohalarining shakllanishi va taraqqiyot ijtimoiy mehnat taqsimotiga ta'sir ko'rsatuvchi omil
- b) inson qobiliyatlarining rivojini olish.
- v) jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi omil
- g) barcha javoblar to'g'ri

25. Jamiyatning iqtisodiy hayoti .

- a) Insonning ishlab chiqarish faoliyatining barcha turlari va unig natijalarini ifodalaydi;
- b) kishilarning moddiy hayot sharoitlarini ishlab chiqishlari bilan bog'liq barcha faoliyat turlari va shu jarayonda sodir bo'ladigan ijtimoiy aloqa va munosabatlarni o'z ichiga oladi;
- v) moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish;
- g) jamiyat hayotining boshqa barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi

26. Jamiyat iqtisodiy hayotining asosini

- a) moddiy ishlab chiqarish tashkil etadi.
- b) ishlab chiqarishning barcha turlari tashkil etadi;
- v) iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishni tashkil etadi;
- g) ishlab chiqarish munosabatlari tashkil etadi.

27. Moddiy ishlab chiqarish deganda nima nazarda tutiladi?

- a) mehnat predmetlari, ishlab chiqarish vositalari;
- b) ishlab chiqaruvchi kuchlar;
- v) ishlab chiqarish munosabatlari;
- g) ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari.

28. Jamiyatning ijtimoiy guruhlar: mansubdor shaxslar, ishlab chiqaruvchilar, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar va harbiylardan iborat ekanligi haqidagi fikr kim tomonidan ilgari surilgan?

- a) Abu Rayhon Beruniy;
- b) Alisher Navoiy;
- v) Abu ali ibn Sino;
- g) Abu Nasr Farobiy.

29. Jamiyat hayotining asosiy sohaları nechta?

- a) 2 ta;
- b) 3 ta;
- v) 4 ta;
- g) 5 ta.

30. «Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasi» tushunchasining mazmuni.

- a) Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasi unda mavjud ijtimoiy munosabatlar va shu asosda shakllanadigan birliklar, ijtimoiy guruhlarni o'z ichiga oladi;
- b) Jamiyatning ijtimoiy hayoti uning ijtimoiy tarkibida o'z ifodasini topadi;
- v) Jamiyatning ijtimoiy tarkibiga sinflar, tabaqalar, kishilarning birligining tarixiy shakllari (urug'lar, qabilalar, elat-millatlar) kiradi.
- g) a, b, v, javoblar birgalikda to'g'ri.

31. Mutafakkirlardan qay biri jamiyat a'zolarini bajaradigan vazifalariga qarab ijtimoiy guruhlarga ajratgan?

- a) Abu Ali ibn Sino;
- b) Mirzo Ulug'bek;
- v) Abdurahmon Jomiy;
- g) Abu Nasr Forobiy.

32. Tarixiy etnik birliklar deganda

- a) Ijtimoiy sinf, ijtimoiy qatlam, millat nazarda tutiladi.
- b) Mulkdorlar sinfi, tabaqa, qatlam nazarda tutiladi.
- v) Urug', qabila, elat. Millat nazarda tutiladi.
- g) Xalq, millat, individ, burok zot nazarda tutiladi.

33. Oila ...

- a) Jamiyatni asosiy bo'g'ini;
- b) Tarixiy kategoriya;
- v) Er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik roritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan kichik ijtimoiy guruh;
- g) Poklik soflikka, ikki tomonlama muhabbatga asoslangan ijtimoiy birlik.

34. Jamiyatning ijtimoiy hayoti.

- a) Uning ijtimoiy tarkibida o'z ifodasini topadi;
- b) Sinflar, millatlar orasidagi munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi;
- v) Siyosiy tizimda o'z ifodasini topadi;
- g) Demografik tarkibida aks etadi.

35. Jamiyat ijtimoiy tarkibining asosiy elementlari ...

- a) Jamiyatning etnik tarkibi;
- b) Jamiyatning sinfiy va demografik tarkibi;
- v) Jamiyatning etnik, sinfiy, demografik tarkibi;
- g) Jamiyatning demografik tarkibi.

36. Millatning belgilari qaysi javobda aks etgan?

- a) Iqtisodiy hayot umumiyliigi;
- b) Iqtisodiy hayot, til, ma'naviy turmush birligi;
- v) Iqtisodiy hayot, til, hudud, ma'naviy turmush umumiyliigi;
- g) Xududiy, ruhiy umumiylik.

37. Jamiyat hayotining asosiy sohalariga nimalar kiradi?

- a) iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy;
- b) ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy;
- v) siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy;
- g) ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy

38. «Jamiyatning siyosiy hayoti» tushunchasining mazmuni.

- a) Jamiyatning siyosiy hayoti sinflari, ijtimoiy guruhlar, millatlar orasidagi siyosiy munosabatlar, ularning davlat hokimiyatiga munosabatini o'z ichiga qamrab oladi. Davlat jamiyat siyosat hayotining asosiy elementi.
- b) Davlatlar – jamiyat siyosiy hayoti sohasining muhim elementi hisoblanadi.
- v) Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari jamiyat siyosiy hayotining tarkibiy qismi hisoblanadi.
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

39. Jamiyat hayotidagi beqaror nimalarda namoyon bo'ladi.

- a) Jamiyat hayotining izdan chiqishida, qonunlarning ishlamasligida;
- b) Jamiyat a'zolari orasida loqaydlik holatlarining kuchayishida;
- v) Ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida jinoyatchilikning ko'payib borishida, davlatning boshqaruv salohiyatining zaifligi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib borishida;
- g) Barcha javoblar to'g'ri.

40. Germenevtika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib nima ma'noni anglatadi?

Izohlash, xabar berish, tushuntirish

O'qitish, yozish, o'rganish

Tushunish baholash aniqlash

Axtarish, izlash, o'rnatish bo'lish

41. Tushinish metodologiyasini va texnikasini ishlab chiqqan falsafiy yunalish bu –

Germenevtika

Ekzistensializm

Personalizm

Neotomizm

42. Qadriyatlar haqidagi ta'limot qanday nomlanadi?

Aksiologiya

Giosologiya

Psixalogiya

Ontologiya

43. Qadriyatlarni belgilash, aniqlash –

Baho berish orqali sodir bo'ladi

Haqiqat orqali sodir bo'ladi

Bilish orqali sodir bo'ladi

Nazariy qarashlar orqali sodir bo'ladi

44. Qadriyatlarni fiziologik va ijtimoiy ezgulik tomonlarga ajratgan amerikalik biolog kim?

Jorj Pag

Leyli Uayt

Ogyust Kont

Karl Marks

45. Baholashda ob'ektivlik jihatimi yoki sub'ektivlik jihatmi?

Sub'ektivlik

Ob'ektivlik

Ikkovi ham teng kuchli

Hali o'rganilmagan

46. Tajribani shunday turi borki, uning predmeti aql uchun yopiqdir deb ta'kidlagan aksiolog kim?

SHeller

Farn

Rikkert

Kont

47. Amerikalik sotsiolog Parsonsning fikricha qadriyatlar –

Faoliyat yo'nalishini belgilash uchun xizmat qiladi

Kishini kelajagini belgilab beradi

Jamiyatni ontologik kuchini tashkil qiladi

Oilani yaratish uchun asos bo'ladi

48. Odamning inson sifatida shakllanishida tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsial) omillar dialektikasini ochib berishda ijtimoiylik rolini bo'rttirib ko'rsatgan falsafiy ta'limotlardan biri bu –

Marksizm

Ruhiy tahlikalikachilar

Egzistentsializm

Fenomenologiya

49. Personalizmnining markaziy tushunchasini ko'rsating.

SHaxs

Odam

Inson

Millat

50. SHaxs – inson ongliligi tafsifidir ushbu so'z kimga tegishlidir?

Jeyms

Pirs

Xoking
Jestov

51. Shaxsni 3 ta asosiy komponentdan iborat ekanligini fanga kim kiritgan?

Freyd
Yung
Adler
Pirs

52. Amerikalik insonshunos olim Jeymsni fikricha shaxs tarkibini vujudga keltirgan 3 ta elemet mavjud ularni ko'rsating.

Jismoniy shaxs, ijtimoiy shaxs, ma'naviy shaxs
Yuridik shaxs, iqtisodiy shaxs, ruhiy shaxs
Ijtimoiy shaxs, ma'naviy shaxs
Iqtisodiy shaxs, yuridik shaxs, ruhiy shaxs

53. Hozirgi zamon shaxs nazariyasining shakllanishida qanday kontsepsiyalarning ta'siri sezilarli bo'ldi.

Psixanalitik va gumanistik
Ekzistentsiyalistik va personalistik
Germeneftik va gumanistik
Neokonservativistik va personalistik

54. Individ shaxs darajasiga ko'tarilishida 8 bosqichni bosib o'tishini qaysi mashhur olim ta'kidlab o'tgan edi?

E.Erikson
Z.Freyd
M.Maslou
E.Fromm

55. Mustaqil shaxs bu –

Inson yuksak darajadagi biosotsial uyushma ekanligining ifodasidir
Insonning shaxs bo'lish mavqei
Insonni erkin fikrlashini bildiradi
Teng huquqqa ega bo'lgan odamga aytiladi

56. Deindividualizatsiya bu –

Inson borlig'idagi individual, shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarni etarli baholashlikning oqibatidir

SHaxssizlikni ro'yobga chiqish holati
Mustaqil shaxs bo'lib voyaga etish jarayonini belgilovchi tushuncha
SHaxs – biosotsial jarayonini boshidan kechirayotgan muhitidir

57. Inson ma'naviy qiyofasi bu –

Ijtimoiy ongning muhim elementi bo'lib, inson xulq atvorida kundalik amaliy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi

Ijtimoiy qiyofaning sinonimi
Materiyaning bir ko'rinishi
Insonning borlig'ini tashkil etuvchi tushuncha

58. Ijtimoiy ongning shakli bo'lgan madaniyat va ma'naviyatning qaysi birining qamrovi kengroq

Madaniyatning
Ma'naviyatning
Ikkovi teng kuchli
Hali aniqlanmagan

59. Ma'naviy qashshoqlik qandayu muammo?

Global

Milliy
Hududiy
Lokal

60. Terrorizm bu –

Lotincha vahima, g'ulg'ula solish
Fransuzcha qo'rqitish
Ruscha tuzumni o'rnatish
Forscha qo'rquvni uyg'otish

61. Mustaqil shaxsni shakllantirmoq uchun nima kerak?

Kishilar ruhiy ma'naviy qiyofasiga tub sifat o'zgartirish yasash
Milliy g'oyani targ'ibot qilish
Miliy targ'ibotni kuchaytirish
Ma'rifatni shakllantirish

62. Dipersonifikatsiya bu –

Insonda insoniylikni yo'qolishi, xudbinlikni oshishi
Madaniyatning darajasi
Texnogen madaniyat bilan qurollanish
Insonni shaxsga aylana olmasligini bildiradi

63. Axloq bu –

Jamiyat a'zolari, millat, xalq, shaxs amal qiladigan ijtimoiy tartib
Davlat tomonidan tuzilgan tartib qoida
Kodekslar majmui
Qonunlar majmuasi

64. Siyosiy etuklik bu –

SHaxsning mustaqilligini ifodalaydi
Milliy ongini belgilaydi
Milliy o'zlikning oshishi
Siyosiy hayotda faollik

65. Madaniy saviyaning eng muhim ko'rsatkichi bu –

Intellektual faollik
Madaniyatni tushunish
Siyosiy ongini oshirish
Madaniyatga munosabat

66. Tarix sub'ektlarini ko'rsating

Xalq, millat, olomon, omma, ijtimoiy sinflar
Inson, shaxs, mahalla, saylovchilar
Xarizmatik yo'l boshchi, to'da olomon
Musulmonlar, xristianlar, buddistlar

67. Birdan ko'tariluvchi va birdan so'nuvchi tarix sub'ekti –

Olomon
Omma
Xalq
Millat

68. O'zbekiston ko'p millatli davlat hisoblanib, o'ziga xos baynalminal markaz mavjud. SHuning necha yilligi nishonlanmoqda?

15 yilligi
14 yilligi
10 yilligi
16 yilligi

69. Millatlararo totuvlik bu –

Teng huquqlilik, o'zaro hurmat, hamkorlik
Katta millatlarni hurmatlash
Mahalliychilik qilmaslik
Urug' – elat so'rab surishtirmaslik

70. Mahalliychilik, shovinizm, millatchilikning salbiy oqibatlari O'zbekiston respublikasi Birinchi Prezidentining qaysi asarlarida o'z aksini topgan?

O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...
Buyuk kelajak sari
Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q
O'zbekiston: o'z taraqqiyot va istiqlol yo'li

71. Millatlararo munosabat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida berilgan?

18
31
7
15

72. Taraqqiyotning o'zbek modeli to'g'risida Prezidentning qaysi asarida yozilgan?

O'zbekiston: o'z taraqqiyot va istiqlol yo'li
O'zbekiston XXI asrga intilmoqda
Bunyodkorlik yo'lidan
Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q

73. Bozor iqtisodiga bosqichma bosqich o'tish fan tilida nima deb nomlanadi?

Tadrijiylik
Sakrash
Inqilobiylik
SHok terapiyasi

74. Ijtimoiy ongning darajalarini ko'rsating.

Yakka, individual, ijtimoiy psixologiya, mintalitet, milliy g'oya, mafkura
Diniy ong, huquqiy ong
Siyosiy ong, axloqiy ong
To'g'ri javob yo'q

75. Ijtimoiy ongning shakllarini ko'rsating

Siyosiy ong, axloqiy ong, huquqiy ong
Mafkura, ruhiyat, ijtimoiy psixologiya
Individual ong, yakka ong, ruhiyat
Mafkura, g'oya, milliy g'oya

76. Fanning paydo bo'lishi nomli asar kimga tegishli?

SHeller
Kuni
Merton
Krombi

77. Klassik fan namoyondalarini ko'rsating.

Galiley, Nyuton, Gilbert, Kepler
Spinoza, Speller, SHridenger
Eynshteyn, CHedvik, Anderson
Dirak, Rikkert

78. Ochiq jamiyat va unig elementlari nomli asar kimga tegishli?

Popperga

Kunga
SHeller
Jeymsga

79. Fan yutuqlarini ijobiy deb olqishlaydiganlarni fanda nima deb atashadi?

Stsientizm
Antistsienteizm
Pozitivistlar
Germenevtiklar

80. Kulturalogiya atamasini fanga kiritgan antropolog kim?

Uayt
Puankare
Abu Nasr Farobiy
Kreber

81. Al-Madaniya, shahar degan terminlarni o'z asarida ilk bor kiritgan O'rta Osiyo mutaffakkiri kim?

Abu Nasr farobiy
Ibn Sino
Al Farobiy
Beruniy

82. Sivilizatsion jamiyatni belgisi bu –

YUksak komfort
Madaniyat darajasi
Teng huquqlilik
Demokratik tamoillar amal qilishi

83. Madaniyat va tsivilizatsiya bir narsa deb qarovchilar guruhini ko'rsating.

Klyuchevskiy, Freyd, Dinilevskiy
SHpengler, Beryaev, Furve
Toffler, Popper, Marks
Grinil, Beryaev, Furve

84. Sivilizatsiya bu –

Insoniyatni bosib o'tgan yo'li va erishgan madaniyat darajasi
Madaniyatning bir ko'rnishi
Taraqqiyot va rivojlanishga sinonim tushuncha
Hali ta'rifi berilmagan tushuncha

85. Sivilizatsiyalarni 21 ta va 2 ta g'oyaviy tsivilizatsiyalarga bo'lib «Tarixi tadqiq» asarini yozgan muallif bu –

Toynbi
Toffler
Popper
Marks

86. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini birini ko'rsating.

Ijtimoiy tuzum va madaniyat tizimining mosligi qonuni
Qiymat qonuni
Butun olam tortishish qonuni
Miqdor va sifat qonuni

87. Ijtimoiy taraqqiyot haqida ilmiy bashorat qiluvchilarni qanday nomlanadi?

Futurologlar
Folbinlar
Pessimistlar
Optimistlar

88. Insoniyatning yaqin kelajagi va imkoniyatlarini baholovchi tashkilotni ko'rsating.

Rim klubi

NATO
BMT
YUNESKO

89. Futurologiya atamasini fanga kiritgan sotsiolog kim?

Flextxeym
Rikkert
T.Kun
Ansel

90. Ijtimoiy ziddiyatlar qachon paydo bo'ladi?

Maqsad va manfaatlar uchun kurashadigan kishilar faoliyatida
Qiziqishlar to'qnashsa
Sub'ektiv omillar va obektiv omillar to'qnashsa
Hali o'rganilmagan

91. Ijtimoiy ziddiyatlar necha turga bo'linadi?

Antoginistik va noantoginistik
Asosiy, asossiz, ma'nosiz
Kam kuchli, kuchli
Ichki va tashqi

92. Yangisini ko'rmay turib eskisini buzmaslik to'g'risidagi g'oya kimga tegishli?

Karimov
Spenser
Popper
Jeyms

93. Konsensus bu –

Ixtiloflardan hamkorlikka olib boruvchi yo'ldir
Ziddiyatni eng cho'qkisidir
Kelishmovchiliklarni bildiradi
Bunday tushuncha ishlab chiqilmagan

94. Integratsiya nimani anglatadi?

Lotincha so'z bo'lib, to'ldirish, yaxshilash
Nemischa so'z bo'lib, qo'shilish, hamkorlik degan ma'noni anglatadi
Fransuzcha, jipslashish, intilish
Ruscha, hamkorlik, zo'rlik

95. O'zaro kelishilsa kichik bir narsa ham rivojlanadi, kelishilmasa buyuk narsa ham yo'q bo'ladi ushbujumla kimga tegishli?

Svetoniy
L.Farg
Makiyavelli
Karl Popper

96. Umum bashariy muammolarni ko'rsating

Termo yadro urush xavfi, ekologik inqiroz
Tabiat injiqliklari, iqtisodiy tanglik
Axloqsizlik, jinoyatchilik, OITS
Bunday muammo hali ko'p o'rganilmagan

97. Ekologik krizislar va terrorizm haqida Prezidentning asarini ko'rsating

O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...
O'zbekiston XXI asrga intilmoqda...
O'zbekiston buyuk kelajak sari
Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q

98. O'tmish hozirgi kun va kelajak o'rtasida qanday qonun amal qiladi

Vorislik qonuni
Notekislik qonuni

Qiymat qonuni

Falsafiy qonun

99. O'zbek modelining nechta tamoyili mavjud?

5

3

4

6

100. Demografik portlash degani nima ma'noni anglatadi?

Aholining keskin ko'payishi

Aholining kamayishi

Aholining shaharlashishi

Aholining me'yorlashuvi

101. Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi.

a) Ijro etuvchi hokimiyat organi

b) Qonun chiqaruvchi hokimiyat organi

c) Markaziy hokimiyat idorasi

d) Vazirliklarni tuzuvchi organ

102. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida.....

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga har oyda bir marta axborot berib boradi

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi

c) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga har yilda ikki marta axborot beradi

d) Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot bermaydi

103. Vazirlar Mahkamasi qaysi organga o'z dasturini taqdim etadi va o'z ishi to'g'risida hisob berib turadi:

a) Oliy Majlisga

b) Oliy Majlis qo'mitalariga

c) Oliy Majlis Kengashiga

d) Prezident devoniga

104. Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan ...

a) Farmoyishlar chiqaradi

b) Qonun chiqaradi

c) Qarorlar chiqaradi

d) a va b

105. Vazirlar Mahkamasining majlislari.....

a) Har haftada bir marta o'tkaziladi

b) Har oyda bir marta o'tkaziladi

c) Yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi

d) Yilning har choragida kamida ikki marta o'tkaziladi

106. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy prinsiplariga:

a) Kollegiallik, demokratiya, qonuniylik, insonparvarlik, oshkoralik

b) Kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish

c) Demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish

d) Kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, insonparvarlik

107. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida ...

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida mas'uldir

- c) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir
- d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida mas'uldir

108. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi?

- a) Markaziy saylov komissiyasi tomonidan
- b) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan
- c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan
- d) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

109. Taklif etilgan Konsepsiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha kimning zimmasiga yuklanadi?

- a) Markaziy saylov komissiyasi Raisiga
- b) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga
- c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeriga
- d) O'zbekiston Respublikasi Senati Raisiga

110. Taklif etilgan Konsepsiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi kim tomonidan taklif etiladi?

- a) Markaziy saylov komissiyasi tomonidan
- b) O'zbekiston Respublikasi Senati tomonidan
- c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalari yoki deputatlik guruhlar tomonidan
- d) Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini olgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan

111. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari nomzodi kim tomonidan taqdim etiladi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni
- b) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri
- c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri
- d) O'zbekiston Respublikasi Senati Raisi

112. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabr kuni qaysi sohalarini yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilab berildi?

- a) Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini islox etish
- b) Axborot sohasi erkinligini ta'minlash, O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish
- c) Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish
- d) Barcha javoblar to'g'ri

113. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari a'zolari sonining uchdan ikki qismi ovozi bilan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi berishi natijasida..

- a) Parlament tarqatiladi
- b) Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi
- c) Parlament a'zolari orasidan vaqtincha Bosh vazir vazifasini bajaruvchi saylanadi
- d) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlaridan biri Bosh vazir lavozimini egallaydi

114. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi kim tomonidan beriladi?

- a) Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi
- b) Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi
- c) Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O'zbekiston Respublikasi Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi
- d) Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi

115. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qaysi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish taklifi kiritilmoqda?

- a) "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun
- b) "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun va "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun
- c) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun
- d) a va b

116. Konsepsiyada ilgari surilgan taklifga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining hisobotlarini eshitish va muhokama qilish kimning vakolatiga kiradi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
- b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining
- c) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
- d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining

117. Konsepsiyada taklif etilayotgan o'zgartishga ko'ra, viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimini tayinlash hamda lavozimidan ozod etish tartibi qanday?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi
- b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi
- c) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi
- d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi

118. Konsepsiyaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarish mo'ljallanayotgan normani ko'rsating?

- a) Respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi
- b) Vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi
- c) Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi
- d) To'g'ri javob yo'q

119. Konsepsiyada ifoda etilgan taklifga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilishga haqlimi?

- a) Faqat favqulodda holatlarda
- b) Raislik qilishga haqli emas

- c) Raislik qilishga haqli
- d) To'g'ri javob yo'q

120. Fuqarolik jamiyati institutlari ko'rsatilmagan qatorni aniqlang:

- a) jamoatchilik markazlari
- b) davlat muassasalari*
- c) jamoat fondlari
- d) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

121. Hozirgi kunda mamlakatimizda qancha nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda?

- a) 5100 dan ziyod*
- b) 2600 dan ziyod
- c) 7500 ga yaqin
- d) 4800 ga yaqin

122. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni qanchani tashkil etadi?

- a) 5 mingdan ortiq
- b) 10 mingdan ortiq*
- c) 15 mingdan ortiq
- d) 20 mingdan ortiq

123. Ma'ruzada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida qanday qonun qabul qilish taklifi kiritilgan?

- a) "Nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi to'g'risida" Qonun
- b) "Jamoat fondlari faoliyati to'g'risida" Qonun
- c) "Homiylilik to'g'risida" Qonun
- d) "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" Qonun*

124. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida qanday komissiya tashkil etildi?

- a) "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi qoshidagi komissiya
- b) Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti huzuridagi komissiya
- c) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Parlament komissiyasi*
- d) Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz qoshidagi komissiya

125. Fuqarolik jamiyati institutlarining majmuini yana qanday nomlash mumkin?

- a) "birinchi sektor"
- b) "ikkinchi sektor"
- c) "uchinchi sektor" *
- d) "to'rtinchi sektor"

126. So'nggi uch yil ichida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan qancha miqdorda mablag' ajratilgan?

- a) 11 milliard so'mdan ortiq*
- b) 13 milliard so'mdan ortiq
- c) 15 milliard so'mdan ortiq
- d) 17 milliard so'mdan ortiq

127. Prezidentimiz tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta'minlash hamda ularning rolini kuchaytirish maqsadida qanday qonun qabul qilish taklifi kiritildi?

- a) "Nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi to'g'risida" Qonun

- b) "Jamoat fondlari faoliyati to'g'risida" Qonun
- c) "Ijtimoiy himoya faoliyati to'g'risida" Qonun
- d) "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" Qonun *

128. Ma'ruzada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan qanday qonun qabul qilish taklifi kiritildi?

- a) "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" Qonun
- b) "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida" Qonun*
- c) "Jamoat fondlari faoliyati to'g'risida" Qonun
- d) "Nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi to'g'risida" Qonun

129. Inson huquqlari sohasida ishlab chiqish taklif etilayotgan milliy harakat dasturida qanday chora-tadbirlar belgilanishi ko'zda tutilgan?

a) jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro yetmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi

b) sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sosial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini belgilash

c) huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash*

d) jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish masalalari

130. Mamlakatimizda demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlari rolini kuchaytirishga va fuqarolarning eng muhim sosial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan qonun hujjatlarining soni qancha?

- a) 100 dan ortiq
- b) 200 dan ortiq*
- c) 300 dan ortiq
- d) 400 dan ortiq

131. Respublikamizda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan qanday qonunni qabul qilish zarurati bor?

- a) Ijtimoiy shartnoma to'g'risida
- b) Ijtimoiy institutlar to'g'risida
- c) Ijtimoiy sheriklik to'g'risida *
- d) Ijtimoiy markaz to'g'risida

132. Quyida ko'rsatib o'tilganlardan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik markazini toping:

- a) Ijtimoiy markaz
- b) Ijtimoiy sheriklik
- c) Ijtimoiy nazorat
- d) Ijtimoiy fikr*

133. Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlari belgilab berilgan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish uchun qaysi kodeksga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim?

- a) Fuqarolik kodeksiga

- b) Mehnat kodeksiga
- c) Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga *
- d) Jinoyat kodeksiga

134. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida qanday huquqiy hujjat qabul qilingan?

- a) Qonun
- b) Qaror*
- c) Farmon
- d) Farmoyish

135. Respublikamizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan Oliy Majlis palatalarining qanday qo'shma qarori qabul qilingan?

- a) Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarni qo'llab-quvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida*
- b) O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida
- c) Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida
- d) Ekologik nazorat to'g'risida

136. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi – mahalla faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qaysi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim?

- a) Ijtimoiy sheriklik to'g'risida
- b) Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida
- c) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida*
- d) Jamoat fondlari to'g'risida

137. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan nechta yangi qonunni qabul qilish taklifi ilgari surildi?

- a) 2
- b) 4 *
- c) 6
- d) 8

138. Respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlariga oid qanday uyushma mavjud?

- a) Milliy ittifoq
- b) Milliy federatsiya
- c) Milliy konfederatsiya
- d) Milliy assosiatsiya*

139. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining soni 2000 yilga nisbatan necha barobar ko'p?

- a) 2,5*
- b) 3,5
- c) 4,5
- d) 5,5

140. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov qaysi tamoyillar asosida amalga oshiriladi?

- a) hududiy, ko'p mandatli saylov okruglari asosida
- b) saylovchilarning milliy mansubligini e'tiborga olib, saylov okruglarini tashkil etish asosida
- c) hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida
- d) ma'muriy-hududiy saylov uchastkalari tuzish asosida

141. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari soni?

- a) 120 ta
- b) 150 ta
- c) 250 ta
- d) 175 ta

142. Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida nechta hududiy sub’yektdan imzo to‘planishi kerak?

- a) yettita
- b) sakkizta
- c) beshta
- d) oltita

143. Deputatlikka nomzodlarni qaysi sub’yektlar ko‘rsatadi?

- a) siyosiy partiyalar
- b) fuqarolar
- c) mahalliy vakillik organlari
- d) a, b, c

145. Saylov huquqiga oid xalqaro prinsiplar aks etgan dastlabki xalqaro hujjat:

- a) Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya
- b) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt
- c) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi pakt
- d) Umujahon inson huquqlari deklaratsiyasi

146. 2008 yil 25 dekabrda “Saylov to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartishlar natijasida qaysi institut ta’sis etildi?

- a) OAV
- b) Ishonchli vakil
- c) Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili
- d) Xalqaro va milliy kuzatuvchilar

147. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bob va moddasi saylov tizimiga bag‘ishlangan?

- a) 23-bob 117-moddasi
- b) 15-bob 67-moddasi
- c) 8-bob 32-moddasi
- d) 18-bob 77-moddasi

148. 2009 yil 27 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda hududiy saylov okruglaridan ko‘ppartiyaviylik asosida nechta deputat saylanadi?

- a) 135
- b) 120
- c) 150
- d) 250

149. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt”ning qaysi moddasi saylov prinsiplariga oid qoidalar mustahkamlangan?

- a) 25-moddasi
- b) 3-moddasi
- c) 8-moddasi
- d) 31-moddasi

150. YeXHT insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Kopengagen kengashi hujjati qachon qabul qilingan?

- a) 1990 yil 29 iyun
- b) 1975 yil 25 dekabr
- c) 1963 yil 30 avgust
- d) 1948 yil 10 oktyabr

151. Saylovga oid xalqaro standartlar bu - ...

- a) Fuqarolarning saylovga oid huquqlari, saylovlarni tashkil etish va o'tkazishga taaluqli xalqaro prinsiplar
- b) Saylov haqidagi xalqaro ma'lumotlar
- c) Davlatlarning saylovga oid milliy qonunchiligi
- d) Faqat BMT tomonidan qabul qilingan universal hujjatlar

152. BMT tizimi doirasida xorijiy kuzatuvchilar missiyasi ilk bor 1948 yilda qaysi mamlakatda ishtirok etgan?

- a) Koreya
- b) Eron
- c) Afg'oniston
- d) V'yetnam

153. Quyidagi qaysi hujjat BMT tomonidan 2005 yilda qabul qilingan?

- a) Saylovlarni kuzatish bo'yicha qo'llanma
- b) Ishtirokchi davlatlarda demokratik saylovlar, saylov huquqi va erkinliklari standartlari to'g'risidagi konvensiya
- c) Xalqaro kuzatuvchilar uchun saylovlar va referendumlar bo'yicha tavsiyalar
- d) Saylovlarni xalqaro kuzatish prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya

154. 2008 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston ekologik harakatidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar qay yo'sinda saylanadi?

- a) Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqib, 15 nafar ekoharakat deputatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadilar
- b) Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqib, alohida tashkil etilgan 15ta saylov okrugini
- c) Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari deputatlari tomonidan
- d) Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqib, Ekoharakatning Respublika konferensiyasida

155. O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga nechta deputat saylanadi?

- a) 18
- b) 15
- c) 10
- d) 6

156. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish vakolati kimga berilgan?

- a) Senatga
- b) Qonunchilik palatasiga
- c) Oliy Majlis palatalariga
- d) Bosh vazirga

157. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov qachon o'tkaziladi?

- a) Ularning vakolat muddati tugaydigan yilning dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida
- b) Ularning vakolat muddati tugaydigan yilning dekabr oyi birinchi o'n kunligidagi yakshanbasida
- c) Ularning vakolat muddati tugaydigan yilning dekabr oyidagi ikkinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida

d) Barchasi bo'lishi mumkin

158. Markaziy saylov komissiyasi necha kishidan iborat tartibda tuziladi?

- a) 6 kishi
- b) 25 kishi
- c) 10 kishi
- d) 15 kishi

159. Markaziy saylov komissiyasining Raisi komissiya a'zolari orasidan kimning taqdimnomasi bo'yicha komissiya majlisida saylanadi?

- a) Oliy Majlis Senati raisi
- b) Ichki ishlar vaziri
- c) Bosh vazir
- d) Prezident

160. Qonunchilik palatasining birinchi majlisini kim ochadi?

- a) Markaziy saylov komissiyasining Raisi
- b) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlaridan biri
- c) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- d) O'zbekiston Respublikasi Senat Raisi

161. Mulkka egalik qilish huquqi nima?

- a) Mulkning yuridik taqdirini belgilash
- b) Sotib yuborish
- c) O'zgalarga hadya qilish
- d) Mulkni mulkdor o'z qo'lida yoki unga nisbatan o'z huquqlarini oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytiladi

162. Mulkning daxlsizligi nima?

- a) Iqtisodning samarali rivojlanishi va xalq farovonligining o'sishiga yordam berish
- b) Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni o'z xohishiga ko'ra sodir etishga haqli
- c) Har kim mulkdor bo'lishga haqlidir
- d) Mulkdorning mulkiy huquqlarining qonun bilan kafolatlanishi va mulkdor bu huquqlardan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin

163. "Davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun qachondan boshlab kuchga kiritilgan?

- a) 1991 yil 10 yanvar
- b) 1991 yil 15 mart
- c) 1991 yil 20 may
- d) 1991 yil 18 noyabr

164. Aksiyadorlik jamiyati nima?

- a) Ustav fondi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo'lingan jamiyat
- b) Hissalar aksiyalar bilan rasmiylashtiriladigan jamiyat
- c) Aksiyadorlarning cheklangan javobgarlikka ega bo'lgan jamiyati
- d) Aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'lish belgilangan jamiyat

165. Aksiyadorlik jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladigan organ qaysi?

- a) Ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi

- b) Kuzatuv kengashi
- c) Ijro organi
- d) Taftish organi

166. Quyidagilardan qaysi biri MCHJning umumiy yig'ilishi vakolatlariga kirmaydi?

- a) Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdorini o'zgartirish
- b) Ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish
- c) Yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash
- d) Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish

167. Kimlar xususiy mulk huquqini sub'yekti bo'la olmaydi?

- a) Kooperativlar
- b) Jamoat birlashmalari
- c) Davlatga qarashli yuridik shaxslar
- d) Xo'jalik shirkatlari

168. Xususiy mulk qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?

- a) Individda tegishli mulk sifatida
- b) Ma'muriy-xududiy tuzilmalar mulki sifatida
- c) Nodavlat yuridik shaxs mulki sifatida
- d) a va c javoblar to'g'ri

GLOSSARIY

(falsafa fanidan qisqacha izoh)

Agnostitsizm – inson ob’ektiv borliqni to’liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Antissientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati bilan bog’liq.

Antropotsentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qo’yuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko’rilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo’lgan obraz, g’oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o’zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada – tarix, madaniyatni, o’zga individuallikni tushunish san’ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Globalashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globalashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegratsiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

Diskret – uzlukli.

Differensiatsiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Ierarxiya – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo‘ysunishi.

Izotrop – barcha yo‘nalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi ta’limot.

Integratsiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – o‘ziga, o‘z ichki dunyosiga qarab mo‘ljalluvchi.

Imitatsiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo‘lib, bunda axborot o‘ta muhim resursga aylanadi.

Irratsionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

Kommunikatsiya (keng ma'noda) – muloqot. Ekzistensializm – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

Konstitutsiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

Koevolyusiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreatsionizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

Materializm – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

Metodologiya – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Mistika – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiylashtirish – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid o'laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Persepsiya – idrok etish.

Ratsionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.

Simvol – biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

Skeptitsizm – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

Stereotip – ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Substansiya – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Ssientizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, soʻzga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy taʼlimotlar tizimi.

Teotsentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qoʻyuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bogʻliq, uning taʼsiri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi oʻringa qoʻyuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni echishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib koʻrsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb eʼlon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transsendental – oʻta umumiy

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Fauna – barcha turdagi hayvonlar majmui.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin boʻlgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy taʼlimot.

Flora – oʻsimliklar dunyosi.

Fluktuatsiya – oʻzgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy ogʻish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Evolyusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida oʻrganuvchi fan.

Evristik – ijodiy, nomaʼlum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targʻib qiluvchi gʻoyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistensializm – diqqat markazida hayotning maʼnosi, inson erkinligi va masʼuliyati muammolari turuvchi falsafiy yoʻnalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning oʻzini qurshagan muhit bilan oʻzaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo‘lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikatsiya – u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob’ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Empirik – tajribada ko‘rilgan.

Etimologiya – u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta’limot.

Etnogenez – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish – o‘zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

Falsafa - "filosofiya" so‘zidan olingan bo‘lib, "donishmandlikni sevaman" degan ma’noni anglatadi ("filo" - sevaman, "sofiya" - donolik).

Faylasuf - qadimgi SHarq va YUnonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, inson ma’naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar.

SUBSTANTSIYA - qadimgi YUnoniston va Rimda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to‘g‘risidagi fikr tushunilgan.

MONIZM - (yunoncha - monos, ya’ni yakka ma’nosini anglatadi) - olamning asosi yakkayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limotdir.

DUALIZM - (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) -olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya, ya’ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

PLYURALIZM - (lotin tilida plyural, ya’ni ko‘plik degan ma’noni anglatadi)

- olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

MATERIALIZM - olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

IDEALIZM -olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

GNOSTIK - dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflar.

AGNOSTIK - olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to'g'ri va aniq haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchi faylasuflar.

DIALEKTIKA - grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda deb tushunishdir. Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni dialektik dunyoqarash deb atash an'anaga aylangan.

METAFIZIKA - grekcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "fizikadan keyin" degan mazmunni ifodalaydi. Bu tushuncha, falsafa tarixida birinchi marta, qadimgi YUnonistonning buyuk faylasufi Aristotelning "Ilk falsafa" deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.

Ko'p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq. qaratadigan usuldir.

SOFISTIKA - qadimgi YUnoniston falsafasida vujudga kelgan tafakkur usulidir. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "sofist" so'zi asosda, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. U nafaqat qadimgi YUnoniston, balki o'rta asrlarda Evropada ham keng tarqalgan.

SINERGETIKA - olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa

va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Sinergetika XX asr tabiiy fanlarning falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuq va xususiyatlarni aks etadi.

O'ZBEK FALSAFASI - halqimizning o'z milliy an'alariga sodiqligi, mamlakatimizning buyuk kelajagiga, muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi, mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar kiradi.

DUNYOQARASH - Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa kishilarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. SHu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir.

MIFOLOGIK DUNYOQARASH - qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va Haqiqat uchun kurashg'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

DINIY DUNYOQARASH - muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega. Diniy dunyoqarash har bir davrda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan.

FALSAFIY DUNYOQARASH - muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat. Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rin tutadi, hissiyot

dunyoqarashning emotsional - ruhiy jihatida bo'lib, dunyoni tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir.

FALSAFIY DUNYOQARASHNING VAZIFALARI- u muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat. Bo'larning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzu-umidlarning asosli ekaniga, faoliyati va hatti-harakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

FALSAFIY BILIMLAR TIZIMI . Dunyoda xilma-xil fanlar bor. Muayyan sohaga oid ilmiy bilimlar tizimi fan deb ataladi. Ular "Tabiiy fanlar", "Ijtimoiy fanlar", "Aniq fanlar", "Texnika fanlari" kabi sohalarga bo'linadi. Jamiyat va insonni o'rganuvchi, ular to'g'risidagi turli bilim sohalarini qamrab oladigan tarix, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi ijtimoiy fanlar yagona fan sohasi - ijtimoiy fanlar sohasiga kiradi. Fizika, ximiya, biologiya, matematika kabi fanlar esa tabiiy fanlar sohasiga mansub.

FALSAFIY G'OYALAR - insoniyatning yashashi, rivojlanish istiqbollari, orzu- havaslari, intilishlari, umidlari, turmush tarzi g'oyaviy qarashlarda ham o'z ifodasini topadi. Falsafiy g'oyalar, obrazli qilib aytganda, inson hayot tarzining ko'zgusidir.

FALSAFIY NAZARIYALAR - "yaxshi" yoki "yomon", "foydali" yoki "zararli" ekanini tarixiy tajriba asosida faqat bitta mezon umuminsoniy manfaatlarga mos keladimi yoki yo'qmi, degan xulosa asosida baholash mumkin. SHuning uchun biz falsafiy g'oya va nazariyalarni baholashda sub'ektiv fikrlarimizni mutlaqlashtirishdan yiroq bo'lishimiz lozim.

FALSAFIY TAFAKKUR - rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqea-hodisalarni barchasi ijtimoiy ongda

aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi.

ZARDUSHT - SHarq va G'arbda Zaratusht, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida vatanimiz hududida, xususan Xorazm zaminida yashagan. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

"AVESTO" - zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. "Avesto"da olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. "Avesto"da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

BUDDAVIYLIK - diniy falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand Sidharta urug'idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u "Budda", ya'ni "nurlangan" degan laqabga ega bo'lgan. Buddaviylik O'rta Osiyoga eramizdan avvalgi II-1 asrlarga kirib kelgan. Buddaviylikning O'rta Osiyoga yoyilishi quyidagi to'rt bosqichdan iborat.

MAZDAK TA'LIMOTI - eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470-529yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida xalq ommasiga suyangan.

MONIY TA'LIMOTI - yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan. Moniy hatto "Moniylik yozuvi" nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi yaxshilik va zulmat dunyosi yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (ruh -

nur farzandi, jism - zulmat mahsuli)dan iborat.

DAO - Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasufi Lao-TSzi (VI-V asrlar)ning ta'limoti bo'lib, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Dao qonuni - tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof ztilishidir.

TSI - Dao qonuniga ko'ra beshta unsur tushunilgan ya'ni olov, suv, havo, er va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

YAN - yorug'lik kuchi. Odamzod kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonidan turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim.

IN - zulmat kuchi. Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi.

Lao-TSzi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutadi.

GERAKLIT - yunon faylasufi eramizdan avvalgi 520-460 yillar Kichik Osiyoning g'arbiy kirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. Olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosi olovdan iborat deb bilgan. Uning fikricha, olamdagi hamma narsa harakatda "Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, suv har daqiqada yangilanib turadi". Olamda turg'unlik yo'q, harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir.

PIFAGOR - (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) YUnonistonning Somos orolida yashab o'tgan. U qadimgi YUnonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor butun olam raqamlarning uyg'unligidan va o'zaro munosabatlaridan iborat deydi.

SUQROT - (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) (asli Sokrat) qadimgi yunon faylasufi Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, xurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan. Falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim deb ta'kidlaydi. Suqrot qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilgan. "Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi" degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining

yaqqol ifodasidir.

SOFISTLAR FALSAFASI - qadimgi yunon madaniyatida katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan.

AFLOTUN - (asli Platon) Suqrotning shogirdi, jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. Jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir, deb aytadi Aflotun. Ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun "g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi" ta'limotining asoschisidir. Uningcha g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir.

ARASTU - (384-322 yillar) (asli Aristotel') Aflotunning shogirdi va safdoshi, qadimgi YUnonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan merosi bilan mashhur.

DEMOKRIT - yunon faylasufi. Uning fikricha haqiqiy borliq moddiy dunyo bo'lib, ruh, ong, materiyaning mahsulidir. Olam mayda moddiy zarralardan. ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deb ta'lim beradi.

EPIKUR - (341-270 yillar) qadimgi yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam - moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar - bo'linmas, olam -jism va bo'shliqdan iborat. deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan.

NEO - yangi, zamonaviy demakdir. Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida nomlariga «Neo» qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

VORISLIK - eskini inkor qilib, yangilikni shakllantirish.

STSIENTIZM - fan ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyo qarash. Stsientizm g'oyalari, neopotizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

ANSTSIENTIZM - fan jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishni asoslovchi falsafiy dunyo qarash. Bunday dunyo qarash ekzistentsializm, frankrut ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi.

NEOTOMIZM - XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XI-XII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (Neo-yangi, to'limizm-«foma») Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra ilm va e'tiqod o'rtasida muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan haqiqat.

NEOKANTCHILIK - XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan. Bu ta'limotga ko'ra inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun insonning hayoti o'zi uchun oliy maqsaddir. SHunday ekan, vositada sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin maxsulot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamoatchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq.- hukuklarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

NEOPOZITIVIZM - okimining yirik namoyandalardir. Neo - yangi; pozitiv-ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20 - yillarida paydo bo'lgan oqimining asoschisi OGYUST KONTdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa - ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

VERIFIKATSIYA printsipini - neopozitivistlar ilgari suradilar (lotincha Veritas - haqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada

ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsip keyinchalik inkor etildi.

FAL'SIFIKATSIYALASH metodiki - postopozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K.Popper ilgari surdi. Unga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyligini mantiqiy - lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 - 70 yillariga strukturalizm va germeneytika chikdi.

STRUKTURALIZM (asosiy vakillari Levi-Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb x.isoblaydilar. Masalan Levi - Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq bo'ladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday printsipga, umumiy mantiqqa ega.

GERMENEVTIKA - qadimgi yunon afsonasidagi xudolarning xoxish va irodasini insonlarga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchisi - Germes nomi bilan ataladi. Demak, germeneytika - tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari ga asosiy diqqatini qaratadi.

EKZISTENTSIAL FALSAFA -- XX asrning 30-yillariga kelib rivojlangan. Ekzistentsiya tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistentsiyalizm nixoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarning insoniy ma'naviy dunyosi, inson takdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi.

PRAGMATIZM - yangi zamon falsafasining oqimi. AQSHda keng tarkalgan. Foydali faoliyatga undovchi, «foydaga » qanday erishish yo'llari haqida muloxaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foйда» tushunchasi «tajriba», “hakikat” tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

OLAM - tor ma'noda bu odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va xayvonot olami, o'simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy olam va boshqa

shu singari ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyo mavjud bo'lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi.

ODAM - fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson.

MONIZM - olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta'lim beruvchi yo'nalish.

DUALIZM - olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e'tirof etuvchi oqimdir.

PLYURALIZM - olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

SUBSTANTSIYA - muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma-xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir.

SUBSTRAT (asos ma'nosini anglatadi) - olamning asosida yotuvchi substantsiyani axtarishning yana bir yo'li, narsalarning tarkibidagi bo'linmas eng kichik unsum, asosni axtarishdir. Bunday yo'nalishga mansub oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, qadimgi yunon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit va Lukretsiylar narsalarning va butun olamning asosida eng kichik bo'linmas unsurlar atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan bir-birlaridan farq qiladi, deb hisoblashgan.

FAN OLAM TO'G'RISIDA - o'ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq, doirasidan chetga chiquvchi hodisalar esa izohlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan tadqiqot ob'ektiga kiritilmaganligining sababi ana shunda.

OLAM HAQIDAGI DINIY TASAVVURLAR uning kelajagi, yaratilishi yoki o'tmishiga oid murakkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni «budunyo» - o'tkinchi olam va «narigi dunyo» - abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat-farog'atga muyassar bo'ladi, degan g'oyaga asoslaniladi.

INDIVIDUAL OLAM - - odamning jamiyatdagi boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'zida tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi.

MODDIY OLAM - moddiy jismlarigina o'ziga qamrab oluvchi olamga aytiladi.

IJTIMOIIY OLAM - odamlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, faoliyatlari, uy-xayollari, ideallari, maqsad va maslaklari bilan birgalikda bo'lgan.

MA'NAVIY OLAM - odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamga aytiladi.

AKTUAL OLAM - shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo'lgan olamga aytiladi. **REAL OLAM** - olamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha e'tirof etadigan qismi. **VIRTUAL OLAM** - kelajakda mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lgan olam. (virtual so'zi lotincha

Virtualis - ehtimoldagi degan ma'noni bildiradi).

KONKRET OLAM - aniq ma'lum bo'lgan olam.

BORLIQ - ob'ektiv reallikni qamrab oluvchi tushuncha.

ONTOLOGIYA - falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismiga aytiladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X.Vol'f qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

YO'QLIK - hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi hamma narsaning ibtidosi ham- intixosi bo'lib yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi.

MAVJUDLIK - borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi.

REALLIK - mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. **MATERIYA** - moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning mahsuli va abstraktsiyasidir», - deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'ektlarga xos eng umumiy tushuncha,

falsafiy kategoriyadir.

HARAKAT - borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

RIVOJLANISH - bu muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgariylanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

FAZO - narsalarning qo'llashini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlikli va uzluksizligini ifodalaydi. Fazo vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan, adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida ishlatiladi.

VAQT - hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

IJTIMOIIY HARAKAT - bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarining faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

T a b i a t t u s h u n c h a s i - keng mahnodagi falsafiy tushunchalardan biridir. Tabiat benixoya xilma - xil shakl va kurinishlari bilan insonni kurshab turgan moddiy olam, butun mavjudotdan iboratdir.

QONUN - olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo'lishidir.

TABIAT QONUNI. Tabiat qonunining yana bir eng muhim xususiyati ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas.

ME'YOR. Miqdor va sifatning birinchi, o'zaro bog'liqligini ifodalaydigan tushuncha. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

SAKRASH. Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

VORISLIK - eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi.

INKOR - tushunchasi kundalik ongda «yuq» so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmok -

«yuq» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik onga ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yuq» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

INKORNI INKOR QONUNI. Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishidagi jarayonni eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda eskilik butunligicha inkor kilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saklanib koladi.

YANGILANISH. Aslida tarixda mafkuradan mutloq xoli davrlar kam bo'lgan. SHunday davrlar bo'lgan taqdirda ham, ulardan so'ng albatta har safar mamlakatning o'ziga xos va o'ziga mos mafkuraviy muhitni qayta tiklash va yangilash jarayoni boshlangan. Vatanimizda kechayotgan bugungi mafkuraviy yangilanishni sohibqiron Amir Temur davrida mo'g'ullar imperiyasiga barham berib, mustaqillik uchun milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash uchun kurash yillariga qiyoslash mumkin.

DIALEKTIK INKOR - yangining eski bilan oddiy almashinuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy - tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham

ifodalaydi.

KATEGORIYA - bu qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish»,

«ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

ALOHIDALIK. Ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

XUSUSIYLIK - alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat orqali ifodalanadi.

UMUMIYLIK - olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa - hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir.

SISTEMA - grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

STRUKTURA narsa hodisalar bog'lanishini, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir.

ELEMENT - sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir.

MOHIYAT - o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi.

HODISA - narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat.

SABAB - biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

ZARURIYAT VA TASODIF. Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va

tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa - zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.

IMKONIYAT VA VOQELIK - falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendentsiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

BILISH - insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli, natijasili bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Uningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir. Bilishning ikki shakli mavjud: 1. Kundalik (empirik). 2. Nazariy (ilmiy).

GNOSEOLOGIYA - asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi.

BILIM. Bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruriyatidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyat o'up asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyati jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

KUNDALIK (EMPIRIK) BILISH - kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilishga aytiladi. Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va

umumlashgan holda keyingi avlodga etkazish ancha mushkuldir.

NAZARIY (ILMIY) BILISH - insoniyatning taraqqiyoti davomidagi ilmiy faoliyatini o'rganadi. Bu bilan gneseologiya shug'ullanadi. Nazariy bilish to'rt xil turi mavjud: bilish ob'ekti, bilish sub'ekti, bilish maqsadi, bilish predmeti.

BILISH OB'EKTI. Tadqiqotchi, olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyat qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish ob'ektlari hisoblanadi. Bilish ob'ektlari moddiy ma'naviy, konkret, mavxum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish ob'ektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni kamrab oladi. Bilish ob'ektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

BILISH SUB'EKTI. Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va bugun insoniyat bilish sub'ekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari alohida bilish sub'ektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham bilish ob'ekti, ham bilish sub'eti sifatida namoyon bo'ladi.

BILISH PREDMETI - sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanparni bir-biridan farklashga imkon beradigan muhim belgidir.

BILISH MAQSADI. Ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir.

BILISH DARAJALARI - shartli ravishda quyi (hissiy) bilish, yuqoriy (akdiy) bilish, oliy (intuitiv, qalban, g'oyibona) bilishga bo'linadi.

HISSIY BILISH - bilishning quyi darajasi, barcha tirik mavjudotlarga xos. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

AQLIY BILISH (ratsional bilish) - bilishning yuqori bosqichi, faqat

insonlargagina xos. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. SHu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning mohiyatini ochib bera olmaydi.

INTUITIV BILISH (kalban, goyibona bilish) - bilishning oliy darajasi. O'zining butun borligini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, echimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin zgallab keldi. Har bir fan o'ziga xom bilish usullaridan foydalanadi.

MANTIQUIY BILISH - tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) orqali namoyon bo'ladi.

NAZARIYA - fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgari ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqazo qiladi.

XAQIQAT - inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Mantiq- arabcha so'z bo'lib, ma'nosi buyicha grekcha "logika" so'ziga muvofiq keladi. U - "logos"suzidan kelib chiqqan bo'lib,"fikir", "so'z","aql", "qonuniyat" kabi ma'nolarga ega."Mantiq"so'zi birinchidan,ob`ektiv olam qonuniyatlarini, ikkinchidan,tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va

taraqqiyotini, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni harakterlaydigan qonun-qoidalar yigindisini, uchinchidan tafakkur shakllari va qonunlarini urganuvchi fanni ifodalaydi.

Jamiyat – kishilar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi; tabiatning bir qismi; ijtimoiy borliq.

Fuqarolik jamiyati erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarishiga, turli tarkibiy elementlarning mustaqilligi va tengligiga asoslangani uchun sosal ziddiyat va konfliktlarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va munozaralar orqali tinch yo'l bilan hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Biosfera tushunchasini birinchi bo'lib avstriyalik olim, geolog Eduard Zyus iste'molga kiritgan va uni erning jonli qobig'i, deb ta'riflagan. Biosfera ta'limoti akademik Vladimir Vernadskiy (1863-1945) tomonidan rivojlantirilgan. Vernadskiy biosferani organizmlar tarqalgan Er sayyorasining jonli qobig'i, deb ta'riflagan. Biosferaning yuqori rivojlanish bosqichini, ya'ni tabiatning inson aqliy faoliyati sohasiga aylanishini noosfera, deb atagan

Geografik muhit muayyan tarixiy davrda inson va jamiyat hayoti kechadigan makon. «Geografik muhit» tushunchasi ijtimoiy falsafaga olimlar E.Reklyu va L.M.Mechnikov tomonidan kiritilgan. Geografik muhit inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiat elementlari majmuasi, ijtimoiy munosabatlar kechiradigan tabiiy makon.

«**Geopolitika**» atamasini fanga shvesiyalik olim R.CHellen olib kirdi. Bu atama 1-jahon urushi arafasida keng qo'llana boshlandi. Nemis olimi F.Retsel(1844-1904) davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati orasidagi o'zaro aloqadorlik masalasini ko'tardi. U xalqlarda «alohida makonni xis qilish» qobiliyati mavjudligini e'tirof etgani holda o'z chegaralarini kengaytirishga intilayotgan xalqlarga e'tibor qaratdi. K.Xausxofer (1869-1946) mohiyatan tajavuzkorlik tabiatiga ega bo'lgan «nemis millati hayotiy makoni» haqidagi gipotezani ishlab chiqdi.

“Qonun” tushunchasi yunon tilida “romos”, lotin tilida “lex”, ingliz tilida “law” soʻzlari bilan ifodalanib, bir tomondan, xuquqiy normalarni bildirsa, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatda insonning xoxish-irodasiga bogʻliq boʻlmaganholda yuzaga keladigan zaruriy muxim munosabatlarni aks ettiradi.

Texnika - mehnat predmetlariga taʼsir koʻrsatishning vositalari.

Texnologiya - mehnat predmetlariga fan va amaliyot imkoniyatlari, talablari asosida taʼsir etish. Texnikani qullash, undan foydalanish usullari texnologiya, deb yuritiladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar deganda moddiy neʼmatlarni ishlab chiqarishi jarayonining subʼektiv va predmetli elementlari nazarda tutiladi.

Urugʻ-etnik tarkibning dastlabki koʻrinishi hisoblanadi. Urugʻchilik insoniyat tarixining qadimiy davrlariga xos boʻlib, yashash uchun kurash, tashqi dushmandan saqlanish maqsadida qarindoshlik asosidagi birlashuv natijasida shakllangan. Urugʻchilikning iqtisodiy asosini erga jamoa egaligi tashkil etadi.

Qabila kelib chiqishi umumiy asosga ega boʻlgan, keyinchalik oʻzaro bir biridan farqlanadigan urugʻlardan iborat kishilarning tarixiy etnik birligi hisoblanadi.

Elat hudud, til madaniy jihatdan umumiylikka ega boʻlgan, iqtisodiy aloqalari shakllana boshlagan tarixiy etnik birlik hisoblanadi.

Millat – tarixan tarkib topgan, milliy birlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, anʼanalar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bogʻlangan kishilarning ijtimoiy barqaror birligi. Er yuzida 3 mingga yaqin millat boʻlib, u insoniyatning oʻrta hisobda 96 % birlashtiradi.

Urbanizasiya - shaharlashish, ijtimoiy hayotda shahar oʻrnining tobora ortib boruvini ifodalaydigan ijtimoiy jarayon.

Ruralizasiya qishloq hayotining ahamiyatini boʻrttirish asosida vujudga kelgan; qishloqlashuv, qishloq hayotiga qaytish maʼnolarini ifodalaydi.

Siyosat davlat miqiyosida va davlatlararo munosabatlarda amalga oshiriladigan, jamiyatni boshqarish bilan bogʻliq faoliyat. Koʻp hollarda «davlat siyosati» degan tushuncha keng qoʻllanadi.

Davlat insoniyat sivilizasiyasi rivojlanishining mahsuli va ko'rinishi, xalqlar va millatlar hayotini huquq va qonun asosida tashkil etishining siyosiy shaklidir.

Ijtimoiy psixologiya - keng ommaviy ong bo'lib, u bevosita modsiy ishlab shiqarish jarayonida paydo bo'ladi: odat, ko'nikma shakliga kiradi.

Prinsiplar ma'lum ma'noda o'z mohiyati bilan aksiomadir. Aksioma fanda isbotsiz qabul qilinadigan haqiqatdir. U «postulat» (isbotsiz asos qilib olinadigan qoida) g'oyalariga ancha yaqin atamadir. Bu tushunchalar o'z - o'zidan ma'lum bo'lgan va to'g'riligini, haqiqiyiligini isbotlash uchun dalil talab qilmaydigan tushunchalardir.

Fan ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o'zining ilmiy metodlari va metodologiyasiga ega bo'lgan, olamni bilish va o'zlashtirishning maxsus usulidir.

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. 53b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 484 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. 28 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma'naviyat, 2015, 176 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston, 1996-2016.

Asosiy:

6. Falsafa. Mamashokirov S tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
7. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida. -T.: UFMJ, 2006.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
9. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
10. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013 , 720 b
11. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
12. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.T.: Noshir, 2017
13. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-6
14. Sharipov M. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar

15. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 2003 yil.
16. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. – T., «Sharq» 2001 yil.
17. Aflotun. Qonunlar. / Rus tilidan Urfon Otajon tarjimasi. –T., “Yangi asr avlodi”, 2002 yil
18. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk.,- T., “Adolat”, 1997 yil.
19. Temur tuzuklari. -T., G`. G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1996 yil.
20. Otamurodov Sa'dulla, Otamurodov Sarvar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. – T., «Yangi asr avlodi», 2003 yil.
21. Tulenova G «Barkamol yosh avlod – istiqlol tayanchi»-T.: 2004.
22. Tulenov J, Tulenova G. “Istiqlol va millatlararo munosabatlar taraqqiyoti” – T.: 2005.
23. Tulenova G. “Ma'naviy yetuklikdan ijtimoiy faollik sari” – T.: 2008.
24. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. - Москва, 1992.
25. Jo'raev N.Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T., 2008 y.
26. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – T., “O'zbekiston”, 2012 yil.
27. Hakim Boboyev. O'zbek davlatchiligi tarixi.I kitob.-T., “Fan”, 2004yil.
28. Komilov N.Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. I kitob,-T., “Yozuvchi” nashriyoti,1996 yil.
29. Ш.Монтескье. Избранные произведения. -М.1995.
30. Otamurodov S. Globallashub va millat. -T.: 2008.
31. Azizov Sh, Azizova S. Ma'rifatparvarlik – ijtimoiy-madaniy hodisa. -T.: 2008. “ABU MATBUOT -KONSALT” nashriyoti.

32. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga.-T., 2002yil.
33. Sharifxo`jayev M. O`zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi.-T., “Sharq”, 2003yil.
34. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O`zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi muammolari.-T., 2009yil.
35. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. – T., 1997
36. Tulenov J. Dialektika nazariyasi- T., “O`zbekiston” , 2001.
37. Karimov I., Valieva S., Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo`llanma). - T., 2008 yil.
38. Karimov Ibrohim. Falsafa tarixi va nazariyasi. -T., 2007.
39. Karimov Ibrohim. Falsafa fanidan va`z matnlari. -T., 2013.

Elektron ta`lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. tdpu-INTERNET.Ped.

Mundarija

Kirish.....	
1-mavzu: Ijtimoiy falsafa, uning predmeti. Jamiyatni o'rganishda tizimli tahlil.....	
2-mavzu: Ijtimoiy falsafaning nazariy metodologik asoslari.....	
3-mavzu: Sharq va G'arb sivilizatsiyasida shakllangan ijtimoiy-falsafaiy ta'limotlar.....	
4-mavzu: Jamiyat ijtimoiy kategoriya sifatida.....	
5-mavzu: Jamiyatning tizimli tahlili.....	
6-mavzu: Jamiyal hayoti asosiy sohalarining tizimli tahlili.....	
7-Mavzu: Ijtimoiy ong va ijtimoiy bilishda tizimli tahlil.....	
8-Mavzu: Inson falsafasi.....	
9-Mavzu: Ijtimoiy falsafada erkinlik va ma'suliyat masalasi.....	
10 Mavzu: Ijtimoiy falsafada ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik mezonlari.....	
11-Mavzu: Ijtimoiy normalar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.....	
12-Mavzu: Sivilizatsiya, uning mohiyati va shakllari.....	
13-Mavzu: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar - sivilizatsiya taraqqiyot omili.....	
14-Mavzu: Globallashuv muammolarining tizimli tahlili.....	
I5-Mavzu: Vangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning o'ziga xos xususiyatlari: yutuqlar, imkoniyatlar va istiqhollari.....	
Glossariy.....	299
Foydalanilgan adabiyotlar.....	302

Nodir Kuziyev

IJTIMOIIY FALSAFA

O'QUV QO'LLANMA

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

M.Raximov

Sahifalovchi:

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 23.12.2023. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. «Palatino Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tabog'i 25,75 Adadi 20. Buyurtma № 327.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46